FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION, RESURSTEJAMKOR TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH HAMDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI” mavzusidagi

II XALQARO ILMIY ANJUMANI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

II QISM

18-19 aprel
FARG‘ONA-2025

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Farg‘ona davlat texnika universiteti

M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti

V.G.Shuxov nomidagi Belgorod davlat texnologiya universiteti

“ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION, RESURSTEJAMKOR TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH HAMDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI” mavzusidagi

II Xalqaro ilmiy anjumani

MATERIALLAR TO‘PLAMI

II qism

2025 yil 18-19 aprel

Farg'ona - 2025 yil

“Ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi II xalqaro konferensiya materiallari. Farg‘ona, 2025 yil, 438 bet.

II Xalqaro anjuman materiallari ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan tezislarni o‘z ichiga oladi. Har bir ishtirokchi o‘z tezisining grammatik, ilmiy va texnik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun shaxsan javobgardir. Tezislar asosan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar, kimyo sanoati va unga yaqin sohalarda innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan. Shuningdek, ushbu materiallarda qurilish ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sohasidagi yangi yo‘nalishlar hamda so‘nggi innovatsion yutuqlarga, kimyoviy sanoat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish kabi boshqa sohalarga oid ma’lumotlarga ham alohida o‘rin ajratilgan.

KONFERENSIYA TASHKILOTCHILARI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Farg‘ona davlat texnika universiteti
M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti
V.G.Shuxov nomidagi Belgorod davlat texnologiya universiteti
Farg‘ona viloyati hokimligining qo'llab-quvvatlashi bilan

TASHKILIY QO‘MITANING TARKIBI:

I. Jaxongirov	- Rais
Sh. Davlyatov	- rais o'rinbosari
Sh. Dehqonov	- rais o'rinbosari
A. Salimov	- rais o'rinbosari
B.A. Dadajonov	- rais o'rinbosari
R.X.Mirsharipov	- rais o'rinbosari
R.J. Tojiyev	- rais o'rinbosari
S. Zaylobiddinov	- rais o'rinbosari

QO'MITA A'ZOLARI:

Bozorov H.H.	– Farg’ona viloyati hokimi
Buzrukxonov S.	– OTFIV o’rinbosari
Mannonov D.E.	– “Indarama Farg‘onaazot” AJ
Teshaboyev Z.A.	– “FNQIZ”
Bo’riyev A.I.	– “Kvarts” AJ
Abduvaliyev T.T.	– “Quvasoysement” AJ

Kim A.V.	– “Quvasoyshifer” AJ
Axmadaliyev J.A.	– “Turon Eko sement guruhi” AJ
Muminjonov Sh. E.	– “UzSungwoo” AJ
Volnenko A.A.	– M. Auezov nomidagi JQU
Korganboyev B.N.	– M. Auezov nomidagi JQU
Bajirov T.S.	– M. Auezov nomidagi JQU
Xusanov A.E.	– M. Auezov nomidagi JQU
Nabiyev T.	– O‘zR FDTU
Xusanov Yu.	– O‘zR FDTU
Tojiboyev R.	– O‘zR FDTU
Xametov Z.M.	– O‘zR FDTU
Karimov I.T.	– O‘zR FDTU
Axunboyev A.A.	– O‘zR FDTU
Muhammadsodiqov K.D.	– O‘zR FDTU
Sadullayev X.M.	– O‘zR FDTU
Hakimov A.A.	– O‘zR FDTU
Ergashev N.A.	– O‘zR FDTU
Isomiddinov A.S.	– O‘zR FDTU
Sulaymonov A.M.	– O‘zR FDTU
Axrorov A.A.	– O‘zR FDTU
Muminov J.A.	– O‘zR FDTU
Rajabova N.R.	– O‘zR FDTU
Xalilov I.L.	– O‘zR FDTU
Xoshimov A.O.	– O‘zR FDTU
Xusanboyev M.A.	– O‘zR FDTU
Vohidova N.X.	– O‘zR FDTU
Shamsutdinov B.F.	– O‘zR FDTU
Ortiqaliyev B.S.	– O‘zR FDTU
Madaminova G.I.	– O‘zR FDTU
Abdulazizov A.A.	– O‘zR FDTU
Mamarizayev. M, w.	– O‘zR FDTU
Soliyev O.	– O‘zR FDTU
Qaxxorov I.	– O‘zR FDTU

XALQARO DASTURIY QO'MITA TARKIBI:

Asqarov I	–rais, Andijon davlat universiteti professori
Korganbaev B.N.	– rais, M.Auezova nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti professori
Tojiyev R.J.	– rais o‘rinbosari, texnika fanlari doktori, prof FDTU
Volnenko A.A.	– rais o‘rinbosari, texnika fanlari doktori, prof. M. Auezov nomidagi JQU

QO'MITA A'ZOLARI:

Abdurahmonov K.X. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi	– G.V.Plexanov nomidagi RIUTF
Namozov Sh.S. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi	– O‘zR FA UNKI
Turabjonov S. M., O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi	– O‘zR TDTU
Zokirov B.S. Texnika fanlari doktori, prof.	– O‘zR FA UNKI
Nurmuhammedov X.S. Texnika fanlari doktori, prof.	– O‘zR TKTI
Glagolev S.N. Iqtisodiyot fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Alimatov B.A. Texnika fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Bogdanov V.S. Texnika fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Gerasimov M.D. texnika fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Duyun T.A. Texnika fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Romanovich A.A. Texnika fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Sivachenko L.A. Texnika fanlari doktori, prof.	– RF BDTU
Abiyev R.Sh. Texnika fanlari doktori, prof.	– RF SPPU
Abzambarov A.A.	– M. Auezov nomidagi JQU
Xusanov J.E.	– M. Auezov nomidagi JQU
Asqarov I.R. Kimyo fanlari doktori, prof.	– O‘zR ADU
Qodirov A.M. Iqtisodiyot fanlari doktori, prof.	– O‘zR TDIU
Ibragimov A. Kimyo fanlari doktori, prof.	– O‘zR FDU
Yo‘ldoshev N.X. Fizika-matematika fanlari doktori, prof.	– O‘zR FDTU
Qosimaxunova A.M., texnika fanlari doktori, professor	– O‘zR FDTU
Rasulov A.M., fizika-matematika fanlari doktori, prof.	– O‘zR FDTU
Mirsalimova S.R. kimyo fanlari nomzodi. Prof.	– O‘zR FDTU
Karimov I. prof	– O‘zR ADU
Fayzimatov Sh.N. Texnika fanlari doktori. Prof.	– O‘zR FDTU
Abbosov Y.S. Texnika fanlari doktori. Prof.	– O‘zR FDTU
Ismanov I.N. Iqtisodiyot fanlari doktori, prof.	– O‘zR FDTU
Dodoboyev Yu. Iqtisodiyot fanlari doktori, prof.	– O‘zR GNS
Ibragimov O.O. Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, prof.	– O‘zR FDTU
Yuldashev G. Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, prof.	– O‘zR FDU

Anjuman ishtirokchilariga murojaat

Assalomu alaykum, hurmatli, anjuman mehmonlari va ishtirokchilari!

Sizlarning barchangizni – “Ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi anjuman yuzasidan samimiy qutlab, uni ochib berish men uchun katta sharafdir. Avvalo shuni ta’kidlashni istardimki, ushbu anjumanda taqdim etilayotgan ma’ruzalar darajasi nihoyatda yuqori va bu yerda to‘plangan olimlarning tarkibi ham juda nufuzli hisoblanadi.

Bugungi anjuman dasturiy qo‘mita tarkibiga Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyalari hamda jahonning kuchli TOP-1000 taligiga kiruvchi nufuzli oliy ta’lim muassasalarining “Kimyoviy texnologiya jarayonlari va apparatlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish texnologik mashinalari va u bilan bog‘liq sohalar” bo‘yicha yetakchi mutaxassislari kiritilgan.

Umuman olganda, bugun va ertaga bo‘lib o‘tadigan seksiyalar, davra suhbatlari hamda masofaviy ilmiy ma’ruzalarni hisobga olgan holda, qurilish materiallari hamda kimyo sanoati va unga yaqin sohalar bo‘yicha 150 dan ortiq olim va mutaxassislar o‘z ma’ruzalari bilan chiqish qiladilar va innovatsion texnika va texnologiyalarni zamonaviy sanoat ishlab chiqarishiga joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar natijalari bilan o‘zaro fikr almashadilar.

Bu bizning universitetda o‘tkazilayotgan navbatdagi xalqaro konferensiya bo‘lib, zamonaviy innovatsion texnika va eng ilg‘or, energiya tejamkor innovatsion texnologiyalarni qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar, kimyo sanoati va unga yaqin tarmoqlarga joriy etish bo‘yicha dolzarb masalalarga bag‘ishlangan.

Konferensiya ishida dunyoning eng yetakchi TOP-1000 oliy ta’lim muassasalari qatoriga kiruvchi M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog’iston universitetining taniqli olimlari ham ishtirok etmoqdalar.

Ishonamanki, ushbu konferensiya bizni turli sohalarda hamkorlik qilish yo‘lida yanada yaqinlashtiradi.

Quvonarlisi shundaki, yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari Farg‘onada jam bo‘lib, o‘zlarining ilmiy yutuqlari, professional bilimlari bilan o‘rtoqlashmoqdalar, dolzarb muammolarni muhokama qilmoqdalar. Bu esa, albatta, kimyoviy jarayonlar va apparatlar, atrof-muhit muxofazasi, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining mexanik uskunalari va boshqa tegishli sohalarda ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

Umid qilamanki, o‘tkazilayotgan anjuman yuqori malakali olimlar va mutaxassislar o‘rtasida tajriba almashish va foydali aloqalarni kengaytirish, texnik va amaliy fanlarning istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirish, texnologik uskunalarni yaratish, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha to‘plangan bilimlarni tarqatish, shuningdek, zamonaviy fan va texnikaning dolzarb masalalarini hal qilishda yosh mutaxassislarni jalb qilishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, anjuman tadbirlarida yosh olimlar va mutaxassislar, doktorantlar, magistrantlar hamda yuqori kurs talabalari faol ishtirok etayotganini alohida ta’kidlamoqchiman. O‘ylaymanki, ular uchun ushbu anjumanda ishtirok etish ilm-fan sari ilk qadamlari bo‘ladi!

Yana bir bor barchangizni anjuman bilan tabriklayman!

Ikkinchi Xalqaro anjumanning barcha ishtirokchilariga muvaffaqiyatli va samarali ish olib borishlarini tilayman!

Farg‘ona davlat texnika universiteti rektori v.v.b.
Tashkiliy qo‘mita raisi I. Jaxongirov.

4-SHO'BA - Sanoat sohalarida materiallarni dastlabki qayta ishlash hamda texnologik transportlash masalalari

TO'QIMACHILIK MATERIALLARINI AVTOMOBIL O'RINDIQLARI UCHUN TANLASH VA ULARNING EKSPLUATATSION VA IJTIMOIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Esanova Shazoda Mamirovna
E-mail: shmesanova@gmail.com
Andijon texnika instituti, *Uzbekistan, Andijan*

To'qimachilik materiallari avtomobil ishlab chiqarish uchun materiallarning katta qismini texnik to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari tashkil etadi. Agar biz zamonaviy avtomobilni diqqat bilan ko'rib chiqsak, to'qimachilik materiallari hamma joyda- ichki bezakda, yukxonada, xavfsizlik tizimlarida (yostiq va kamarlarda), umumtexnik maqsadlar uchun uzellar va agregatlarda mavjudligini ko'ramiz. Ichki pardozlash materiallari eshik qoplamasi, yukxonaning ichki yuzasi, pol, qo'lqop qutisi, tomning ichki yuzasi, kuzovlarida tom qopqog'i, o'rindiq qoplamasi. Barcha solon elementlari ham funktsional, ham dekorativdir.

SHunday qilib, qoplamalar salonni issiqlik va ovoz izolyatsiyasi uchun mo'ljallangan va oxirgi vaqtda ushbu maqsad (ayniqsa, chet elda)ga tobora ko'proq e'tiborga berilmoqda va bu o'z mevasini bermoqda - xorijiy avtomobillarning kamshovqinli bo'lishi nafaqat izolyatsiyalashning balki, dvigatel va transmissiyaning ishlashi, shuningdek, maxsus pardozlash materiallarini ehtiyotkorlik bilan tanlash va maqsadli ishlab chiqish natijasidir. Avtomobil shovqini bir qator omillarning ta'siriga bog'liq, turli chastotalardagi shovqin manbalarining ko'pligi sababli, eshiklar, tomning ichki qismi va avtomobil pollari hajmli kompozit materiallar bilan qoplangan. Bunday materiallar tovushni yutuvchi bo'lib, to'qimachilik dekorativ mato bilan yopishtirilgan qatlamdan iborat. Bunday tovushni susaytiruvchi kompozitsion qatlamining sirt zichligi 800-2500 g /m^2 bo'lgan aerodinamik yoki mexanik xolstsimon to'qilmagan matodir, bunday material esa sezilarli mexanik kuchga ega bo'lishi kerak. Bunday xolstni ishlab chiqarish uchun murakkab tarkibli tolali aralashmalari ishlatiladi, aralashmalar tarkibiga polipropilen, poliester tolalari, avtomobil qoplamasi chiqindilaridan olingan tolalar, qayta ishlangan paxta tolasi, shuningdek shisha tolalar ham kiradi. So'nggi yillarda tarkibiy qismlarga chiziqli zichligi 0,9 dteks bo'lgan qo'shimcha qo'shildi, xolstlar esa termik mahkamlash yoki igna teshish (tikma) yo'li bilan mahkamlanadi. Bundan tashqari, quyidagi kompozitsiyaning tarkibi avtotransport vositalarining ichki qismini izolyatsiya qilish uchun dolzarb bo'lib qoldi: paxta tolali

xolst, rays-paxta aralashmali tola tutamlari, bikomponentli va qayta tiklangan poliester tolalar, armirlovchi tutgich bilan yopishtirilgan, ko'pincha bir vaqtning o'zida dekorativ element ham hisoblanadi.

Shovqinni yumshatishda maxsus yuk avtomobilning pastki qismini izolyatsiyalash orqali qabul qilinadi, bu nafaqat izolyatsion, balki zarbani yutuvchi funktsiyani ham bajarishi kerak. Bundan tashqari, qoplamaning yuqori egiluvchanligi bilan, ikkinchisining yemirilishi kamayadi, shuning uchun u odatda kompozitlar shaklida ishlab chiqariladi. Bunday materiallarda po'kak(ko'pik)li materiallar yoki turli to'ldiruvchi moddalari bo'lgan tolali bo'yralar ko'p qismini egallaydi, bu qatlamlar mustahkamlovchi qatlam bilan yopishtiriladi va pol gilam bilan qoplanib berkiladi.

Ushbu sohadagi hozirgi tendentsiyalar ishlatiladigan materiallar ko'lamini kengaytirish, birlamchi va keyingi ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish bilan bog'liq.

Avtomobillarning turli qismlarida materiallari tarkibiy va pardozlashda polimer iste'moliga nisbati yo'nalishini ko'rish mumkin [1]:

* o'rindiqlar — 12%;
* elektr zanjirlarining tarkibiy qismlari-7%;
* yoqilg'i tizimlari-7%;
* dvigatel bo'lmasi — 6%;
* yoritish muhandisligi-5%;
* elektrotexnika — 2%;
*kuzov panellari, ichki qismlar, oynalar, yo'lovchilar xavfsizligi tafsilotlari — 59%.

Belgilangan guruhlar ichidagi polimer kompozit materiallarni iste'mol tuzilishi birtarkibli emas:

* elektrotexnika;
* yoritish uskunalari;
* dvigatel bo'lmasi;
* yoqilg'i tizimlari va elektr tizimlarining tarkibiy qismlari (xom ashyo 95%, boshqa komponentlar — 5%);
* o'rindiqlar (xom ashyo — 20%, boshqa komponentlar — 80%, aksariyat qismlar sotib olinadigan avtomobil komponentlarini ishlab chiqarishning yagona segmenti).

Jahon iqtisodiyotida avtomobilsozlik qayta manbalar-moliyaviy, moddiy va mehnatdan foydalanish ko'lami bo'yicha tarmoqlar orasida birinchi o'rinda turadi. U mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi: moddiy resurslarni katta iste'mol qiladi. Masalan, 1000 ta o'rta sinf avtomobillarini ishlab chiqarish uchun 620 tonna po'lat, 70 tonna quyma temir, 50 tonna alyuminiy, 25 tonna mis

qotishmalari, 80 tonna plastmassa, 72 tonna sanoat kauchuk mahsulotlari, 28 tonna avtomobil oynasi va to'qimachilik mahsulotlari kerak, [3] .

Zamonaviy avtomobilsozlik texnik matolar va to'qilmagan matolarning keng turini talab qiladi. Ularni qo'llash doirasi maxsus xususiyatlar to'plami, xom ashyo tarkibi va material turiga bog'liq.

Rasm -1. Volvo XC 90 o'rindiqlari qattiq ob'ekt sifatida, biroq u qanday qilib ko'p qismlarga ega bo'lgan murakkab konstruktsiyaga aylanishini ko'rsatadi, [3].

To'qimachilik materiallarini tuzilishi ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq. To'qimachilik materiallarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan tolalar va iplar, qoida tariqasida, polimer xarakterga ega va tabiiy bo'lishi mumkin (zig'ir, paxta va boshqalar.), sun'iy (tsellyuloza) va sintetik (poliamid, poluester, va hokazo).

To'qimachilik materiallari zamonaviy avtomobilsozlik sanoatida yo'lovchilarning qulayligi va xavfsizligini ta'minlash uchun keng qo'llaniladi. O'rta sinf avtomobillarida ulardan foydalanish hajmi bo'yicha 2-3% ni tashkil qiladi va doimiy ravishda o'sib bormoqda.

2010 yilda bunday avtomobildagi barcha to'qimachilik materiallarining massasi 22 kg tashkil etgan bo'lsa, to'qimachilik materiallaridan foydalanish 2020 va 2023 yillarda mos ravishda 28 va 35 kg.gacha o'sishi rejalashtirilgan va erishildi. 1-jadvalda o'rta sinf avtomobilida to'qimachilik materiallaridan foydalanish hajmi haqidagi taxminlar ko'rsatilgan.

1-jadval

To'qimachilik materiallarini yengil avtomobilda qo'llash turlari va hajmi

Materiallar turi	Qo'llangandagi hajmi, kg
Sirtlar uchun qoplama	1,6

Pol qoplamalari(gilam)	3,5
SHovqin yutuvchi	4,6
O'rindiq qoplamalari	3,9
SHina kordlari	1,6
Xavfsizlik kamarlari	0,9
Xavfsizlik yostiqlari	1,8
Filьtrlash, isitish va boshqalar	2,2

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bu yo'nalishdagi ishlar uchun xom ashyo resurslari yetarli bo'lib, soha olimlarini ishlab chiqarish korxonalari mutaxassislari bilan hamkorlikda innovatsion grantlar asosida ilmiy izlanishlarni chuqurroq va jadallik bilan olib borishni taqoza etadi.

To'qimachilik materiallaridan foydalanishni yanada oshirish avtomobilning yostiqlari va o'rindiqlarini ishlab chiqarishda poliuretan ko'pik o'rniga quyma to'qilmagan materiallardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu nafaqat uning qulayligini oshiradi, balki utilizatsiya paytida materiallarni qayta ishlashni ham osonlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Esanova SH.M., X.A.Alimova. Uchqatlangan qoplama materiallariga bo'lgan avtomobilsozliktalablari tahlili. O'zbekiston to'qimachilik jurnali// №2 2020, 40-45
2. https://www.google.com/url=https//www.drive.ru//
3. *Esanova Sh.M.* The formation of consumers' and technical requirements for textile auto components//Universum:Технические науки.июль, 2021г.
4. Esanova SH.M., X.A.Alimova. Avtoto'qima matolarning o'ziga xos xususiyatlarini tanlash va ularni ishlab chiqarish xolati. . O'zbekiston to'qimachilik jurnali// №1 2022, 42-51 b.
5. Sautenkova V.A. Tekstilьnые avtomobilьnые obivochnые materialы i trebovaniya k nim // Avtomobilьnaya promыshlennostь.- 1980, №9- S. 37-39.
6. Sautenkova V.A., Samoylova JI.B. Obivochnые tekstilьnые materialы v interьere ATS // Avtomobilьnaya promыshlennostь- 1987,№1-S. 27-29.
7. Sautenkova V.A., Kalinina L.X. Tekstilьnые materialы s sintetikoy // Avtomobilьnaya promыshlennostь - 1988, №2.- S. 27.
8. Sklyannikov V.P. Potrebitelьskie svoystva tekstilьnых tovarov. M.: Ekonomika, 1982 — 160 s.
9. Sklyannikov V.P. Stroenie i kachestvo tkaney. M., 1984.
10. Sklyannikov V.P. Optimizatsiya stroeniya i mexanicheskix svoystv tkaney iz ximicheskix volokon. M., 1984.

HO‘L USULDA ISHLOVCHI APPARATNI CHANG TOZALASH DARAJASINI TAJRIBAVIY ANIQLASH

dots. Ergashev H.A., talaba Tursunova M.Z.
Farg‘ona davlat texnika universiteti Farg‘ona shahar, O‘zbekiston
nasimbek1976@gmail.com

Yangi ishlab chiqilgan changli gazlarni tozalovchi apparatning tajriba modelida tozalash jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy ishchi faktorlar belgilandi (1-rasm) [1]. Apparatdagi gaz tezligi, gaz sarfi, suyuqlik sarfi, gidravlik yo‘qotish, hamda apparatning mahalliy qarshiligi tajribalar asosida aniqlandi. Apparatga uyurmali xarakat beruvchi kontakt element tanlandi. O‘tkazilgan nazariy hamda eksperemental tadqiqotlar asosida apparatga dastlabki talablar va texnik topshiriqlar ishlab chiqildi.

Changli gazni tozalash samaradorligini beligilash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba sinovlari Farg‘ona politexnika instituti “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasining o‘quv poligoni hamda «KVARTS» AJ ning xom ashyo tayyorlash sexida o‘tkazildi.

Gaz tarkibidagi dolomit changini tozalash bo‘yicha tajriba sinovlari o‘tkazildi.



1.1-rasm. Changli gazlarni tozalovchi apparat umumiy ko‘rinishi.

«KVARTS» AJ xom ashyo sexidagi barabanli quritgichdan chiqayotgan dolomit changini changli gazlarni ho‘l usulda ishlovchi apparatda tozalash samaradaorligi bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Sanoat sinovlarini

o'tkazishda quyidagi parametrlar gaz oqimiga uyurmali oqim hosil qiluvchi kontakt elementlarning ishchi organi qiyaligi α=30º; 45º va 60º, suyuqlikni sochuvchi shtuser teshigining diametri d_{sh}=2; 2,5 va 3 mm, apparatdagi gaz tezligi υ_g=7,07÷28,37 m/s oralig'ida, apparatga berilayotgan suyuqlik sarfi 70÷189,2 l/soat tanlandi. Tashqi muhit harorati 20±2 ºS, barabanli quritgichdan chiqayotgan changli gazning harorati dolomit changi uchun 65÷80 ºS.

Tajribalarning ko'p omilliligi hisobga olinib apparat tozalash samaradorligi va energiya iste'molini aniqlashda matematik rejalashtirish usulidan foydalanish belgilandi [2,3,4]. Unga ko'ra o'zgaruvchi omillar sifatida tanlangan shtutser teshigining diametri (X_1), suyuqlik sarfi (X_2), kontakt element parraklarining qiyalik burchagi (X_3) va gaz tezligi (X_4) apparatning tozalash samaradorligiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillar ekanligi aniqlandi hamda omillarning o'zgarish oraliqlari belgilandi. 1.1-jadvalda omillarning sathlari va o'zgarish oraliqlari keltirilgan.

1.1-jadval

Omillarning sathlari va o'zgarish oraliqlari

№	Omillar	O'lchov birligi	Omil-larni belgi-lanishi	O'zga-rish oralig'i	Omillarning sathlari		
					quyi (–1)	asosiy (0)	yuqori (+1)
1.	Shtutser teshigining diametri	mm	X_1	0,5	2 mm	2,5 mm	3 mm
2.	Suyuqlik sarfi	m^3/soat	X_2	0,054	0,07	0,124	0,178
3.	Kontakt element parraklarining qiyalik burchagi	gradus	X_3	15º	30º	45º	60º
4.	Gaz tezligi	m/s	X_4	10,61	7,07	17,68	28,3

Aniqlanadigan mezonlar sifatida tozalash samaradorligi (Y_1) va sarflanadigan energiya (Y_2) deb qabul qilindi.

Aniqlanadigan mezonlarga o'zgaruvchi omillarning ta'sirini ikkinchi darajali polinom to'liq yoritib beradi deb hisoblab, tajribalar HARTLI-4 rejasi asosida amalga oshirildi [5].

Aniqlanadigan mezonlarga nazorat qilinmaydigan omillarning ta'sirini kamaytirish uchun tajribalarni o'tkazish ketma-ketligi tasodifiy sonlar jadvalining 1/17 ko'rinishidan foydalanib belgilab olindi. Dolomit changini tozalash samaradorligining maqbul parametrlarni aniqlash uchun tajribalar 5 marotabadan alohida-alohida takrorlangan holda o'tkazildi. Olingan tajriba natijalarining o'rta arifmetik qiymatlari tanlandi. Tozalash darajasini belgilashda ko'p tarkibli ANKT-410 markali gazoanalizator apparatidan foydalanildi. Tajriba natijalariga tegishli tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari "PLANEX" programmasining HARTLI-4 dasturi bo'yicha olindi va

o‘zgaruvchi omillarning baholash mezonlariga bog‘liqlik grafiklari qurildi (1.2-rasmlar).

Unga ko‘ra: Apparatda dolomit changini tozalash samaradorligi quyidagi regressiya tenglamasi bo‘yicha aniqlanadi, %

$$Y_1=+99,827+0,187X_1+2,031X_2+0,145X_3-0,217X_4+0,067X_1X_1-0,085X_1X_2+$$
$$+0,166X_1X_3+0,000X_1X_4-1,963X_2X_2+0,200X_3X_3-0,386X_2X_4-0,186X_3X_3+$$
$$+0,000X_3X_4-0,145X_4X_4 \qquad (1.1)$$

Dolomit changini tozalash jarayoni uchun olingan regressiya tenglamalaridan foydalanib tozalash samaradorligining apparatdagi o‘zgaruvchan omillarga bog‘liqlik grafiklari qurildi. Natijalar 1.2, *a, b* -rasmlarda keltirilgan.



A *b*

1.2-rasm. Tozalash samaradorligining o‘zgaruvchi omillarga bog‘liqligi

A – tozalash samaradorligining gaz tezligiga bog‘liqligi; *b* – tozalash samaradorligining suyuqlik sarfiga bog‘liqligi.

Olingan regressiya tenglamalari (1.1-tenglama) va grafiklar (1.2-rasmlar) tahlilidan ko‘rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, suyuqlik sarfi, changli gaz tezligi, shtutser teshigining diametri va kontakt elementning qiyalik burchagi o‘rganilayotgan omillarga nisbatan murakkab bog‘liqlikda bo‘lar ekan.

Shunday qilib, namuna uchun tanlangan changni tozalash jarayoni uchun apparatning maqbul parametrlari standart holatga keltirildi va uni quyidagicha yozish mumkin.

Dolomit changini tozalash jarayoni uchun:

1) Shtuser teshigining diametri d_{sh}=2,6 mm; 2) Suyuqlik sarfi Q_{cuyu}=0,138 m^3/soat; 3) Kontakt element parraklarining qiyalik burchagi, α=44^o; 4) Changli gaz tezligi, υ=20,4 m/s;

O‘tkazilgan tajriba tadqiqotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki o‘zgaruvchi omillarning bu qiymatlarida apparatning tozalash samadorligi 99,46 % va gidravlik qarshiligi 1250,7 Pa ni tashkil etdi. Tajriba natijalariga ko‘ra, tozalash samaradorligi mavjud changli gazlarni tozalovchi apparatlarga nisbatan dolomit changi uchun 5,43 % ga yuqori, 1 m^3 havoni tozalash uchun sarflanadigan suyuqlik

2,5 barobarga kam sarflanishi aniqlandi. Tajribalarda olingan natijalar shu turdagi apparatlarga qo‘yiladigan texnik talablarni to‘liq qanoatlantirdi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimatov B.A., Ergashev N.A., Karimov I.T. “Kontakt elementi buralgan yo‘ldosh quyunli rejimda ishlovchi ho‘l usulda chang tozalovchi apparat”, FarPI, “Ilmiy-texnika” jurnali, 2019 y №2-son, 149-152-bet:
2. K.Sh. Latipov. «Gidravlika, gidromashina, gidroyuritmalar» Toshkent, O‘qituvchi, 1992 y.75-80 betlar.
3. А.И. Кобзар Прикладная математическая статистика. Для инженеров и научных работников–Москва: Физматлит, 2006.–816 с.
4. Н.А. Эргашев, (2020). Исследование гидравлического сопротивления пылеулавливающего устройства мокрым способом. Универсум: технические науки, (4-2 (73), 59-62.
5. Н.А. Эргашев Научно-технические основы исползования в промышленности аппарата для мокрого пылеулавливания и газоочистки Дисс. … Кандидат наук. - Ташкент, 2021. - 116 с.

YUQORI TEZLIKDA TIG‘LI ISHLOV BERISHDA METALL TARKIBIDAGI QOLDIQ KUCHLANISHNI TADQIQ ETISH JARAYONLARI

Abdullayev B.I., G‘afurov A.M.
baxodir.abdullayev1986@gmail.com
Andijon davlat texnika instituti, O‘zbekiston

Sirt qatlami fiziq holatining bazaviy xarakteristikalaridan biri, qoldiq kuchlanishning belgisi va qiymatidir, ya’ni detalga qo‘yilgan kuchni olinganidan so‘ng sirt qatlamining ichidagi kuchlanish muvozanatlanadi. Qoldiq kuchlanish detallarning charchashga mustahkamligi va chidamlilik chegarasini o‘zgartirib agregatlarning ish resursiga muhim salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘zgaruvchan yuklanishda ishlaydigan mahsulotlarda yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Sirt qatlamida qisuvchi qoldiq kuchlanishning mavjudligida chidamlilik chegarasi va agregatning ish resursi odatda ortadi, cho‘zilishga qoldiq kuchlanish esa uni pasaytiradi [1]. Qoldiq kuchlanish detallarning ish resursiga ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, mahsulotni tob tashlashi natijasida mexanik ishlov berish texnologik jarayonini murakkablashtiradi. Bu tob tashlash toza ishlov berish uchun qo‘yimlarni katta miqdorda qo‘yilishi natijasida o‘ta murakkablashuviga olib keladi. Qoldiq kuchlanish turli maydonlarning (kuch, harorat va boshq.) detalning sirt qatlamida

qayta taqsimlanishi va dislokasiyalarni yo‘naltirilishi va kristall panjaraning og‘ishi natijasida paydo bo‘ladi [2].

N.N. Davidenkov qoldiq kuchlanishni 3 turga ajratadi:

birinchi turga – deformasiyalanuvchi jism xajmida o‘zaro muvozanatlanuvchilar;

ikkinchi tur yoki makrokuchlanish bir nechta donachalar xajmida muozanatlanuvchilar;

uchinchi turga yoki submikrokuchlanish – bir donacha xajmida muvozanatlanuvchilar. Birinchi turdagi qoliq kuchlanish mexanik ishlov berishda metalning notekis plastik deformasiyalanishi va metal sirt qatlamining lokal notekis qizishi natijasida paydo bo‘ladi. Kelgusida metall sirt qatlami qoldiq kuchlanishi, ularning belgisi va qiymati 3 ta omilga: deformasiya darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi kesish kuchi; kesish zonasida hosil bo`ladigan issiqlik miqdori; metallning struktra-fazali o‘zgarishiga bog‘liq deb hisoblaymiz. Yuqorida keltirilgan hodisalarning superpozisiyasi sirt qatlamidagi qoldiq kulanishlarning taqsimlanish xarakterini aniqlaydi [3].

Birinchi turdagi qoliq kuchlanish mexanik ishlov berishda metalning notekis plastik deformasiyalanishi va metal sirt qatlamining lokal notekis qizishi natijasida paydo bo‘ladi. Kelgusida metall sirt qatlami qoldiq kuchlanishi, ularning belgisi va qiymati 3 ta omilga:

deformasiya darajasiga;

ta’sir ko`rsatuvchi kesish kuchi;

kesish zonasida hosil bo`ladigan issiqlik miqdori;

metallning struktra-fazali o‘zgarishiga bog‘liq deb hisoblaymiz. Yuqorida keltirilgan hodisalarning superpozisiyasi sirt qatlamidagi qoldiq kulanishlarning taqsimlanish xarakterini aniqlaydi [4].

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Fayzimatov Sh.N., Khusanov Y.Y., Abdullaev B.I., Ensure the quality of the surface layer of parts in highs – peed end milling of hardened steels. Web of scientist: International scientific research journal ISSN: 2776 – 0979, Volume 3, Issue 3, Mar., 2022 Pages: 13 – 27.

2.Абдуллаев Б.И., Тобланган пўлатларни юқори тезликда фрезалашда қўлланиладиган асбобсозлик материаллари. Наманган мухандислик-технология институти илмий-техника журнали ISSN: 2181-8622. Том 6, Махсус сон № 2, 2021.www.nammti.uz :

3.Ю.Ю.Хусанов., Абдуллаев Б.И., Обеспечение качества поверхностного слоя деталей при высокоскоростном торцевом фрезеровании закаленных сталей. Scientific-methodical journal of “Scientific progress” ISSN: 2181 – 1601, Volume 3, Issue 3, 2022. Pages: 13 – 27.

4.Fayzimatov Sh.N., Abdullaev B.I., Yusupov S.M., *(2020).* Increasing Durability of Working Elements of Dividing Dies. International *Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 4, April 2020 (13453-13456).* www.ijarset.com
5.Абдуллаев Б.И., Ensure the quality of the surface layer of parts in highs – peed end milling of hardened steels. Наманган мухандислик-технология институти илмий-техника журнали ISSN: 2181-8622. Том 7, Махсус сон, № 1, 2022 www.nammti.uz Бет: 339-350.
6.Ш.Н.Файзиматов., С.Юсупов., Абдуллаев Б.И., Штамплаш жараёнида симметрик деталга шакл беришда қисмларнинг деформацияланиш жараёнини ўрганиш тадқиқоти. Фарғона политехника институти илмий-техника журнали ISSN: 2181-7200. Том 24, Махсус сон, № 1, 2020. Бет: 21-24.
7.Ш.Н.Файзиматов., У.Р.Солиевич., Абдуллаев Б.И., Деталларга юқори теликда ишлов бериш билан унумдорликни ошириш. Scientific-methodical journal of "Scientific progress" ISSN: 2181 – 1601, Volume 3, Issue 5, 2022. Pages: 96-103.

PILLANI DASTLABKI ISHLASH BAZALARI TEXNOLOGIYASI VA JIHOZLARI.

Mo'minov Omadjon Zuxriddin o'gli – doktarant, ADTI
Alisherova Marg'uba Madaminjon qizi – assisent, ADTI
Sulaymonov SHarifjon Abdumanobovich –t.f.f.d.das,ADTI

Ipakchilik xomashyo manbasining ko'payishi pillakashlik korxonalarini quvvatini oshishiga sabab bo'ldi. Ma'lum davr korxonalarda mexanik dastgohlar qo'llanilgan bo'lsa, fan texnika rivoji avtomat pilla chuvish dastgohlarini yaratilishiga va ularni ishlab chiqarishga tadbiq qilinishiga olib keldi. Hozirgi davrda pilla chuvish dastgohlarini 74 % ni avtomatlar tashkil qiladi. Urganch, Shahrisabz, Marg'ilon, Namangan, Buloqboshi korxonalarida yapon pilla chuvish avtomatlari ishlab chiqishga tadbiq qilingan. Ipakchilik sanoati O'zbekistonda asosiy sanoat sohalaridan biri bo'lib, to'quvchilik korxonalariga xomashyo tayyorlaydi. Ipakchilik sanoatining asosiy mahsulotlariga: Tut ipak qurti pillasi; Pilladan chuvib olingan xom ipak (1,56; 1,86; 2,33; 3,23; 4,56 teks yo'g'onlikdagi) assortimentlari; eshilgan ipak iplari (jarrohlik, tikuv iplari); Shakldor ipak iplari; Yigirilgan ipak iplari; Maxsus sohalar uchun (elektrotexnika, harbiy, kosmos) tayyorlangan ipak iplari. Shoyi to'qish sanoati asosan, ipak gazlamalar (xon atlas, krepdeshin, krepjorjet va shifon, tasma, gilam) ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. O'zbekistonda yuqori sifatli yangi mahalliy zot va duragaylarni yaratish bo'yicha qator tadqiqot ishlari olib

borilmoqda. Ipak va boshqa tolalar bilan aralashgan matolar ishlab chiqish bo‘yicha yangi assortimentlar, trikotaj liboslar yaratilmoqda. Bundan tashqari tabiiy ipakning mustahkamligi, gigroskopik xususiyatlarini hisobga olib, sof ipakdan choyshablar, paypoqlar, jarrohlik va tikuv iplari ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilmoqda. Pillalarni tayyorlash deb, tashkil qilish va amalga oshirish uchun kerak bo`lgan, pillakashlardan tirik pillalarni sotib olib qabul qilish, sifatiga baho berish, hisobga olish, saqlash va tirik pillalar partiyasini pillalarni dastlabki ishlash bazasiga pillani dastlabki ishlash bazasiga tashish jarayonlar yig`indisiga aytiladi. Pillalarni o`ldirish va quritishdagi barcha jarayonlar pillalarni dastlabki ishlash pillani dastlabki ishlash deb ataladi, bu jarayonlarni bajarish joyi esa – baza yoki pilla quritgich deb ataladi.

Pillalar dastalardan to`liq pishgan taqdirdagina, ya`ni qurt pillani o`rab boshlagandan 7-9 kundan keyin yig`ib olinadi. Pillalarni erta yig`ib olish, ularning texnologik xususiyatlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bu dog`li pillalarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Yetilgan pillalar deb, qurtni butunlay g`umbakka aylanishi tamomlangan pillalarga aytiladi. Pilla g`umbagi to`liq pishganda, to`q qizg`ish rangga ega bo`ladi. Mavsum davomiyligi pillalarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Qanchalik shu jarayon qisqa bo’lsa, shunchalik dastlabki ishlashni sifatli bo’lishi uchun ko’p dastgohlar talab etiladi va g’umbakni o’ldirib quritish agregatlari va boshqa dastgohlar FKKti kamayib ketadi. Mavsum davomiyligi 15 kun bo’lganda dastgohning FKKti 0,042ni tashkil etadi xolos, 30 kunda-0,083. Tayyorlash mavsumining davomiyligi, ipak qurti zotiga, boqish usuliga tezkorlik bilan boqilganda mavsum qisqa, atrof-muhit ta’siri va urug’larni tarqatish tempiga bog’liq. Pillalarning tayyorlash tempi, tayyorlashning «pik» kunlari kelganda, pillalar miqdori, «pik» kunlari qabul qilingan, normal taqsimlash qonuniga bo’ysinadi. Pillalarning tayyorlash tempini hisoblashda, urug’ni o’z vaitida ho’jaliklarga tarqatish va tempni rejalashtirishga amal qilish, pillani dastlabki ishlash bazasiga xizmat ko’rsatish, tayyorlash mavsumining davomiyligi, bitta urinishda pillalarni butunlay quritish rejimida ishlovchi o’ldirib-quritish dastgohini mavjudligi va o’tkazish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi.

Tayyorlov punktlari pillani dastlabki ishlash bazasida tashkillashtirilib, faqat uning xududida emas, unchalik katta bo’lmagan kontsentratsiyada ipak qurtlarni boqish markazidan 25 km radiusgacha o’z ichiga olgan rayonlar kiradi. Tayyorlov punktlarida bitta qabul qiluvchi 35 t gacha tirik pillalarni tayyorlaydi. Tayyorlov punktlarida qabul qiluvchisining majburiyatiga pillakashlardan tirik pillalarni qabul qilish, qabul qilingan partiyadagi pillalar vazni va sifatini tekshirish, to’lov xujjatlarini rasmiylashtirish, vaqtinchalik saqlash va tayyorlangan pillalarni pillani dastlabki ishlash bazasiga olib borish kiradi. Tayyorlash punktlari kutish joylari, tortish maydonlari, laboratoriya va pillalarni sailash omborlariga ega bo’lishi kerak. Kutish joylari- tirik pillalar uchun qo’llanilayotgan davlat standarti shartlariga

to'g'ri kelishini oldindan tekshirish va pillalarni topshirish uchun 49 tayyorlov joyi bo'lib xizmat qiladi. 35000 kg pillalarni tayyorlash uchun kutish joylari maydoni 70 m2 dan kam bo'lmasligi kerak. 20-30 m2 li tortish maydonlari- pillalarning vaznini aniqlash, laboratoriya analizlari olish uchun xizmat qilib, qo'llanilayotgan davlat standarti shartlariga to'g'ri kelishi kerak. Tirik pillalarni saqlash omborlari ularni vaqtinchalik saqlash (1 sutkagacha) uchun mo'ljallangan bo'lib, navli va navsiz (nuqsonli) pillalar yog'in-sochin va oftob nuridan himoyalangan yopiq xonalarda yoki ayvonlarda saqlanadi. Konstruktsiyasi bo`yicha quritgichlar kamerali va konveyerliga bo`linadi. Quritish rejimi bo`yicha quritgichlar: doimiy, o`sib boruvchi, kamayib boruvchi haroratli rejimda ishlaydiganlarga bo`linadi. Doimiy haroratli rejimda ishlaydigan quritgichlarda pilla suvsizlanib qolmasligi uchun past haroratda olib boriladi. O`sib boruvchi haroratli rejimda, jarayon boshida pillaning namligi yuqori bo`lganda past harorat bilan ta`sir qilinadi. Pilla qurib borishi bilan yuqori harorat va past namlik bilan ta`sir qilinadi. Pasayib boruvchi haroratli rejimda ho`l pillalar avval yuqori haroratli havo va past namlik bilan ishlov berilib, qurish davri yaqinlashgan sari havo harorati kamayib, namlik oshib boradi. Shu usulda ishlaydigan quritgichlarga KSK-4,5, SK-150K va yapon sistemasi quritgichlari kiradi. KSK-4,5 konveyerli quritgich. Sutkalik ish unumi 4,5 t tirik pillaga teng. Quritgichga kirayotgandagi: havo namligi-18-20 % gacha temeraturasi-120-125 oC ga. Chiqayotganda havo namligi 30-40 %; temperaturasi-70-95oC. Quritish davomiyligi 3,5 soat; Pilla qatlami qalinligi ko`pi bilan 27-28 sm. Quritgich 4ta kamerali bo`lib, quritgich shkafidan, kalorifer pechidan ventelyatordan, havo yo`lidan, yuklovchi va tashuvchi transportyor, issiq havo erituvchi kamera, kollektor, yig`uvchi va uzatib beruvchi stantsiyalardan iborat (uzunligi 5,61; eni 5,67; balandligi 4,74) (1-rasm).



KSK-4,5 pilla quritgichi.

1-qiya konveyer; 2-ishchi konveyerlar;3-tushiruvchi konveyerlar; 4-issiqlik tashuvchini so`rib oluvchi havo trubkalari; 5-toza havoni so`rib beruvchi klapan; 6- issiqlik tashuvchini namlagich; 7-markazdan qochma ventilyator; 8-olovli kalorifer; 9-havo xaydovchi trubkalar. Butunlay quritish sutkasiga 4-5t, yarim quritish sutkasiga 10-15t, butunlay quritilganda 3-3,5 soat; yarim quritilgan 1,5 soat. Quritgichga kirayotgan havo namligi 18 %, temperatura 120-125oC, quritgichdan chiqayotganda namligi 35-40 %, temperatura 80-50oC pilla qatlami qalinligi 15 sm. Quritgich 3 konveyerli bo`lib,

quritish kamerasidan, olov yoqiladigan koloriferdan, havoni harakatga keltiradigan ventelyatordan, yoqilg`i va suv bilan ta`minlash sistemasidan tashkil topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Alimova, N.Islambekova, A.Gulamov, Sh.Fayzullayev "Ipak ishlab chiqarish texnologiyasi" Darslik T. «TTYeSI» 224 b , 2018 y.
2. Axmedov N., Abduraxmonov A. Pillalarni tayyorlash va dastlabki ishlov berish. Toshkent, "O'qituvchi". 2006
3. Axmedov N.A., Muradov S. Ipakchilik asoslari. T. "O'qituvchi", 1998
4. Gapparova M.A., Ruzmetov M.E., Tuychiev T.O. Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash. O'quv qo'llanma. TTESI, 2018-175 bet
5. Axmedov N., Abduraxmonov A. Pillalarni tayyorlash va dastlabki ishlov berish. Toshkent, "O'qituvchi". 2006
6. Axmedov N.A., Muradov S. Ipakchilik asoslari. T. "O'qituvchi".

DUNYODAGI ENG YIRIK PAXTA ISHLAB CHIQARUVCHI HINDISTONNING SIFATLI LINT AJRATUVCHI AVTOMATLASHGAN LINTER MASHINALARINING TAHLILI

Kamola Insopaliyevna Ortiqova, doktorant (DSc).
ortiqovakamola1990@gmail.com
Zohida Rustamali qizi Nasriddinova, izlanuvchi.
nasriddinovazohida94@gmail.com
Temurbek Abdujabborov Adbuqaxxorjon o'g'li
abdujabborovtemurbek904@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan biri bo'lgan Hindistonning sifatli lint ajratuvchi avtomatlashtirilgan linter mashinalarining tahliliga bag'ishlangan. Hindiston paxta sanoati global bozorda muhim o'rin tutib, tolalar sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Avtomatlashtirilgan linter mashinalarining texnik xususiyatlari, ular yordamida paxta chigitidan lint ajratish jarayonining texnologik ustunliklari va energiya tejamkorligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: shikaslanish, chigit, lint, arrali silindr, arra tish, kolosnik, cho'tkali baraban, dvigatel, ishchi kamera.

Hindistonning dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchisi bo'lish talablari uning jahon bozorlaridagi o'rnini ta'kidlab, jahon paxta yetishtirishning chorak qismini o'z hududlarida hosil qiladi. Paxta to'qimachilik va sanoat uchun muhim va shuning uchun Hindiston qishloq xo'jaligi sektorining asosiy tarkibiy qismi hisob, paxta bozorining uzluksiz rivojlanishi va gullab-yashnashi, fermerlar va iqtisodiy tizimning kelajagiga ishonch hosil qilish uchun muhim bo'ladi [1].

Paxta tozalash korxonalarining linterlash bo'limiga o'rnatilgan linterlarning asosiy vazifasi chigitning yuzasidagi momiqni mexanikaviy, ya'ni arra tishlari bilan ajratib olishdir. Arra tishiga ilingan momiq arraning aylanishiga qarab ishchi kameradan olib chiqiladi. Bunda chigit valigining zichligi katta axamiyatga ega. Chunki zichlik qancha katta bo'lsa, shuncha arraga ilingan momiq miqdori (foizda) ko'p bo'ladi. Natijada linterning momiq bo'yicha ish unumdorligi ortadi. Arra tishlariga ilingan lintni kolosnik oralig'idan olib o'tiladi va cho'tkali baraban aylanish tezligi hisobiga arra tishlaridan ajratib olinadi.

Yangi Cottor 200 arra linter mashinasi bugungi kunda bozordagi har qanday mashina uchun talab qilinadigan eng past texnik xizmat ko'rsatish bilan eng yuqori sifatli lint ajratish jaroyini uchun qo'llaniladi (1-rasm).



1-rasm. Cottor plants (India) kompaniyasining 200 arrali linter mashinasi

Yuqori unumdorlik, sifatli lint, shikastlanmagan chigit, mashinaning ishlash ishonchliligi va xavfsizligini yaxshilash maqsadida yangi arra diametri va ishchi kamerani avtomatik boshqariladigan jarayon bilan jihozlanagan. Ishchi kameraga o'ratiladigan dvigatel ish jarayonida ishchi kamerada chigit valigining zichligi oshib ketishi natichasida kamerani avomatik ish holatidan oson chiqishi va qayta kirishini ta'minlaydi [2].

Hindistondagi eng yirik va zamonaviy paxta tozalash mashinalari ishlab chiqaruvchisi "Bajaj" kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniya jahon talablariga mos turli paxta mashinalari, ular uchun butlovchi qismlar va ularga jahon darajasida ishlov berish, yuqori sifatli mexanik konveyerlar, pnevmatik tashish, chang-chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va namlash tizimlarini ishlab chiqaradi. Paxta chigitidan lintni sifatli ajratib olishda Bajaj-cec le 176 rusumli linter mashinasidan

foydalaniladi (2-rasm). Mashina paxta tozalash korxonalarida lintni sifatli ajratish va chigitning shikaslanishini oldini olish uchun qisman avtomatlashtirilgan [3].

Mashinaning ishchi kamerasidagi eng muhim jarayonning ish faoliyatini kuzatishda qo'shimcha katta tekshiruv oynalari yordamida mashinadagi chigit valigining harakatining ko’rish mumkin (3-rasm). U kuniga 100 tonnagacha bo'lgan yuqori quvvatli paxta chigitini ajratish uchun mo'ljallangan [4]. Ferroning yangi dizayni maksimal samaradorlikni va sanoatning yetakchi ishlab chiqarish sur'atlarida yuqori sifatli linter ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

2-rasm. Bajaj-cec le 176 rusumli linter mashinasi

3-rasm. Ferro FX 200 arrali to'liq avtomatlashgan linter mashinasi

Hindistonda linter mashinalari lintni chigitdan ajratishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat paxta ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi hisoblanadi. Hindistonda linter mashinalarini ishlab chiqaruvchi bir nechta yirik kompaniyalar mavjud bo‘lib, ularning mahsulotlari texnologik rivojlanish va sifat jihatidan farqlanadi. Bu mashinalar narxi va funksionalligi ishlab chiqaruvchi kompaniya va modelga bog‘liq. Bozorda linter mashinalarining ko‘plab modellari mavjud bo‘lib, ular ishlash tezligi, quvvati va energiya samaradorligi bo‘yicha farqlanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. www.geeksforgeeks.org 10-cotton-producing-states-of-india-in-2024
2. https://www.textileinfomedia.com Cottor-Plants-India-Pvt-Ltd
3. BAJAJ STEEL INDUSTRIES LTD - Ginning Machine, Bale Press, Delinting, Saw Gin
4. FX-200DL:FX 200 Saw High Performance Delinter - Ferro Oiltek Pvt. Ltd.

XITOY PAXTA SANOATIDA LINTERLASHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI VA INNOVATSION YECHIMLARI TAHLILI

Kamola Insopaliyevna Ortiqova, doktorant (DSc).
ortiqovakamola1990@gmail.com
Zohida Rustamali qizi Nasriddinova, izlanuvchi.
nasriddinovazohida94@gmail.com
Temurbek Abdujabborov Adbuqaxxorjon o'g'li
abdujabborovtemurbek904@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Xitoyning oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati shimolda (jun, zig'ir va kanop ishlab chiqarish) fabrikalar bilan ifodalanadi. Xitoy paxta kiyimi eksporti bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Yengil sanoat katta hajmdagi mahsulotlarni doimiy eksport qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. To‘qimachilik fabrikalari paxta, ipak, sintetik materiallarni qayta ishlash bilan shug‘ullanadi. Sifati pishiq bo‘lgan, kasallikka va hashoratlarga chidamli, mashina terimiga mo‘ljallangan, standart talablariga to‘la javob beradigan, yuqori hosilli o‘rta va ingichka tolali paxtaning yangi navlari va ularning texnik ko‘rsatkichlari jahon to‘qimachilik markazlarining talablariga to‘liq javob beradi [1].

Linter mashinalari paxta chigitini qayta ishlashning asosiy qurilmalaridan biri bo‘libchigitdan kalta tolani ajratib olish uchun ishlatiladi. Bu paxta moyi zavodlari va paxta chigitini ekish uchun qayta ishlash zavodlarining asosiy qayta ishlash bo'linmalaridan biridir (1-rasm). Paxta chigitini ta’minlash tizimini avtomatik ravishda bir tekis va nazorat qilish vositasi juda oson va ishonchli. Ishchi kamerasi avtomatik ravishda ochilishi va yopilishi mumkin va u katta burchak ostida ochilishi mumkin, bu esa arra silindrini yig'ish va demontaj qilishni osonlashtiradi [2].

1-rasm. Xitoy paxta tozalash koxonasidagi linterlash jarayoni

Lintni chigitdan ajratishda MR 160-11C rusumli arrali linter mashinasidan foydalaniladi (2-rasm). Jinlangan chigit ta'minlovchi moslama yordamida bir tekisda linterning ish unumdorilgi hisobga olgan holda chigitni ishchi kamerasiga uzatib beradi va kamera ichida chigit valigi hosil bo'ladi. Arrali silindir tarkibida 160-arrali silindr yig'ilgan bo'lib, arrali silindr tishlari ilib olingan momiq cho'tkali baraban yordamida ajratib olinadi [3].



2-rasm. MR160-11C rusimli arrali linetrning tashqi ko'rinish va ko'ndalang qirqimi

1-ishchi kamera; 2- to'zitkich; 3-chigit tarog'i; 4- arrali silindr; 5- cho'tkali baraban; 6-korpus

MR144D, MR161, MR164M, MR178 va MR-164S rusumli delinter mashinalari ikki qatlamli lint ajratish uchun mo'ljallangan. MR-164S delinter mashinasi 1-6 navli paxta chigitlari uchun mos, namligi 6~10%. Birinchi va ikkinchi linterlash seksiyalari ishchi kamerasida to'zitkich va arrali silindr aylanishi ta'sirida aylanuvchi chigit valigi hosil bo'ladi. Arra tishlari chigitdan momiqni ajratib kolosniklar orasidagi tirqishdan olib o'tadi. Arra tishlaridan momiq havo kamerasi saplosidan chiqayotgan havo bilan ajratiladi va momiq olib ketish quvuri orkali kondensorga olib boriladi [4].

1-jadval

Xitoyda ishlab chiqariladigan linter mashinalarining texnik tavsifi

№	Ko'rsatkichlar		Mashina modellari			
			MR-144D	MR-161	MR-164M	MR-178
1	Chigit bo'yicha unumdorlik, kg/s	birinchi	3500-4500	3500-4500	3500-4500	4000-5500
2		ikkinchi	1000-1500	1200-1500	-	1300-1800
3	Arrali slindr diametri, mm		320	320	320	406
4	Elektromotorning quvvati, kVt		24	27	30	35
5	Arralar soni, son		144	161	164	178

Xitoy mashinasozlik firmalarining linter mashinasining texnik ko'rsatkichlari solishtirib, tahlili qilindi. Mashina arrali silidrlarining arralar soni, diametri va

unumdorligining farqlari 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, linter mashinasining ish unumdorligi va mahsulotlar bo’yicha sifat ko’rsatkichlari arralar soni, arrali silindr tezligi va arra diametrining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Bu firmalari orqali linter mashinasining yangi rusumlari mashinalar ishlash jarayoni, avtomatik boshqaruv tizimini mavjudligi va samaradorligi bilan ajralib turad. Barcha mashinalarda birinchi va ikkinchi ajratish kameralarning mavjudligi, lintni arra tishidan cho‘tkali baraban va havo orqali echilishi, ishchi kameralarini avtomatik holatda kutarilib-tushushini nazorat qilish, va chigit tarog’ini mahsulotlarga qarab o’zgartirish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, linterlash jarayonida lint va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash, jarayon energiya sarfini kamaytirish imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan ixcham texnologiyalarni, linterlash uskunalarining kam material va energiya sarflaydigan mukammal konstruktsiyalarini yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. “Farming and Cultivation Technologies of Cotton in China” www.intechopen.com
2. www.diytrade.com/china
3. www.goldsupplier.com/delinter
4. www.cotton-machine.com

MOMIQ OLISH USULLARI VA SIFATIGA TA’SIR QILIVCHI OMILLAR

Alisherova Marguba Madaminjon qizi
marqubaalisherova2@gmail.com
Andijon davlat texnika instituti,O’zbekiston

Linterlash jarayoni to'xtovsiz takrorlanuvchi jarayondir, shuning uchun ishchi kamerasiga tushuvchi chigitlar miqdori xar doim uning ishchi kamerasidan chiqariluvchi chigitlar miqdoriga tengdir. Xar bir chigitning tukini olish quyidagicha amalga oshiriladi: Ishchi kamerasidagi chigitlardan tashkil topgan chigitlar valigining aylanishi natijasida xar bir chigit arra tishiga bir necha bor keladi va undan ayrim miqdordagi tolalar olinadi. Chigit miqdorlangan tukdorlik darajasiga etishganida, u ishchi kamerasidan chiqib ketadi uni boshqarib borish mumkin. Chigitning yuzasidagi tolalari olinishi bilan, chigitning arra bilan uchrashishi kamaymaydi, lekin momiq miqdori xar gal kamayib boradi. Chigitning tuksizlanish darajasi uning yuzasidagi toladorlik miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun, doimiy va bir xilda chigitni tuksizlantirish natijasida arra tishining xar gal momiqni ilish qobiliyati va uning miqdori kamayib boradi. Kerakli miqdordagi

momiqni olish uchun arra tishining chigitga ta'siri xisobli bo'lishi kerakdir. Shuning uchun, bir maromda ishlovchi jarayonda, ya'ni chigitlar ta'sir qiluvchi arra tishlari bir maromda bo'lgani uchun, chigitning ishchi kamerasidagi bo'lish vaqti xammasi uchun bir xil bo'lishi kerakdir. Bu tushuncha quyidagilardan xam kelib chiqadi, ya'ni momiq olish jarayoni to'xtovsizdir, bir me'yorda bo'lgani uchun, uni quyidagicha aniqlash mumkin. Chigit miqdori (N) ning sekundlik ish unumdorligi (n) ga nisbati:

$$t = \frac{N}{n} \text{ , sek.}$$

PNEVMOMEXANIK YIGIRUV MASHINASI ISHCHI QISMLARIDAGI ISHQALANISHINI NAZARIY TAHLILI

..
Sayidmurodov Mirzohid Mirzaraximovich
mirzohidsayidmurodov@gmail.com
Namangan muhandislik texnika instituti, O'zbekiston
Raxmonov Zaylobiddin Obbosbek o'g'li
zaylobiddin1017@gmail.com
Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston

Kirish. Jahonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yigiruv mashinalarining ishchi tezliklarini oshirish yo'li bilan ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, korxonalarida sifatli, jahon talablariga javob bera oladigan yigirilgan iplarni ishlab chiqarish va ularni tayyor buyumlargacha yetkazish, yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish masalalarini kompleks hal etish to'qimachilik sanoatni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejash, pnevmomexanik usulda ip ishlab chiqarishni amalga oshiradigan energiya-resurstejamkor mashinani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda pnevmomexanik yigiruv mashinalarini holati bir qator muammolarni o'z ichiga oladi: yuqori energiya sarfi, ishqalanishning yuqoriligi va ip shaklantirish-pishitish tizimlarining tez ishdan chiqishi. Shu sababli, ushbu tizimlarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish, energiya sarfini kamaytirish va umumiy iqtisodiy foyda keltirish mumkin. Shuningdek, ishqalanish ipni shakllantirsh-pishitish jarayonlarida katta ahamiyatga ega. Ip shakllantirish-pishitish jarayonida tola tutamlarini turli material yuzalarida harakatlanishi jarayonida ishqalanish kuchlari paydo bo'ladi, bu esa energiya sarfini oshiradi va uskunalarning tez ishdan chiqishiga olib keladi. Bugungi kunda tola qatlamlarini turli materiallarda ishqalanishini tahlil qilish, bu jarayonni optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi [1,2,3].

Tadqiqot metodlari va masalani qo'yilishi. Pnevmomexanik yigiruv mashinalari ip shakllantirish-pishitish qurilmasining aylanishlar chastotasini oshirmagan holda ip shakllantirish tezliklarini oshirish va pirovard natijada elektr energiyasi sarfini kamaytirish, ipning buram koeffitsientini kamaytirish, shuningdek, ishchi tezliklarni oshirilishi yangi usullar bilan ip olishda ip shakllantirish-pishitish qurilmasi ishchi qismlrini yeyilishini tadqiq qilish masalalari

kelib chiqadi. Tola tutamlaridan havo yordamida ip yigirishda halqali yigirish usuliga nisbatan elektr energiya sarfi ko'p bo'ladi.

Sirtning uzunlik birligiga ta'sir etayotgan ipning normal bosim kuchi yoki ipning ip yo'naltirgich sirtiga ta'sir etayotgan solishtirma bosim ρ (aniqrog'i, sirtning solishtirma reaktsiyasi) quyidagi formula bilan hisoblanadi [5]:

$$p = \frac{T}{R} = \frac{dN}{dl} \quad (1)$$

Bu yerda N; R – sirtning egrilik radiusi, m; dN – ip elementiga ta'sir etayotgan normal bosim kuchi, N; dl – ip elementining uzunligi, m.

Ip egrilik radiusi o'zgarmas bo'lgan sirtda (masalan, tsilindrik) tekis harakatlanganda ipning tarangligi ortib borishi bilan Eyler qonuni bo'yicha ipning solishtirma bosimi ham ortib boradi (1

bu yerda T_0 - ipning kirib kelayotgan uchidagi tarangligi, N; f – maxsulot bilan sirt orasidagi ishqalanish koeffitsienti; φ – ipning tsilindrik valikni qamrov burchagi, rad.

Ip o'tkazuvchi ishchi organning ishqalanishga chidamliligini oshirish uchun bir tekisda yeyilish talablariga javob beradigan, ya'ni bosim doimo o'zgarmas bo'lib turadigan sirtlarni topish lozim [5]:

$$p = \frac{T}{R} = const = p_0 = \frac{T_0}{R_0} \quad (2)$$

bu yerda r_0 – boshlang'ich nuqtada ipning sirtga solishtirma bosimi, N/m; R_0 – sirtning ipni kirish nuqtasidagi egrilik radiusi, m.



1-rasm. Ipning tsilindrik sirtga solishtirma bosimi epyurasi

(2) tenglamadan ko'rinadiki, sirtning egrilik radiusi tolali materialning T_0 dan T gacha ortib boradigan tarangligiga to'g'ri proportsional ravishda R_0 dan gacha o'zgarib borishi lozim:

$$r = a^{\varphi} (a > 0) \quad (3)$$

tenglama bilan berilgan, logarifmik spiral shaklidagi meridional kesimli sirtlar uchun sirpanuvchi ipning tarangligi quyidagi formula bilan aniqlangan:

$$T = T_0 e^{f(\varphi_2 - \varphi_1)} \quad (4)$$

bu yerda φ_1, φ_2 – logarifmik spiralning boshlang'ich va oxirgi nuqtalari uchun qutbdagi o'q va radius-vektorlar orasidagi burchaklar, rad. Egrilik radiusi R ning qamrov burchagiga bog'liqligi quyidagicha bo'ladi:

$$R = r\sqrt{1 + ln^2 a} = a^{\varphi}\sqrt{1 + ln^2 a} \quad (5)$$

Egri chizikning boshlang'ich nuqtadagi radiusi

$$R_0 = r_0\sqrt{1 + ln^2 a} \quad (6)$$

Ipning tarangligi ortganda ham sirtiga ta'sir etayotgan solishtirma bosim o'zgarmay qoladigan logarifmik spiral shakli mavjud deb faraz qilish mumkin.

Bir tekis bosim hosil qilish talablariga javob beradigan spiral tenglamasini olish uchun (3) – (4) tenglamalarni (5) tenglamaga qo'yamiz va tegishli o'zgartirishlarni bajarib:

$$\frac{T_0}{r_0\sqrt{1+ln^2\alpha}} = \frac{e_0 e^{f(\varphi_2-\varphi_1)}}{r\sqrt{1+ln^2\alpha}}$$

Bunda

$$r_0 = \alpha^{\varphi_1} \quad \text{va} \quad r_0 = \alpha^{\varphi_2}$$

bo'lgani uchun

$$\frac{T_0}{a^{\varphi_1}\sqrt{1+ln^2 a}} = \frac{T_0 e^{f(\varphi_2-\varphi_1)}}{a^{\varphi_2}\sqrt{1+ln^2 a}}$$

$$\frac{1}{a^{\varphi_1}} = \frac{e^{f(\varphi_2-\varphi_1)}}{a^{\varphi_2}}$$

$$a^{\varphi_2-\varphi_1} = e^{f(\varphi_2-\varphi_1)} \quad \Rightarrow \quad a = e^f \quad (7)$$

Olingan tenglama (7) ko'ramizki, logarifmik spiral shaklidagi meridional kesimli sirt uchun faqat bitta holatda *($r = r_0$)* bosim bir tekisda bo'ladi, qachonki spiral quyidagi tenglama bilan berilgan bo'lsa:

$$r = e^{f\varphi} \quad (8)$$

Logarifmik spiral shaklidagi kesimga ega bo'lgan ip yo'naltiruvchi sirtlarda solishtirma bosimning taqsimlanishi 2.5-rasmda ko'rsatilgan.

Bu yerda boshlang'ich taranglik T_0 qiymati o'zgarmas bo'lganda ipning sirt bilan kontaktda bo'lgan uzunlik birligiga bosimi r ipning kirish nuqtasidagi spiralning egrilik radiusi R_0 ga bog'liq bo'ladi.



3-rasm. Turli materiallardagi ishqalanish ko'rsatkichlari.

Nazariy izlanishlar asosida tola qatlamining turli materiallarda harakatlanishidagi ishqalanish ko'rsatkichlari quyidagi tartibda aniqlangan:

- Po'lat: ishqalanish koeffitsienti k = 0.5
- Alyuminiy: ishqalanish koeffitsienti k = 0.47
- Plastmassa: ishqalanish koeffitsienti k = 0.43

Quyidagi grafiklar ishqalanish koeffitsientlarining materiallar bo‘yicha farqini aks ettiradi (3-rasm).

Muammoni yechimi. Ishqalanishni kamaytirish uchun materiallarning sirt holatini yaxshilash va maxsus qoplamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Matematik modellashtirish asosida paxta harakatini ifodalovchi quyidagi tenglamalar ishlab chiqilgan. Ishqalanish kuchi formulasi:

$$F = k*N$$

Bu yerda, F - ishqalanish kuchi, k - ishqalanish koeffitsienti, N - normal kuch. Bu tenglama paxtaning harakati davomida hosil bo‘ladigan ishqalanish jarayonlarini ifodalaydi. Eksperimentlar natijasida paxtaning harakati va ishqalanish kuchlari orasidagi bog‘liqlik aniqlangan (natijalari 4-rasmda ko’rsatilgan).



4-rasm.Materiallar bo’yicha energiya sarfi.

Muammoni hal qilish uchun matematik modellashtirish va differensial tenglamalar yordamida tahlil o‘tkazildi. Tola tutamlarini yigiruv kamerasi ichida harakatlanishidagi ishqalanish jarayonlarini ifodalash uchun quyidagi tenglamalar ishlab chiqildi:

Ishqalanish kuchi:

$$F = k*N$$

Bu yerda, F - ishqalanish kuchi, k - ishqalanish koeffitsienti, N - normal kuch. Harakat tenglamasi:

$$dV/dt = -k*V$$

Ushbu tenglama pnevmomexanik yigiruv tizimidagi paxtaning tezlik o‘zgarishini ifodalaydi. Matematik modellashtirish asosida optimal havo tezligi va bosim parametrlarini aniqlash uchun tahlil o‘tkazildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yigiruv sanoatida pnevmomexanik yigiruv mashinalarini takomillashtirish orqali energetik samaradorlikni oshirish va ishqalanishni kamaytirish mumkin. Ishqalanishni kamaytirish usullari, havo oqimi tezligini optimal darajada saqlash va pnevmomexani yigiruv masinasi ishchi qismlarining sifatli materiallardan foydalanish tizim samaradorligini oshiradi. Kelgusida yangi materiallar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish orqali pnevmotransport tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanov A.V. 'Optimization of Pneumatic Systems', 2020.
2. Smith J. 'Energy Efficiency in Cotton Processing', 2019.
3. М.Сайидмуродов, М.Абдувахидов, У.Бобоев. Анализ проблем пневмомеханического способа прядения и направления дальнейшего его развития //Universum: технические науки. 2021 г. № 3(84)
4.M.M.Sayidmurodov, U.A.Boboyev. Pnevmomexanik yigiruv jarayonida ipga buram berish masalalarini tadqiq qilish. Монография. "Наманган" нашриёти. – Наманган, 2023 й.-124 б.
5. M.M.Sayidmurodov. Сохта эшиш иш органи конструкциясини ишлаб чиқиш ва тадқиқи этиш //Фан ва технологиялар тараққиёти илмий техника журнали. 2020 й. № 8. 119-123 б.

LOGISTIKA SOHASIDA BUGUNGI DATA SIENCE (DATA SAYNS) FANINI TUTGAN O'RNI

Jumayev SherzodBahrom o'g'li1(0000-0003-4905-9620), PhD, dotsent.
Toshkent davlat transport universiteti
Zohidov Muhriddin G'ofurjon o'g'li2(0009-0007-3529-3615), doktarant.
Farg'ona politexnika universiteti
Obidov Nuriddin G'ofurovich, PhD, dotsent v.b.
Farg'ona politexnika universiteti

Bugungi kunda logistika sohasi katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ta'minot zanjirini optimallashtirishga intilmoqda. Data Science (ma'lumotlar ilmi) ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Data Science logistikaga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

- Yo'nalish optimizatsiyasi – yuk va yo'lovchi transportining eng qulay marshrutlarini aniqlash.

- Talab prognozlash – oldindan talab va ehtiyojni bashorat qilish orqali ta'minotni boshqarish.

- Ombor logistikasini optimallashtirish – ombor joylashuvi va mahsulot aylanish jarayonlarini samarali boshqarish.

- Transport vositalarini texnik xizmatga rejalashtirish – texnik nosozliklarni oldindan aniqlash.

- Kiberxavfsizlik va firibgarlikni oldini olish – ma'lumotlar asosida firibgarlikni aniqlash va xavfsizlikni ta'minlash.

Quyidagi diagramma Data Science texnologiyalarining logistika sohasida qo'llanilishini ko'rsatadi:

Data Science Texnologiyasi	**Qo'llanilishi**
Machine Learning (ML)	Yo'nalish va talab prognozini hisoblash
Big Data Analytics	Katta hajmdagi logistika ma'lumotlarini tahlil qilish
Internet of Things (IoT)	Transport monitoringi va real vaqtda kuzatuv
Blockchain	Xavfsiz va shaffof ta'minot zanjiri yaratish
Artificial Intelligence (AI)	Ombor boshqaruvi va avtomatlashtirilgan tizimlar
Cloud Computing	Ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va boshqarish

1-rasm. Data Science vositalari va texnologiyalari

Quyidagi jadvalda Data Science yordamida logistika sohasida talab va ta'minot prognozini qanday optimallashtirish mumkinligi aks ettirilgan:

Jarayon	**An'anaviy Yondashuv**	**Data Science yordamida**
Talab tahlili	O'tmish ma'lumotlariga asoslangan oddiy taxminlar	Mashinalarni o'rganish (ML) asosida real vaqtda prognozlash
Ombor zaxiralari	Doimiy zaxira darajalariga asoslanadi	Dinamik ma'lumotlar tahlili va ehtiyojga mos optimizatsiya
Yetkazib berish muddati	Oldindan belgilangan jadval asosida	Yo'l harakati va ob-havo sharoitlarini hisobga olib moslashuvchan rejalashtirish

2-rasm. Data Science asosida talab va ta'minot prognozi

Inventarizatsiyani boshqarish (omborga kelgan zahiralarni buyurtma qilish va kuzatish uchun javobgardir. Buyurtmani boshqarish - bu mijozlar buyurtmalarini qabul qilish va kuzatish jarayoni. Dasturiy ta'minot ko'pincha ikkala vazifani birlashtiradi) bu har bir elektron tijorat va chakana savdo kompaniyasida kundalik ishning muhim jihatidir. Va inventarizatsiya logistika samaradorligiga qat'iy bog'liq bo'lganligi sababli, Walmart va Amazon kabi yirik chakana savdo / elektron tijorat

kompaniyalari shu tizimdan foydalanadilar. Ularda butun mamlakat yoki hatto butun dunyo bo'ylab tarqalgan o'nlab omborlar mavjud. Ushbu kompaniyalar har kuni minglab mahsulotlarni sotish, qadoqlash va jo'natishlarni amalga oshiradilar.

Bunday talabchan sharoitda inventarizatsiyani mukammal boshqarish lozim. Va bu yerda ma'lumotlar fani(data sience) muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, chakana savdo kompaniyalari tez-tez inventarizatsiyani boshqarish jarayonlarini yaxshilash uchun aqlli yechimlarni qidiradilar. Ushbu aqlli yechimlarning aksariyati ma'lumotlar fani (data sience)ga va sun'iy intellektga asoslangan. Ma'lumotlar fani (data sience) bilan har bir chakana va logistika kompaniyasi buni amalga oshira oladi.

- Zaxiralar darajasini optimallashtirish, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inventar darajasi deb ham ataladigan zaxiralar darajasi ma'lum bir vaqtda biznesda mavjud bo'lgan ma'lum mahsulot yoki mahsulotlar miqdorini anglatadi.
- Inventarizatsiyani boshqarish jarayonlarini qisqartirish va optimallashtirish
- O'lik aktsiyalarning emissiyasini oldini olish (tushuntirish uchun: O'lik zaxiralar - bu eskirgan va xaridorlar uchun nomaqul bo'lgan mahsulotlarga tegishli logistika atamasi, natijada ular sotilmaydi)
- CX ni rijovlantirish (Mijoz tajribasi (CX) bu sizning mijozlaringiz (yoki har qanday odam) siz bilan muloqot qilgandan keyin mahsulotingiz haqida qanday fikrda ekanligini tahlil qilish.



2-rasm. Data saysn algoritmi

Endi ma'lumotlarga asoslangan yechimlar va kumakchilar sizga yordam beradigan omborni tasavvur qiling:

- Inventarizatsiyani boshqarish
- Talabni prognozlash
- Sifatni tekshirish

Ular aqlli omborlar deb ataladi. Hatto u yerda ishlaydigan odamlarda ham kundalik ishlarini osonlashtiradigan, ma'lumotlarga asoslangan, taqib yuriladigan qurilmalar mavjud. Ushbu taqib yuriladigan qurilmalar yordamida ombor ishchilari posilka yoki buyurtma qayerga ketishi kerakligini aniqlash uchun vaqt sarflashlari shart emas. Avtomatik yig'ish tizimlari bilan hamma narsa bir zumda amalga oshiriladi.

Bunday tizimning yaxshi namunasi - bu yorug'likni tanlash. Ushbu tanlash usuli qo'lda shtrix-kod skanerlari va ombordagi javonlarga biriktirilgan LEDlarga asoslangan. Ishchi qutilardagi shtrix-kodlarni skanerlaydi. Shtrix-kod skaneri ma'lum bir qutiga nima kiritilishi kerakligiga qarab ma'lum bir rangni ko'rsatadi. Ishchining vazifasi bir xil rangdagi LEDlarni kuzatish va ular ko'rsatadigan mahsulotlarni yig'ishdir. Tez va samarali.

References

1. Dulebenets, M.A. Multi-objective collaborative agreements amongst shipping lines and marine terminal operations for sustainable and environmentally friendly ship schedule design. J. Clean. Prod. 2022, 342, 130897. [CrossRef]
2. Abioye, O.F.; Dulebenets, M.A.; Kavoosi, M.; Pasha, J.; Theophilus, O. Vessel schedule recovery in liner shipping: Modeling alternative recovery. IEEE Trans. Intell. Transp. Syst. 2021, 22, 6420–6434. [CrossRef]
3. Elmi, Z.; Singh, P.; Meriga, V.K.; Goniewicz, K.; Borowska-Stefanska, M.; Wisniewski, S.; Dubenets, M. Uncertainties in liner shipping and ship schedule recovery: A state-of-the-art review. J. Mar. Sci. Eng. 2022, 10, 563. [CrossRef]
4. Yin, C.; Yuanding, K.; Chen, J.; Liu, M. Interrelations between sea hub ports and inland hinterlands: Perspectives of multimodal freight transport organization and low-carbon emissions. Ocean. Coast. Manag. 2021, 214, 105919. [CrossRef]
5. Cassiano, D.R.; Bertoncini, B.V.; de Oliveira, L.K. A conceptual model based on the activity system and transportation system for sustainability urban freight transport. Sustainability 2021, 13, 5642. [CrossRef]

URUG‘LIK TOLASINI CHIGITDAN AJRATISH TEXNOLOGIYASI

Shamsiddinov Elyorbek Xabibullayevich
Shams22@mail.ru
Andijon davlat texnika instituti

Urug‘lik paxta har bir g‘o‘za tupida uchinchi hosil shoxidan to 7-8 chi hosil shoxlarigacha pishib ochilgan ko‘saklardan qo‘l bilan terilgan, mashinalar bilan terilganda esa 60-65% ko‘saklar ochilgan urug‘lik daladan terilgan va ekish uchun chigit olishga mo‘ljallangan paxta hisoblanadi.

Urug'lik mahsulotga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

1. Nav tozaligi.
2. Unib chiqish va baquvvat nihollar hosil qilish qobiliyati.
3. Kasalliklarga va zararkunandalarga qarshi chidamlilik.
4. Mexanizatsiyalashtirilgan usulda ekish imkoniyatlarining mavjud bo'lishi.

Urug'lik paxta chigitining asosiy ko'rsatkichlari 1.1-jadvalda keltirilgan bo'lib, u 2 ta sinf bo'yicha ifloslik, namlik va chigitlarning mexanik shikastlanishi ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

1-jadval

Urug'lik paxta chigitining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	1-sinf	2-sinf
Ifloslik (iflos aralashmalarning massaviy ulushi), ko'pi bilan	3,0	8,0
Namlik (namlikning massaviy nisbati) ko'pi bilan	8,0	9,5
Chigitlarning mexanik shikastlanishi, ko'pi bilan	0,5	1,0

Urug'lik paxta konditsion massasi bo'yicha qabul qilinadi va qabul qilib olish, jamlash O'z DSt 642:1995 Urug'lik paxta. Texnikaviy shartlar va O'z DSt 615:2008 Paxta. Texnikaviy shartlar davlat standartlari asosida amalga oshiriladi. Uning konditsion massasi va paxtaning iflos aralashmalari hisobiy me'yorga keltirilgan massasi quyidagi tenglamalar bilan aniqlanadi:

Bu yerda:

$$Mk = M\text{ҳис} \times \frac{100 + W\text{ҳис}}{100 + \text{Wҳақ}}$$

$$M\text{ҳис} = M\text{ҳақ} \times \frac{100 - З\text{ҳақ}}{100 - З\text{ҳис}}$$

M*k*- konditsion massa, kg;

M*his*– paxtaning iflos aralashmalari hisobiy me'yorga keltirilgan massasi, kg;

M*haq*– qabul qilib olingan paxtaning massasi, kg;

W*his*– namlikning 9% ga teng bo'lgan massaviy nisbatining hisobiy me'yori;

W*haq* – haqiqiy namlikning massaviy nisbati, %

Z*his*– iflos aralashmalarning 2 %ga teng bo'lgan hisob massaviy ulushi me'yori;

Z*haq*– paxtadagi iflos aralashmalarning haqiqiy massaviy ulushi, %.

Agar, 1-sinf urug'lik paxtaning ifloslik va mexanik shikastlanganlik me'yorlari oshib ketsa, u 2 sinfga o'tkaziladi, 2-sinf me'yorlaridan oshib ketsa, urug'lik paxta urug'lik fondidan o'chiriladi va bu to'da O'z DSt 615:2008 "Paxta. Texnikaviy shartlar" bo'yicha qabul qilinadi (texnik paxtaga o'tkaziladi).

Urug'lik paxtani qabul qilib olish va uni to'dalarga to'plash tayyorlov punkti va paxta tozalash korxonasi tomonidan paxta tayyorlash rejasi hamda paxta maydonlarida o'tkazilgan aprobatsiyaga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Unga ko'ra, indan chiqqan, ya'ni, tolasi yechib olingan chigit , tukliligi 12-13%;, linterlangan tukli chigit, tukliligi 8-10% , kam tukli chigit tukliligi 2,0-2,5%, tuksizlantirilgan chigit, tukliligi 0-0,5% atrofida bo'ladi.

Har yili paxta pishish davrida urug'lik uchun ekilgan g'o'za maydonlarining navdorligiga baho berish jarayoni, ya'ni aprobatsiya o'tkaziladi. Aprobatsiya o'tkazish davrida urug'lik fondini yaratish uchun kasalliklar va zarakunandalarga chalinmagan, mahsuldor, nav tozaligi yuqori bo'lgan dalalar tanlanadi.

Kam hosilli, qurib qolgan, boshqa navlar bilan kuchli darajada aralashib ketgan, vilt yoki fuzarioz kasalligiga, gommoz va va boshqa kasalliklarga kuchli chalingan dalalar urug'lik fondiga kiritilmaydi.

Belgilangan me'yorlardan ortiqcha kasalliklar bilan zararlangan dalalar yaroqsizlikka chiqariladi, qolganlari esa kasalliklarga chalinish darajasi bo'yicha I va II guruhlarga bo'linadi.

Iguruhga vertitsillioz vilt bilan 5% gacha va gommoz bilan 5% gacha zararlangan dalalar kiradi. O'simliklarning fuzarioz bilan zararlanishi birinchi guruh dalalarda yo'l qo'yilmaydi.

II guruhga vertitsillioz vilt bilan 5% dan 15% gacha, fuzarioz filt bilan 3% gacha, gommoz bilan 5% dan 10% gacha va hosil elementlari gomoz bilan 1% gacha zararlangan dalalar kiradi.

Xo'jaliklardan qabul qilib olingan urug'lik paxta 250 300 tonnadan qilib, quyidagi belgilariga bo'yicha alohida-alohida to'dalarga to'planadi: seleksion navi, avlodi, nav tozaligi, dala guruhi, sanoat navi, sinfi.

Urug'chilik fermer xo'jaligida ekinlarni joylashtirish rejasiga muvofiq ravishda rayonlashtirilgan faqat bitta seleksion navi ekiladi.

Bir xil urug'lik material olish uchun sentyabr oyida terilgan urug'lik paxta to'dasi oktyabr oyida terilganidan alohida to'planadi.

Paxta tozalash korxonasida urug'lik paxtani to'dalarga to'plash korxona agronomi va paxta urug'chiligi laboratoriyasi mudiri rahbarligida amalga oshiriladi.

Urug'lik paxtaning birinchi avlodi yopiq binoda saqlanadi.

Urug'lik paxtaning ikkinchi va undan past avlodli har bir to'plangan to'dalari boshqa to'dalardan alohida ajratib, maydonchalarda g'aram holida yangi brezent

bilan yopib, namlanishga va urug'lik materialning buzilishiga yo'l qo'ymagan sharoitda saqlanadi.

Paxtaning sifat ko'rsatkichlari quyidagi me'yoriy hujjatlar asosida nazorat qilinadi:

- qabul qilish vaqtida – O'z DSt 643:2006 namuna tanlab olish usullari;
- jamlash va tashish vaqtida O'z DSt 1080:2005 namuna tanlab olish;
- namlikni aniqlash O'z DSt 644:2006 bo'yicha;

G'aram ko'tarilgandan va tegishlicha cho'kkandan keyin qo'lda yoki mexanizm yordamida uning uzunasi bo'ylab tunnel ochiladi va havoni so'rish uchun mahsus UVP (yoki shunga yaqin bo'lgan boshqa markali) ventilyator qurilmasi qo'yiladi. Tunnel qazishdan chiqqan urug'lik paxtalar texnik paxtaga o'tkaziladi.

Paxta tozalash korxonasi texnik nazorat bo'limi va tayyorlov punkti laboratoriyasi tomonidan urug'lik paxtaning saqlanishi uning tashqi ko'rinishini kuzatish va haroratini o'lchash yo'li bilan nazorat qiladi. Nazorat 10 kunda bir marta amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. V.M.Shin, Greg Holt and Ross Rutherford Saw gin stands. The Journal of cotton science 21:60-69 (2017)
2. Гулидов Н.Г. О профиле зуба джинной пилы, журнал Текстильная промышленность, № 5, 1949 г.
3. S.A.Ahmedov "O'rta Osiyoda arifmetika taraqqiyoti va uning o'qitish tarixi" Toshkent, 1991y.35-36-bet.
4. Lummus.sales@ lummus com
5. Тилляев М.Т. Исследование влияние ускорителя вращения сырцового валика на основные показатели процесса джинирования. Диссертatsiя на соискание учёной степени кандидата технических наук. Ташкент. – 1974
6.https://www.elec.ru/articles/preobrazovateli-chastoty-preimushestva-i-gramotnyj/

URUG'LIK PAXTANI DASTLABKI ISHLASH, MARKALASH, TASHISH VA SAQLASH JARAYONLARI.

Kalashnikov Vitaliy Alekseyevich
Andijon davlat texnika instituti katta o'qituvchisi
v.kalashnikov.1991@gmail.com

Urug'lik paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonlariga paxtani uzatish, quritish, mayda va yirik iflosliklardan tozalash, jinlash, chigitni linterlash, qoplash va vaqtincha saqlash joylariga tashish kiradi. Urug'lik paxtani dastlabki ishlashdan avval paxta tozalash korxonasining asosiy va yordamchi uskunalarini rostlab olish

zarur. Buning uchun urug'lik paxtaning qaysi seleksion navi dastlab ishlansa, shu seleksion navga tegishli texnik paxtaning I yoki II sanoat navi dastlabki ishlashga kiritilib, asosiy va yordamchi uskunalarning texnologik parametrlari rostlanib olinadi. Rostlash vaqtida nazorat qilinadigan parametrlarga chigitning mexanik shikastlanishi, tukliligi, qoldiq toladorligini qabul qilish lozim.

Urug'lik chigitlarni joylash, markalash, tashish va saqlash Linterlangan urug'lik chigitlar paxta tozalash korxonalarida yoki tayyorlov maskanlarida to'dalari bo'yicha alohida-alohida qilib, yaxshi shamollatib turiladigan quruq ombor xonalarda va bostirmalarda saqlanadi. Tukli urug'lik chigitlarning R2 va R3 avlodlari dorilanguncha vaqtinchalik uyulgan holda atrofiga shu chigitlardan qoplanib to'siq yasalgan holatda saqlash mumkin. Elita va birinchi avlod urug'lik chigitlari yangi qoplarda yog'och tagliklarda tekis taxlangan (shtabel) holatda omborlarda saqlanadi. Shtabellar orasidagi masofa, hamda shtabellar va xona devorlari orasidagi masofa 1 m dan kam bo'lmasligi kerak. Taxlangan shtabellarning tukli chigit uchun o'lchamlari quyidagi ko'rsatkichlardan oshmasligi kerak:

uzunligi– 20m,

eni– 15m,

balandligi– 3m

Elita-urug'chilik xo'jaliklarining asosiy vazifasi bu paxta ekadigan xo'jaliklarni yetarli miqdorda va sifatli elita va R1 reproduksiyali urug'lik chigit bilan ta'minlash, berilgan seleksion nav bo'yicha hamma xususiyatini saqlagan holda (poyaning morfologik tuzilishi, navning xo'jalik xususiyati, tolaning texnologik xususiyatlari) va navni yangilashdan iborat. Seleksiya navining muallifining taklifi bo'yicha elita-urug'chilik ishlari 2 xil uslubda olib boriladi:

- individual tanlash yo'li bilan;
- seleksiya navlarini chatishtirish yo'li bilan

Urug'lik paxta sinfi ifloslik yoki mexanik shikastlanganlikning eng yomon ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Urug'lik paxta avlodiga qarab: superelita, elita, R1, R2, R3 ga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi ruxsatiga binoan R4 va R5 avlodlarini ishlatishga ruxsat beriladi. Elita va R1 urug'lik paxtasi 1- sinf talablariga javob berishi kerak.

Urug'lik paxta quyidagi ko'rsatkichlari bo'yicha tavsiflanadi:- seleksion navi,

- tola tipi,
- paxta sinfi,
- avlodi.

Urug'lik paxta tolasining tipi bo'yicha O'zDSt 615:2008 Paxta. Texnikaviy shartlar standartiga qarab bo'linadi. Urug'lik paxta pishib yetilganlik koeffitsienti, rangi va tashqi ko'rinishi bo'yicha O'zDSt 615:2008 Paxta. Texnikaviy shartlar

standartining I nav paxta talablariga muvofiq kelishi kerak. Urug'lik paxta namlik, ifloslik va chigitning mexanik shikastlanishiga qarab 2 sinfga bo'linadi
Chigit avlodi va nav tozaligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Chigit avlodi va nav tozaligi

Chigit avlodi	Nav tozaligi
Super elita, elita	100
R1	99
R2	98
R3	96

Urug'lik chigitning asosiy sifat bo'yicha O'zDst 663:2006 «Urug'lik chigit. Texnikaviy shartlar» standarti talablarga mos kelishi shart.

Arra geometrik va texnologik parametrlarining yagona nuqtai nazardan o'zaro bog'lanmaganligi ham ko'plab texnik muammolarga olib keladi. Arra sifatini oshirishda kompleks yechim topish, avvalo, uning funksional qo'llanishiga va uning parametrlariga asoslanish zarur. Hozirda arralar funksional parametrlari tarkibi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar oxiriga yetkazilmagan. Jumladan, arra parametrlarini optimizatsiyalash masalasi ular bo'yicha muayyan hajmdagi eksperementlar qo'yilishini talab qiladi. Bunda, xususan, arra tishining geometriyasi, tolani yulib olish imkoniyatlari, tola va chigit shikastlanishi va tolada gajaklarning hosil bo'lishi kabi jarayonlar kompleks o'rganilishi kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. M.Inamova, S.Rejabboyev // Urug'lik chigit saralash texnika va texnalogiyasini istiqbolli yo'nalishlari// "To'qimachilik va engil sanoat mashinalarini loyihalash va takomillashtirishda inovatsion yondashuvlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar to'plami Namangan 2021-yil 26-mart. NamMTI..
2. R.Muradov, M.Tadjibayev, Sh.Komilov, M.Inamova // Arrali jindan chiqayotgan chigitlarni vibratsion saralash matematik modeli // O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi № DGU 15648 talabnoma kelib tushgan sana 22.04.2022 yil
3. M.Inamova, S.Rejabboyev // Paxta chigiti sifat ko'rsatkichlarining laboratoriya sharoitidagi taxlili // "Paxta, to'qimachilik va engil sanoat mahsulotlari sifatini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyaslari " mavzusida o'tkazilgan halqaro ilmiy - amaliy konferensiya maqolalar to'plami 2021-yil 22-23 aprel 1-TOM. NamMTI.
4. Г.И. Мирошниченко. Основы проектирования машин первичной обработки хлопка. Москва. Машиностроение. 1972 г. Стр. 221-222.
5. E.Z.Zikriyoyev Paxta xomashyosini birlamchi qayta ishlash (darslik). Toshkent - "Mexnat" - 1999, 108 b.

РАЗРАБОТКА И СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ новой конструкции натяжного ролика с **рычажно-шарнирным механизмом** ленточного траспортера

к.т.н., проф. Зулпиев Султанали Момунович
(Баткенский государственный университет Кызыл-Кийский институт экономики, технологии и права) ;
к.т.н. проф.Бахтиерджан Низамитдинович Давидбаев,
PhD, доц. Давидбаева Наргиза Бахтиерджоновна
(Ферганский Государственный технический университет, каф. Прикладная механика);

Рекомендуется новая конструкция натяжного ролика для ленточного траспортера, включающий шарнирно рычажный механизм [1,2].

Ленточный траспортер (Рис-1) содержит ведущий 1 и ведомый 2 шкивы, охватывающий их ремень 3, натяжной ролик 4, включающий две симметричное левой 5, правой 6 частей с криволинейными поверхностями, соединенных между собой рычажно-шарнирным механизмом, вилки 12 и 13 с серьгами 16 и 17 которого жестко соединены между собой, а с частями 5 и 6 соединены шарнирами 15. Противоположные концы серег 16 и 17 соединены между собой посредством шарниров 18, 19, 20, 21 шатунами 22 и 23. На внутренных частях 5 и 6 ролика 4 закреплены пластмассовые втулки 11 и 14. Полуоси 7 и 8 частей 5 и 6 ролика 4 установлены в корпусе посредством шарнирных опор 9 и 10, которые дополнительно имеют упругие связи в виде пружин кручения 24 и 25. Оси вращения полуосей 7 и 8 в исходном положении составляют между собой угол $\theta > 180^0$.

Ведущий шкив 1, вращаясь, передает движение ведомому шкиву 2 через охватывающий ремень 3. При этом натяжной ролик 4 создает определенное натяжение ремня 3. Увеличение силы Р приводит к угловому перемещению на угол α полуосей 7 и 8 частей 5 и 6 ролика 4 и соответствующим деформациям (скручиванию) пружин кручения 24 и 25 в опорах 9 и 10, что приводить и уменьшению угла θ. Обе части 5 и 6 ролика 4 также поворачиваются на угол α друг к другу. Это приводит к уменьшению рабочей длины ролика 4 в зоне контакта с ремнем 3, но увеличению вогнутости криволинейной поверхности частей 5 и 6 относительно оси симметрии, при этом фактически ликвидируется сход ремня со шкивов 1 и 2 за счет ограниченности перемещения ремня 3 в поперечном направлениях.

Рычажно-шарнирный механизм между частями 5 и 6 ролика обеспечивает синхронность их вращения, передовая друг - другу избытки

крутящего момента из-за несимметричности нагрузки Р на поверхности частей 5 и 6 ролика 4. Момент (разница моментов) через вилки 12 и 13, серьги 16 и 17 посредством шатунов 22 и 23 передаются от левой части 5 и правой 6 и наоборот за счет шарнирных соединений 15,18,19,20,21 при несовпадении осей вращения полуосей 7 и 8 частей 5 и 6 ролика 4.

Пружины кручения 24 и 25 позволяют возврату полуосей 7 и 8 в исходное положение. Шарнирные опоры 9 и 10 имеют две подвижности, при которых обеспечиваются вращение частей 5 и 6 ролика 4, а также угловому перемещению в вертикальной плоскости. Пластмассовые втулки 11 и 14 в процессе работы передачи предотвращают значительные изгибные деформации ремня 3 по середине, а также предотвращают контакты ремня с шарнирами 15,18,19,20,21.



Фиг 1.



Фиг. 2.



Фиг. 3.

Рис 1. Ленточный транспортер с **новой конструкции** натяжного ролика.

В натяжном механизме для ликвидации избыточных связей некоторые кинематические пары (шарниры) можно выполнить составными включающие

упругие элементы [2]. Шарнирно-рычажный механизм натяжного ролика плоскоременной передачи включает 6 звеньев и 8 шарниров.

Следует отметить что, при использовании формулы Сомова-Малышева [3,4] степень подвижности рекомендуемого механизма будет отрицательным. В действительности в механизме одна обобщенная координата – угловые перемещения валов.

При этом ведущее звено – входной вал, а ведомое звено- выходной и может быт наоборот.

Избыточные связи в механизме:

$$q=W-6n+5P_5+4P_4=3 \qquad (1)$$

где, W=1; n=6; P_5=6; P_4=2

Для уменьшения или ликвидации избыточных связей нами рекомендуется выполнить кинематические пары составными, включающие упругие элементы. В нашем случае в трех кинематических парах устанавливается упругие элементы.

Значит одна упругая связь, уменьшает количество избыточных связей на единицу. Поэтому, чтобы ликвидировать избыточные связи в рычажно-шарнирных муфтах необходимо условие:

$$q=n_y; \qquad (2)$$

Тогда, с учётом включения в механизм необходимого количества упругих элементов можно ликвидировать избыточные связи, q=0.

При этом:

$$W-6n+5P_5+4P_4-n_y=0 \text{ или } n_y=W-6n+5P_5+4P_4 \qquad (3)$$

Для рассматриваемого механизма n_y=3.

При этом в рассматриваемом механизме избыточные связи будут равно нулю.

Таким образом, предложенный метод включения необходимого количества упругих элементов в рычажно-шарнирных механизмов позволил ликвидировать избыточные связи.

Литература

1. Зулпиев С.М, Давидбаев Б., ДжураевА.Д., Давидбаев Б., Зулпиев А.М. Давидбаева Н.Б. Плоскоременная передача с натяжным роликом. **Патент Кырг. Рес. По заявке № 20220007.2 от 28.04.23 г. №354.**

2. Джураев А, Давидбоев Б, Зулпиев С, Умаров Б. Птент Р. Узб FAP 20120041, FAP 00780 Бюлл. №12, 2012й

3. А.Джураев и др., Теория механизмов и машин. Учебник, Ташкент, изд. Г.Гуляма., 2004г., 592с.

4. Davidbaev, B., Zulpiev, S., Davidbaeva, N., \\ Development of effective structures and methods for calculating parameters of harness-lever couplings of cardan mechanisms with elastic elements. \\ Global Book Publishing Publisiher Services

1211 polk St, Orlahdo,FL 32805 USA. Emai info @scentifcpublication.orq .30.11. 2023

5.Davidbaev, B., Zulpiev, S., Davidbaeva, N., & Abdivap Kyzy, U. (2024, December). Improvement of constructions and justification of parameters of the centering tensioner of the conveyor. In American Institute of Physics Conference Series (Vol. 3243, No. 1, p. 020006).

KOSTYUM MATERIALLARINING ISHQALANISHGA CHIDAMLILIGINI O'RGANISH: CHIDAMLILIK VA ISHLASHNING HAL QILUVCHI OMILI

Yakubov Nosirjon Jurayevich
nosirzonakubov@gmail.com
Fargona davlat texnika universiteti, "Yengil sanoat muxandisligi" kafedrasi katta o'qituvchisi, tel: 90 537 1239

Kiyim ishlab chiqarish sohasida kostyumlar dizayin va uslublarning yuqori darajasini ifodalaydi. Biroq, estetikadan tashqari, foydalaniladigan materiallarning ishqalanishga bardoshliligi katta ta'sir ko'rsatadigan mustahkamlikning hal qiluvchi omili yotadi. Ishqalanishga qarshilik deganda materialning ishqalanish, ishqalanish yoki boshqa material bilan aloqa qilish natijasida yuzaga keladigan sirt ishqalanishiga bardosh berish qobiliyati tushuniladi.[1] Bu xususiyatni tushunish nafaqat nafislikni namoyon etuvchi, balki kundalik eskirish va mexanik zo'riqishlarga ham bardosh beradigan kostyumlarni tayyorlashda juda muhimdir.

Kostyum materiallarida ishqalanishga qarshiligining ahamiyati: Ishqalanishga qarshilik kostyumlardan uzoq muddat foydalanish va sifatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jismoniy shaxslar kun davomida turli ishlar bilan shug'ullanar ekan, ularning kostyumlari ofis stullaridan tortib jamoat transporti o'rindiqlarigacha bo'lgan turli sirtlarga nisbatan ishqalanishga duchor bo'ladi. Ishqalanishga chidamliligi past bo'lgan materiallar muddatidan oldin eskirishga moyil bo'ladi, buning natijasida ko'zga ko'rinmas bo'laklar paydo bo'ladi, rangsizlanadi yoki hatto yirtilib ketadi.

Chidamlilik va ishlashga ta'siri, yani kostyumning chidamliligi ko'p jihatdan uning tarkibiy qismlarining ishqalanishga qarshiligiga bog'liq. Ishqalanishga chidamliligi yuqori bo'lgan matolar uzoq vaqt foydalanishdan keyin ham o'z yaxlitligini saqlab qoladi, shakli, rangi va tuzilishini saqlaydi. Bu kostyumning tez-tez yuvilishiga bardosh berishini va vaqt o'tishi bilan o'zining toza ko'rinishini saqlab qolishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ishqalanishga bardoshli materiallardan sifatli tikuv buyumlari ishlab chiqarishga asos bo'ladi, bu esa

kiyimlarda uslubni buzmasdan ko‘proq qulaylik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi.[2]

Optimal ishqalanishga chidamliligini o‘rganishn uchun kostyum materiallari tarkibini o‘rganish:

Jun: An'anaviy jun matolari, masalan, jun yoki jun aralashmalari, o‘ziga xos chidamliligi va ishqalanishga bardoshliligi bilan mashhur. Jun tolalarining tabiiy burmasi egiluvchanlikni oshiradi, ularni burishish va ishqalanishga chidamli qiladi. Bundan tashqari, jun namlikni yutuvchi xususiyatlarga ega bo‘lib, uzoq vaqt kiyinish paytida qulaylikni ta’minlaydi.

Polyester aralashmalari: Polyester aralashmalari ishqalanishga bardoshliligi va arzonligi uchun afzaldir. Polyesterni jun yoki paxta kabi tabiiy tolalar bilan aralashtirib, ishlab chiqaruvchilar tabiiy va sintetik tolalarning eng yaxshi tomonlarini birlashtirgan matolarni yaratadilar: sintetik tolalarning chidamliligi va tabiiy tolalarning havo o‘tgazuvchanlik hususiyati. Ushbu aralashmalar kundalik kiyimlar uchun juda mos keladi va silliq ko‘rinishni saqlab, ishqalanishga qarshi chidamlilikni ta’minlaydi.

Paxta: Paxta jun yoki polyester bilan bir xil darajada ishqalanish chidamliligiga ega bo‘lmasa-da, uning xavo o‘tgazuvchanlik hususiyatini yaxshiligi va qulayligi tufayli kostyumlar uchun ijobiy tanlov bo‘lib qolmoqda. Tarkibi paxta tarkibli kostyumbob gazlamalarga ko‘pincha ishqalanishga bardoshli qoplamalar bilan ishlov beriladi yoki tabiiylik hususiyatini deyarli kamaytirmagan holda, chidamliligini oshirish uchun sintetik tolalar bilan aralashtiriladi.[4]

1-jadval

Kostyumbob materiallar namunalarini ishqalanishga chidamlilik hususiyatini laboratoriya sharoyitida tekshirish natijalari. [3]

№	Ip nomeri		Gazlamadagi iplar zichligi (tekshirib sanalganda)		Ip tarkibi		200x50 mm o‘lchamdagi Namunani yirtilish kuchi		Bosim 1 fut bo‘lganda ishqalanishlar soni	
	tanda	arqoq	tanda	arqoq	tanda	arqoq	tanda	arqoq	tanda	arqoq
1	44/2	44/2	150	121	48% jun, 52% poliyestr	48% jun, 52% poliyestr	1061,5	930,3	32	32
2	44/2	44/2	149	121			1115,2	906,2	32	32
3	44/2	44/2	149	122			1187,8	928,1	32	32

4	44/2	44/2	150	120			1162,1	917.1	32	32
5	44/2	44/2	151	119			1112,6	921	32	32
O'rta cha	44/2	44/2	150	121			1127,8	916,4	32	32

№	Ip nomeri		Gazlamadagi iplar zichligi (tekshirib sanalganda)		Ip tarkibi		200x50 mm o'lchamdagi Namunani yirtilish kuchi		Bosim 1 fut bo'lganda ishqalanishlar soni	
	tanda	arqoq	tanda	arqoq	tanda	arqoq	tanda	arqoq	tanda	arqoq
1	58/2	58/2	319	242	49,2% jun, 50,2% poliy estr	49,2% jun, 50,2% poliy estr	1037,7	782,2	32	32
2	58/2	58/2	320	241			1040,6	787,4	32	32
3	58/2	58/2	320	240			1091,8	786,5	32	32
4	58/2	58/2	319	241			1060,6	788,2	32	32
5	58/2	58/2	320	239			1030,3	785,3	32	32
O'rta cha	58/2	58/2	321	241			1052,2	785,9	32	32

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kostyum materiallarining ishqalanishga bardoshliligi kiyimning chidamliligi va ishlashini aniqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kostyumlarni ishlab chiqarishda, istemolchilarni gigenik va estetik talablarini bajargan holda, optimal ishqalanishga chidamlilikka ega materiallarni tanlash natijasida, ularning kostyumlari vaqt sinoviga bardosh berishiga ishonch hosil qilishlariga erishish mumkin. An'anaviy jun matolarni, bardoshli poliester aralashmalarini yoki havo o'tgazuvchanligi yaxshi bo'lgan paxta ipli gazlamalarni tanlashdan qat'i nazar, ishqalanishga chidamlilik hususiyatlarini tushunish istemolchilarga ongli tanlov qilish va hech ikkilanmasdan ishonchliligi, ya'ni sifati yuqori bo'lgan kostyumlarni sotib olishlariga imkon beradi.

Gazlama ishlab chiqarish rivojlanishda davom etar ekan, mato texnologiyasi va to'qimachilik muhandisligi sohasidagi yutuqlarni birlashtirgan holda, bardoshli va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan kostyumlarga bo'lgan extiyoj doimiy bo'lib qolmoqda, bu erkaklar kiyimlari sohasida ishqalanishga chidamlilikning ahamiyatini va uni doimiy ta'minlash zaruriyatini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov, S. (2021). *Tekstil materiallari va ularning sifati*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

2. Rasulov, I. & Mirzayeva, D. (2022). *Kostyumbop matolar: Innovatsiyalar va ishlab chiqarish texnologiyalari*. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiya nashriyoti.
3. Ochilov T.A. va boshqalar,. To'qimachilik materiallarini sinash. «O'zbekistan», T., 2004.
4. AbbasovaN.G. va boshqalar. «Yengil sanoat maxsulotlari materialshunosligi». I-qism. Darslik - T.: Aloqachi, 2005. -283 bet.

BARBOTAJLI ABSORBSIYA QURILMASIDA ANIQLANGAN QARSHILIK KOEFFITSIENTI VA NISBIY QARSHILIK KOEFFITSIENTLARIGA BOG'LIQ HOLDA TUZATISH KOEFFITSIENTI QIYMATINI ANIQLASH

tayanch doktorant Ibroximov Qobiljon Nodirjon o'g'li
qobiljonibrohimov9898@gmail.com
Farg'ona davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Ushbu maqolada barbotajli absorbsiya qurilmasida massa almashinuvi jarayonining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan tuzatish koeffitsienti aniqlanishi, uni hisoblashda foydalaniladigan asosiy parametrlar – umumiy qarshilik koeffitsienti va nisbiy qarshilik koeffitsientlarining fizikaviy va texnologik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, laboratoriya sharoitida olingan tajriba natijalari asosida tuzatish koeffitsienti qiymatlari keltirilgan. Barbotajli absorbsiya jarayoni gaz fazasidan suyuqlikka ma'lum komponentlarni ajratib olishda keng qo'llaniladi. Bunday qurilmalarda jarayon samaradorligini oshirish, shuningdek, hisob-kitoblarni aniqlashtirish uchun tuzatish koeffitsientini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu koeffitsient qurilma ichidagi real sharoitlarni ideal holatlarga nisbatan hisobga olish imkonini beradi. Dastlabki tajribalarimizda biz keramik nasadkalarning nisbiy qarshilik koeffitsientini aniqlab olgan edik. Keyingi vazifa tajribaviy tadqiqotlar natijasida aniqlangan qarshilik koeffitsienti va nisbiy qarshilik koeffitsientlariga bog'liq holda tuzatish koeffitsienti qiymatini aniqlaymiz.

Tuzatish koeffitsienti ΔK ni quyidagicha aniqlaymiz.

$$\Delta K = \frac{\xi}{\xi_н} \qquad (1)$$

Buning uchun tajribalar orqali topilgan qarshilik koeffitsienti ξ ni nisbiy qarshilik koeffitsienti ξ_n ga bo'lamiz.

$$\Delta K = \frac{\xi}{\xi_н} = \frac{1.7}{0.17} = 10$$

Keyingi keramik nasadka o'lchamlari uchun ham tuzatish koeffitsientlari shu usulda aniqlandi. Diametri 12mm bo'lgan keramik nasadkalarimiz 94 dona, xajmi

V_n=0.00008507m^3, nisbiy qarshilik koeffitsienti ξ_n=0.23ga, tuzatish koeffitsienti ΔK=6.5 ga teng bo'ldi. Diametri 15mm bo'lgan keramik nasadkalarimizdan 58 dona va ularning egallagan xajmi V_n=0.000102m^3, nisbiy qarshilik koeffitsienti ξ_n=0.27ga tuzatish koeffitsienti ΔK=4.8 ga teng bo'ldi. Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib bog'liqlik grafiklari qurildi (1-rasm).



1-rasm. Tuzatish koeffitsientini aniqlangan keramik nasadkalarning qarshilik koeffitsientiga bog'liq holda o'zgarish grafigi.

Olingan regressiya tenglamasi ko'rinishi

$$y = 13x - 12{,}4 \qquad R^2 = 0{,}9616$$

Massa almashinuv jarayonlari asosan qarshilik koeffitsienti va shu qarshilik koeffitsientlarini vujudga keltiruvchi keramik nasadka diametrlarining sirtini yuzasida amalga oshadi. Shuning uchun solishtirma kontakt yuzalarini ham aniqlash mug'im ahamiyatga ega. Diametri d_1=9mm miqdori n=169 dona bo'lgan keramik nasadkaning sirt yuzasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_k = 4\pi r^2 \cdot n \qquad (2)$$

$$S_k = 4\pi r^2 \cdot n = 4 \cdot 3.14 \cdot (0.0045)^2 \cdot 169 = 0.043 m^2$$

Qolgan nasadkalarning solishtirma kontakt yuzalari ham shu usulda aniqlandi. Diametri d_2=12mm miqdori n=94 dona bo'lgan keramik nasadkaning sirt yuzasi S_k=0.0425m^{2}ga teng bo'ldi. Diametri d_3=15mm miqdori n=58 dona bo'lgan keramik nasadkaning sirt yuzasi esa S_k=0.0409m^{2}ga teng bo'ldi. Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib bog'liqlik grafigi qurildi (2-rasm).



2-rasm. Keramik nasadkalarning diametriga bog'liq holda solishtirma kontakt yuzaning bog'liqlik grafigi

Olingan regressiya tenglamasi ko'rinishi

$$y = -0{,}0003x + 0{,}0462 \quad R^2 = 0{,}9992$$

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra tanlangan keramik nasadkalarning qarshilik koeffitsientini hisoblash uchun tuzatish koeffitsientlarining qiymatlari aniqlandi. Massaalmashinuv jarayoni samaradorligini aniqlashda muxim axamiyatga ega bo'lgan sharsimon keramik nasadkalarning solishtirma kontakt yuzalari ham aniqlandi.

Adabiyotlar

1. I.T.Karimov., Q.N.Ibrohimov., G.I.Madaminova. Gazlift apparati. O'z. Res. PATENT № FAR 2519 Tashkent 12.06.2024 yil
2. I. Karimov., K. Ibrohimov., **"***Theoretical study of the hydrodynamics of a bubble absorption apparatus***"** BIO Web of Conferences **145**, 03042 (2024) *Forestry Forum 2024*
3. Ibrohimov Q.N., Karimov I.T. "Barbotajli absorbsiya apparatining yangi konstruksiyasi" Farg'ona Politexnika Instituti ilmiy-texnika jurnali 2024 Maxsus son №3
4. Ikromali T. Karimov, Kobiljon Ibrohimov NEW CONSTRUCTION OF BUBBLE-ABSORBING APPARATUS Proceeding XI International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2024, Volume I (44-46 p)

NEFT GAZLARIDAGI H_2S NI BARBOTAJLI ABSORBERDA TOZALASH TEXNOLOGIYASI VA UNING FARG'ONA NQIZ SHAROITIDA QO'LLANISHI

Xalilov Ismoiljon Latifjon o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Hidrogen sulfid (H_2S) gazining neft gazlarida mavjudligi atrof-muhitga zarar, inson sog'lig'i va ishlab chiqarish uskunalari uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. U nafaqat zaharli va korroziyani kuchaytiruvchi xususiyatga ega, balki texnologik jarayonlarda to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli H_2S gazini samarali tozalash zamonaviy neftni qayta ishlash korxonalari uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Barbotajli (suvda pufakchali kontaktli) absorberlar bu borada nisbatan arzon, texnik jihatdan sodda va ishonchli usul hisoblanadi. Ushbu maqolada Farg'ona neftni qayta ishlash zavodidagi (Farg'ona NQIZ) texnologik sharoitlarda barbotajli absorber yordamida H_2S ni tozalash imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Tajriba ob'ekti:

Tadqiqot ob'ekti sifatida Farg'ona NQIZning neft gazlarida mavjud bo'lgan H_2S konsentratsiyasi 1.8–2.5% atrofida bo'lgan gaz aralashmalari tanlandi. Ishlab chiqarish sharoitida gaz oqimi soatiga 1000 m^3 gacha tashkil etadi.

Barbotajli absorberning tuzilishi

Ishlatilgan barbotajli absorber vertikal silindrik kolonna bo'lib, tag qismida suyuqlik — odatda natriy gidroksid (NaOH) eritmasi yoki ammiak eritmasi joylashtirilgan. Gaz yuqoridan yuboriladi va maxsus baryerlar (panjaralar) orqali uzluksiz pufaklar hosil qiladi. Bu pufaklar suyuqlik bilan reaksiyaga kirishib, H_2S neytralizatsiya qilinadi:

$$H_2S + 2NaOH \rightarrow Na_2S + 2H_2O$$

Tajriba sharoitlari

Ish harorati: 30–40 °C

Ish bosimi: atmosfera bosimida (1 atm)

Sorbent eritmasi: 5% NaOH eritmasi

Barbotaj chuqurligi: 0.6–0.8 m

Gaz oqimi tezligi: 0.5–1.2 m/s

Sorbent aylanish tezligi: 1.5 m^3/soat

Analizlar uchun GDS (Gas Detector System) va pH-metrik nazorat uskunalaridan foydalanildi. H_2S chiqish konsentratsiyasi va suyuqlik tarkibi har 30 daqiqada kuzatilib borildi.

Mazkur tadqiqot barbotajli absorber yordamida vodorod sulfid (H_2S) gazini suyuqlik orqali tozalash jarayonining samaradorligini baholashga qaratildi. H_2S — sanoat chiqindi gazlarida uchraydigan, atrof-muhit va inson salomatligi uchun xavfli modda hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘tkazilgan tajriba natijalari asosida barbotajli absorber tizimining ish faoliyati, asosiy texnologik parametrlarning ta'siri va sorbentning barqarorligi tahlil qilinadi.

Tajriba davomida H_2S gazi ishqoriy muhitdagi sorbent eritmasidan o‘tkazildi. Sorbent sifatida yuqori pH (ishqoriy) muhitga ega eritma tanlandi. Barbotajli absorber orqali gaz tarkibidagi H_2S ning kamayish darajasi, chiqishdagi gazning pH qiymati va eritma haroratidagi o‘zgarishlar qayd etildi.

Quyidagi jadvalda tajriba davomida kuzatilgan asosiy parametrlar va ularning natijalari keltirilgan:

Parametr	**Boshlang‘ich qiymat**	**Chiqishdagi qiymat**	**Tozalanish darajasi (%)**
H_2S konsentratsiyasi (vol.%)	2.1	0.03	98.6
pH (kirish)	13.2	—	—
pH (chiqish)	—	9.1	—
Eritma harorati (°C)	33	38	—

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, barbotajli absorber yordamida H_2S gazini 98.6% gacha samarali tozalash mumkin. Gaz tarkibidagi H_2S konsentratsiyasi 2.1% dan 0.03% gacha kamaygan. Bu esa texnologiyaning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Eritma kirishdagi pH = 13.2 bo‘lib, chiqishdagi qiymat 9.1 gacha pasaydi. Ishqoriy muhit H_2S ni zararsizlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Eritma harorati 33°C dan 38°C gacha ko‘tarilgan, bu jarayon davomida ekzotermik reaksiya sodir bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, sorbent eritmasi 3 soatlik ish faoliyatidan so‘ng sezilarli darajada o‘z samaradorligini yo‘qota boshlaydi. Ayniqsa, eritma pH qiymati 9.0 dan past bo‘lgan holatlarda tozalash darajasi 85% gacha pasayadi. Bu holat ishqoriy muhitning kamayishi H_2S ning neytrallanishi uchun yetarli bo‘lmay qolishini bildiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, barbotajli absorberlar yordamida H_2S ni neft gazlaridan tozalash mumkin bo‘lib, bu usul Farg‘ona NQIZ uchun texnologik va iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Gaz va suyuqlik orasidagi yuzaga keladigan katta kontakt maydoni tufayli massa almashinuvi samarali kechadi.

Ammo ayrim cheklovlar mavjud:

Barbotaj chuqurligi oshgan sari energiya sarfi ortib boradi.

Sorbentlar tez eskiradi va regeneratsiya yoki almashtirish talab etiladi.

Sistemada turbulentlikni kamaytirish va ravon oqimni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak tadqiqotlarda barbotajli sistemalarga ko‘p pog‘onali tozalash va sorbentni avtomatik regenerator tizimlarini qo‘shish mumkin.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi xulosalar qilindi:

Barbotajli absorber orqali neft gazlaridagi H_2S ni 98% dan ortiq darajada tozalash mumkin.

Farg‘ona NQIZ sharoitlarida bu usul oddiy qurilmalarda ham joriy etilishi mumkin.

Sorbentni nazorat qilish, aylanish tezligi va pH darajasini optimallashtirish tozalash samaradorligini oshiradi.

Texnologiya ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ishlab chiqarishda xavfni kamaytirish uchun dolzarbdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Incropera, F. P., DeWitt, D. P., Bergman, T. L., & Lavine, A. S. (2007). *Fundamentals of Heat and Mass Transfer*. 6th ed., John Wiley & Sons.
2. Rao, K. R. (2011). *Gas Treating and Procyessing*. 3rd ed., Gulf Publishing Company.
3. Bhaskar, V., & Shastri, V. P. (2009). "Removal of Hydrogen Sulfide from Natural Gas: A Reviyew of Different Techniquyes". *Journal of Natural Gas Sciyencye and Engineyering*, 1(3), 155–164.
4. Stoller, R., & Griyeger, M. (2015). "Hydrogen Sulfide Removal and Wastewater Treatment with a Barbotage Absorber". *Environmental Engineyering and Sciyencye*, 32(2), 187-195.

BOG‘LOVCHILAR ASOSIDA KO‘MIR KUKUNLARNI BRIKETLASH

Bu tajribalarda ham qurilmani aralashtirish zonasiga xar bir nasadkani alohida o‘rnatilgan xolatida yuqorida qayd etilgan 3 litr xajmdagi suv quyilib xar bir nasadkadan oqish vaqtlari aniqlandi.Tajribalar xar bir holat uchun 5 martadan takrorlandi. Qurilmaning aralashtirish zonasiga nasadkalar o‘rnatilmagan va o‘rnatilgan holatlarida, suvni oqish vaqti faqlariga nisbatan nasadkalarning qarshilik koeffitsientlari aniqlandi.

Keramik nasadka qo‘yilmasidan oldin qurilma ishchi zonasidan suyuqlikni oqib chiqish vaqti o‘rtacha 13 sekundni tashkil etdi. Nasadka sifatida foydalanilgan 3 xil o‘lchamdagi keramik nasadkalar bilan tajriba tadqiqotlarini o‘tkazganimizda diametri ortib borishi bilan to‘lish vaqti mos ravishda kamayib bordi. Diametri d_1=9 mm bo‘lgan keramik nasadkada to‘lish vaqti o‘rtacha $t_{to‘l}$=22 sekund, d_2=12mm bo‘lganda $t_{to‘l}$=20 sekund, d_3=15 mm bo‘lganda $t_{to‘l}$=18 sekundni tashkil etdi. Nasadkalarni qarshilik koeffitsientlari quyidagicha aniqlandi.

$$\xi = \frac{t_n}{t_0} \qquad (4)$$

Bu yerda t_n-3 litr xajmdagi suvni nasadkadan oqib chiqish vaqti, sek; t_0-suvni nasadka qo'yilmagan holatidan oqib chiqish vaqti, sek.

O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida diametri 9 mm bo'lgan keramik nasadkalarimiz uchun qarshilik koeffitsienti ξ=1,7 ga d=12 mm bo'lganda ξ=1,5 ga, d=15 mm bo'lganda esa ξ=1,3 ga tengligi aniqlandi. Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib bog'liqlik grafigi qurildi (3-rasm).



3-rasm. Keramik nasadkalarning xajmlariga bog'liq holda qarshilik koeffitsientini o'zgarish grafigi.

Adabiyotlar

5. I.T.Karimov., Q.N.Ibrohimov., G.I.Madaminova. Gazlift apparati. O'z. Res. PATENT № FAR 2519 Tashkent 12.06.2024 yil
6. I. Karimov., K. Ibrohimov., "*Theoretical study of the hydrodynamics of a bubble absorption apparatus*" BIO Web of Conferences **145**, 03042 (2024)
   Forestry Forum 2024
7. Ibrohimov Q.N., Karimov I.T. "Barbotajli absorbsiya apparatining yangi konstruksiyasi" Farg'ona Politexnika Instituti ilmiy-texnika jurnali 2024 Maxsus son №3
8. Ikromali T. Karimov, Kobiljon Ibrohimov NEW CONSTRUCTION OF BUBBLE-ABSORBING APPARATUS Proceeding XI International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2024, Volume I (44-46 p)

ОҚАВА СУВЛАРНИ ТОЗАЛАШДА БАРБОТАЖЛИ ЭКСТРАКТОРНИ ҚЎЛЛАШ

Каримов Икромали Тожиматович. Т.ф.д., доц.
i.karimov@ferpi.uz
Фарғона политехника институти

Аннатация. *Мақолада Фарғона нефтни қайта ишлаш заводининг фенол цехидан оқава сувларга ташланаётган фенол таркибли сувларни барботажли экстракторнинг тажриба қурилмасида экстрагент сифатида бензолдан фойдаланиб тозалаш бўйича ўтказилган тажрибавий тадқиқот натижалари келтирилган*

Калит сўзлар: *концентрация, фенол, бензол, сирт таранглик, қовушқоқлик, газ сарфи, фойдали иш коэффициенти, поғона.*

Оқава сувларда фенолнинг концентрацияси юқори бўлганлиги туфайли, амалиётда бу сувларни тозалаш учун экстракция ва буғлатиш усуллари қўлланилади [1].

Ушлаб қолинган фенолларни турли технологик жараёнларда ишлатиш, уларни ушлаб қолишга кетган сарф-ҳаражатларни тўлик қоплайди, фенолларнинг концентрацияси 3-4 г/л дан ортиқ бўлган ҳолларда эса фенолларни тозалаш рентабел жараёнга айланади [1].

Фенолли оқава сувларни экстракцион усул ёрдамида тозалашда экстрагентлар сифатида бутилацетат, диизопропил эфир, бензол, 4-хлорли углерод ва бошқалар ишлатилади [2]. 1.2-жадвалда бу экстрагентлар келтирилган.

1-жадвал

Ушлаб қолинаётган мода	Экстрагент	Тақсимланиш коэффициенти
Уксусная кислота	4—хлорли углерод бензол	0,06 0,055
Фенол	4—хлорли углерод бензол бутилацетат	0,4 2,4 8÷12
0-аминофенол n- нитрофенол 0-нитрофенол 4-нитро-2-аминофенол 4-нитрофенол	Бутилацетат	2,6 215 191 42 30

0-толиудин	Бензол	10
Анилин	Бутилацетат	27

Фенолларни ажратишни жадаллаштириш мақсадида аралашмали экстрагентлар хам таклиф этилган [2] ва улар 2-жадвалда келтирилган

2-жадвал

Эритгич(1)	Аралашма (2)	К1	К2	А	В
Гексанол	Октан	39,3	0,11	6,28	8,12
Октанол	Октан	31,0	0,11	8,03	9,44
Деканол	Октан	25,0	0,11	5,99	7,76
Октанол	Циклогексан	31,0	0,19	15,6	5,53
Октанол	Ч Х У	31,0	0,44	27,9	1,17
Октанол	Бензол	31,0	2,21	56,9	- 2,98
Октанол	Бутилацетат	31,0	54,4	108,0	- 58,6
Бензол	Бутилацетат	2,2	54,4	- 0,619	- 12,5
Октанол	Керосин	31,0	0,10	10,6	3,02
Н-гексан		0,13			
Н-гексан		0,05			

Бу ҳолда тақсимланиш коэффициентлари қуйидагича аниқланади:

$$M = Ф_1 \cdot К_1 + Ф_2 \cdot К_2 + Ф_1 \cdot Ф_2 \ [A + B (Ф_1 – Ф_2) + …] \quad (1)$$

бу ерда А и В - ўзгармаслар; Ф – ҳажмли фракция.

Тақсимланиш коэффициентларига ҳарорат жуда ката таъсир кўрсатади. Масалан, «сув-феноллар-бензол» системасида ҳарорат ортиши билан тақсимланиш коэффициенти ортади, «сув-феноллар-бутилацетат» системасида эса – пасаяди [1,2,3,4] (3-жадвал).

3-жадвал

Экстрагент	Харорат,^{0}С.				
	10	20	30	40	50
Бензол	1,8	2,1	2,36	2,5	2.95
Бутилацетат	55,5	48,5	45	40	34,4

Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи шароитида оқава сувларни феноллардан тозалаш учун экстрагент сифатида бензол таклиф этилди. Чунки уни топиш унчалик қийин эмас. Масалан, фенолларнинг тақсимланиш коэффициенти қуйидагича [3].

4-хлорли углеродда - 0,4; бензолда - 2,4; бутилацетатда - 8÷12. Фарғона нефтни қайта ишлаш заводида олинган суюқликларнинг физик-кимёвий ҳоссалари 4-жадвалда келтирилган.

4-жадвал

Фазалар	Зичлик ρ, кг/м^3	Қовушқоқлик $\mu, Па \cdot с$	Сирт таранглик $\sigma, н/м$	Фазараротаранглик $\sigma, н/м$
Оқава сув	1000	$1{,}28 \cdot 10^{-3}$	$71{,}2 \cdot 10^{-3}$	$42{,}8 \cdot 10^{-3}$
Бензол	870	$0{,}65 \cdot 10^{-3}$	$29 \cdot 10^{-3}$	

Тажрибалар лаборатория шароитида Фарғона нефтни қайта ишлаш заводидан келтирилган суюқликларда барботажли экстракторнинг 3-поғонали моделида ўтказилди, Тажриба натижаларига кўра поғонанинг фойдали иш коэффициенти η = 0,93 га тенг бўлди. Уч поғонали тозалаш жараёнида эса η = 99,7 га тенг бўлиб, талаб даражасида тозалашга эришилди.

Суюқликларнинг физик-кимёвий ҳоссалари маълум усуллар ёрдамида аниқланди ва 4-жадвалга келтирилган..

«Бензол : сув» нисбати 3 : 1 қилиб ушлаб турилди, бунда сувнинг максимал сарфи 0,13 м^3/соатни, бензолнинг максимал сарфи эса 0,39 м^3/соатни ташкил этди.

Моддаалмашиш бўйича олинган натижалар 5-жадвалда ўз аксини топган. Бу жадвалда фенолнинг бошланғич ва якуний концентрациялари ва суюқликларнинг биз томондан аниқланган физик-кимёвий ҳоссалари келтирилган.

Ўтказилган тадқиқотлар натижаларига асосан шуни таъкидлаш мумкинки, соатига 120 м^3 оқава сувларни феноллардан бошланғич концентрация 0,12 г/л дан қолдиқ 0,0007 г/л концентрациясигача тозалаш учун диаметри 1,96 м ва ишчи қисми баландлиги 3,2 м бўлган барботажли экстрактор керак.

5-жадвал

Фазалар	Концентрация, г/л	I поғона	II поғона	III поғона	Зичлик ρ, кг/м^3	Қовушқоқлик μ, Па·с	Фазалараро сирт таранглик σ, Н/м
Сув	$x_н$	0,12	0,017	0,0037	1000	$1{,}28 \cdot 10^{-3}$	$42{,}8 \cdot 10^{-3}$
	$x_к$	0,017	0,0037	0,0007			
Бензол	$y_н$	0	0,0015	0,007	870	$0{,}65 \cdot 10^{-3}$	
	$y_к$	0,0015	0,007	0,04			

Адабиётлар

1. Каримов И.Т., Алиматов Б.А., Садуллаев Х.М., Хурсанов Б.Ж. Гетероген тизимларга ишлов берувчи барботажли экстракторларни саноатда

қўллашнинг илмий-техник асослари/ Монография. – Фарғона: ФарПИ, 2021. – 226 б.
2. Каримов И.Т., Алиматов Б.А., Салимов З.С. Очистка сточных вод от фенолов в барботажном экстракторе // Научно-технический журнал ФерПИ. – Фергана, 2001. – № 3. –Б.106-107. (05.00.00.№20)
3. Каримов И.Т.,Хурсанов Б.Ж., Умбаров Ю. Фарғона нефтни қайта ишлаш заводида оқава сувларини феноллардан тозалаш асослари // Иқтидорли талабалар, магистрантлар, катта илмий ходим-изланувчи ва мустақил тадқиқотчилар: Республика илмий амалий анжумани материаллари тўплами. – Фарғона, 2013. – Б.17-18.
4. Каримов И.Т., Хурсанов Б.Ж. Оқава сувларни феноллардан тозалашни инновацион ечимлари // Кимё, нефт-газни қайта ишлаш ҳамда озиқ овқат саноатларини ривожланишида инновацион технологияларни долзарб муаммолари: Халқаро илмий-техникавий конференция тезислари тўплами. – Тошкент. 2016. – Б.146.

QURILISH SOHASIDA ATMOSFERAGA CHIQARILAYOTGAN CHANGLARNI HO‘L USULDA USHLASH TEXNOLOGIYASI

Xamdamov O‘tkirbek Tursunali o‘g‘li
hamdamovotkirbek1996@gmail.com
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: Qurilish jarayonida yuzaga keladigan changlar atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi. Xo‘l usulda changni ushlash suv yoki boshqa suyuqliklar yordamida amalga oshiriladi. Suv sepilgan joylarda changning havoga tarqalishiga imkon bermaydi. Suv changni tortib olib, erga joylashtiradi, shu tariqa changni atmosfega tarqalishidan himoya qilishga erishiladi.

Kalit so‘zlar: Skrubber, venturi, konfuzor, bo‘g‘iz, diffuzor, atmosfera.

Qurilish sanoati rivojlanishi bilan atmosferaga chiqarilayotgan chang miqdori ortib bormoqda. Qurilish maydonchalari, tsement va beton zavodlari, g‘isht ishlab chiqarish sexlari chang hosil bo‘lishining asosiy manbalaridan hisoblanadi. Ushbu changlar nafaqat ekologiyaga, balki inson salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, qurilish sanoatida changni samarali ushlash texnologiyalarini joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qurilish jarayonida yuzaga keladigan changlar atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi.

Xo‘l usulda changni ushlash suv yoki boshqa suyuqliklar yordamida amalga oshiriladi. Suv sepilgan joylarda changning havoga tarqalishiga imkon bermaydi. Suv changni tortib olib, erga joylashtiradi, shu tariqa changni atmosfega tarqalishidan himoya qilishga erishiladi.

Xo‘l usulning asosiy afzalliklari

-Effektivlik: Suv changni tezda ushlashga yordam beradi. Suv bilan namlantirilgan yuzalar changni ushlab qoladi va uning havoga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaydi.
-Kam xarajat: Xo‘l usulda maxsus asbob-uskunalar yoki qimmatbaho texnologiyalar talab qilinmaydi. Suv, asosan, iqtisodiy jihatdan arzon va oson topiladigan resursdir.
-Ishchilarga zarar etkazmaslik: Xo‘l usul orqali atmosferaga chiqadigan chang miqdori sezilarli darajada kamayadi, bu esa ishchilarni changdan keladigan sog‘liq muammolaridan himoya qiladi.
-Beton va tsement ishlab chiqarishda chang chiqishi yuqori bo‘ladi.
-Qurilish materiallarini maydalash, maydalangan materiallarni saralash jarayonlarida chang hosil bo‘ladi.
-Qurilish chiqindilarining noto‘g‘ri saqlanishi natijasida chang tarqalishi kuzatiladi. Havodagi chang inson salomatligiga zarar yetkazadi, ayniqsa, nafas yo‘llari kasalliklariga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, changni ushlab qolish uskunalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Qurilish sanoatida changni ushlashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular orasida eng samaralisi ho‘l usulda changni ushlash texnologiyalaridir. Ushbu usul quyidagi afzalliklarga ega:
-Changning suv yoki boshqa suyuqliklar bilan bog‘lanishi natijasida havoga tarqalishining oldini oladi.
-Gaz va chang oqimi to‘liq tozalanadi.
-Qurilmaning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Venturi skrubberlar ho‘l usuldagi eng samarali chang ushlash qurilmalaridan biri bo‘lib, yuqori tezlikdagi gaz oqimi yordamida changni ushlaydi.
Ishlash prinsipi
Venturi skrubber quyidagi bosqichlarda ishlaydi:
-Gaz va chang oqimi – changli gaz oqimi qurilmaning kirish qismiga yo‘naltiriladi.
-Bo‘g‘iz qismi – gaz oqimi torayuvchi bo‘g‘izdan o‘tib, tezligi 60-120 m/s gacha oshadi.
-Suyuqlik bilan aralashish – yuqori tezlikda harakatlanayotgan gaz suyuqlik bilan kuchli zarba hosil qilib, chang zarralari namlanadi.
-Ajratish – namlangan chang va gaz aralashmasi kengayish kamerasiga kiradi, bu erda chang zarralari og‘irligi tufayli ajraladi va yig‘iladi.
-Tozalangan gaz chiqariladi – toza gaz oqimi atmosferaga chiqariladi yoki keyingi filtratsiya bosqichiga yuboriladi.
Venturi skrubber quyidagi asosiy qismlardan iborat:
-Kirish kamerasi – changli gaz oqimi shu yerga kiradi.
-Torayuvchi bo‘g‘iz – gaz tezligini oshirish uchun ishlatiladi.
-Suyuqlik purkash tizimi – chang zarralarini ushlash uchun suv yoki boshqa suyuqlik purkaladi.

-Kengayuvchi kamera – chang namlanganidan so‘ng gaz oqimi sekinlashadi va chang ajratiladi.
-Ajratish kamerasi – chang va suv aralashmasi to‘planadi va chiqarib yuboriladi.
Asosiy parametrlar
Gaz tezligi: 60-120 m/s
Tozalash samaradorligi: 95-99%
Gidravlik qarshilik: 500-2500 Pa
Suyuqlik sarfi: 0.5-2.5 l/m³ gaz



Qo‘llanilish sohasi: tsement zavodlari, qurilish chiqindilarini qayta ishlash sexlari, ohak va gips ishlab chiqarish liniyalariSuyuqlik plyonkali chang ushlagichlar changning suv bilan birikishi orqali tozalashni amalga oshiradi.Purkagichli skrubberlarMaxsus purkagich tizimi yordamida chang zarrachalarini yuvib tushiradi.Bu texnologiyalar qurilish zavodlari, tsement ishlab chiqarish liniyalari va maydalash sexlarida keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I., Tojiyev, R., Madaminova, G., Ibroximov, Q., & Xamdamov, O. T. (2021). Wet method dust remover black drum device. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, *1*(5), 57-63.
2. Karimov, I., Tojiyev, R., Madaminova, G., Ibroximov, Q., & Xamdamov, O. T. (2021). Hydrodynamics of wet dush powder black drum equipment. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, *1*(5), 49-56.
3. Ergashev, N., & G'aniyeva, G. (2023). RESEARCH HYDRAULIC RESISTANCE OF WET CLEANING DEVICEOF DUST GASES. *Scientific progress*, *4*(1), 358-368.
4. Ergashev Nasimbek Axmadjonovich, Xoshimov Avazbek Obidjon o‘g‘li, & G'aniyeva Gulnoraxon Shavkatjon qizi. (2022). EXPERIMENTAL DETERMINATION OF HYDRAULIC RESIDENCE. *International Journal of Advance Scientific Research*, *2*(06), 6–14.

GAZLARNI HO'L USULDA TOZALOVCHI APPARAT ISHCHI YUZASIDA PLYO'NKA QATLAMI TADQIQ ETISH

Axrorov Akmaljon Akramjon ug'li
T.f.b.(PhD),
Farg'ona davlat texnika universiteti,
e-mail: a.axrorov@ferpi.uz

Kirish. Sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida ajralib chiqadigan ikkilamchi gazlarni absorbsion usul bilan tozalash va gaz aralashmasi tarkibidagi kerakli komponentni yana ishlab chiqarish jarayoniga qaytarib, xomashyo sifatida foydalanish uchun energiyatejamkor va tozalash samaradorligi yuqori bo'lgan zamonaviy qurilmalar konstruksiyasini ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu esa mavjud qurilmalarning gaz tozalash samaradorligi hamda energiya sarfiga ta'sir etuvchi gidrodinamik va moddaalmashinish jarayonlarni chuqur o'rganish va tahlil etishni talab etadi [1, 2, 3].

1; 2 va 3–rasmlardani ko'rinadiki filtrlovchi material (paronit) teshigining diametri d_f=2 mm -const va shtuser teshigining diametri d_{sh}=1; 2 va 3 mm hamda kalsiyli texnik sodaning suvdagi 10%, 20%, 30%li eritmasida ishchi suyuqlikning minimal sarfida plyonka qatlami qalinligi 6,0 ÷ 10,3 mkm ortishi kuzatilgan bo'lsa, ishchi suyuqlikning maksimal sarfida esa plyonka qatlami qalinligi 9,6÷17 mkm ortishi kuzatildi. Filtrlovchi material (paronit) teshigining diametri d_f=3 mm -const va shtuser teshigining diametri d_{sh}=1; 2 va 3 mm hamda kalsiyli texnik sodaning suvdagi 10%, 20%, 30%li eritmasida ishchi suyuqlikning minimal sarfida plyonka qatlami qalinligi 3,9 ÷ 6,8 mkm ortishi kuzatilgan bo'lsa, ishchi suyuqlikning maksimal sarfida esa plyonka qatlami qalinligi 6,2÷11 mkm ortishi kuzatildi hamda filtrlovchi material (paronit) teshigining diametri d_f=4 mm -const va shtuser teshigining diametri d_{sh}=1; 2 va 3 mm hamda kalsiyli texnik sodaning suvdagi 10%, 20%, 30%li eritmasida ishchi suyuqlikning minimal sarfida plyonka qatlami qalinligi 1,7 ÷ 3 mkm ortishi kuzatilgan bo'lsa, ishchi suyuqlikning maksimal sarfida esa plyonka qatlami qalinligi 2,7÷4,9 mkm ortishi kuzatildi. Bundan shunday hulosa qilish mumkinki, suyuqlik sarfining ortishi filtrning ishchi yuzasida hosil bo'ladigan suyuqlik plyonka qatlamini qalinlashishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida yuqorida takidlanganidek filtr teshigining diametriga ham bog'liq bo'ladi. Filtr teshigining dimetri qanchalik katta bo'lsa plyonka qatlami qalinligi shuncha kichik bo'ladi. Aksincha filtr teshigining diametri kichiklashishi plyonka qatlamining qalinlashishini ta'minlayd. Biz o'rganayotgan jarayonda moddalamashinishni yaxshilash, aynan maodalamshinuv yuzasiga hamda plyonka qatlami qalinligi

bog'liq bo'ladi. Lekin, bunda qurilmadagi gidravlik qarshilikni ham e'tiborga olish zarur.

1; 2 va 3 – rasmlarda keltirilgan grafik bog'liqliklarga eng kichik kvadratlar usulini qo'llab quyidagi empirik formulalar olindi [].



● – Na_2CO_3 ning suvdagi 10% eritmasida; ■ – Na_2CO_3 ning suvdagi 20% eritmasida; ▲ – Na_2CO_3 ning suvdagi 30% eritmasida.

1– d_{sh}=1 mm va Q_{suyu}=0,068÷0,160 m^3/soat; 2– d_{sh}=2 mm va Q_{suyu}=0,071÷0,168 m^3/soat; 1– d_{sh}=3 mm va Q_{suyu}=0,072÷0,178 m^3/soat;

1–rasm. Plyonka qalinligining absorbent sarfiga bog'liq holda o'zgarish grafigi, d_f=2 mm-const.



● – Na_2CO_3 ning suvdagi 10% eritmasida; ■ – Na_2CO_3 ning suvdagi 20% eritmasida; ▲ – Na_2CO_3 ning suvdagi 30% eritmasida.

1– d_{sh}=1 mm va Q_{suyu}=0,068÷0,160 m^3/soat; 2– d_{sh}=2 mm va Q_{suyu}=0,071÷0,168 m^3/soat; 1– d_{sh}=3 mm va Q_{suyu}=0,072÷0,178 m^3/soat;

2–rasm. Plyonka qalinligining absorbent sarfiga bog'liq holda o'zgarish grafigi, d_f=3 mm-const.



● – Na_2CO_3 ning suvdagi 10% eritmasida; ■ – Na_2CO_3 ning suvdagi 20% eritmasida; ▲ – Na_2CO_3 ning suvdagi 30% eritmasida.

1– d_{sh}=1 mm va Q_{suyu}=0,068÷0,160 m^3/soat; 2– d_{sh}=2 mm va Q_{suyu}=0,071÷0,168 m^3/soat; 1– d_{sh}=3 mm va Q_{suyu}=0,072÷0,178 m^3/soat;

3–rasm. Plyonka qalinligining absorbent sarfiga bog'liq holda o'zgarish grafigi, d_f=4 mm-const.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlil va tajriba sinovlarida olingan kattaliklarni qayta ishlash natijasida quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

-superfosfat miyenral o'g'iti ishlab chiqarishda ajralib chiqadigan ikkilamchi vodorod–ftorid gazining yemiruvchanligi va aktiv muxitga tez moslashuvchanligini inobatga olib texnik soda (Na_2CO_3)ning suvdagi eritmasi absorbsion suyuqlik sifatida tanlandi;

-ishchi suyuqlik tarkibida texnik soda (Na_2CO_3) miqdorining ortishi, suyuqlik dinamik qovushqoqligini 4,5 MPa·s va zichligini 1280 kg/m^3 ortirdi;

-qurilmadagi suyuqlik fazada kechadigan modda almashnish jarayonini kimyoviy tahliliga ko'ra texnik sodaning suvdagi eritmasiga vodorod–ftorid yutilganda suv va natriy ftorid eritmasi hamda korbonat angdrid gazi hosil bo'ldi;

-1; 2; va 3-rasmlarda berilgan grafiklardan ko'rinadiki shtuser teshigining diametri d_{sh}=3 mm va ishchi suyuqlikning sarfi 0,178 m^3/soatda hamda filtrlovchi material (paronit) teshigining diametri d_{sh}=2 mm bo'lganda ishchi yuazada suyuqlik plyonkasi qalinligi eng yuqori, shuningdek shtuser teshigining diametri d_{sh}=1 mm va ishchi suyuqlikning sarfi 0,068 m^3/soatda hamda filtrlovchi material (paronit)

teshigining diametri d_{sh}=4 mm bo‘lganda ishchi yuazada suyuqlik plyonkasi qalinligi eng kichik qiymatlariga erishdi.

-plyonkali moddaalmashinish qurilmalarida hosil bo‘ladigan suyuqlik plyonkasini hisoblash nazariy tenglamasi (5) ga to‘g‘irlash koeffisiyenti kiritilib, tajriba qurilmasining konstruktiv o‘ziga xosiligi va unda kechadiagn gidrodinamik jarayonni hisobga oluvchi tenglama (7) olindi.

Adabiyotlar

1. Валдберг А.Ю., Николайкина Н.Е. Процесси и аппараты зашиты окружающей среды. – Москва: Дрофа, 2008. –239 с.

2. Isomidinov A.S. Development of effective methods and devices for the purification of dust gases from the chemical industry: Diss. PhD. - Tashkent, - 2020. - 118 p. (in Uzbek).

3. Yusupbekov N.R., Nurmuhamedov H.S., Zokirov S.G. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. – Toshkent: Fan va texnologiya-lar, 2015. – 848 b.

4. Isomidinov A.S., Tojiyev R.J., Karimov I.T. Ho‘l usulda changli gazlarni tozalovchi rotorli qurilma // Farg‘ona politexnika institutining ilmiy-texnik jurnali. – Farg‘ona, 2018. – №1. – B. 195–198.

5. Tojiev Rasuljon, Isomiddinov Azizbek, and Akhrorov Akmaljon. "Analysis of the dispersed composition of the phosphorite dust and the properties of emission fluoride gases in the production of superphosphate mineral fertilizers." *Universum: ximiya i biologiya* 6-2 (84) (2021): 68-73.

6. В.М.Рамм. Абсорбция газов // Изд. 2-е, переработ. и доп. М., “Химия”, 1976. -655 с.

ROTOR-FILTRLI QURILMADA GIDRAVLIK QARSHILIKNING TOZALASH SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISH

A.S.Isomidinov, A.A.Mo‘ydinov
t.f.b.d. (PhD), dotsent, tayanch doktorant a.s.isomidinov@ferpi.uz
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi

Tadqiqot obyekti va natijalari:

Qurilma gidravlik qarshiligining tozalash samaradorligiga ta’sirini o‘rganish va maqbul parametrlarni asoslash maqsadida eksperemental tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotlar uchun chang na’munalari (selitra va ammofos mineral o‘g‘iti changi) tanlanib ularning asosiy fizik va kimyoviy xarakteristikalari o‘rganildi hamda ikki bosqichli loboratoriya analizidan o‘tkazilib o‘rtacha median o‘lchamlari aniqlandi [6].



1 – qurilma tanasi; 2 – diffuzor; 3 – filtrlovchi to‘rli material;5 – sterjen; 6 – po‘lat to‘r; 7 – konfuzor; 8 – val; 9 – nasos; 10 –suyuqlik quvuri; 11 – shtuser; 12 – zont; 13 – jumrak; 14 – shlam quvuri; 15 – sathni moslashtiruvchi quvur; 16 – ventilyator; 17 –shnekli ta'minlagich; 18 – Prandl nayi;19 – shkiv; 20 – tasma; 21 – elektromotor; 22 – LATR; 23 – taxometr; 24 – rotometr; 25 – elektron monometr **JM-510**; 26,27,28 – bolt, gayka va shayba.

1-rasm. Qurilmaning umumiy ko‘rinishi.

Qurilma gidravlik qarshiligining tozalash samaradorligiga ta'sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperemental tadqiqotlar ikki bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqichda changli havo oqiqmining gidravlik qarshilikka ta'siri o‘rganildi. Birinchi bosqich tajribalarini o‘tkazish uchun o‘zgaruvchi omillarning qiymatlari suyuqlik sarfi S_{suyu}=0,141; 0,168; 0,178 m^3/soat, shtuser teshigining diametri d_{sh}=1; 2; 3 mm, gaz tezligi υ_g= 7 m/s ÷35 m/s gacha oraliq qadam 4 m/s, filtrlovchi to‘rli material aktiv yuzasi $\sum S_{akt}$=0,202; 0,229; 0,268 m^2, rotorning aylanishlar chastotasi tajriba uchun o‘rtacha qiymatda n=25 ayl/min, gaz zichligi selitra changi va havo aralashmasi uchun ρ_{ar}=1,82 kg/m^3 hamda ammofos changi va havo aralashmasi uchun ρ_{ar}=1,88 kg/m^3 etib belgilanda [7,8]. 1m^3 havo tarkibidagi changning miqdori GOST-1245-93 bo‘yicha selitra changi uchun 333,7 mg/m^3, va GOST-1261-93 bo‘yicha ammofos changi uchun 245,91 mg/m^3 tanlandi.O‘tkazilgan tajriba natijalari 2-7-rasmlarda keltirilgan.



2-rasm.
d_{sh}=1 mm va ρ_g =1,82 kg/m^3–const bo‘lganda



3-rasm.
d_{sh}=2 mm va ρ_g =1,82 kg/m^3–const bo‘lganda



4-rasm.
d_{sh}=3 mm va ρ_g =1,82 kg/m^3–const bo‘lganda



5-rasm.
d_{sh}=1 mm va ρ_g =1,88 kg/m^3–const bo'lganda



6-rasm.
d_{sh}=2 mm va ρ_g =1,88 kg/m^3–const bo'lganda



7-rasm.
d_{sh}=3 mm va ρ_g =1,88 kg/m^3–const bo'lganda

1 – aktiv yuza $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 bo'lganda; 2 – aktiv yuza $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 bo'lganda; 3 – aktiv yuza $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 bo'lganda.

2-7-rasmlar. Suyuqlik berilgan qurilma gidravlik qarshiligi ΔP_{cb} ning gaz tezligi υ_g ga bog'liqligi

2-4-rasmlarda gaz va selitra aralashmasining gidravlik qarshilikka ta'siri ko'rsatilgan. Berilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, gaz tezligi υ_g= 7÷35 m/s gacha oraliq qadam 4 m/s, filtrlovchi to'rli material aktiv yuzasi $\sum S_{akt}$=0,202; 0,229; 0,268 m^2 ortib borganda gidravlik qarshilikning eng yuqori qiymati d_{sh}=1 mm, S_{suyu}=0,141 m^3/soat–const uchun ΔP_{sb}=1403 Pa dan ΔP_{sb}=2027 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam aktiv yuzaning $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=243 Pa ni tashkil etgan bo'lsa, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=381 Pa ni tashkil etdi.d_{sh}=2 mm, S_{suyu}=0,168 m^3/soat–const uchun ΔP_{sb}=1812 Pa dan ΔP_{sb}=2398 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam aktiv yuzaning $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=161 Pa ni tashkil etgan bo'lsa, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=425 Pa ni tashkil etdi. d_{sh}=3 mm, S_{suyu}=0,168 m^3/soat–const uchun ΔP_{sb}=1922 Pa dan ΔP_{sb}=2520 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam aktiv yuzaning $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=140 Pa ni tashkil etgan bo'lsa, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=458 Pa ni tashkil etdi.

5-7-rasmlarda gaz va selitra aralashmasining gidravlik qarshilikka ta'siri ko'rsatilgan. Berilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, gaz tezligi υ_g= 7÷35 m/s gacha oraliq qadam 4 m/s, filtrlovchi to'rli material aktiv yuzasi $\sum S_{akt}$=0,202; 0,229; 0,268 m^2 ortib borganda gidravlik qarshilikning eng yuqori qiymati d_{sh}=1 mm, S_{suyu}=0,141 m^3/soat–const uchun ΔP_{sb}=1450 Pa dan ΔP_{sb}=2094 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam aktiv yuzaning $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=251 Pa ni tashkil etgan bo'lsa, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=393 Pa ni tashkil etdi. d_{sh}=2 mm, S_{suyu}=0,168 m^3/soat–const uchun ΔP_{sb}=1872 Pa dan ΔP_{sb}=2477 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam aktiv yuzaning $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=166 Pa ni tashkil etgan bo'lsa, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=439 Pa ni tashkil etdi. d_{sh}=3 mm, S_{suyu}=0,168 m^3/soat–const uchun ΔP_{sb}=1986 Pa dan

ΔP_{sb}=2603 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam aktiv yuzaning $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=144 Pa ni tashkil etgan bo'lsa, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,268 m^2 qiymatlari orasida ΔP_{sb}=473 Pa ni tashkil etdi.

2-7-rasmlarda keltirilgan grafik bog'liqliklarga eng kichik kvadratlar usulini qo'llab quyidagi empirik formulalar olindi [2].

Selitra changi va gaz aralashmasi uchun.

d_{sh}=1 mm va ρ_g =1,82 kg/m^3–const bo'lganda;

$\sum S_{akt}$=0,202 m^2; ΔP_{sb}= 1,1676 υ_g^2 – 0,6974 υ_g + 19,433 (R^2 = 0,9935) (1)

$\sum S_{akt}$=0,229 m^2; ΔP_{sb} = 1,3981 υ_g^2 – 1,1964 υ_g + 18,877 (R^2 = 0,9988) (2)

$\sum S_{akt}$=0,268 m^2; ΔP_{sb} = 1,6946 υ_g^2 – 0,6312 υ_g + 23,262 (R^2 = 0,9981) (3)

d_{sh}=2 mm va ρ_g =1,82 kg/m^3–const bo'lganda;

$\sum S_{akt}$=0,202 m^2; ΔP_{sb}= 1,3153 υ_g^2 + 9,505 υ_g – 65,449 (R^2 = 0,9996) (4)

$\sum S_{akt}$=0,229 m^2; ΔP_{sb} = 1,4017 υ_g^2 + 11,508 υ_g – 77,513 (R^2 = 0,9999) (5)

$\sum S_{akt}$=0,268 m^2; ΔP_{sb} = 1,6068 υ_g^2+ 18,36 υ_g – 120,11 (R^2 = 0,9993) (6)

d_{sh}=3 mm va ρ_g =1,82 kg/m^3–const bo'lganda

$\sum S_{akt}$=0,202 m^2; ΔP_{sb}= 1,6592 υ_g^2 – 1,6208 υ_g + 7,6006 (R^2 = 0,9997) (7)

$\sum S_{akt}$=0,229 m^2; ΔP_{sb} = 1,7691 υ_g^2– 1,1406 υ_g + 3,4417 (R^2 =0,9999) (8)

$\sum S_{akt}$=0,268 m^2; ΔP_{sb} = 1,7808 υ_g^2+ 14,461 υ_g – 87,976 (R^2 = 0,9999) (9)

Ammofos changi va gaz aralashmasi uchun.

d_{sh}=1 mm va ρ_g =1,88 kg/m^3–const bo'lganda;

$\sum S_{akt}$=0,202 m^2; ΔP_{sb}= 1,2245 υ_g^2 – 1,5615 υ_g + 26,39 (R^2 = 0,9925) (10)

$\sum S_{akt}$=0,229 m^2; ΔP_{sb} = 1,447 υ_g^2– 1,3463 υ_g + 20,436 (R^2 = 0,9988) (11)

$\sum S_{akt}$=0,268 m^2; ΔP_{sb} = 1,752 υ_g^2 – 0,7154 υ_g + 24,753 (R^2 = 0,9981) (12)

d_{sh}=2 mm va ρ_g =1,88 kg/m^3–const bo'lganda;

$\sum S_{akt}$=0,202 m^2; ΔP_{sb}= 1,3291 υ_g^2 + 11,04 υ_g – 75,205 (R^2 = 0,9996) (13)

$\sum S_{akt}$=0,229 m^2; ΔP_{sb} = 1,414 υ_g^2+ 13,352 υ_g – 90,285 (R^2 = 0,9999) (14)

$\sum S_{akt}$=0,268 m^2; ΔP_{sb} = 1,656 υ_g^2+ 19,122 υ_g – 125,05 (R^2 = 0,9993) (15)

d_{sh}=3 mm va ρ_g =1,88 kg/m^3–const bo'lganda;

$\sum S_{akt}$=0,202 m^2; ΔP_{sb}= 1,7131 υ_g^2 – 1,601 υ_g + 6,6182 (R^2 = 0,9997) (16)

$\sum S_{akt}$=0,229 m^2; ΔP_{sb} = 1,825 υ_g^2 – 1,0224 υ_g + 1,2864 (R^2 =0,9999) (17)

$\sum S_{akt}$=0,268 m^2; ΔP_{sb} = 1,8382 υ_g^2+ 14,992 υ_g – 91,37 (R^2 = 0,9999) (18)

Ikkinchi bosqichda gidravlik qarshilikning tozalash samaradorligiga ta'siri tadqiq etildi. Tanlangan chang na'munalari qurilma ventelyatorining (16) changli gazni so'ruvchi potrubkasiga o'rnatilgan shnekli ta'minlagich (17) orqali miqdorlab uzatilib qurilmaning tozalash samaradorligi o'zgaruvchi omillirning turli parametrlari uchun aniqlandi. Tajribalarini o'tkazish uchun o'zgaruvchi omillarning qiymatlari gaz tezligi 7 m/s÷35 m/s gacha o'zgartirildi va oraliq qadam 4 m/s ortib bordi, filtrlovchi material aktiv yuzasi $\sum S_{akt}$=0,268 m^2, $\sum S_{akt}$=0,229 m^2 va $\sum S_{akt}$=0,202 m^2 gacha, rotorning aylanishlar chastotasi tajriba uchun o'rtacha

qiymatda 25 ayl/min, gaz zichligi selitra changi va gaz aralashmasi uchun 1,82 kg/m^3 va ammofos changi va gaz aralashmasi uchun 1,88 kg/m^3 va eksperimental tadqiqotlarda maydalangan zarrachalarning o'rtacha median o'lchamini selitra changi uchun δ_{50}=0,917 mkm va ammofos changi uchun esa δ_{50}=1,5 mkm deb qabul qilindi. Tajribalarni o'tkazishda tashqi muhit ta'siri hisobga olinib suv va gaz tizimi uchun harorat 20^{o}C±2 tanlandi.Tozalash samaradorligini aniqlashda PA-40M laboratoriya jihozidan foydalanildi.

Olingan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki tanlangan chang na'munalarining o'rtacha median o'lchamidagi farq tozalash samaradorligiga ta'sir ko'rsatar ekan. Qurilmaga changli gazni kirish tezligi 18,79÷23,8 m/s oralig'ida bo'lganda, gidravlik qarshilik maqbul qiymatda va tozalash samaradorligi PDK talablaridan yuqori bo'lar ekan.







8-rasm. **9-rasm.** **10-rasm.**

8-9-rasmlar. Tozalash samaradorligi η ning qarshilik koeffisiyenti ξ_{um} ga bog'liqligi

8-rasm.d_{sh}=1 mm; 9-rasm.d_{sh}=2 mm; 10-rasm.d_{sh}=3 mm;

Xulosa:

Qurilmaning tozalash samaradorligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribalardan olingan natijalardan shunday hulosa qilish mumkinki qurilmada qarshilik koeffisiyentining eng katta qiymatida ξ=2,6 namuna uchun tanlangan changlarni tozalash samaradorligi qurilmaning eng kichik gidravlik qarshiligida ammofos changi uchun η_{RFA}=96,4%ni, selitra changi uchun esa η_{RFA}=97,2% ni, qurilmadagi eng katta gidravlik qarshiligida esa Ammofos changi η_{RFA}=99,4% selitra changi uchun η_{RFA}=99,7% ni tashkil etmoqda. Grafiklardan ko'rinadiki ammofos changiga nisbatan selitra changini tozalash samaradorligi yuqori bo'lib bunga chang namunalarining o'rtacha median o'lchamlaridagi farqlar sababini ko'rsatish mumkin. Qurilmani sanoat variantini loyihalashda sanoat korxonalaridan chiqayotgan changlarning median o'lchamini e'tiborga olish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

[1] Isomidinov A.S., Karimov I.T., Tojiev R.J. Searching the losing of hydraulic pressure in rotor-filter gas cleaner apparatus // Scientific-technical journal. – 2021. – T. 3. – № 1. – S. 69–72.

[2] Isomidinov A. S. Issledovaniye gidravlicheskogo soprotivleniya rotorno-filtruyuщyego apparata //Universum: texnicheskiye nauki. – 2019. – №. 10-1 (67).

[3] Isomiddinov A. et al. Application of rotor-filter dusty gas cleaner in industry and identifying its efficiency //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2019. – №. 9-10.

6-SHO'BA - Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning fizik-matematik asoslari

KABEL SANOATLARI RIVOJLANTIRISHDA CHO'ZISH DASTGOHLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSLARI UCHUN ALGORITMLARINING BLOK-SXEMASI ISHLAB CHIQISH

Tojiyev Boburbek Abdulxakim o'g'li
mstboburbek92@gmail.com
Farg'ona davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Cho'zish dastgohlari sim va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishning asosiy jihozlari hisoblanadi. Ushbu dastgohlarda asosan sovuq holda plastik deformatsiya natijasida simlarning cho'zish operatsiyalari amalga oshiriladi. Texnologik jarayonda qo'llaniladigan cho'zish dastgohlarida ishlab chiqarilayotgan simlarning texnik iqtisodiy ko'rsatgichlari ishlab chiqarish harajatlariga va simning sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuni inobatga olib, cho'zish dastgohlarining asosiy qismi mis mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Maskur mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'rsatgichlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Mis mahsulotlarining ishlab chiqarish ko'rsatgichlari

Hozirgi kunda mis materiallaridan tayyorlanadigan sim mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy cho'zish dastgohlarni joriy etilishi, yangi konstruksiyadagi valoklarning loyihalanishi va takomillashtirilishi, cho'zish mobaynida qo'llaniladigan sovutish-moylash suyuqliklarining ishlab chiqarishga tadbiq etilishi hamda mis materillaridan tayyorlanadigan simlarning deformatsiya bosqichlarini analitik hisoblash usullari joriy qilinishi hisobiga cho'zish jarayoni sezilarli darajada modernizatsiya qilindi. Ammo cho'zish dastgohida mis materiallaridan tayyorlanadigan simlariga bosim bilan ishlov berish natijasida yuzaga keladigan plastik deformatsiya parametrlarini avtomatik hisoblashning optimal algoritmlari yetarli darajada o'rganilmaganini ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Bu esa mis simlariga ishlov berishda cho'zish dastgohlarining unumdorligiga va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir etishi bilan kifoyalanadi. Yuqoridagilarni inobatga

olib, mis materiallarining M0, M1 va M4 markalari uchun cho‘zishning optimal algoritimini hamda matematik modelini ishlab chiqish ushbu bobning maqsadi qilib belgilangan.

Cho‘zish dastgohlarining deformatsiya bosqichlarini hisoblash usulida asosan cho‘zish uchun nazarda tutilayotgan material markasi, uning mustahkamlik chegarasi, cho‘zish uchun talab etilayotgan kuch va quvvat, deformatsiya bosqichlari, cho‘zish kuchlanish va tezligi hamda simning siqilishdagi deformatsiya darajasining birlik qiymatlarini aniqlashga qaratilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan parametlarni aniqlash orqali butun cho‘zish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan qiymatlarni aniqlash tufayli cho‘zish jarayonining ishonchliligi ta’minlanadi [1; 100-b].

Bunda asosan dastgohning cho‘zish koeffitsiyentlari har bir o‘tish mobaynida cho‘zish tezligining berilgan qiymatlari bo‘yicha hisoblab chiqiladi va ular asosida cho‘zish marshruti tuziladi hamda uning yordami bilan deformatsiyaning birlik darajasining qiymatlari hisoblanadi. Olingan qiymatlar va oldindan berilgan texnologik jihozning ya’ni valokning yarim burchakli qiymatlari tufayli mis materiallaridan tayyorlangan simning mustahkamlik chegarasi va cho‘zish kuchlanishi kabi parametrlar aniqlanadi. Ushbu parametrlarni aniqlash orqali cho‘zish jarayonining asosiy ko‘rsatgichlarini ya’ni cho‘zish kuchi va cho‘zish quvvatini hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Cho‘zish dastgohining deformatsiya bosqichlari bo‘yicha cho‘zish marshrutlarini hisoblash uchun quyidagi ko‘rsatgichlardan foydalaniladi:

1. Deformatsiya bosqichlari bo‘yicha umumiy cho‘zilish koeffitsiyenti

$$\mu_{um} = \frac{d_0^2}{d_n^2} \tag{1}$$

bunda d_0 – dastlabki simning diametri, d_n – tayyor simning diametri.

2. Har bir o‘tishdagi cho‘zilish koeffitsiyenti

$$\mu_i = \frac{F_{i-1}}{F_i}, \quad i = \overline{1, \quad n} \tag{2}$$

3. Har bir valokdagi sim diametri (cho‘zish marshruti)

$$d_i = \sqrt{\frac{d_{i-1}^2}{\mu_i}}, \; i = \overline{1, \quad n-1} \tag{3}$$

4. Umumiy deformatsiya darajasi

$$\varepsilon_{um} = \frac{d_0^2 - d_n^2}{d_0^2}. \tag{4}$$

5. Har bir o‘tishdagi birlik deformatsiya darajasi

$$\varepsilon_i = \frac{d_{i-1}^2 - d_i^2}{d_{i-1}^2}, \quad i = \overline{1, \quad n} \tag{5}$$

6. Har bir o'tish uchun mis materiallaridan tayyorlanadigan simlarning plastik deformatsiyadan so'ng mustahkamlik chegarasi

$$\sigma_{B_i} = \sigma_B^z \sqrt{\frac{d_0}{d_i}}, \quad i = \overline{1, \quad n} \tag{5}$$

σ_B^z - zagotovkaning mustahkamlik chegarasi.

7. Har bir o'tish uchun mis materiallaridan tayyorlangan simning cho'zish kuchlanishi

$$\sigma_B \left((1 + \delta_i) \ln \mu_i + 0,77 tg\alpha_i \right), \quad i = \overline{1, \quad n} \tag{6}$$

bunda $\delta_i = \dfrac{f}{tg\alpha_i}$ har bir valok uchun ishqalanish koeffitsiyenti, mis materiallari uchun $f = 0,07 \div 0,06$; [2; 422-b]; α_i - har bir o'tish uchun valokning yarim konus burchagi.

8. Har bir o'tish uchun cho'zish kuchi

$$P_i = \sigma_{0_i} \cdot F_i, \quad i = \overline{1, \quad n} \tag{7}$$

9. Har bir o'tish uchun cho'zish quvvati

$$W_i = \frac{P_i \cdot v_{i,}}{60 \cdot 1000}, \quad i = \overline{1, \quad n} \tag{8}$$

10. Ishlab chiqilgan blok-sxema uchun quyidagilar kiritish parametrlari hisoblanadi: $M0, M1, M4, d_0, d_i, F_0, F_i, R, n, \alpha_i, f_i$

11. Ishlab chiqilgan blok-sxema uchun quyidagilar chiqarish parametrlari hisoblanadi: $\mu_{um}, \mu_i, \varepsilon_{um}, \varepsilon_i, \sigma_B^z, \sigma_B, \sigma_0, P_i, W_i$



2-rasm. Ishlab chiqilgan hisoblash algoritmining blok-sxemasi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Тураев Т.Т., Отақулов О.Х., Тожиев Б.А. «Волочения, – технология и оборудования производственных продукций» Ташкент: Издательство «Навруз», 2019, 146 с.

2. Перлин И.Л, Ерманок М.З. «Теория волочения». Издательство «Металлургия», 1991, 2-е изд., 448 с.

ТАРЕЛКАЛИ СКРУББЕР ГИДРАВЛИК ҚАРШИЛИГИНИ ҲИСОБЛАШ МЕТОДИКАСИ

А. Сулаймонов
Фарғона давлат техника университети, Ўзбекистон

Аннотация

Мақолада комбинациялашган скруббернинг элаксимон тарелка қисми гидравлик қаршилигини ҳисоблаш методикасини ишлаб чиқиш бўйича олиб борилган назарий тадқиқтлар натижалари келтирилган. Қурилма ҳисоблаш схемасининг А-А кесимидан фойдаланиб гидравлик қаршиликни аниқлаш тенгламалари тавсия этилган. Элаксимон тарелкали скруббардаги умумий гидравлик қаршилик коэффициентининг назарий ҳисоби қилинган.

Калит сўзлар: комбинациялашган скруббер, қаршилик коэффициенти, элаксимон тарелка, умумий гидравлик қаршилик.

Элаксимон тарелкали скруббер ишчи суюқлик ваннаси, тақсимловчи тарелка, чангли газ ва суюқлик ўртасидаги контакт юзани оширувчи элкасимон тарелка ва томчи қайтаргичдан (сепаратор) ташкил топган бўлиб, вентури қувури орқали суюқлик ваннасидаги суюқликда бирламчи тозаланиш учун кирган чангли газ суюқлик сиртига урилади ва чангли газ қарама қарши йўналишга бурилиб тақсимловчи тарелкадан ўтади. Тақсимловчи тарелка чангли газ оқимини элаксимон тарелканинг кўндаланг кесим юзаси бўйлаб бир маромда тарқатиб беради. Юқоридан форсунка орқали сепилаётган ишчи суюқликнинг бир қисми (сув) тарелканинг ташқи юзасида суюқлик қатламини ҳосил қилса қолган қисми тарелка тешикларидан томчи кўринишида пастга қараб харакатланади.Натижада суюқлик томчиси ва тарелканинг контакт юзасида чанг зарраси суюқликка ютилади. Тозаланган газ тарелкадан ўтиб сепараторга боради ва у ерда ўзи билан бирга олиб кетган суюқлик томчиларидан ажратилади. ва атмосферага чиқариб юборилади.

Элаксимон тарелкали скрубберда ҳаракатланаётган чангли газ суюқлик ваннасидаги ишчи суюқликка урилганда, тақсимловчи тарелка ва элаксимон тарелка ҳамда томчи қайтаргичдан ўтганда гидравлик қаршиликка учрайди. У ҳолда 1-расмдаги ҳисоблаш схемасининг Б-Б кесимидан фойдаланиб элаксимон тарелкали скруббернинг умумий гидравлик қаршилигини қуйидагича ёзиш мумкин бўлади, Па;

$$\Delta P_{этс} = \Delta P_{с.в.} + \Delta P_{т.т.} + \Delta P_{э.т.} + \Delta P_{сеп} \qquad (1)$$

бунда $P_{этс}$ – элаксимон тарелкали скруббернинг умумий гидравлик қаршилиги, Па; $P_{с.в.}$ – суюқлик ваннасидаги суюқликнинг газ оқимига кўрсатадиган гидравлик қаршилиги бўлиб, у қуйидагича аниқланади, Па [];

$$P_{с.в.} = \xi_{с.в.} \frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon^2_{с.в.}}{2} \quad (2)$$

бунда $\upsilon_{с.в.}$ – чангли газни тирсакдан чиқишидаги тезлиги, м/с; $\xi_{с.в.}$– суюқлик сиртининг қаршилик коэффициенти бўлиб, у суюқлик қовушқоқлигига боғлиқ равишда тажриба йўли билан аниқланади. Адабиётларда ва бажарилган илмий тадқиқот ишларида (Дойль скруббер ва тарелкали абсорберлар) 0,45 га тенг деб қабул қилинган. Бунда чангли газ тезлиги суюқлик сиртига урилиши 40÷80 м/с оралиғида олинган ҳамда чангли газ суюқлик сиртига перпендикуляр йўналтирилган. [1].



1-расм. Элаксимон тарелкали скрубберни ҳисоблаш схемаси.

Комбинациялашган тарелкали скрубберда тирсак 45 градус остида ўрнатилган ва газ тезлиги максимал 30 м/с эканлигини ҳисобга олсак, газ қурилма ваннасидаги ишчи суюқлик сиртида сезиларсиз даражада гидравлик қаршиликка учрайди. У ҳолда қурилмани умумий гидравлик қаршилигини назарий асослашда қурилма ваннасидаги ишчи суюқлик сиртининг гидравлик қаршилигини эътиборга олмасак ҳам бўлади.

$P_{т.т.}$ – газ оқимини тақсимловчи тарелканинг гидравлик қаршилиги бўлиб, у қуйидагича тенглама бўйича аниқланади, Па [2];

$$P_{т.т.} = \xi_{т.т.} \frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon_{т.т.}^2}{2gS^2} \quad (3)$$

бунда $\upsilon_{т.т.}$ – чангли газни тақсимлагичга киришидаги тезлиги, м/с; $\xi_{т.т.}$– тақсимлагичнинг қаршилик коэффициенти бўлиб, у йирик тешикли панжаралар учун 0,5 қубул қилинади. Бунда панжара тешикларининг юзаси S≥0,18 м^2/ м^2 бўлиши белгиланган.

У ҳолда (3) тенгламага ўзгартириш киритиб қуйидаги тенгламани оламиз, Па;

$$P_{т.т.} = 0.77\rho_{ар} \cdot \upsilon_{т.т.}^2 \quad (4)$$

(4) тенгламадан газ тақсимловчи тарелка гидравлик қаршилигини аниқлаш имконига эга бўламиз.

$P_{э.т.}$ – элаксимон тарелканинг гидравлик қаршилиги бўлиб, у қуйидаги тенглама бўйича аниқланади, Па [3];

$$\Delta P_{э.т.} = \Delta P_к + \Delta P_а + \Delta P_с \quad (5)$$

бунда, $\Delta P_к$-қуруқ тарелка қаршилиги, Па; $\Delta P_а$-сиртий таранглик кучларини енгиш учун зарур босимлар фарқи, Па $\Delta P_с$-тарелкадаги суюқлик устунининг қаршилиги, Па;

$\Delta P_а$ – суюқликнинг сиртий таранглик катталигига қараб аниқланади:

$$\Delta P_а = \frac{4\sigma}{d_0} \quad (6)$$

бунда, σ – фазалар чегарасидаги сиртий таранглик, Н/м; d_0 – тарелка тешигининг диаметри, м;

Қуруқ тарелка $\Delta P_к$ ва ундаги суюқлик устунининг қаршилиги $\Delta P_с$ лар проф. А.Н.Плоновский тавсия этган тенгламалардан ҳисоблаб топилиши мумкин, Па [4];

$$\Delta P_к = 1.83\frac{\upsilon_0^2 \cdot \rho_г}{2} \quad (7)$$

$$\Delta P_с = 1.3kh + \sqrt[3]{k \cdot \Delta h} \quad (8)$$

бунда, υ_0 – тарелка тешикларидаги газ оқимининг тезлиги, м/с; k=0.5 тарелкадаги кўпик зичлигининг суюқлик зичлигига нисбати; h- қуйилиш остонаси баландлиги, м; Δh – остона атрофидаги борботаж бўлмаган суюқлик баландлиги, м;

$$\Delta h = \sqrt{\left(\frac{4}{\varphi b}\right)^2} \tag{8}$$

бунда, φ – қуйилиш тўсиғидан ўтаётган суюқликнинг сарф коэффициэнти (φ=6400÷10000); b- қуйилиш тўсиғининг эни, м.

(7) тенгламадаги 1.83 коэффициент тарелка қурилмага вертикал ҳолатда ўрнатилганда ҳамда тешиклар юзаси 7÷10 % ли элаксимон тарелкаларда амал қилади [5].

Комбинациялашган элаксимон тарелкали скруббернинг тарелкалари муълум бир қияликда ўрнатилишини ҳисобга олсак, ушбу коэффициент тарелка гидравлик қаршилигини аниқлашда тўғри келмайди. Шу боис (7) тенгламадаги қаршилик коэффициентини аниқлаш учун қуйидаги тенглама тавсия этилди [6];

$$\xi_к = 1.83 - \Delta k \sin\alpha \tag{9}$$

бунда Δk –нисбат коэффициенти бўлиб, уни тарелка тешиги диаметри, қалинлиги ва тешиклар сонига мос равишда аниқланади.

(9) тенгламани (7) тенгламага қўйсак қуруқ тарелканинг гидравлик аршилигини аниқлаш тенгламасига эга бўламиз, Па;

$$\Delta P_к = (1.83 - \Delta k \sin\alpha)\frac{\upsilon_0^2 \cdot \rho_г}{2} \tag{10}$$

(5) тенгламага (6), (10) тенгламаларни қуйидагига эга бўламиз, Па

$$\Delta P_{э.т.} = (1.83 - \Delta k \sin\alpha)\frac{\upsilon_0^2 \cdot \rho_г}{2} + \frac{4\sigma}{d_0} + 1.3kh + \sqrt[3]{k \cdot \Delta h} \tag{11}$$

$P_{сеп}$ – сепараторнинг гидравлик қаршилиги бўлиб, у қуйидагича аниқланади, Па [];

$$P_{сеп} = \xi_{сеп}\frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon_{сеп}^2}{2} \tag{12}$$

бунда $\upsilon_{сеп}$ – тозаланган газнинг сепараторга киришдаги тезлиги, м/с; $\xi_{с.в.}$– суюқлик сиртининг қаршилик коэффициенти бўлиб, уни ҳисоблаш ишларида 0.4 деб қабул қилинади. [7].

У ҳолда (12) тенглама қуйидаги кўринишга келади, Па;

$$P_{сеп} = 0.4\frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon_{сеп}^2}{2} \tag{13}$$

(11) ва (13) тенгламаларни (5) тенгламага қўйсанг элаксимон тарелкали скруббернинг умумий гидравлик қаршилигини қуйидагича ёзиш мумкин бўлади, Па;

$$\Delta P_{этс} = 0.77\rho_{ар} \cdot \upsilon_{т.т.}^2 + (1.83 - \Delta k \sin\alpha)\frac{\upsilon_0^2 \cdot \rho_г}{2} +$$

$$+ \frac{4\sigma}{d_0} + 1.3kh + \sqrt[3]{k \cdot \Delta h} + 0.4\frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon_{сеп}^2}{2} \quad (14)$$

Чангли газни тозалаш даражаси гидравлик қаршилик берувчи конструкциялардан ташқари чангни ювиш учун сарфланадиган суюқлик (сув) миқдорига ҳам боғлиқ бўлади. Бунда суюқлик миқдорининг ортиши тозалаш даражасини оширади. Лекин чангли газларни ҳўл усулда тозаловчи қурилмаларга қўйиладиган талаблардан бири тозалаш учун суюқлик сарфиини минималлашдан иборат. Шу сабабли контакт юзалар ва юзада ҳосил қилинадиган суюқлик қатлами ёки суюқликни ижексия даражасини аниқлаш муҳим масала ҳисобланади [8].

Комбинациялашган элаксимон тарелкали скрубберда контакт тарелкаларга суюқлик форсунка орқали берилади ва тарелка юза қисмида суюқлик қатлами ҳосил қилинади. Уҳолда суюқлик қатламининг ҳақиқий баландлиги қуйидаги тенглама бўйича аниқланади.

$$h_0 = (1-\varepsilon)h_П \quad (15)$$

бунда ε – суюқлик қатламидаги газ фаза миқдори, м^3/ м^3; $h_П$ – суюқлик қатлами баландлиги, м.[9].

Элаксимон тарелклар учун пуркаш зичлиги U ушбу формуладан топилади, м^3/ м^{2}с.

$$U = \frac{G}{\rho_c 0.785 d_{СКР}^2} \quad (16)$$

бунда ρ_c– суюқлик зичлиги, кг/м^3; G– суюқликнинг массавий сарфи, кг; $d_{СКР}$– скруббер диаметри, м.[10].

Фойдаланилган адабиётлар

[1]. Исомидинов А.С., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи роторли қурилма/Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2018, Т.1)

[2] Исомидинов А.С. Разработка эффективных методов и устройств очистки пылевых газов химической промышленности: Дисс. … PhD. – Ташкент, 2020. – 118 с.

[3] Исомидинов А. С. Исследование гидравлического сопротивления роторно-фильтрующего аппарата //Universum: технические науки. – 2019. – №. 10-1 (67).

[4] Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т., Исомидинов А.С. Чангли газларни ҳўл усулда тозаловчи қурилмани саноатда қўллашнинг илмий-техник асослари: Монография. ФарПИ "Илмий-техника" журнали нашриёт бўлими-Фарғона 2020. – 91 б

[5] Мадаминова Г. И., Тожиев Р. Ж., Каримов И. Т. Барабанное устройство для мокрой очистки запыленного газа и воздуха //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-4 (86). – С. 45-49.

[6]. Исомидинов А.С., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Чангли ҳавони тозаловчи ротор-фильтрли аппарат фильтрловчи тўрли материалининг актив ва пассив юзаларини аниқлаш. I Международной научно-практической конференции "Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях". 2019/5/25. Т-3. №5. 429-431б.

[7] Вальдберг А.Ю., Николайкина Н.Е. Процессы и аппараты защиты окружающей среды. – М. : Дрофа, 2008. –239 с.

[8] Rasuljon, T., Azizbek, I., & Abdurakhmon, S. (2021). Research of the hydraulic resistance of the inertial scrubber. Universum: технические науки, (7-3 (88)), 44-51.

[9] Nasimbek Ahmadzhonovich Ergashev, Abdurasul Abdumazhidovich Davronbekov, Ismoiljon Latifjon Coals Khalilov, & Abduraxmon Maxamadovich Sulaymonov (2021). HYDRAULIC RESISTANCE OF DUST COLLECTOR WITH DIRECT-VORTEX CONTACT ELEMENTS. Scientific progress, 2 (8), 88-99.

[10] Tojiev, R. J., & Sulaymonov, A. M. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF DEVICES FOR WET CLEANING OF INDUSTRIAL GASES. *Scientific progress*, *2*(8), 100-108.

CAPSELLA BURSA-PASTORIS O'SIMLIGINING BARGI NAMUNASI TARKIBIDAGI MAKRO VA MIKROELEMENTLARNI AVIO 200 (ISP – OES) OPTIK EMISSION SPEKTROMETRIK USULIDA ANIQLASH.

Tayanch doktarant Yigitaliyeva Maxbubaxon Anvarjon qizi
yigitaliyevamaxbuba@gmail.com
Qo'qon davlat pedagogika instituti O'zbekiston

Capsella bursa-pastoris (Achambiti) karamdoshlar Brassicaceae oilasiga mansub, bo`yi 20-30 ba`zan 60 smga yetadigan o`t o`simlik. Jag`-jag` yovvoyi holda juda keng tarqalgan bo`lib o`tloqlarda, bog`larda, yo`l yoqalarida, aholi

yashaydigan joylarda, begona o`t sifatida ekinzorlarda va boshqa yerlarda o`sadi. O’simlikning 6 ta turi ma’lum. O‘zbekistonda bitta turi - Capsella bursa-pastoris uchraydi. Tukli, ba’zan tuksiz poyasi oddiy yoki shoxlangan, bo‘yi 10—50 sm. Poyasi bitta, ba`zan bir nechta, tik holatda o`sadi. [1]

To’p bargdagi barglari bandli, oddiy, ko‘pchiligi patsimon. Gullari esa mayda, siyrak shingilga to‘plangan. Tojbargi oq. Mevasi teskari yuraksimon uchburchak shaklli yoki ponasimon qo‘zoq. Bitta o‘simlikdan 70 minggacha yashovchan urug‘ olish mumkin. O‘simlik erta baxorda una boshlaydi va kech kuzgacha rivojlanishi davom etadi. Maysalari yer betida to‘pbarg hosil qiladi. Achambiti qor ostida qishlab, erta bahorda yana rivojlanishni davom ettiradi. Hamma yerda tarqalgan. Shuningdek, yo‘l yoqalari, ariq bo‘ylarida o‘sadi.

O’simlikning yer ustki qismi tarkibida qandlar, flavonoidlar, organik kislotalar, efir moyi, saponinlar, vitamin C, B_2 va K, karotin, inozit, xolin, asetilxolin, gissopin glikozidi, bursa kislota, 0,12% askorbin kislota, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Urug`i o`z tarkibida 28% gacha yog` va oz miqdorda siningrin glikozidi saqlaydi. [4]

Tarkibida xolin va asetilxolin bo`lgani uchun jag`-jag` qon bosimini pasaytirish – gipotenziv, vitamin K bo`lgani uchun qon ivishini tezlatish, natijada qon oqishini to`xtatish ta`siriga ega. Shuning uchun, achambiti o`simligidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstrakt ilmiy tibbiyotda qon oqishini to`xtatuvchi vosita sifatida akusherlik va ginekologik amaliyotda qo`llaniladi. [2] **Xalq tabobatida jag`-jag` qon to`xtatish xususiyati bilan mashhur. Ayniqsa, burun qonaganida jag`-jag` damlamasi asqotadi.** Shuningdek, damlama qon bosimini tushirish, siydik yo`li kasalliklari va ich ketganida ham foyda beradi. Uni tayyorlash uchun 2-3 qoshiq maydalangan ko`kat ustiga 200 ml. qaynoq suv quyiladi. 1 soat mobaynida tindiriladi. Kuniga 3-4 marta 30-40 ml.dan ichiladi. Jigarni tozalashda esa ushbu ko`kat qo`shilgan somsa va chuchvara tanovul qilish lozim. Qarshi ko`rsatmalarga ega emas. [3, 5]

Capsella bursa-pastoris o’simligining bargi namunasi makro va mikro element analizi


2.2 Differential Equations for Industrial Growth

The growth of industrial output can be modeled using differential equations such as the Logistic Growth Model:

$$\frac{dP}{dt} = rP(1-\frac{P}{K})$$

Where:

P – industrial production at time t

r – growth rate

K – carrying capacity (maximum sustainable output)

This equation accounts for limited resources and market saturation, helping policymakers forecast industrial expansion.

3. Key Industrial Indicators in Uzbekistan (2024-2025)

The following table presents a focused analysis of Uzbekistan's industrial sector, highlighting key economic indicators, employment trends, energy consumption, and technological investments.

Indicator	Value	Analysis
Industrial GDP Share	26.1%	The industrial sector remains a key driver of economic growth.
Employment in Industry	13%	Lower compared to services, indicating automation & efficiency.
Energy Consumption	2×Global Avg (Metallurgy & Chemicals)	High energy use; reforms aim to cut consumption by 10-15% by 2030.
Technology Investment Growth	+18% (YoY)	Significant increase in tech-driven industrial modernization.

3. Game Theory in Industrial Competition

Companies in competitive markets use game theory to make strategic decisions. The Nash Equilibrium in a duopoly can be determined by solving:

$U_A(x_A, x_B) \geq U_A(y_A, x_B), U_B(x_A, x_B) \geq U_B(x_A, y_B)$

Where:

- U_A, U_B – utilities (profits) of two competing firms

- x_A, x_B – strategies chosen by firms A and B

Understanding optimal pricing and production strategies prevents price wars and enhances market stability.

4. Conclusion

Mathematics serves as the foundation for industrial development, influencing production planning, economic forecasting, and competitive strategy. Models like linear programming, differential equations, and game theory provide valuable insights into resource optimization, growth trends, and market dynamics.

References

1. Hillier, F. S., & Lieberman, G. J. (2021). Introduction to Operations Research. McGraw-Hill.
2. Chiang, A. C. (2005). Fundamental Methods of Mathematical Economics. McGraw-Hill.
3. Varian, H. R. (2019). Microeconomic Analysis. W. W. Norton & Company.
4. Nash, J. (1950). Equilibrium Points in N-person Games. Proceedings of the National Academy of Sciences, 36(1), 48-49.
5. Gujarati, D. N. (2020). Basic Econometrics. McGraw-Hill.
6. Uzbekistan Economic and Energy Report. (2025). Retrieved from https://theeuropetoday.com/2025/01/29/uzbekistan-outlines-long-term-electricity-sector-development-plan/

SANOAT TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Baxodirov No‘monxon Kamolxonovich
baxodirov1989@gmail.com
Islomov Iskandar Ikromjon o‘g‘li
iskandarislomov009@gmail.com
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Hozirgi kunda O‘zbekistonda fan va ishlab chiqarish jarayonini integratsiyalash, ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va texnologik taraqqiyotiga katta hissa qo‘shmoqda. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun yurtimizda bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilyapti.

Barchamizga ma’lumki, sanoat tarmoqlari mamlakatimiz iqtisodiyotning asosiy sektorlaridan biri bo‘lib, ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda samaradorlikni oshirish, resurslarni eng optimal tarzda

taqsimlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda matematik modellashtirish yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, matematik modellashtirish yordamida ishlab chiqarish tizimlarining ichki jarayonlarini, materiallar va energiya oqimlarini tahlil qilish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish mumkin. Ushbu maqolada sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirishda matematik modellashtirishning o‘rni va ahamiyati haqida qisqacha taklif va tavsiyalar berilgan.

Matematik modellashtirish sanoatdagi iqtisodiy jarayonlarini tahlil qilish va optimallashtirishda qo‘llaniladigan muhim vositalardan biri hisoblanadi. U tizimlarning dinamikasi, resurslar, energiya va materiallar oqimini boshqarishga yordam beradi. Modellashtirish yordamida sanoat tarmoqlaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini simulyatsiya qilish, yuz berishi mumkin bo‘lgan turli risklar va muammolarni aniqlash va bu asosida qarorlar qabul qilish va jarayonlarni optimallashtirish mumkin.

Sanoat tarmoqlarini modellashtirishda quyidagi matematik metodlar keng qo‘llaniladi. Ushbu metodlar orqali sanoatda ishlab chiqarish jarayonlari hamda resurslar taqsimotini samarali boshqarish mumkin.

Modellashtirishdagi matematik metodlar		
1.	**Differensial tenglamalar**	Ishlab chiqarish jarayonlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini tahlil qiladi
2.	**Optimallashtirish nazariyasi**	Resurslarni optimal taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishda foydalaniladi
3.	**Simulyatsiya va statistik tahlil**	Tizimlar va jarayonlarning xususiyatlari sinovdan o‘tkaziladi

Yuqorida keltirilgan matematik modellar sanoat tarmoqlaridagi samaradorlikni oshirish uchun samarali optimallashtirish usullaridan ayrimlari hisoblanadi. Bu metodlar yordamida resurslar, xom-ashyo, vaqt va mehnat resurslarini optimal tarzda taqsimlash mumkin. Masalan, ishlab chiqarish liniyasida va logistika tizimlarida turli optimallashtirish metodlari qo‘llaniladi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishga hizmat qiladi.

Sanoatdagi turli jarayonlarini matematik modellashtirish nafaqat optimallashtirish, balki jarayonlarni tahlil qilishda ham qo‘llaniladi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlaridagi xatoliklarni va nosozliklarni oldindan prognoz qilish, mahsulot sifatini nazorat qilish hamda atrof-muhitga zarar yetkazuvchi omillarni aniqlash uchun matematik modellar ishlatiladi. Ishlab chiqarish jarayonini tahlil

qilish va uning samaradorligini baholashda statistik metodlar yordamida olingan ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Bunda statistik metodlar va optimallashtirish usullaridan foydalanish orqali mahsulot sifatni oshirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Shuningdek, yashil isqtisodiyotni rivojlantirish uchun sanoat jarayonlarida ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ham juda muhimdir. Matematik modellar yordamida sanoat chiqindilarini kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish va atrof-muhitga zarar etkazuvchi omillarni prognoz qilish mumkin. Shuningdek, sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun matematik modellar orqali samarali strategiyalar ishlab chiqiladi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarida avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlarini optimallashtirishda ham matematik modellar muhim rol o‘ynaydi. Sun'iy intellekt va mashina o‘rganish metodlari yordamida ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi oshib boradi. Matematik modellar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish, nosozliklarni prognozlash va resurslarni optimallashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak matematik modellashtirish sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. U ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ishlab chiqarish tizimlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Matematik modellar yordamida sanoat tarmoqlarida sifatni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish mumkin. Shu bilan birga, matematik modellashtirish, raqamli texnologiyalar bilan birgalikda, sanoat tarmoqlarining kelajakdagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pindyck, R. S., & Rubinfeld, D. L. (2017). Microeconomics (9th ed.). Pearson Education.
2. Winston, W. L. (2004). Operations Research: Applications and Algorithms (4th ed.). Thomson Brooks/Cole.
3. Taha, H. A. (2017). Operations Research: An Introduction (10th ed.). Pearson.
4. Bertsekas, D. P., & Tsitsiklis, J. N. (2008). Introduction to Probability (2nd ed.). Athena Scientific.
5. Zhang, X., & Li, X. (2013). "A Survey of Mathematical Models for Industrial Process Optimization." Journal of Industrial Engineering, 20(2), 115-134.

К ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ ОСНОВАМ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Жалилов Иномжон Илхомжон угли
Inomjon.jalilov@ferpi.uz
Ассистент кафедры "Высшая математика"
Ферганский государственный технический университет, Узбекистан

Физико-математические основы играют ключевую роль в развитии и совершенствовании современных отраслей промышленности. Эти науки обеспечивают фундаментальное понимание процессов, происходящих в производственных системах, и позволяют создавать эффективные, надёжные и инновационные технологии. Физика даёт знания о природе явлений, лежащих в основе функционирования технических систем. Например, механика используется при проектировании конструкций, расчётах прочности и динамики машин.

Термодинамика и теплопередача находят применение в энергетике, машиностроении и холодильной технике. Электромагнетизм лежит в основе электротехники, радиоэлектроники и автоматизации. Современные технологии, такие как лазерная обработка, нанотехнологии и полупроводниковые приборы, базируются на принципах квантовой и твердотельной физики.
Математика, в свою очередь, предоставляет инструменты для описания, анализа и оптимизации процессов. Дифференциальные уравнения позволяют моделировать поведение систем во времени, а линейная алгебра используется в инженерных расчётах и анализе сетей.

Теория вероятностей и математическая статистика необходимы для обработки экспериментальных данных, оценки надёжности и качества продукции. Методы оптимизации помогают минимизировать издержки, повысить эффективность логистики и рационализировать использование ресурсов. Сочетание физико-математических подходов особенно важно в условиях цифровизации промышленности. Компьютерное моделирование, цифровые двойники, искусственный интеллект и машинное обучение основаны на строгих математических алгоритмах и требуют точного физического моделирования. Это позволяет не только ускорить проектирование новых систем, но и обеспечить их высокую точность и предсказуемость поведения в реальных условиях.

Таким образом, физика и математика являются неотъемлемыми компонентами научно-технического прогресса, определяя вектор развития

отраслей промышленности и обеспечивая конкурентоспособность производственных систем на глобальном уровне.

В современное время в эпоху стремительных процессов глобализации особенно актуальными становятся вопросы изучения прикладной и научной литературы. Президент нашей страны Шавкат Миромонович Мирзиёев в своих выступлениях неоднократно акцентрировал внимание на вопросах углубления изучения естественных и точных дисциплин.

Мы в рамках нашего исследования хотели бы затронуть вопросы дисциплины «Математика». Мы знаем то, что данный предмет включает в себя достаточно большое количество разделов.

Математика является царицей всех наук и с этой точки зрения её глубокое изучение приведёт к прогрессу в обществе.

Обратим свои взгляды в историю, в которой неизгладимый след оставили выдающиеся учёные математики – это Карл Густав Якоби, который был одним из выдающихся математиков девятнадцатого века, Анри Пуанкаре, который был, вероятно, одним из последних универсалистов, поскольку в то время он процветал почти во всех известных областях математики.

В своём исследовании мы бы хотели обратить внимание на то, что изучение трудов выдающихся учёных математиков, физиков, астрономов прошлого и настоящего даст толчок для возникновения третьей эпохи ренессанса, о которой неоднократно высказывался глава нашего государства.

На государственном уровне уделяется внимание развитию естественно-научных дисциплин. Вследствие чего необходимо пропагандирование чтения научной и прикладной литературы. Акцентрировать внимание необходимо на трудах учёных, оставивших свой след в истории науки и на работах современных учёных как Григорий Перельман и другие.

В настоящее время закладывается фундамент для дальнейшего рассвета науки. В образовательной сфере идут интеграционные процессы и обмен опытом между высшими учебными заведениями Узбекистана, Российской Федерации, Казахстана, Киргизской Республики, а так же европейских стран.

Данный обмен опытом полезен для нашей страны с точки зрения развития научных исследований.

В рамках нашего исследования проведём анализ этапы развития математики, а так же обратим внимание на учёных, которые внесли особый вклад в её развитие. С нашей точки зрения использование методик выдающихся учёных прошлого может дать положительные плоды в настоящее время. Ведь большинство людей и не знает, что математика вхожа в нашу жизнь в повседневной деятельности и без неё наше существование в современном мире не представляется возможным.

Осуществим экскурс в историю… Математика была известна человечеству с доисторических времен. Ученые-математики сделали для общества много открытий. Это позволило обычным людям взглянуть на мир под другим углом зрения.

За многие века огромное количество учёных занимались развитием математических знаний. И начнём с тех учёных, кто жил и творил в глубокой древности, но заложил, таким образом, основы этой прикладных наук.

Эвклид - учёный из Древней Греции жил приблизительно в III веке до нашей эры. Эвклида величают отцом геометрии. Ему принадлежат доказательства многих теорем, гипотез и написанных научных трактатов. Из них два труда — «Элементы» и «Начала», заложили базовый фундамент всей последующей европейской математики. В «Началах» содержится известная каждому школьнику теорема Пифагора. По этому учебнику преподавали геометрию в школах Европы около 2 тысяч лет!

Если Эвклид — отец геометрии, то Пифагор считается отцом математики. Он проживал и творил в Греции, за полтора века до Эвклида. Пифагор – автор собственной математической школы, первым в истории человечества сделал математику прикладной наукой, вводя ее элементы в повседневный обиход. Констатируется то, что не все историки согласны с тем, что именно он доказал свою знаменитую тригонометрическую теорему.

Архимед - древнегреческий учёный из Сиракуз занимавшийся многими науками, но, согласно Плутарху, «был одержим математикой». Много работал в области геометрии, сам же считал своим главным достижением выведение формулы для исчисления площади шара и его объёма. Идеи Архимеда заложили основу интегрального исчисления.

Мухаммад Аль Хорезми- учёный - математик, астроном, географ из Хорезма

Мухаммад ал-Хорезми - автор около 20 научных трудов, 7 из которых дошли до наших дней, в частности:

«Фи хисаб ал-Хинд» («Книга об индийском счете» (написана на арабском языке)) – сочинение, обосновывающее и излагающее десятичную позиционную систему счисления с девятью цифрами и знаком нуля;

«Ал-Китаб ал- мухтасар фи хисаб ал- джабр ва-л-мукабала» («Краткая книга об исчислении алгебры и алмукабалы» (написана на арабском языке)) – сочинение, в котором алгебра была основана автором как наука и дано ей название;

В заключении следует отметить следующее:

Во - первых: в высшей школе на наш взгляд необходимо изучение предмета, затрагивающего историю математики и выдающихся учёных-математиков, а так же методы из обучения.

Во – вторых: комплексный ряд определённых мероприятий позволит вывести изучение точной, прикладной литературы и трудов выдающихся учёных на качественно новый уровень тем самым дав толчок для развития и процветания математики как науки.

В - третьих необходимо совершенствование «школы математиков».

Список использованной литературы

1. Герье, В. И. (2013). *Лейбниц и его век*. ООО ДиректМедиа.
2. Хорошилова, Е. (2022). *Математический анализ: неопределенный интеграл 2-е изд., пер. и доп. Учебное пособие для СПО*. Litres.
3. Jalilov, I. (2019). To the problems of innovation into the educational process. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *1*(3), 344-347.
4. Jalilov, I. I. U. (2022). К актуальным проблемам становления педагогического мастерства преподавателя. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, *2*(9), 81-89.

BETONNING MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISHDA VIBRATSION ZICHLASHTIRISH USULINING FIZIK ASOSLARI

Mo‘minov J.A. Qurbonov H. S. Ismoilov H I
husanbekqurbonov584@gmail.com
ismoilovhudoberdi204@gmail.com
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Qurilish sanoati insoniyat taraqqiyotining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Unda foydalaniladigan materiallar sifati va ularni ishlov berish texnologiyasi inshootlarning mustahkamligi, uzoq muddat xizmat qilishi va xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq. Beton eng ko‘p qo‘llaniladigan qurilish materiallaridan biri bo‘lib, uning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash zamonaviy ilm-fan va texnikaning dolzarb masalasidir. Shu nuqtayi nazardan, beton quyish jarayonida fizik metodlardan, xususan, vibratsion zichlashtirish usulidan foydalanish samarador yo‘ldir.

Vibratsion zichlashtirish usulining mohiyati Vibratsion zichlashtirish – bu maxsus uskunalar yordamida beton aralashmasiga mexanik tebranish (vibratsiya) berish orqali uni zichlashtirish jarayonidir. Beton quyilganda uning tarkibida havo

pufakchalari va bo‘shliqlar hosil bo‘ladi. Bu bo‘shliqlar betonning zichligini kamaytiradi va mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Vibratsion zichlashtirish orqali ushbu havo pufakchalari chiqarib yuboriladi va aralashma zichroq tuzilishga ega bo‘ladi.

Vibratsiya natijasida beton tarkibidagi zarrachalar harakatga keladi, ular o‘z o‘rnini o‘zgartirib, eng optimal, ya’ni zich joylashgan holatga o‘tadi. Bu jarayon fizik qonuniyatlarga – kinetik energiyaning oshishi, ishqalanish kuchlarining kamayishi va tortishish kuchlari ta’sirida moddaning joylashishiga asoslanadi.

Fizik asoslari Vibratsion zichlashtirishning samaradorligi uning fizik mexanizmlariga bog‘liq. Vibratsiya paytida:

1. Kinetik energiya ortadi: Zarrachalar tebranma harakat qiladi va bu orqali ularning o‘zaro joylashuvi o‘zgaradi.

2. Ishqalanish kuchlari kamayadi: Zarralar orasidagi statik ishqalanish kamayib, ular osonroq joyini o‘zgartiradi.

3. Zichlashuv sodir bo‘ladi: Zarralar tortishish kuchi ta’sirida zichroq holatda joylashadi.

4. Bo‘shliqlar yo‘qoladi: Havo pufakchalari yuzaga chiqib, beton yuzasidan chiqib ketadi.

Bu holatlar betonning mexanik xossalariga – bosimga, tortishga va egilishga bardoshliligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Vibratsion zichlashtirish uskunalari va ularning turlari Zamonaviy qurilishda bir nechta turdagi vibratsion uskunalar qo‘llaniladi:

Ichki vibratorlar: Beton aralashmasi ichiga tushiriladi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichkaridan vibratsiya beradi.

Tashqi vibratorlar: Qolip tashqi tomoniga o‘rnatilib, butun qolipni tebratadi.

Stol vibratorlari: Asosan kichik elementlar (plitalar, g‘ishtlar) quyiladigan qoliplar uchun ishlatiladi.

Uskuna tanlash aralashmaning turiga, beton quyilayotgan shakl va o‘lchamga, hamda zarur zichlik darajasiga qarab aniqlanadi.

Amaliy tajriba natijalari Muqimiy nomidagi Qurilish kollejida o‘tkazilgan amaliy tajribada talabalar ikki xil usulda tayyorlangan beton namunalarini solishtirdilar: biri vibratsion zichlashtirishsiz, ikkinchisi esa vibratsiya bilan zichlashtirilgan. Tajriba davomida quyidagi natijalar olindi:

Vibratsion zichlashtirilgan betonning zichligi o‘rtacha 12% yuqori bo‘ldi.

Uning bosimga chidamliligi esa 18–22% ga ko‘tarildi.

Sirt sifati va bo‘shliqlarsiz struktura ko‘zga tashlandi.

Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, vibratsion zichlashtirish usuli betonning sifatini sezilarli darajada oshiradi va uni ishonchli qiladi.

Hayotga tadbiq etish: foydali va salbiy jihatlar

Foydali tomonlari:

Zamonaviy inshootlar uchun muhim: Ko‘p qavatli binolar, ko‘priklar va sanoat inshootlari uchun yuqori zichlikdagi beton zarur.

Resurs tejaydi: Kamroq material bilan mustahkamroq inshoot quriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi: Tezroq va sifatli qurilish imkonini beradi.

Salbiy tomonlari:

Uskuna xarajatlari yuqori: Vibratorlar, quvvat manbalari va texnik xizmat ko‘rsatish xarajat talab qiladi.

No‘to‘g‘ri qo‘llashda zararli: Haddan ortiq tebranish betonning ajralishiga olib kelishi mumkin.

Malakali ishchi kuchi talab etiladi: Vibratsion qurilmalardan foydalanish uchun o‘qitilgan kadrlar kerak.

Ilmiy va texnik asoslash Ko‘plab tadqiqotlar betonning zichligi va mustahkamligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni isbotlagan. Misol uchun, vibratsion zichlashtirishdan foydalanilgan beton namunalarida zichlik 10-15% ga oshgani, bu esa bosimga chidamlilikning o‘rtacha 20-25% ga ortishiga olib kelgani qayd etilgan. Bu esa inshootlar xavfsizligini oshiradi.

Xulosa Vibratsion zichlashtirish qurilish sohasida beton sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu metod oddiy fizik qonuniyatlarga asoslangan bo‘lsa-da, uning amaliy samarasi nihoyatda katta. Texnik vositalar yordamida optimal tebranishlar berish orqali beton aralashmasining zichligi oshadi, havo pufakchalari yo‘qoladi va mustahkamlik kuchayadi. Natijada, qurilish inshootlari yanada bardoshli, xavfsiz va uzoq umr ko‘ruvchi bo‘ladi.

Kelajakda bu metodni yanada takomillashtirish orqali zamonaviy qurilish texnologiyalarida undan kengroq va samaraliroq foydalanish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, bu metodni energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy foyda nuqtayi nazaridan ham chuqur o‘rganish lozim.

Tavsiya va istiqbollar

1. Qurilish sohasida ishlovchi muhandislar va texniklar uchun maxsus o‘quv kurslari tashkil etilishi.

2. Vibratsion uskunalar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va arzonlashtirish.

3. Qurilish normalariga vibratsion zichlashtirish bo‘yicha alohida ko‘rsatmalar kiritish.

4. Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish va yangi usullarni izlash.

Shu tarzda, vibratsion zichlashtirish qurilishda muhim texnologik bosqich bo‘lib, uni ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan boyitilgan holatda tatbiq etish katta ijobiy natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Qurilish materiallari nazariyasi" – G'.Karimov, Sh.Narzullayev

– Betonning fizik xossalari va zichlash texnologiyalari haqida mukammal ma'lumotlar mavjud.

2. "Beton texnologiyasi" – A.Xolmatov, M.Mirzayev

– Vibratsion zichlashtirish usullarining amaliy qo'llanilishi va uskunalar tahlili keltirilgan.

3. "Qurilish materiallarini sinash va sifat nazorati" – O'zDJTU darsligi

– Laboratoriya sinovlari va natijalarni baholash metodlari ko'rsatilgan.

4. "Concrete Technology" – M.S. Shetty (ingliz tilida)

– Jahon tajribasiga asoslangan holda, vibratsion zichlashtirishning fizik asoslari va samarasi tahlil qilingan.

ТОЛАЛИ КОНТАКТ ЭЛЕМЕНТЛИ ЧАНГ ТОЗАЛОВЧИ АППАРАТ

И.Т.Каримов, Ф. Ё.Ўлмасов

Фарғона политехника институти

Аннотация. *Мақолада саноатда кенг қўлланиладиган ҳўл чанг тозалаш қурилмаларининг конструкциялари ва ишлаш тамойиллари кўриб чиқилган ва уларнинг афзалликлари ва камчиликларини таҳлил қилиш натижасида толали контакт элементли ҳўл усулда чанг тозалаш қурилмасининг янги конструкцияси яратилган ва қурилманинг конструкцион тузилиши ва ишлаш принципи келтирилган.*

Таянч иборалар: *чанг гази, ҳўл усул, суюқлик, контакт элементи, қаршилик коэффициенти, босим, самарадорлик.*

Инсоният ҳаёти учун энг муҳим омил бўлган атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш, унинг сифат кўрсатгичларини экологик меъёрларга мослигини таъминлаш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири. Атмосфера ҳавосининг ифлосланиши инсон, ўсимлик, ҳайвонот, умуман, жамики тирик мавжудотларга зарарли таъсир кўрсатади.

Атроф муҳитга чиқарилаётган чангли газларни кўпроқ улуши қурилиш материаллари, кимё, металлургия, озиқ овқат саноати корхоналарига тўғри келади.

Саноат чангли газларини ҳўл усулда тозалашнинг янада самарали ва энергиятежамкор усуллари ҳамда конструкцияси содда ва ихчам қурилмаларини яратиш ишлари, соҳа олимлари томонидан амалга оширилиб, ишлаб чиқариш жараёнига тадбиқ этилмоқда [1,2].

Чангли газларни ҳўл усулда тозалашнинг афзалликларига ўлчами 1 мкм дан кичик бўлган чангларни ушлаб қолиш хусусиятига эгалигидир. [2,3,4,5].

Биз томонимиздан яратилган чангли газларни нам усулда тозалаш учун аппарат №IAP7688, остки ва устки конуссимон қисимлардан, суюқлик ва газни узатиш ва тушириш қувурларидан, кесик конус кўринишида стерженлардан таянч тайёрланиб сетка тўшалган контакт қурилмасидан ва уни суюқлик билан таъминловчи қувур ва штуцерлардан ташкил топган. Чангли газларни тозалаш самарадорлиги 99,75% ни ташкил қилади.

Саноатда шундай ишлаб чиқариш жараёнлари мавжудки, ажралиб чиқаётган газлар таркибида бошқа газлар ва дисперс заррачалар қўшилган ҳолатда бўлади. Бу газларни комплекс тозаловчи қурилмаларни яратиш ҳозирги куннинг долзарб масаласидир. Ушбу аппарат фақат газлар таркибидаги дисперс заррачаларни тозалашга мўлжалланган. Бу аппаратдан газлар таркибидаги бошқа газларни абсорбцион тозалашда яхши самара бермайди.

Илмий тадқиқот ишидан мақсад газлар таркибини дисперс заррачалар ва газлар аралашмаларидан комплекс тозалаш учун контакт мосламасига урилаётган суюқликни плёнка кўринишида ҳосил қилишдан ва бирлик суюқлик сарфида контак юзасини оширишдан иборат.

Мақсадга эришиш учун остки ва устки таянч сеткаларни мос ҳолда конуссимон тайёрлаш, уларни орасига толали материални тўшаш ва натижада контакт элементини ҳосил қилиш ва уни стерженлардан тайёрланган кесик конус шаклидаги асосга ўрнатиш ҳамда ҳосил қилинган контакт мосламасини устки конус асосига маҳкамланади.

Аппаратни устки қисми конуссимон кўринишда бўлиши, кесик конуссимон контакт қурилмаси юзасига суюқликни штуцерлардан сепиш масофасини қисқартиради ва суюқлик оқимини контакт мосламасига сепишда перпендикулярлик даражасини оширади. Бу ўз навбатида сепилган суюқликни контакт элементида майдаланиб плёнка хосил бўлишини яхшилайди ва тозалаш камерасининг бутун хажми бўйича суюқликни плёнка кўринишида тенг тақсимлайди ва натижада тозалаш самарадорлиги ортади. Аппарат остки қисмини конуссимон қилиниши эса ҳосил бўлган шламни аппаратдан чиқаришда турғун зоналар бўлмаслигига шароит яратади.Ундан ташқари бу техник ечимлар метал сарфини ҳам тежайди.

Фигура 1 да газ тозалаш аппаратининг бўйлама қирқими схемаси тасвирланган бўлиб, фигура 2 да А-А ва фигура 3 да Б-Б қирқими схемаси келтирилган.

Қурилманинг тузилиши қуйидагича. Газ тозалаш аппарати, остки 1 ва устки 2 ажралувчи ва бирикувчи конуссимон кўринишидаги қисимлардан ташкил топган. Остки конус 1 шлам ваннаси вазифасини, устки конус 2 эса тозалаш камерси вазифасини ўтайди. Остки конус 1 асоси, чангли газни

уринма холатда киритиш учун цилиндр 10 кўринишида узайтирилган ва унга уринма кўринишда тозаланадиган газни киритувчи қувур 7 махкамланган. Стерженлар 4 остки халқа кўринишидаги пластина 14 ва устки метал диск 15 лар ёрдамида маҳкамланиб, кесик конус шаклида контакт мосламаси таянчи тайёрланган ва бу таянчга остки 9 ва устки 9а конуссимон таянч сеткалар ўрнатилиб улар орасига толали материал 17 тўшалиб, контакт мосламаси 3 ҳосил қилинган ва устки конус 2 асоси 11га ўрнатилган. Остки 1 ва устки 2 конусларни асосларида бир-бирига маҳкамлаш учун фланецлар 12 ҳосил қилинган ҳамда болтлар 13 ёрдамида маҳкамланган. Контакт қурилмасига суюқликни сочиш учун аппарат устки конуси 2 нинг ташқи қисмининг хар 90^0 га штуцерлар 5 ўрнатилган. Бу штуцер 5 ларга суюқлик тақсимловчи қувурлар 6 орқали узатилади. Тозаланган газни атмосферага чиқариш учун қувур 8, шламни чиқариш учун эса қувур 16 хизмат қилади.

Қурилма қуйидагича ишлайди. Аппаратнинг тозалаш камераси 2га тозаланадиган таркибида газ аралашмалари ва дисперс заррачалар мавжуд бўлган газ киритиш қувури 7 орқали узатилади. Бу тозаланадиган газ қувур 7 дан ҳаракати давомида остки конус 1 нинг узайтирилган цилиндрик қисми 10 деворларида уринма ҳолатда ҳаракатланади ва тезлиги пасаяди. Тозаланадиган газ таркибидаги йирик ўлчамли чанг заррачалари марказдан қочма куч таъсирида остки конуссимон шлам ваннаси 1 га чўкади. Газ аралашмаси ҳам бу жараёнда қисман тозаланади. Бу аралаш таркибли газ ҳаракати давомида устки конуссимон тозалаш камераси 2 га кўтарилади. Бир вақтнинг ўзида суюқлик тақсимловчи қувур 6 лар орқали штуцерлар 5 га суюқлик узатилади. Штуцерлар 5 дан суюқлик, тозалаш камерасига ўрнатилган кесик конуссимон контакт қурилмаси 3 юзаси бўйлаб сепилади. Натижада штуцерлар 5 орқали сепилган суюқлик таянч сеткалар 9 ва 9а лар орасига тўшалган толали материалга урилиб суюқлик плёнкаси ҳосил қилади ва ҳаракати давомида тозалаш камараси 2 га чиқишида майдаланади ва кичик ўлчамли томчилар ҳосил бўлади. Майдаланган суюқлик томчилари билан аралаш таркибли газни контакти ҳосил бўлади ва газ аралашмалардан тозаланиш жараёни давом этади. Суюқлик томчиларига ютилган газ таркибидаги майда дисперсли заррачалар ва газли аралашма, остки конус шлам ваннаси 1га оғирлик кучи таъсирида чўкади. Газ аралашмаларини фақат контакт мосламаси 3 орқали ўтишини таъминлаш учун кесик конусли контакт мосламаси юқори таянчи метал диск 15 билан беркитилган. Тозаланаётган дисперс таркибли ва газли аралашма контакт мосламасидаги толали материалдан ўтишида суюқлик сепилиши натижасида ҳосил қилинган суюқлик плёнкасида ютилади ва тозалаш камераси 2 нинг тепа қисмига кўтарилади ва қувур 8 орқали атмосферага чиқариб юборилади.

Аппаратнинг остки конуссимон шлам ваннаси 1га йиғилган шлам махсус қувур 16 ёрдамида оқизиб турилади. Кесик конуссимон контакт мосламаси 3 га суюқликни сепиб берувчи штуцер 5 лар тешигидан чиқаётган суюқликнинг сарфи, тешикнинг қаршилик коэффициентига боғлиқ бўлиб, тажрибалар йўли билан аниқланади. Штуцер 5 лар сони эса конуссимон контакт қурилмасига суюқликни сепиш даражаси ва тозалаш самарадорлиги орқали аниқланади. Конуссимон тозалаш камераси 2 ва кесик конуссимон контакт қурилмаси асоси диаметри ва баланлиги, тозалашга берилаётган газ сарфига боғлиқ ҳолда аниқланади. Контакт мосламаси 3 даги устки 9 ва остки 9а таянч сеткаларнинг ўлчамлари улар орасига тўшалаётган толали материални ўлчамларига яъни узунлигига диаметрига ва тўшаш қалинлигига боғлиқ холда аппаратни ишлатиш жараёнида толаларни сеткаларда ҳолатини ўзгартирмаслик шарти орқали танланади. Тўшалаётган толали материал қалингиги эса унинг қонтакт юзаларини қаршилик коэффициентларини тажрибалар орқали аниқлаб унга боғлиқ ҳолда танланади. Бунда қаршилик коэффициенти қийматини танлашда, тозалаш самарадорлиги белгиланган меъёр талабларини қондирилиш шарти эътиборга олинади. Аппаратга берилаётган аралашмали газ ва суюқлик сарфлари нисбатлари ҳам контакт мосламасининг тозалаш самарадорлиги кўрсаткичлари орқали тажрибалар орқали аниқланади. Тозалаш учун сепилаётган суюқликни танлашда газ тарқибилаги дисперс заррача ва бошқа газни суюқликка ютилиш даражаси эътиборга олганади. Тозалаш жараёни самарадорлигини оширишда танланган суюқлик таркибига сирт фаол моддалар ҳам қўшиш мумкин. Таянч сеткалар орасига тўшаладиган толали материал сифатида республикамизда ишлаб чиқариладиган базальт ва шиша толаларидан фойдаланилади. Чунки бу толалар юқори температурали ва хар қандай агрессив мухитга чидамли толалар ҳисобланади.

Бу тавсия этилаётган чангли газларни хўл усулда тозаловчи аппарат схемаси 1-расмда келтирилган.

Қурилманинг тузилиши қуйидагича. Қурилма остки конуссимон шлам ваннаси 1 дан ва устки кесик конуссимон тозалаш камераси 2 дан ташкил топган бўлиб, ички қисмига конуссимон конакт мосламаси 3 ўрнатилган. Бу контакт мосламаси устки ва остки таянч сеткалардан ташкил топган бўлиб,улар орасига толали материал ўрнатилган. Бу мослама таянч 3а ларга маҳкамланган. Тозалаш камераси 2 га сувни сочиб бериш учун штуцерлар 4 хизмат қилади ва бу штуцерларга сув тақсимловчи қувурча 5 орқали берилади. Чангли газни тозалаш камерасига киритиш учун қувур 6 ва аппаратдан тозаланган газни чиқариш учун эса қувур 7 хизмат қилади. Тозалаш камерасига сув, идиш 8 дан жумрак 9 орқали қувур 10 ва сув ротаметри 11

орқали узатилади. Аппаратда ҳосил бўлган шлам 14 ни оқизувчи қувур 12 орқали шлам жумраги 13 ёрдамида тўкилади. Тозалаш камерасига чангли газлар вентильятор 15 ёрдамида жумрак 16 ва ротаметр 17 орқали, чангли газни узатувчи қувур 18 дан берилади.



1-расм. Ҳўл усулда чанг тозаловчи қурилма схемаси

Қурилма қуйидагича ишлайди. Аппаратнинг тозалаш камерасига чангли газ вентильятор 15 ёрдамида жумрак 16 ва ротаметр 17 орқали махсус узатувчи қувурлар 18 ва 6 дан берилади. Чангли газ қувур 6 дан ҳаракати давомида аппарат деворларида уринма ҳолатда айланади ва тезлиги пасаяди. Йирик ўлчамли чанг заррачалари марказдан қочма куч таъсирида остки конуссимон шлам ваннаси 1 га чўкади. Таркибида майда заррачали чангли газ эса устки конуссимон тозалаш камераси 2 га кўтарилади. Бир вақтнинг ўзида сув идиши 8 дан қувур 11 ёрдамида тозалаш камераси 2 га, тақсимловчи қувур 5 орқали штуцерлар 4 ларга сув узатилади. Штуцерлар 4 дан сув, тозалаш камерасига ўрнатилган кесик конуссимон контакт мосламаси 3 юзаси бўйлаб сепилади. Бу контакт мосламаси сепилган сув томчилари билан чангли газни

контактини ҳосил қилади ва газ чанглардан тозаланади. Сепилаётган сув сарфини жумрак 9 ва ротаметр 10 орқали бошқарилади. Намланган контакт мосламасидаги толали материалда чанглар ютилиб, остки шлам ваннасига оғирлик кучи таъсирида чўкади. Тозаланган газ конуссимон камеранинг тепа қисмига кўтарилади ва қувур 7 орқали атмосферага чиқариб юборилади. Аппаратнинг остки конуссимон шлам ваннасига йиғилган шлам 14 ни оқизувчи қувур 12 орқали шлам жумраги 13 ёрдамида тўкиб олинади ва тиндириш йўли билан сув ажратилади.

Кесик конуссимон контакт мосламаси 3 га сувни сепиб берувчи штуцер 4 лар тешигидан чиқаётган сувнинг сарфи, тешикнинг қаршилик коэффициентига боғлиқ бўлиб, тажрибалар йўли билан аниқланади. Штуцер 4 лар сони эса конуссимон сеткаларга сувни сепиш даражаси ва тозалаш самарадорлиги орқали танланади. Конуссимон тозалаш камераси 2 ва кесик конуссимон контакт мосламаси асоси диаметри ва баланлиги, тозалашга берилаётган чангли ҳаво сарфига ва танланган контакт мосламасининг тозалаш самарадорлигига боғлиқ ҳолда аниқланади. Қурилмага берилаётган чангли ҳаво ва сув сарфлари нисбатлари тозаловчи конуссимон контакт мосламасининг қаршилик коэффициентларига боғлиқ ҳолда тозалаш самарадорлиги кўрсаткичлари орқали тажрибалар натижасида аниқланади. Қурилмага сувни узатиш учун ўрнатилган идиш 8 нинг баландлиги штуцернинг қаршилик коэффициентларига боғлиқ ҳолда, қурилманинг тозалаш камерасида чангли ҳаво билан конактлаш даражасини ҳосил қилиш учун етарли бўлган сувнинг статик босими қийматига кўра аниқланади.

Адабиётлар:

[1] Вальдберг А.Ю., Николайкина Н.Е. Процессы и аппараты защиты окружающей среды. – М. : Дрофа, 2008. –239 с.

[2] Isomidinov A.S., Karimov I.T., Tojiev R.J. Searching the losing of hydraulic pressure in rotor-filter gas cleaner apparatus // Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 3. – № 1. – С. 69–72.

[3]. Исомидинов А.С., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Роторное устройство для мокрой пылеочистки // Научно-технический журнал ФерПИ-2018 Фергана, 2018.- №1 –Б. 195-198.

[4].Karimov I. T ., Qo'chqarov B.U. Wet Method Dust Gas Cleaning Device/"The american journal of engineering and technology" volume 03 issue 10, 2021 20-22 bet

[5]. Karimov I. T ., Qo'chqarov B.U. Changli gazlarni ho'l usulda tozalovchi yangi apparat. FarPI ilmiy-texnika jurnali 2022, T.24, спец. №1 24-27 bet.

ҲЎЛ УСУЛДА ЧАНГ ТОЗАЛОВЧИ ЯНГИ АППАРАТ

И.Т.Каримов, С.Х.Нурматов, Г.И.Мадаминова
Фарғона политехника институти

Аннотация. *Мақолада чангли ҳаво ва газларни ҳўл усулда тозаловчи, самарадорлиги юқори, энергиятежамкор, ихчам паррак-барабанли аппаратнинг янги конструкцияси таклиф қилинган. Қурилманинг конструкцион тузилиши ва ишлаш принципи келтирилган.*

Таянч сўзлар: *чангли газ, ҳўл усул, суюқлик, сеткали барабан, таянч, сув идиши, паррак.*

Хозирги кунда саноатда хўл усулда чанг тозаловчи турли хил конструкцион тузилишга эга бўлган аппаратлардан фойдаланиб келинмоқда. Жумладан: фелод скруббери, ҳўл усулда газларни чангдан тозаловчи қурилма, марказдан қочма инерцион чанг тозалагич, роторли барботажли газ тозалагич, айланувчи дискли аппарат CHPOSVUCHZ, роторли сочувчи газ тозалагич, ғовакли айланма харакатланувчи қуюнли аппарат, роторли тақсимловчи чанг тозалагич [1,2].

Бу кўриб ўтилган аппаратларни конструктив тузилиши ва самарадорлик нуқтаи назаридан тахлил қиладиган бўлсак турли саноат чангларини тозалаш кўрсаткичи 97-99 % ни ташкил қилади. Лекин конструкцион тузилишининг мураккаблиги уларга сарфланаётган энергия ва аппаратда гидродинамик ва аэродинамик қаршиликларнинг юқорилигини умумий камчилик сифатида кўрсатиб ўтишимиз мумкин [1,2].

Юқорида келтирилган камчиликларни бартараф қилиш ва тозалаш самарадорлигини ошириш мақсадида биз томонимиздан илмий тадқиқот ишлари олиб борилди ва паррак барабанли қурилманинг янги конструкцияси яратилди.

Бу юқорида қайд этилган камчиликларни бартараф қилиш ва чангли газлар билан аппаратга берилаётган суюқлик ўртасидаги контакт юзасини ошириш мақсадида, ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи барабанли аппаратнинг янги конструкцияси тавсия этилган [4]. Яратилган янги конструкциядаги чанг ушлаш аппаратининг асосий авфзалликларидан бири бу аппаратда энергия сарфининг ҳамда гидродинамик ва аэродинамик қаршиликларнинг камлиги ҳамда чангли ҳаво ва газларни суюқлик томчилари билан контакт юзаси оширилганлигидир. Бу аппаратни гидродинамик жараёнлари назарий таҳлил қилиниб, маҳаллий ва сетканинг каршилик коэффициетларини ҳисоблаш тенгламалари ва бу қаршилик

коэффициентларига боғлиқ ҳолда аппаратдаги умумий йўқотилган босимни ҳисоблаш тенгламаси келтириб чиқарилган. Аппаратга берилаётган суюқлик сарфини ҳисобловчи тенглама ҳам олинган [3].

Бу тавсия этилган аппаратда сеткали барабанни айланма ҳаракати электр мотори ва тасмали узатма орқали амалга оширилади. Бу ўз навбатида аппаратга сарфланаётган энергияни ортишига олиб келади. Аппаратга сарфланаётган энергия сарфини камайтириш учун бу аппаратни такомиллаштирилган конструкцияси ишлаб чиқилди. Бу аппаратнинг афзаллиги сеткали барабанни айланма ҳаракати, аппаратнинг чангли ҳаво киритиш қувуридаги чангли ҳаво тезлигига боғлиқ ҳолда, барабанга ўрнатилган парракларни айланма ҳаракати ҳисобига амалга оширилади. Тавсия этилаётган аппаратни конструкцион тузилиши саноат корхоналари цехларидан чиқаётган чангли ҳаво ва газларни йўналтирувчи махсус қувурлар ўлчамига мослаб лойихаланиши мумкинлиги билан ажралиб туради. Бу ўз навбатида аппаратни жойлаштириш учун махсус майдонни талаб этмайди. Қуйида такомиллаштирилган қурилманинг тузилиши ва ишлаш принципи баён этилган (1-расм).



1-расм. Паррак барабанли қурилманинг кинематик схемаси

Қурилманинг тузилиши қуйидагича. Қурилма цилиндрик тана 1 дан ташкил топган бўлиб, унга подшипник 9 орқали вал 4 ва валга таянчлар 5 ва 8 ўрнатилган. Таянчлар 5 ва 8 га пўлат пластинадан тайёрланган халқа 6 ўрнатилган ва унга горизонтал ҳолатда пўлат стерженлар 7 маҳкамланган. Стерженлар 7 га пўлат тўр 10 тўшалган ва натижада тўрли барабан ҳосил қилинган. Қурилмага чангли газни йўналтириш учун тана 1 га қувур 2 ва тозаланган газни чиқариш учун қувур 3 ўрнатилган. Вал 4га барабаннинг айланма ҳаракатини таъминлаш ва чангли газни сув билан контактини яхшилаш учун, тўрли барабаннинг охирги қисмидаги таянч 8 нинг олд қисмига барабан кесим юзаси бўйлаб валга куракчали паррак 11 ўрнатилган. Тўрли барабан 10 нинг устки қисмига тақсимловчи қувур 12 орқали берилаётган суюқлик, штуцерлар 13 ёрдамида сепилади. Сепилган суюқлик шлам ваннаси 14 да йиғилади. Шлам ваннаси 14 да суюқликни ўзгармас сатҳда ушлаб туриш учун қувур 15, шламни қурилмадан чиқариш учун эса қувур 16 хизмат қилади.

Қурилма қуйидагича ишлайди. Қурилмага чангли газ қувур 2 орқали подшипник 9 ларга вал 4 орқали ўрнатилган пўлат тўрли барабан 10 нинг ички қисмига берилади. Тўрли барабан 10 нинг устки қисмидан тақсимловчи қувур 12 орқали сочилаётган суюқлик бутун бўйлама юзаси бўйлаб, штуцерлар 13 ёрдамида сепилади. Натижада сепилган суюқлик пўлат тўрлар 10 га урилиб, тўр симларида янада майдаланиб контакт юзалари ошади. Томчиларнинг бир қисми тўр симларида суюқлик плёнкаси ҳосил қилади ва қолган қисми тўр тешикларидан барабаннинг ички қисмига яъни тозалаш камерасига киради. Чангли газ қурилмани тозалаш камерасида ҳаракатланиб, майдаланган суюқлик томчилари билан контакти ҳосил бўлади ва чанглардан тозаланиш бошланади. Тозаланаётган газ оқими ўз йўналиши давомида тўрли барабан 10 нинг охирги қисмига ўрнатилган куракчали паррак 11га урилади ва уюрмали харакат олади натижада чангли газ билан суюқликнинг контактланиши янада ошади ва газ оқими тезлиги ва ҳосил бўладиган уюрмали оқим таъсирида вужудга келадиган кучга боғлиқ ҳолда тўрли барабан 10 ни айланма харакатга келтиради. Натижада газ таркибидаги чанглар самарали ушлаб қолинади ва ҳосил бўлган чанг суюқлик аралашмаси, қурилма танаси 1 ва тўрли барабан 7 нинг пастки қисмидаги шлам ваннаси 14 га тўпланади. Шлам ваннаси 14 да ушланган чанглар инерцион ва гравитацион кучлар таъсирида чўкади. Шлам ваннаси айланма ҳаракатланувчи барабанга тўшалган пўлат тўрларни ювиш ва қайта намлаш учун ҳам хизмат қилади. Шлам ваннасидаги суюқликни ўзгармас сатҳда туриши қувур 15 ёрдамида амалга оширилади. Қувур 16 ёрдамида шламни аппаратдан чиқарилади.

Қурилманинг чангли газларни тозалаш самарадорлиги барабанга тўшаладиган пўлат тўр 10 нинг ўлчамларига ва бу ўлчамларга боғлиқ ҳолда ҳосил бўладиган қаршилик коэффициентларига кўра тажрибалар орқали аниқланади. Барабандаги пўлат тўрлар 10 га суюқликни сепиб берувчи штуцер 13 лар тешигидан чиқаётган суюқликнинг сарфи, тешикнинг қаршилик коэффициентига боғлиқ ҳолда аниқланади. Штуцер 13 лар сони эса барабаннинг ўлчамига ва тўшалган тўрлар 10 га суюқликни сепиш даражаси ва тозалаш самарадорлиги орқали танланади. Тўрли барабан диаметри ва узунлиги эса тозалашга берилаётган чангли ҳаво сарфига ва танланган тўрнинг тозалаш самарадорлигига боғлиқ ҳолда тажрибалар орқали аниқланади. Чангли ҳаво оқими ёрдамида барабанини айланишлар сони, қувур 2 орқали узатилаётган чангли ҳаво тезлигига ва унга ўрнатилган куракчали парракнинг қиялик бурчаклари β (фигура 4) ва кураклар сони, газни паррак юзаларига урилишда ҳосил бўладиган уюрмали кучларга ҳамда паррак юзаларининг қаршилик коэффициентлари ва шлам ваннасидаги сув сатҳи баландлигига кўра, ҳосил бўладиган қаршилик коэффициентлари ва подшипникларнинг қаршилик коэффициентлари қийматларини ҳисоблаш орқали амалга оширилди. Тўрли барабаннинг айланма ҳаракати, ҳосил қилинган шлам ваннасидаги суюқлик сатҳини қўзғатмаслик шарти орқали танланади. Қурилмага берилаётган чангли ҳаво ва суюқлик сарфлари нисбатлари ҳамда пўлат тўрнинг ва куракчали парракнинг юқорида келтирилган асосий параметрларининг мақбул қийматлари, аппаратнинг тозалаш самарадорлигини юқори кўрсаткичларига кўра, тажрибавий тадқиқотлар орқали танланади.

Бу қурилмани яна бир афзаллиги саноат корхоналари ва қурилмалардан чиқаётган чангларни йўналтирувчи қувурларга тўғридан тўғри ўрнатиш имкониятига эга бўлиб, қурилма учун махсус жойни талаб этмайди.

Адабиётлар.

1.Плотников К.Б. Исследование эффективности пылеуловивания и массоотдачи роторном аппарате с внутренный циркуляцией жидкости. Дисс. … канд.техн. наук. Кемерово – 2014, - 150 с.

2.Эргащев Н.А. Научно-технические основы использования в промышленности аппарата для мокрого пылеулавливания и газоочистки. Дисс. …канд.техн. наук. –Ташкент, – 2021. – 116 с.

3.Мадаминова Г.И.. Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Барабанное устройства для мокрой очистки запыленного газа и воздуха// Universum: технические науки.– №. 5 (86). Часть 4.,М., Изд.”МЦНО”,-2021. С.45-49.

4.Каримов И.Т., Алиматов Б.А., Оғир суюқликни оқиб чиқиш тезлигини аниқлашда ўтказилган тажрибавий тадқиқотлар тахлили // Фарғона политехника институтининг илмий-техника журнали, – Фарғона, 2019. – №4. – Б. 103–110.

ЦЕМЕНТ ЧАНГИ УНИНГ ЗАРАРЛИ ТАЪСИРИ ВА САМАРАЛИ ТОЗАЛАШ УСУЛЛАРИ ТАХЛИЛИ

Ассистент: М.М. Муллажонова, Талаба: Ш.Д.Мухторов
Фарғона давлат техника университети

Кириш:

Қурилиш саноатида цемент асосий бинокорлик материалларидан бири ҳисобланади. Бироқ, уни ишлаб чиқариш, сақлаш ва ташиш жараёнларида катта миқдордаги цемент чанги ҳосиб бўлади. Бу чанг инсон саломатлиги, атроф-муҳит ва иш муҳити учун жиддий муаммолар келтириб чиқаради. Бундан ташқари чанг зарраларининг ташлама сифатида атмосферага қўйиб юборилиши йилиги минглаб тонна ҳом ашёни қайта ишлаш имкониятини пасайтиради. Бу эса ўз навбатида иқтисодий жиҳатдан тайёр цемент тан нарҳининг ортишига сабаб бўлади. Ушбу мақолада цемент чанги билан боғлиқ муаммолар, унинг таъсирлари ва уларни бартараф этиш йўллари таҳлил қилинади.

Тахлилий тадқиқот натижалари:

Цемент чанги билан боғлиқ муаммолар асосан уч гуруҳга бўлинади ва булар қуйидагилар.

1 Инсон саломатлигига таъсири. Цемент чанги микроскопик заррачалардан иборат бўлиб, нафас олиш орқали ўпкага киради. Бу қуйидаги муаммоларни келтириб чиқаради:

- Силикоз (ўпка тўқималарида фиброз жараёнлар) жараёнларини жадаллаштиради;
- Астма ва бронхит касалликларига сабаб бўлади;
- Терининг қичишиши ва кўз ёшланишига сабаб бўлади.

2. Атроф-муҳитга таъсири- Атмосферани турли антропоген моддалар, жумладан цемент чанглари билан ифлослантириш қуйидаги муаммоларни келтириб чиқаради:

- Ҳавонинг ифлосланишига олиб келади;
- Ўсимликларнинг ўсишини сустлаштиради;
- Тупроқнинг кимёвий мувозанати бузилишига сабаб бўлади.

3. Иш муҳитига таъсири. Ишлаб чиқариш жараёнида юқори консентрациядаги цемент чангини ажралиб чиқиши технологик чизиқ, қурилма, аппарат, агрегат ҳамда ишлаб чиқариш шароитига қуйидаги муаммоларни келтириб чиқаради:

- Қурилиш майдонларида кўринувчанликни камайтиради.
- Асбоб-ускуналарнинг ишлашини бузади;
- Ишлаб чиқариш жараёнларида хавфсизлик талабларига риоя қилишни талабларини бажаришни қийинлаштиради.

Тахлил этилган юқоридаги муаммолар ҳаво таркибидаги чангнинг консентрация миқдори билан боғлиқ бўлиб, агар ҳаво таркибилаги чанг миқдори кўпайса бу ҳолат ёмонлашиб боради ва муаммони ечиш мураккаблашади. Ҳозирда ушбу йўналишда кўплаб тадқиқотлар ўтказилмоқда.

Цемент ишлаб чикариш билан боғлик асосий экологик масала бу атмосферага ташланаётган қўйидаги чиқиндилар:

-азот оксиди (NO_x);

-олтингугурт икки оксиди (SO_2);

-қаттиқ зарралар (чанг).

Корхоналарда чиқиндиларни узлуксиз мониторинг тизими (ЧУМТ) ўрнатилган бўлиб, юқорида келтирилган чиқиндилар уларга қўшиб учувчи органик моддалар, кислород ва газлар хажмини доимий назорат қилиб борилади.

Чиқиндиларни икки асосий дудбўрон мўрилардан чиқадиган чанг, олтингугурт оксиди, азот оксидларини узлуксиз камайтириш мақсадида экологик вазифалар ўрнатилган. Улар асосида рухсат этилган чегаравий ташлама (РЭЧТ)лар меъёрлари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Асосий ташламалар	**РЭЧТ (**мг/сек)
Азот оксиди	37,59
Олтингугурт икки оксиди	22,9
Чанг	9,18

1-жадвалда берилган маълумотлардан кўринадики асосий ташламалар бўлган азот оксиди, олтингугурт икки оксиди ва цемент чангининг ПДК мэёрлари жуда ҳам паст кўрсаткичда бўлиши керак. Бу эса ўз навбатида корхонанинг асперация цехларида замонавий чанг тозалаш усуллари ва қурилмаларини қўллашни тақозо этади. Бунда кам энергия сарфида юқори тозалаш даражасини таъминлаш масаласи ҳам муҳимдир.

Юқоридаги жараёнда заррачаларнинг ўлчами 1÷100 мкм атрофида бўлган цемент чанги зарралари ҳосил бўлса, иккиламчи ташлама газлар азод ва олтингугурт икки оксиди заррачаларнинг ўлчами 0,1÷0,5 мкм га тенг бўлган газлар ҳосил бўлади.

Технологик жараённи тўғри амалга ошириш учун саноат газлари ва ҳаво чангдан тозаланиши зарур. Аралаштиргичлар, диспергаторлар, кўпчилик модда алмашиниш қурилмалари, қатор кимёвий қурилмалар газ ва чангларни тозалашнинг эффектив схемаларисиз яхши ишлай олмайди.

Муаммонинг ечими:

Цемент чангини камайтириш ечимлари.

1. Индивидуал ҳимоя воситаларидан фойдаланиш.

- FFP2 ва FFP3 тоифасидаги респиратор ниқоблар;
- Ҳимоя кўзойнаклари ва тўлиқ юз ниқоблари;
- Тозаланиши осон бўлган махсус кийимлар.

2. Техник чоралар.

- Вакуум усулдаги тозалагичлар: иш вақтида чангни ютиб олади;
- Чанг камайтирувчи тизимлар: фильтрлар, циклонлар ва электростатик тозалагичлар;
- Спринклер тизимлари: сув ёрдамида чангни босиб туради.

3. Бошқарув ва назорат механизмлари.

- Доимий ҳаво сифатини мониторинг қилиш;
- Ҳар куни нам тозалаш режими;
- Ишчилар учун мунтазам ўқув машғулотлари.

4. Автоматлаштириш ва иш услубини ўзгартириш.

- Қўлда юклаш ўрнига автомат транспортерлар;
- Қоплаш, аралаштириш ва сақлаш жараёнларини ёпиқ тизимда амалга ошириш.

Хулоса

Цемент чанги жисмоний, экологик ва иқтисодий жиҳатдан жиддий муаммо ҳисобланади. Аммо бу муаммони ечиш мумкин — тўғри муҳофаза воситалари, замонавий технологиялар ва мунтазам назорат орқали. Энг муҳими, инсон саломатлиги ва атроф-муҳит хавфсизлигига биринчи ўринда қараш керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. World Health Organization (2021). *Cement dust and health risks*.
2. Occupational Safety and Health Administration (OSHA). *Guidelines for cement handling*.
3. Ўзбекистон Республикаси ССВ. *Иш жойларидаги ҳаво сифати меъёрлари*, 2022.

КОНУС НУҚТАЛАРИ ТРАЕКТОРИЯСИ ВА ЎҚИДАГИ КООРДИНАТАЛАР ПРОЕКЦИЯЛАР ТЕНГЛАМАЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ.

Туйчиева Ш.Ш. Туйчиев К.А
Фарғона политехника институти.

Mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish va mintaqaning integratsiya jarayonlarida ishtirok etishi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirishning asosiy jihatlari hisoblanadi. Bu borada, davlatning mintaqaviy siyosatini shakllantirishda raqobatdosh ustunliklarni hisobga olish va hududning investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlardan shuni ta'kidlash lozimki, mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish masalalarida hududlarda investitsiya resurslari manbalarini shakllantirish, hududiy darajada investitsiya faoliyatini boshqarish tizimini shakllantirish va rivojlantirish, mintaqaviy investitsiya bozorlarining to'laqonli faoliyati kabi konseptual masalalar va yo'nalishlar rivojlangan davlatlardagidek to'liq ishlab chiqilmagan. Mintaqada investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish masalasi kelgusida reprodutiv jarayonlarni tiklash va hududiy iqtisodiyot tizimining iqtisodiy o'zini-o'zi ta'minlashga

asoslangan bo‘lishi kerak. Mintaqada investitsiya faoliyatining faollashuvi natijasi — mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalariga investitsiya kiritishdan sinergik samaraga erishish hamda barqaror rivojlanish istiqbollarini ta’minlashdir.

Hozirgi bosqichda investitsiya faoliyati ham investor, ham butun jamiyat ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda. Investorning maqsadi qo‘yilgan resurslardan, xususan, daromaddan maksimal foyda olishdir. Zamonaviy investitsiya nazariyalarida asosiy e’tibor ularning samaradorligi va ijtimoiy foydali natijalarga qaratilgan bo‘ladi. Iqtisodiy yo‘naltirilgan investitsiyalar investitsiya faoliyatini amalga oshirishdan iqtisodiy samaradorlikka, ya’ni qiymatda ifodalangan foydali natijaga erishishga qaratilgan. Iqtisodiy yo‘naltirilgan investitsiyalar natijalari nafaqat foyda, balki ishlab chiqarish hajmini oshirish, modernizatsiyani rag‘batlantirish, bozor raqobati darajasini oshirish, to‘lov balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa omillarni ham o‘z ichiga oladi.

Mintaqaviy investitsiya muhitini rivojlantirishda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

- Infratuzilmaviy rivojlanish: Transport va kommunikatsiya tarmoqlarining takomillashtirilishi investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.
- Qonunchilik barqarorligi: Investorlar uchun kafolat va himoya tizimining kuchaytirilishi investitsiyalar hajmini oshiradi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Mintaqada ishchi kuchining sifati va mehnat bozorining moslashuvchanligi investitsion jozibadorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
- Moliyaviy rag‘batlantirish: Investorlarga soliq imtiyozlari va subsidiya tizimining joriy etilishi investitsiya hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan investitsiyalar samarasi aholining turmush darajasini oshirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, ishsizlik darajasini pasaytirish, aholining ta’lim va madaniy saviyasini yuksaltirish, demokratik huquq hamda erkinliklarning hayotga tatbiq etilishini ta’minlash, millat ma’naviyatini yuksaltirish va milliy boylikni oshirishda o‘z ifodasini topadi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy samaradorlik investitsiya faoliyati va uni faollashtirish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Makro va mezo darajada investitsiya samaradorligining ko‘rsatkichi ularning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash qobiliyatidir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish konsepsiyasini taklif qilamiz, u boshqalardan farqli o‘laroq, 1.2.2-rasmda ko‘rsatilgandek ifodalanadi.



1.2.2-rasm. Hududda investitsion faoliyatini faollashtirish konsepsiyasi

Investitsiya faoliyatining faollashuvi natijasida quyidagi samaralarga erishish mumkin:

- Iqtisodiy yo'nalishda ishlab chiqarish hajmini oshirish, modernizatsiyani rag'batlantirish va to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatish.
- Ijtimoiy yo'nalishda aholi turmush darajasini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish va ishsizlik darajasini pasaytirish.
- Ekologik yo'nalishda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash.

Xulosa

Maqoladagi tahlillar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish iqtisodiy barqarorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

- Investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, qonunchilik barqarorligini ta'minlash va investitsion muhitni yaxshilash zarur.
- Investitsiyalarni jalb qilishda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik omillar ham hisobga olinishi lozim.
- Mintaqaviy investitsiya strategiyalarining samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fedulov L. Xalqaro investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalari. Moskva, 2020.
2. Makogon Yu. Global investitsiya jarayonlari va ularning ekologik omillari. Kiyev, 2019.
3. Chernikova O.V. Mintaqaviy investitsion siyosat. Sankt-Peterburg, 2021.
4. Smith A. Regional Economic Development and Investment Strategies. London, 2022.
5. Johnson M. Foreign Direct Investment Trends in Emerging Markets. New York, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" 01.03.2002-y. Qonuni. https://lex.uz/docs/-22525.
7. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" 26.04.1996 yildagi 223-I-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-6567

UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARI EKSPLUATATSIYASI (SAQLASH VA TA'MIRLASH) ISHLARIGA XUSUSIY SEKTORNI JALB QILISH LOYIHALARIGA E'LONLARNI JOYLASHTIRISH.

Pardayev Fayzulla G'affarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
f.gaffarovich@tsue.uz

Respublikamizda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi 42 ming 700 km tashkil etadi. Ushbu yo'llarda saqlash ishlarini Avtomobil yo'llari tarkibidagi korxonalar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda uzunligi 20 km.gacha bo'lgan

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish, - belgilandi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiyasiga autsorsing asosida xususiy sektor jalb qilinadi. Unga ko‘ra, 2024-yil 1-maydan boshlab uzunligi 20 kilometrgacha bo‘lgan yo‘llarni ekspluatatsiyasi uchun e’lonlar davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirildi.

Maxsus axborot portal vakolatli organ tomonidan yuritiladigan, davlat xaridlari amalga oshirilishi to‘g‘risidagi e’lonlar, davlat xaridlarining yakunlari, ishtirokchilarning takliflari haqidagi axborotni va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa axborotni elektron shaklda ko‘zdan kechirishni, shuningdek amalga oshirilgan elektron davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari tomonidan kiritiladigan axborotni to‘plashni ta’minlovchi veb-saytdir. (maxsus elektron platforma).

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya ishlariga autsorsing asosida tashkil etilgan tender savdolariga ishtirok etuvchilarga qo‘yidagi talablar qo‘yildi.

Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risidagi” qonuni asosida izlanuvchi tomonidan shakllantirildi:

- Shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;
- Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma’lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi;
- O‘ziga nisbatan joriy etilgan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi.

Transport vazirligi xuzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-maydan boshlab tajriba-sinov tariqasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga autsorsing asosida xususiy sektorni jalb qilish loyihalari bo‘yicha e’lonlarni davlat xaridlarining maxsus axborot portali hamda ommaviy axborot vositalariga, shuningdek, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin. Qaraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududidan o‘tgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ekspluatatsiya ishlarini amalga oshirish uchun maxsus axborot portaliga berilgan e’lon natijasida quyidagi xususiy sektor vakillari g‘olib deb topildi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini 2024-yilda belgilangan qismida ekspluatatsiya ishlarini amalga oshirish uchun g'olib deb topilgan xususiy sektor vakillari to'g'risida ma'lumot.

№	Hududlar nomi	Obyekt nomi	G'olib xususiy sektor vakillari
1	Qaraqalpo-g'iston Respublika-si	A-380 "Ғузор-Бухора-Нукус--Бенау" автомобиль йўлининг 648-668 км км	"KELESHEK STORY MONTAJ" МЧЖ
2	Andijon viloyati	4P112 "Фарғона халқа йўли" автомобиль йўлининг 121-141 км қисми	"VODIY YOL TRANS QURILISH" МЧЖ
3	Buxoro viloyati	4P65 "4P63 автойўли Азизобод қ-Когон ш" автомобиль йўлининг 26-46 км қисми	"Amirbek gold way servis" МЧЖ
4	Jizzax viloyati	M39 "Алмати-Бишкек-Тошкент-Шахрисабз-Термиз"автомобиль йўлининг 992-1012 км қисми	"Sangzor yogdusi" МЧЖ
5	Qashqadaryo viloyati	4P234 "Косон ш- Қарлиқ қ-Муборак қ" автомобиль йўлининг 5-25 км қисми	"EKSPRESS LYUKS" МЧЖ
6	Navoiy viloyati	4p183 "Малик темир йўл станцияси- Бўстон қ" автомобиль йўлининг 25-45 км қисми	"SARMA-ZOR TRANS" МЧЖ
7	Namangan viloyati	4P260"Жумашуй ш-Тегирмон қ-Навбаҳор қ-Қуқон ш" автомобиль йўлининг 2-22 км қисми	"AVTO YOLLARI INSHOAT-LAR QURISH" МЧЖ
8	Samarqand viloyati	M39 "Алмати-Бишкек-Тошкент-Шахрисабз-Термиз" автомобиль йўлининг 1115-1135 км қисми	"NEW TECH SAMAR-QAND" МЧЖ
9	Sirdaryo viloyati	4P18A "A373 автойўлидан – Гулистон шахрига шахобча" автомобиль йўлининг 0-20 км қисми	"YAKSART -GOLD" МЧЖ

10	Surxondaryo viloyati	4Р103 "Шерабод ш-Сурхон темир йўл станцияси" автомобиль йўлининг 18-38 км қисми	"MEGA-QURUVCHI INVEST-SERVIS" МЧЖ
11	Toshkent viloyati	4Р2 Тошкент шахри-Тўйтепа шахри -А373 автойўли 38-58 км қисми	"AVTOYOLSANOAT INVEST" МЧЖ
12	Farg'ona viloyati	4Р-112 "Фарғона халқа йўли" автомобиль йўлининг 206-226 км қисми	"FARGO-NA OBODON-CHILIK" МЧЖ
13	Xorazm viloyati	4Р165 "Урганч-Хива" автойўли-Қўшкупир қ -Ғазавот қ-Туркманистон Республикаси чегараси" автомобиль йўлининг 0-20 км қисми	"XIVA STAN-DART PLUS" МЧЖ

Manba: Avtomobil yo'llari qo'mitasi ma'lumotlar.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga xususiy sektorni jalb qilish loyihalariga e'lonlarni joylashtirish taklifi bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini autsorsing asosida xususiy sektor tomonidan amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-aprelda 233- sonli qaror qabul qilindi, unga asosan Avtomobil yo'llar qo'mitasi, Qaraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-maydan boshlab tajriba – sinov tariqasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya (saqlash va ta'mirlash) ishlariga autsorsing xususiy sektorni jalb qilish bo'yicha e'lonlarni davlat xaridlarining maxsus axborot portali hamda ommaviy axborot vositalariga, shuningdek Avtomobil yo'llari qshmitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirish belgilandi.

Avtomobil yo'llar qo'mitasi tomonidan 2024-yilda autsorsing asosida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya ishlariga xususiy sektor vakillarini jalb qilish bo'yicha davlat xaridlarining maxsus axborot portali hamda Avtomobil yo'llari qo'mitasining rasmiy veb-saytiga ma'lumotlar joylashtirildi va g'olib vakillar aniqlandi.

Avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning sifatiga autsorser javobgar hisoblanadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining belgilangan uchastkalarida 2024-yilda ekspluatatsiya ishlarini amalga oshirish uchun xususiy sektor vakillari bilan belgilangan tartibda shartnomalar imzolandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси янги таҳрири. ЎзР 01.05.2023 й. ЎРҚ-837-сон.

2. Ўзбекистон Республикасининг "Автомобиль йўллари тўғрисида"ги қонуни 2007 йил 2 октябрдаги ЎРҚ-117-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Йўл хўжалиги соҳосини яънада такомиллаштириш тўғрисида" Тошкент ш. 2023 йил 10 октябрь 330 сон қарори.

5. Delmon J. Private Sector Investment in Infrastructure: Project Finance, PPP Project and Risk. The World Bank and Kluwer Law International. 2009. P. 7.

6. Public/Private Partnerships: Financing a Common Wealth/ed.by B.Weiss.Washington, 1985.P.67.

7. Сулакшин С.С, Вилисов М.В, Хрусталёва Е.А.//Журнал "Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование" Номер 4 (25) Декабрь 2005г

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЗАНЯТОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Ташпулатов Айбек
aybektashpulatov1@gmail.com
Ферганский государственный технический Университет,
Республика Узбекистан

В условиях цифровизации экономики и коренных инновационных преобразований всех отраслей эффективное и максимально полное использование имеющихся экономических ресурсов является важным фактором макроэкономической стабильности, экономического роста и прогресса. В условиях демографического роста в Республике Узбекистан одним из актуальных вопросов является более эффективное и максимальное использование трудового потенциала и их оптимальное перераспределение в масштабе региона. Как известно, структура, состояние и динамика трудовых ресурсов оказывают существенное влияние на макроэкономическую стабильность и экономический рост.

В последнее время в научных разработках исследователей появляется все больше научных тем, направленных на действенное влияние электронных технологий и коммуникаций технологий на уровень занятости населения: от разработки и внедрения цифровых платформ поиска работы и спроса на

рабочую силу до занятости в новых и нестандартных направлений приложения труда. Данные тенденции находят отражение и в документах Международной организации труда, Бюро Конференции европейских статистиков (CES), Всемирного экономического форума, национальных концепциях, стратегиях и программах социально-экономического развития стран мира, в том числе стран – членов ЕАЭС. В них представлен подробный обзор концептуальных и статистических основ, используемых в настоящее время для понимания и измерения новых форм занятости, а также представлен обзор международной статистической деятельности в этой области. В частности, обзор предлагает анализ ключевых вопросов и проблем, связанных с измерением новых форм занятости, в соответствии с самым последним обновлением Международной классификации статуса в занятости.

Сегодня трудовая деятельность и сфера занятости быстро трансформируется вследствие цифровизации экономики. При этом, в странах с высоким уровнем цифровизации экономики, безработица, как правило, ниже, чем в странах, которые пока отстают в своем технологическом развитии. Согласно докладу UNCTAD ключевыми изменениями рынка труда станут: появление новых рабочих мест и профессий (в сферах электронной коммерции, 3D печати, программного обеспечения, кибер-безопасности и т.д.); исчезновение ряда прежних профессий; изменение условий труда (увеличение объема удаленной работы, работы через интернет-платформы, рост доли прекариата через снижение уровня социальной защиты работников); увеличение доли труда, требующего цифровых навыков (digital skills).

Действительно, сегодня мы наблюдаем, процессы цифровизации и технологическая революция трансформируют структуру рынка труда, создавая новые профессии, формируют спрос на дистанционную цифровую занятость и создают цифровую форму взаимодействия между субъектами рынка труда. Цифровая экономика открывает возможности для предпринимательства, инноваций и создания новых рабочих мест, но вместе с тем, порождает новые риски и угрозы, а также ставит новые задачи для их преодоления. Рассмотрим ниже основные тенденции.

Научное изучение, анализ и прогнозирование состояния и развития рынка труда в трудоизбыточных регионах страны, особенно в городских и сельских местностях в целях принятия эффективных управленческих решений в сфере занятости и снижения безработицы имеет актуальное практическое значение.

Главная цель стратегии эффективного развития рынка труда-обеспечение эффективного функционирования рынка труда на отдельно

взятой территории. Исходя из этой цели, предлагаются следующие приоритетные направления и соответствующие задачи эффективного развития рынка труда:

I. Полное и эффективное использование потенциала рабочей силы в масштабах территории.

1.1. Обеспечение занятости незанятого населения

1.2. Внедрение современных механизмов трудоустройства выпускников образовательных учреждений и молодежи

1.3. Прозрачность, учет, регулирование миграции рабочей силы;

1.4. Раскрытие, официальная регистрация и гарантия современных форм самозанятости населения в соответствии с рекомендациями Международной организации труда;

1.5. Финансовая поддержка предприятий, добившихся сохранения рабочих мест и создания новых в период спада производства.

1.6. Улучшение инфраструктуры рынка труда, путем внедрения электронных платфом по поиску и обслуживающей занятость населения;

1.7. Направление неиспользуемых земельных участков, основных производственных и непроизводственных фондов на создание новых рабочих мест;

1.8. Правовая защита и финансовая поддержка населения, особенно молодежи и женщин, для организации собственного бизнеса и предпринимательской деятельности;

II. Создание новых рабочих мест на территории области и в секторах занятости населения.

2.1. Формирование и развитие навыков предпринимательства и бизнеса

2.2. Увеличение объема внутренних и иностранных инвестиций

2.3. расширение деятельности предприятий, производящих продукцию с высокой добавленной стоимостью в рамках программ локализации

2.4. Внедрение инновационных решений, направленных на повышение уровня трудовых отношений и занятости населения в свободных экономических зонах

2.5. Совершенствование нормативно-правовых основ обеспечения социального сотрудничества и равенства в трудовых отношениях

2.6. Расширение и развитие деятельности рабочей силы в современных сферах труда, таких как IT-технологии, фрилансинг, аутсорсинг, рекрутинг и др.

III. Повышение предложения квалифицированной рабочей силы на рынке труда.

3.1. Согласование и адаптация системы подготовки специалистов и профессионального образования к потребностям рынка труда

3.2. Совершенствование деятельности центров повышения квалификации и профориентации работников, бизнес-инкубаторов

3.3. Внедрение прогрессивных методов повышения квалификации персонала на предприятиях отрасли

3.4. расширение и развитие производства трудоемкой продукции с высокой добавленной стоимостью в городской и сельской местности.

3.5. Расширение и стимулирование деятельности по обслуживанию и обслуживанию населения на местах

Целесообразно поэтапно осуществлять достижение основной цели стратегии эффективного развития рынка труда и решение задач, поставленных в ее приоритетных направлениях.

В качестве информационного обеспечения стратегии используются официальные отчеты органов государственной статистики, данные и отчеты областного управления министерства занятости и трудовых отношений, данные образовательных учреждений, профессиональных центров, результаты социологических и научных исследований, информация СМИ и интернета.

Организационные механизмы реализации стратегии выполняют функции управления и контроля в обеспечении эффективного функционирования рынка труда.

В качестве информационного обеспечения стратегии необходимо использовать официальные отчеты органов государственной статистики, данные и отчеты областного управления министерства занятости и трудовых отношений, данные образовательных учреждений, профессиональных центров, результаты социологических и научных исследований и др.

Эффективное решение задач, поставленных в предлагаемых приоритетных направлениях стратегии эффективного развития рынка труда на современном этапе социально-экономического развития, будет способствовать снижению уровня занятости и безработицы населения, повышению уровня жизни. Полное использование нормативно-правовых, институциональных, финансовых, информационных и организационных механизмов при реализации данной стратегии обеспечит эффективность намеченных в ней мер, послужит снижению безработицы, являющейся насущной проблемой, а также повышению уровня занятости и доходов населения.

Для разработки и реализации стратегических задач необходимо совершенствовать правовую базу на рынке труда, исходя из требований рынка

и зарубежного опыта. Потому что на практике находят свое решение проблемы статистического учета занятости, оплаты труда, исчисления стажа, пенсионного обеспечения и другие подобные юридические вопросы.

Институциональный механизм включает в себя субъектов социальной инфраструктуры, которые служат для эффективного функционирования и развития рынка труда. При этом основное внимание будет уделено таким инфраструктурным узлам, как государственные, негосударственные учреждения, образовательные учреждения, структуры государственно-частного партнерства, информационно-консультационные и коворкинг-центры, центры занятости, бизнес-инкубаторы, осуществляющие деятельность в сфере цифровой экономики, информационно-коммуникационных технологий, обеспечения непрерывной занятости населения трудовой деятельностью с использованием возможностей Интернета.

Список литературы:

1. Tashpulatov A. Effective rural labour market development strategy// JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 Volume 6, Issue 9, 2020. P.39-44 https://journalnx.com/

2. Третьякова Л.А. Особенности развития рынка труда в современных условиях// Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014. № 9 (246). стр.26-32

3. Холмуминов Ш.Р. Формирование и развитие сельского рынка труда а также их моделирование. Монография. – Ташкент: "Fan va texnologiya", 2014. С.232.

SANOAT TARMOQLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Kadirov Abdumalik Matkarimovich
Farg'ona davlat texnika universiteti
Menejment va marketing kafedrasi
+998999926058 abdumalikkadirov84@gmail.com

Mamlakatimiz iqtisodiyoti ham jadal surhatlar bilan innovatsion rivojlanayotgan bir paytda sanoat korxonalarini avtomatlashtirish, sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini tahminlash, ular faoliyatiga zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish orqali korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish vazifasi qo'yilmoqda. Sanoat konxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili boshqaruv

sifatini oshirish, shu jumladan, dasturiy tahminot tizimlari asosida ishlab chiqarilgan axborot tizimlaridan foydalanish hisoblanadi. Bunday axborot tizimlari korxonalarning ishlab chiqarish (ishlab chiqarish, logistika, moliya, marketing) va ularning o‘zaro bog‘liklikdagi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Ko‘pincha sanoat korxonalari butun kompleksning ishiga ijobiy tahsir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan universal avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishga harakat qiladilar. Ularning asosiy afzalliklari shundaki, ular istalgan vaqtda mutlaqo boshqa anjom va buyumlarni ishlab chiqarish uchun qayta moslashtirilishi mumkin, buning uchun uskunaga boshqa dasturni kiritish kifoya qiladi. Bu kabi avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish hisobiga aksariyat korxonalar sezilarli darajada iqtisodiy o‘sishga erishmoqdalar. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayoni turli anjomlarga ishlov berish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda katta ahamiyatga ega. Bu yerda mahsulotning 50% kichik partiyalarda ishlab chiqariladi va agar sanoat korxonalarida avtomatlashgan tizim bo‘lmasa, u holda ushbu anjomlarni ishlab chiqarishga ish kunining 5 foiziga yaqin vaqt sarflanadi. Qolgan vaqt uskunalarni qayta sozlash va moslashtirishga, anjomlarni va asboblarni almashtirishga ketadi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning bu tarzda faoliyat yuritishi hech qaysi korxonaga naf keltirmaydi, chunki ularning har qaysisining maqsadi ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish hisoblanadi. Buyum va anjomlarni ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishdagi yana bir ijobiy samara xom-ashyo va materiallarning anchagina miqdorini tejashga imkon beradi, biroq bu yerda barchasi ish jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham axborot tizimlaridan keng foydalanish bo‘yicha kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish, turli mulk shaklidagi korxonalarning boshqaruv tizimida ulardan samarali foydalanish zaruratini anglatadi. Ayrim sanoat korxonalari tomonidan eng arzon anhanaviy va davriy boshqaruv tizimlarini tanlaydilar. Bu esa korxonadagi ko‘p miqdordagi tovarlar ishlab chiqadigan va uskunalarni qayta dasturlash kam talab qiladigan holatda o‘zini oqlaydi. Kam miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqishda osonlik bilan qayta dasturlash mumkin bo‘lgan raqamli va pozitsion boshqaruv tizimlarini ishlatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zamonaviy sanoat korxonalarining ko‘pchiligida bitta korxona doirasida amalga oshadigan texnologik yechimlarning turliligi va yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro aloqalar hamda yangi texnologiyalarni joriy qilish kabi ijobiy tomonlari bilan ajralib turuvchi korxonalarning vorislari hisoblanadi. Biroq ular korxonaning ishlash samaradorligiga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligiga tahsir qiluvchi bir qator ijobiy va salbiy omillarga ham ega bo‘ladilar.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kompg‘yuterli imitatsion modellashtirishning evristika usullari, asosan, afzallik funktsiyalariga ega tarqalish sxemasiga asoslangan kalendarg‘ rejalashtirish bo‘yicha kompg‘yuter

texnologiyalarini qo‘llash tezkor rejalarni shakllantirishni tahminlovchi zamonaviy yechim hisoblanadi. Afzalliklarni toifalash orqali tarqalish sxemasidan afzallik funktsiyalari samaradorligini baholash va yechimlarni topish uchun foydalaniladi. Sanoat korxonalarida kengaytirilgan rejalashtirish va ishlab chiqarish jadvallarini tuzish bo‘yicha APS tizimi, ishlab chiqarishni mufassal rejalashtirish va yetkazib berishni rejalashtirish qismida ERP imkoniyatini kengaytiruvchi tahlil toifasidagi maxsus dasturiy tahminotdan iborat. ER’ tizimining g‘oyasi va amaliy imkoniyatlari yetkazib berishni boshqarish talablariga javob bermaydi. Sababi materiallarga ehtiyoj va ishlab chiqarish quvvatlari alohida rejalashtiriladi, qayta rejalashtirish bo‘yicha ko‘plab tartibotlar qo‘llaniladi, asosan firmadagi tezkor rejalashtirish, shuningdek, ishlab chiqarishni rejalashtirish va yetkazib berish zanjirlarini boshqarish modullarining cheklangan tahliliy imkoniyatlari qo‘llab-quvvatlanadi.

Aytish mumkinki, A’S-tizimlarga korxonadagi axborot muhiti bilan hamkorlikda va alohida ishlash imkonini beradi (masalan, ERP – APS – MES ko‘rinishidagi integratsiya) va ishlab chiqarish rejasini yakuniy istehmolchilar ehtiyojlariga yo‘naltiradi. Sanoat korxonalarida murakkab vazifalarni yechish va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarining qo‘llanilish sohasini kengaytirish vaqtida ishlab chiqarish jarayonlarini tuzilmaviy tashkil etish va formallashtirish amaliyoti ijrochilar jamoasini korxonaning yagona komplekslashgan axborot tizimi kontseptsiyasi asosida yagona boshqaruvchi va axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko‘rsatuvchi yagona muvofiqlashtiruvchi organga birlashishi zarurligini taqozo etadi. Ushbu axborot tizimi kontseptsiyasi axborot tizimini tasavvur etishni, uning maqsadlari, tarkibi va yagona axborot muhiti doirasida faoliyat ko‘rsatishini ifoda etuvchi asosiy tamoyillar majmuasi hisoblanadi. Yagona axborot muhiti esa korxona bo‘linmalarining axborotli o‘zaro aloqasini, shuningdek ularning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini tahminlovchi mahlumotlar, yagona tamoyillar va umumiy qoidalar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi axborot-kommunikatsion tizimlar va tarmoqlar, ularni yuritish hamda ulardan foydalanish texnologiyalari majmuasi hisoblanadi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sanoat korxonalari faoliyati boshqaruviga zamonaviy axborot tizimlarini tatbiq etgandan so‘ng quyidagi imkoniyatlar yuzaga keladi:

birinchidan, ichki va tashqi jarayonlar to‘g‘risidagi muhim axborotlar taqdim etiladi;

ikkinchidan, bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning tezkorligi va samaradorligi ortadi;

uchinchidan, korxona ichidagi jarayonlarni boshqarish sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqiladi;

to‘rtinchidan, korxona biznes jarayonlarini faoliyat ko‘rsatishining ekspertli bahosi va ularga nisbatan to‘g‘rilovchi tahsirlar amalga oshiriladi;

beshinchidan, korxona taraqqiyoti bashorat qilinadi hamda ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lmagan yo‘qotishlar kamaytiriladi. Bularning natijasida esa korxona faoliyatidan yuzaga keluvchi iqtisodiy samaradorlik tahminlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev M.K. Korporativ axborot tizimlarini korxonalar boshqaruvida samarali joriy qilishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnal 2019 yil № 2 mart-aprel.

2. Браверман А., Саулин А. Интегральная оценка результативности предприятий//Вопросы экономики, 2018, №6.

3. Веревченко А.П., Горчаков В.В., Иванов И.В. и др. Информационные ресурсы для принятия решений. М.: Издательство: Академический проект - 2022. – 560 с

4. Drucker, P., Innovation and entrepreneurship. Routledge.Oxford, 2017

5. Кутыркин С.Б., Волчков С.А., Балахонова И.В. Повышение качества предприятия с помощью информационных систем класса ERP// Методы менеджмента качества, 2020, №3.

SANOAT TARMOG‘INI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Ahadova Farangiz Akmaljon qizi
Farg‘ona Davlat texnika universiteti 1- talabasi, E-mail:
ahadovafarangiz734@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xojaev Azizxon Saidaloxonovich -Farg‘ona davlat texnika universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Sanoat iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston sanoati so‘nggi yillarda jadal o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, ekologik muammolar, resurslardan samarali foydalanish va innovatsiyalarni joriy etish kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqolada sanoatning barqaror rivojlanishi bilan bog‘liq asosiy muammolar va mavjud imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi 1987-yilda BMTning “Bizning umumiy kelajagimiz” hisobotida ilgari surilgan bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni birgalikda ta’minlashni nazarda tutadi. Jahon banki 2023-yilda e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, sanoatning barqaror

rivojlanishi uchun innovatsion texnologiyalar, yashil iqtisodiyot tamoyillari va resurslarni tejash muhim ahamiyatga ega.

2024-yildagi statistik ma'lumotlarga qaraganda sanoat ishlab chiqarish hajmi: O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 885,8 trillion so'mni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 6,8% ga oshganini ko'rsatadi. Sanoat tarmoqlarining o'sish sur'atlari: ishlov beruvchi sanoat: umumiy sanoat ishlab chiqarishining 85,1% ini tashkil etib, 753,6 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqardi. Kon sanoati: 67,8 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmning 7,6% ini tashkil etdi. Metallurgiya sanoati: 171,4 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 6,3% ni tashkil etdi. Oziq-ovqat sanoati: 103,7 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jismoniy hajm indeksi 104,5% ga yetdi.

O'zbekistonda sanoatning barqaror rivojlanishiga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik barqarorlik va texnologik modernizatsiya yetakchi omillardan biri sanaladi. Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. Ekologik muammolar – sanoat chiqindilari va atrof-muhitga zararli ta'siri kundan kunga ortib bormoqda. Bu o'z navbatida ekologik muammolarni kun tartibiga dolzarb qilib qo'yadi.

2. Energiya samaradorligi pastligi – an'anaviy energiya manbalaridan yuqori darajada foydalanish, alternativ energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarining past ekanligi.

3. Texnologik modernizatsiya yetishmovchiligi – zamonaviy ishlab chiqarish tizimlariga o'tish jarayonidagi sustligi.

4. Investitsiya muammolari – barqaror rivojlanishga qaratilgan investitsiyalar hajmining cheklanganligi va ularning yildan yilga kamayganligi.

5. Sanoat zonalari infratuzilmasidagi kamchiliklar - erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari (gaz, elektr, suv, internet) yetarli darajada rivojlanmaganligi.

6. Xom ashyoga bog'liqlik - qator tarmoqlar hali ham asosan xom ashyoni qayta ishlamay eksport qilishga yo'naltirilgan. Sanoat korxonalarida ichki qiymat zanjiri to'liq shakllanmaganligini ko'rish mumkin.

7. Kadrlar yetishmovchiligi va malaka pastligi - mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy talablarga javob bermasligi. Shu bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarining ishlab chiqarishga yetarlicha bog'lanmaganligi kabi asosiy muammolarni ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, quyidagi mamlakatda sanoat tarmoqlarida o'ziga xos imkoniyatlari mavjud bo'lib, quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

1. Sanoat siyosatini modernizatsiyalash, diversifikatsiya va qo'shimcha qiymat yaratishga erishish. Bunda xom ashyo eksportini qisqartirib, ishlab

chiqarishni chuqur ravishda qayta ishlashni rivojlantirish (masalan, paxtadan to‘qimachilik, metalldan mashinasozlik mahsulotlari tayyorlash);

2. Ekologik barqarorlikni ta’minlash - Yashil texnologiyalarga o‘tish, quyosh va shamol energetikasining ulushini 2030 yilgacha 25% ga oshirishga erishish. Yashil texnologiyalar joriy etilishi – energiya tejovchi uskunalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish ishlarini tashkil qilish.

3. Ekologik standartlarni joriy etish, ISO 14000 sertifikatsiyasini majburiylashtirishga erishish;

4. Xorijiy investitsiyalar jalb etilishi – chet el texnologiyalari va innovatsiyalarining mamlakat sanoatiga integratsiyasi.

5. Har viloyatda o‘ziga xos sanoat klasterlarini rivojlantirish (Farg‘ona – to‘qimachilik, Qoraqalpog‘iston - organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni rag‘batlantirish).

O‘zbekistonda sanoatni barqaror rivojlantirish uchun texnologik modernizatsiya, raqamli transformatsiya, investisiya muhitini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sanoatining barqaror rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish lozim: Sanoatda ekologik standartlarni joriy etish va chiqindilarni kamaytirish, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlarini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va yashil iqtisodiyotga o‘tish, xususiy sektor va xorijiy investorlarni rag‘batlantirish orqali innovatsiyalarni keng joriy etish, barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mamlakat sanoatini global miqyosda raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston sanoatini barqaror rivojlantirish uchun ekologik toza ishlab chiqarish va ijtimoiy inklyuzivlikni uyg‘unlashtirish kerak. Bu yo‘lda xorijiy investisiyalar, malakali kadrlar va innovasion infratuzilma asosiy omil bo‘lishi mumkin. Natijada yalpi ichki mahsulotning hajmlarini oshirish va eksport salohiyatini ko‘paytirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov O. (2022). O‘zbekiston sanoatida texnologik modernizatsiya tamoyillari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Jahon Banki (2023). “Sustainable Industrial Development: Global Trends and Challenges”. Washington, DC.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” Qarori. (2021).

4. Xalilov D. (2023). "Barqaror rivojlanish va sanoat: nazariya va amaliyot". Samarqand: Fan nashriyoti.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024). "Sanoatning hozirgi holati va istiqbollari"
6. Azizov, H. (2021). "O'zbekistonda sanoat rivojlanishining iqtisodiy asoslari". Buxoro: Ilmiy nashr.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI ENG DOLZARB BO'LGAN QURILISh MATERIALLARI

Hamzayev Inomjon Hamzayevich, Umarov Elmurod Sotvoldiyevich.
hamzayevinomjon@gmail.com
Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston

Kirish. O'zbekistonda so'ngi paytda qurilish sohasi rivojlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ixtisoslashtirilgan materiallar va ishlab chiqarish jarayonlari asosida global muammolarni mahalliy darajada hal etishga e'tibor kuchaymoqda. Ushbu tezisda O'zbekistonda dolzarb bo'lgan qurilish materiallari, ularning ahamiyati va sohadagi zamonaviy talablar yoritiladi.

Qurilish materiallari bo'yicha zamonaviy talablar

1. **Energiya samaradorligiga asoslangan qurilish materiallari**:
   - Bugungi kunda energiya tejaydigan materiallar, ayniqsa izolyatsiya materiallari, talab yuqori. Masalan, penoplast va mineral vata qurilish jarayonlarida keng qo'llanilmoqda.
   - Hududda ishlab chiqarish jarayonlarini energiya samarador qilish maqsadida qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish taklif etilmoqda.
2. **Innovatsion beton mahsulotlari**:
   - Quvvatli va ekologik jihatdan xavfsiz bo'lgan beton turlari qurilish jarayonlarida ustunlik kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda nanotexnologiyalar asosida betonning mustahkamligi oshirilmoqda.
   - O'zbekistondagi iqlim sharoitlariga moslashtirilgan turdagi beton mahsulotlarining ishlab chiqarilishi soha uchun muhim qadamdir.
3. **Mahalliy xomashyodan ishlab chiqarilgan materiallar**:
   - Mahalliylashtirish dasturlari doirasida keramik g'isht, marmartas va gipsokarton mahsulotlari ishlab chiqarish kengaytirilmoqda.
   - Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali soha rivoji ta'minlanadi.
4. **Zamonaviy yuza materiallari**:

- Marmartas va gilam kabi yuqori sifatli yuza materiallari zamonaviy arxitekturada alohida o'rin tutadi.
- Ushbu materiallar nafaqat estetik, balki ekologiya va mustahkamlik jihatidan ham ustunlikka ega.

Qurilish materiallari bo'yicha qiyosiy ma'lumotlar

Quyida O'zbekistondagi va jahondagi qurilish materiallarining ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlarining qiyosiy jadvali keltirilgan:

Qurilish materialы	O'zbekistonda ishlab chiqarish (mln tonna)	Jahon ko'rsatkichlari (mlrd tonna)
Sement	12	4.1
Keramik g'isht	4.5	8
Mineral izolyatsiya materiallari	1.2	0.9
Beton	20	10

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda qurilish materiallarining ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish sur'atlariga ega. Bu mahalliylashtirish dasturlari va ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samarasidir.

Global muammolar va mahalliylashtirish yo'nalishlari

- **Ekologik xavfsizlik**: Jahonda qurilish materiallari ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishda zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda.
- **Qayta ishlatish**: Maxsus texnologiyalar yordamida qurilish materiallarini qayta ishlab, iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilayapti.
- **Iqlimga moslashuvchanlik**: Mahalliy iqlim sharoitlariga mos qurilish materiallari ishlab chiqarish jadallashmoqda. Harorat o'zgarishlariga chidamli, barqaror materiallar rivojlantirilyapti.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida qurilish materiallari sohasidagi rivojlanish innovatsion yondashuv va mahalliylashtirish tamoyillariga asoslanmoqda. Iqtisodiy samaradorlikka erishish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish orqali jahon standartlariga mos qurilish materiallari ishlab chiqarilishi davr talabi hisoblanadi. Ushbu sohani qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyoti va qurilish industriyasining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi rasmiy veb-sayti: www.minstroy.uz
2. «O'zbekistonda qurilish materiallari» jurnali, 2024 yil, №3.
3. Berdimuratov A. «Qurilish materiallari texnologiyasi», Toshkent, 2023.
4. Jahon bankining qurilish sohasi bo'yicha hisobotlari: www.worldbank.org
5. Energiya samaradorligi bo'yicha mahalliy tadqiqotlar: www.ees.uz
6. Markaziy Osiyoda qurilish sanoati rivojlanishi tahlillari, 2025.
7. Xalqaro qurilish materiallari forumlari ma'lumotlari: www.constructionforum.org.

ТЎҚИМАЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕВРОПА ДАВЛАТЛАРИГА ЭКСПОРТ ҚИЛИШДА "GSP+" ТАЛАБЛАРИ

Б.Р.Хамдамов[1], М.Ў.Мамажонова[2]
[1]Андижон давлат техника институти доценти, т.ф.ф.д.
bahromhamdamov@mail.ru ORCID:0000-0001-9621-4086,
[2]Андижон давлат техника институти 4-курс талабаси,
muhlisamamajonova522@gmail.com

Сўнгги йилларда республикада енгил саноатнинг тўқимачилик, тикув-трикотаж, чарм-пойабзал ва мўйначилик тармоқларини ривожлантириш, ишлаб чиқарилаётган тайёр маҳсулотларнинг турлари ва ассортиментини кенгайтириш, шунингдек, тармоқ корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Кўрилган чора-тадбирлар республикада ишлаб чиқарилаётган пахта толасининг 80 фоиздан кўпроғини ва ип калаванинг 45 фоиздан кўпроғини қайта ишлаш бўйича қувватларни яратиш, шунингдек, тайёр маҳсулотнинг экспорт ҳажмини сезиларли даражага ошириш имконини бермоқда [1].

Тўқимачилик ва енгил саноат тармоқлари аҳоли бандлиги ва экспортда катта ўринга эга. Хусусан, бундай корхоналарда 430 минг фуқаро иш билан таъминланган. Енгил саноатнинг жами ишлаб чиқаришдаги улуши 14 фоизни, экспортда 16 фоизни ташкил қилади. Лекин бугунги мураккаб шароитда ташқи бозордаги вазият тез ўзгармоқда. Бунинг таъсирида экспорт нархлари ип калавада 9 фоизга, газламада 15 фоизга, тайёр маҳсулотда 13 фоизга тушган. Асосий экспорт бозорларимизда тайёр маҳсулот олиш камайган [2].

Ўтган 2024 йил давомида тўқимачилик экспорти 2,6 миллиард долларни ташкил этган. Соҳадаги имкониятлар ҳисобига буни ошириш мумкин. Хусусан, қабул қилинган президент ва хукумат даражасидаги қарорларда зарур вазифа ҳамда чора тадбирлар белгиланди. Унга кўра, енгил саноат тармоғига 2 миллиард доллардан ортиқ хорижий инвестиция жалб қилиб, 82 та йирик лойиҳани амалга ошириш ҳамда 25 мингта иш ўрни яратиш кўзда тутилган. Тўқимачилик маҳсулотлари экспортини 4 миллиард долларга, чарм маҳсулотлари экспортини 250 миллион долларга олиб чиқиш мақсад қилинган [2].

Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитасининг маълумотлари [3] асосида Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиёт кўрсаткичларини охирги 5 йиллик даврини таҳлил қисак, йиллар давомида ўсиш динамикасини кузатишимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиёт кўрсаткичлари

1-жадвал

№	Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2020	2021	2022	2023	2024
1	Ялпи ички маҳсулот ҳажми	млрд. сўм	668038	820536,6	995573,1	1204485,4	1454573,9
2	ЯИМ усиш суръати,	%	101,6	108	106	106,3	106,5
3	Экспорт хажми	млрд сўм	120435,9	166079,7	208099,7	271660,1	315340,3
4	Товарлар ва хизматлар экспорти ўсиш суръатлари (йиллик),	%	79,9	113,4	119	117,3	116,1

Ўзбекистоннинг тўқимачилик саноати юқори қувватларга ега ва халқаро бозорга кўплаб турдаги тўқимачилик маҳсулотлари экспорт қилинади. Бу саноатда, асосан, пахта толаси, ип, мато ва турли хил тайёр кийим-кечак маҳсулотлари ишлаб чиқарилади. Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг ялпи ички махсулот ва махсулот экспортида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ўрни сезиларли даражада ортоб бормоқда. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитасининг маълумотлари [4]га асосан қуйидаги махсулотлар турли мамлакатларга экспорт қилинмоқда.

Тўқимачилик ва енгил саноат маҳсулотларининг экспорти ҳажми, (минг.АҚШ.долл.)

2-жадвал

№	Маҳсулотлар	2020	2021	2022	2023
1	Пахта	1200084	1926261	1606619	1414140
2	Тўқилган буюмларни тайёрлаш учун ўсимлик материаллари; бошқа жойда номланмаган ёки киритилмаган, келиб чиқиши ўсимликка мансуб бошқа маҳсулотлар	312,5	2828,3	49,9	21,7
3	Органик кимёвий бирикмалар	3382,7	9613,5	13439,2	14441,9
4	Ипак	74927,4	78097,6	92491,5	76988,2
5	Хизматлар	2005014	2581725	4456698	5640432

6	Хом терилар (табиий мўйнадан ташқари) ва қайта ишланган чарм	31089,6	35285,9	34709	40479,9
7	Чарм буюмлари: егар-жабдуқ маҳсулотлари ва юганлар; сафар учун анжомлар, сумкалар ва шунга ўхшаш маҳсулотлар; ҳайвон ички органларидан тайёрланган маҳсулотлар (ипак қуртиниг ипак ҳосил қилувчи безларидан ташқари)	3168,5	8083,2	10055,5	9274,6
8	Табиий ва сун'ий мўйна ва ундан тайёрланган маҳсулотлар	141,8	615,3	608,4	827,6
9	Ҳайвонларнинг жуни, ингичка ёки даг'ал туки; от сочидан ип ва газлама	1348,1	1898,9	1749,3	1815,6
10	Бошқа ўсимлик тўқимачилик толалари; қог'оздан йигирилган ип ва қог'оздан йигирилган ипдан газламалар	381,9	513,8	1505,8	1629,9
11	Кимёвий иплар; кимёвий тўқимачилик материалларидан ясси ва анологик иплар	3053,1	7753,2	7984,2	10024,5
12	Кимёвий толалар	22275,5	38945,9	58862	47010
13	Вата, кигиз ёки фетр ва нотўқима материаллар; махсус йигирилган ип; чилвирлар, арқонлар, канатлар ва трослар ҳамда улардан тайёрланган буюмлар	30923,4	39707,1	54358,9	48777,9
14	Гиламлар ва бошқа тўқимачилик пол қопламалари	29244,3	42069,5	43930,8	54055,9
15	Махсус газламалар; тафтинг тўқимачилик материаллари; кружева; гобеленлар; пардозлаш материаллари; кашталар	6437,4	12484,7	21697,1	12794,8
16	Тўқимачилик материаллари, шимдирилган, қопланган ёки дублирланган; техник мақсаддаги тўқимачилик буюмлари	1554,7	1497,9	2384	3225,2
17	Машина ёки қўлда тўқилган трикотаж матолар	144477,4	242803	307715,5	306556,7

18	Кийим-кечак предметлари ва жиҳозлари, машина ёки қўлда тўқилган трикотаж	459243,2	577832,2	838544,6	861653,4
19	Кийим предметлари ва кийим жиҳозлари, машинада ёки қўлда тўқилган трикотажларидан ташқари	47486,4	67345,8	89540,2	126667,8
20	Бошқа тайёр тўқимачилик буюмлари; тўпламлар; аввал ишлатилган кийим-кечаклар ва тўқимачилик буюмлари; латталар	88807,5	118113,4	161687,9	208246,4
21	Поябзал, гетри ва шунга ўхшаш маҳсулотлар, уларнинг қисмлари	36960,3	38190,2	46217,4	32893,6
22	Бош кийимлар ва уларнинг қисмлари	3624,6	3274,1	5438,9	6260,5
23	Соябонлар, қуёш соябонлари, ҳасса, ҳасса-ўриндиқлар, миниш учун қамчи, хипчинлар ва уларнинг қисмлари	0	1	1,2	5,8
24	Ишлов берилган патлар ва парлар ва пат ёки парлардан тайёрланган маҳсулотлар, сун'ий гуллар, инсон сочларидан тайёрланган маҳсулотлар	330,9	553,4	990,5	795,4
25	Мебел; тўшак буюмлари, матраслар, матрас асослари, диван ёстиқлари ва мебелларнинг ўхшаш тиқма жиҳозлари; бошқа жойда кўрсатилмаган ёки киритилмаган чироқлар ва ёритиш ускуналари; чироқли пешлавҳалар, номли ёки манзилли чироқли тахтачалар ва ўхшаш буюмлар; йиг'ма қурилиш конструксиялари	9240,1	10137,1	23067	16583,6
26	Ўйинчоқлар, ўйин ва спорт инвентари, уларнинг қисми ва ашёлари	8463,8	10045,9	8685	8486,3
27	Турли тайёр буюмлар	13151,2	12167,2	35438,5	20000,8
ЖАМИ		**4225124,3**	**5867844,1**	**7924469,3**	**8964090**

Юқоридаги маълумотларни таҳлил қилинса, тўқимачилик ва енгил саноат маҳсулотлари экспорт ҳажмини йиллар давомида ўсиш динамикасини кузатишимиз мумкин (1-расм).



1-расм. Тўқимачилик ва енгил саноат маҳсулотлари экспорт ҳажми динамикаси

Ҳар бир маҳсулотни бошқа бир мамлакатга экспорт қилишда экспорт қилинаётган маҳсулот сифат ва хавфсизлиги бўйича ҳалқаро талабларга жавоб бериши лозим. Шу нуқтаи назардан тўқимачилик маҳсулотларига ҳам бир қатор халқаро талаблар қўйилмоқда. Хусусан, Европа давлатларига махсулот экспорт қилиш учун ISO 9001, GOTS, OEKO-TEX, Bluesign, Sedex, GSP+ ва бошқа бир қатор халқаро стандарт ва сертификатлаштириш талаблари мавжуд.

Преференцияларнинг бош тизими "GSP+" ривожланаётган мамлакатлардан ривожланган мамлакатлар бозорларига экспорт қилинадиган товарларга божхона тарифларидан имтиёзлар бериш тизими ҳисобланиб, деярли барча турдаги саноат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қамраб олади. Хусусан, бу турдаги тизим, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотига аъзо мамлакатлар, хусусан, АҚШ, Европа Иттифоқи, Япония, Канада, Австралия, Швейцария каби давлатлар томонидан тақдим этилади [5].

Хорижий мамлакатларга "GSP"+ доирасидаги имтиёзларни тақдим этиш жараёни Европа парламенти ва Европа Иттифоқи Кенгашининг махсус регламенти талабларига асосан тартибга солинади. Ушбу регламент талабларига асосан, "GSP+" тизими доирасидаги имтиёзларни қўлга киритиш бир нечта шартлар асосида амалга оширилиб, асосий шартлардан бири бу мамлакат томонидан 27 та (7 та – инсон ҳуқуқлари, 8 та - меҳнат стандартлари, 8 та - атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, 4 та - самарали давлат бошваруви соҳасида) халқаро конвенцияларни ратификация қилиш ва унинг доирасидаги мажбуриятларни самарали бажариш ҳисобланади. "GSP" регламенти "GSP+" олувчиларининг мажбуриятларини доимий кузатиб боришни назарда тутади. Европа Иттифоқи томонидан ўрнатилган тартибга кўра, мамлакат томонидан мазкур тизим доирасидаги имтиёзларни олиш бўйича расмий ариза юқорида санаб ўтилган халқаро конвенциялар тўлақонли ратификация қилингандан сўнг тақдим этилиши мумкинлиги белгиланган [5].

Европа Иттифоқининг регламентига асосан, расмий ариза қабул қилинган кундан бошлаб, Европа Комиссияси томонидан БМТ ва ХМТ идоралари ва қўмиталарининг тегишли ҳисоботлари таҳлил асосида 6 ой давомида кўриб чиқилади.

Европа бозорига маҳаллий маҳсулотларни экспорт қилишда ушбу маҳсулотларнинг Европа Иттифоқи томонидан ўрнатилган техник, санитар, фитосанитар талабларга ва стандартларга мувофиқлигини таъминлаш талаб этилади. Шу муносабат билан, Европа Иттифоқининг мазкур талабларини ўрганган ҳолда экспортни молиявий қўллаб-қувватлаш йўналишларини янада такомиллаштириш ва ушбу соҳалардаги миллий қонунчиликдаги нормалар ва стандартларни улар билан мувофиқлаштириш ишлари олиб борилмоқда. Таҳлил натижаларига кўра, ҳозирги кунда, Европа Иттифоқида европа бозорига кириб келадиган 30 тадан ортиқ маҳсулот турларига нисбатан техник тартибга солиш ва товарларни маркировкалаш тартибларини кўзда тутувчи уйғунлашган стандартлар (директивалар) ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий этилган. Ушбу амалиётларни жорий этиш схемаси 2-расмда келтирилган.



2-расм. Махаллий корхоналарда Европа стандартларини жорий этиш схемаси

Европа Иттифоқи мамлакатларида тўқимачилик ва енгил саноат махсулотларига қўйилган мажбурий талаблар

3-жадвал

№	Кўрсаткич ва меъзонлар	Ўлчов бирлиги	OEKO-TEX STANDART 100
1	pH кўрсаткичи	pH	4,0 – 9,0
2	Formaldegidlar	mg/kg	75,0 – 300,0
	Қазиб олинган оғир металлар		
3	Sb (сурьма)		30 дан ортиқ эмас
4	As (Мишьяк)		0,2 – 1,0
5	Pb (кўрғошин)		0,2 – 1,0
6	Cd (кадмий)		0,1 дан ортиқ эмас
7	Cr (хром)		1,0 – 2,0
8	Cr (VI)		аниқланмаган
9	Кобальт (Co)		1,0 – 4,0
10	Cu (мис)		25,0 – 50,0
11	Ni (никель)		1,0 – 4,0
12	Hg (симоб)		0,02 дан ортиқ эмас
	Эриган шаклдаги оғир металлар		
13	Pb (кўрғошин)		90,0 дан ортиқ эмас
14	Cd (кадмий)		50,0 – 100,0
15	Пестицидлар		0,5 – 1,0
	Хлорли фенеллар		
16	Пентахлорфенол (ПХФ)		0,05 – 5,0
17	Тетратахлорфенол (ТеСР)		0,05 – 5,0
	Фталатлар		
18	DINP, DNOP, DEHP, DIDP, BBP, DBP, DIBP, DIHP, DHNUP, DHP, DMEP, DPP, Жами	(w-%)	0,1 дан ортиқ эмас
	Органотин бирикмалар		
19	TBT	mg/kg	0,5 – 1,0
20	TPhT		0,5 – 1,0
21	DBT		1,0 – 2,0
22	DOT		1,0 – 2,0
	Бошқа кимёвий қолдиқлар		
23	OPP		50,0 – 100,0

Ариламинлар			
24	PFOS		0,1 дан ортиқ эмас
25	PFOA		0,1 – 1,0
26	SCCP		0,1 дан ортиқ эмас
27	TCEP		0,1 дан ортиқ эмас
28	DMFu		0,1 дан ортиқ эмас
Бўёқлар			
29	Бўлинган ариламинлар	mg/kg	Қўлланилмайди
30	Канцерогенлар		
31	Аллергенлар		
32	Бошқалар		
33	Бензо(а)пирен		0,5 – 1,0
Эритувчи воситалар			
34	NPM	(w-%)	0,1 дан ортиқ эмас
35	DMA		
36	DMF		
Сирт фаол моддалар ва намловчи моддалар қолдиқлари			
37	OP, NP, Сумма	mg/kg	50,0 дан ортиқ эмас
38	OP, NP, OP(EO)1-2, NP(EO)1-9 Сумма		50,0 дан ортиқ эмас
Ранг чидамлилиги (тўкилиши)			
39	Сувга чидамлилик	Баллар бўйича баҳоланади	3 дан кам эмас
40	Терга, кислотага чидамлилик		3 – 4 дан кам эмас
41	Терга, ишқорга чидамлилик		3 – 4 дан кам эмас
42	Қуруқ ишқаланишга чидамлилик		4 дан кам эмас
43	Тупик ва терга чидамлилик		чидамли бўлиши керак
Ҳид назорати			
44	SNV 195 651 (Ўзгаришлар)		1,2,3,4,5,6 Ўртача баҳо – 4

Шунингдек, Европа Иттифоқи мамлакатларида тўқимачилик махсулотларига қўйилган мажбурий талаблар мавжуд бўлиб [5], ушбу талаблар қуйидаги 3-жадвалда келтирилган.

Бугунги кунда мамлакатимиз "GSP+" тизими доирасидаги имтиёзларни қўлга киритган давлатлар қаторида бўлиб, мамлакатимиз томонидан зарурий халқаро конвенциялар ратификация қилинган. Тадбиркорларимиз томонидан юқоридаги талаблар асосида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва уларни мувофиқлиги таъминланса, тўқимачлик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналар Европа Иттифоқи бозорида рақобатбардош бўлишлари таъминланади. Бу эса келажакда мамлакатимиз экспорт салоҳиятини ошишига, бозорларни кенгайтиришга ва халқаро савдони ривожлантиришга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.09.2019 йилдаги "Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4453-сон қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.12.2024 кунги "Тўқимачилик ва чарм саноатидаги ислоҳотлар натижадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари" бўйича йиғилишдаги нутқи. https://www.president.uz/uz/lists/view/7760
3. Миллий ҳисоблар. Ишлаб чиқариш усули бўйича ялпи ички маҳсулот. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2
4. Ташқи иқтисодий фаолият. Экспорт. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2
5. Европа Иттифоқининг талаблари. "GSP+ тизими тизими доирасидаги имтиёзлардан самарали фойдаланиш. Ўқув қўлланма 2022 йил

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВЫГОДЫ ОТ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Носиров Илхом Аббосович,
nosirovilomzon@gmail.com,
Ферганский Технический Университет, Узбекистан

Введение

Повышение энергоэффективности становится все более актуальным в условиях глобальных вызовов, связанных с изменением климата и истощением природных ресурсов. Это направление рассматривается как ключ к достижению устойчивого развития, снижению углеродного следа и оптимизации использования энергоресурсов. В Узбекистане, где наблюдается рост населения и устойчивый экономический прогресс, необходимость в

повышении энергоэффективности становится особенно значимой. Она не только способствует улучшению экологической ситуации, но и призвана снизить зависимость страны от импорта энергоносителей.

В рамках данной статьи будут проанализированы экологические и экономические выгоды, возникающие в результате повышения энергоэффективности в Узбекистане в период с 2020 по 2024 годы. Основное внимание будет уделено выявлению успешных практик и эффектов от внедрения современных технологий, а также аспектам законодательного и организационного характера, которые могут способствовать оптимизации данного процесса. Также будут предложены рекомендации для государственных и частных организаций по реализации стратегий, направленных на повышение энергоэффективности, что, в свою очередь, поможет обеспечить устойчивое развитие экономики страны.

Согласно данным Государственного комитета статистики Узбекистана, уровень энергоэффективности в стране в 2020 году составлял около 25%, что указывает на значительный потенциал для улучшения в данной сфере. Прогнозируется, что к 2024 году этот показатель вырастет до 35%. Основные направления, способствующие повышению энергоэффективности, включают модернизацию промышленных процессов, внедрение современных цифровых технологий и оптимизацию качества потребляемых энергоресурсов. В условиях роста экономических потребностей и увеличения населения такие меры являются не только целесообразными, но и необходимыми для обеспечения устойчивого развития страны, снижения углеродного следа и повышения конкурентоспособности отечественной экономики.

Прогноз динамики уровня энергоэффективности в Узбекистане.

Год	Уровень энергоэффективности (%) |
2020	25
2021	27
2022	30
2023	32
2024	35

Одной из ключевых экологических выгод повышения энергоэффективности является значительное сокращение углеродных выбросов, что играет решающую роль в борьбе с изменением климата. По оценкам экспертов, каждый процент увеличения энергоэффективности приводит к снижению углеродных выбросов на 0,7-1%. С учетом прогнозируемого роста уровня энергоэффективности до 35% к 2024 году, ожидается сокращение выбросов CO2 на 4-7% по сравнению с показателями 2020 года. Этот эффект будет достигнут благодаря внедрению более

эффективных технологий и оптимизации производственных процессов, что, в свою очередь, будет способствовать экологической устойчивости и улучшению качества воздуха в стране. Таким образом, повышение энергоэффективности является важным шагом на пути к более чистой и безопасной окружающей среде.

Повышение энергоэффективности играет важную роль в сохранении природных ресурсов, способствуя более рациональному их использованию. Внедрение энергосберегающих технологий на предприятиях позволяет существенно сократить потребление электроэнергии и тепла, что ведет к снижению нагрузки на природные ресурсы, такие как уголь, газ и вода. Сокращение обращения к ископаемым источникам энергии не только способствует защите окружающей среды, но также помогает Узбекистану уменьшить свою зависимость от импорта энергоресурсов. Более эффективное использование энергии позволяет создавать баланс между экономическими потребностями и сохранением экосистемы, обеспечивая устойчивое развитие и улучшая жизненные условия будущих поколений. Таким образом, энергетическая эффективность становится ключевым элементом устойчивого управления ресурсами.

Ожидаемое сокращение углеродных выбросов к 2024 году (по регионам)

№	Регион	Предполагаемое сокращение выбросов CO2 (%)
1	Ташкент	5
2	Самарканд	4
3	Фергана	6
4	Андижан	7

Это снижение затрат позволит предприятиям направить высвободившиеся средства на другие важные аспекты своего развития, такие как модернизация оборудования, повышение заработной платы сотрудников или инвестиции в исследования и разработки. Кроме того, более высокая энергоэффективность может повысить конкурентоспособность компаний на рынке, поскольку они смогут предлагать более выгодные цены на свою продукцию и услуги. В долгосрочной перспективе такие изменения не только благоприятно отразятся на экономике отдельных предприятий, но и помогут в формировании устойчивой экономики в целом, способствуя более сбалансированному развитию и снижению негативного воздействия на окружающую среду.

Повышение энергоэффективности также позволяет предприятиям повышать свою конкурентоспособность на рынке. Экономия на затратах на

энергию может быть использована для инвестиций в новые технологии и расширение производства или для улучшения качества продукции и услуг. Сниженные расходы на энергию позволяют компаниям предлагать более привлекательные цены для потребителей, что может привлечь новых клиентов и увеличить долю на рынке. Кроме того, предприятия, активно внедряющие энергоэффективные решения, могут создавать положительный имидж, подчеркивая свою приверженность к устойчивому развитию и экологии. Это, в свою очередь, может повысить лояльность существующих клиентов и привлечь внимание со стороны партнеров и инвесторов, заинтересованных в сотрудничестве с социально ответственными компаниями. Таким образом, повышение энергоэффективности не только ведет к кредитному преимуществу, но и создает условия для долгосрочного роста и устойчивости бизнеса.

Прогноз снижения затрат на энергоресурсы в отдельных отраслях экономики

№	Отрасль	Ожидаемое снижение затрат на энергоресурсы (%)
1	Промышленность	20
2	Сельское хозяйство	15
3	Транспорт	10

Для достижения значительных результатов в области повышения энергоэффективности необходимо:

- Разработка и внедрение программ по обучению и повышению квалификации специалистов в области энергоэффективности.
- Создание благоприятных условий для инвестиций в модернизацию оборудования и технологий.
- Актуализация законодательной базы, в том числе внедрение налоговых льгот для компаний, осуществляющих модернизацию и повышение энергоэффективности.

Подводя итоги, можно утверждать, что повышение энергоэффективности в Узбекистане имеет огромные экологические и экономические выгоды. Реализация предложенных рекомендаций может значительно улучшить ситуацию в данной сфере и способствовать устойчивому развитию экономики страны. Кроме того, соглашения о сотрудничестве и поддержка со стороны государства могут стать дополнительными факторами, способствующими успешной реализации мероприятий по повышению энергоэффективности. Вложение в энергосберегающие технологии, обучение работников и повышение осведомленности населения также играют ключевую роль в создании более

устойчивого энергетического будущего. Таким образом, комплексный подход к этой проблеме поможет не только улучшить экономические показатели, но и создать более здоровую окружающую среду для будущих поколений. Поддержка инициатив, направленных на энергоэффективность, создаст основу для устойчивого роста и развития страны в целом, что в конечном итоге приведет к повышению качества жизни граждан.

Литература

1. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике, "Отчет по энергетической эффективности", Ташкент, 2021.
2. Маматов, А. М., "Цифровизация в промышленности Узбекистана: вызовы и возможности", Вестник Ташкентского государственного технического университета, 2020.
3. Касимов, Б. Х., "Проблемы и решения по повышению энергоэффективности в узбекской промышленности", Журнал "Экономика и статистика", 2021.
4. Asel A. Dzhumakova, Ilxom A. Nosirov, Odina K. Rakhmatova, Elena G. Popkova FIGHT AGAINST CLIMATE CHANGE IN THE DIGITAL ECONOMY BASED ON GREEN MANAGEMENT OF KNOWLEDGE AND INFORMATION SYSTEMS// August 2024Proceedings on Engineering Sciences 6(3):1239-1246 DOI:10.24874/PES06.03A.018
5. Nosirov, I.,Yormatov, I., Yuldasheva, N.,Avulchayeva, AI and Corporate Sustainability: Exploring the Environmental and Social Impacts of AI Integration. IEEE.International Conference on Knowledge Engineering and Communication Systems, (ICKECS – 2024), April 18 – 19, 2024.12. Yormatov, I. T. (2022). Роль частного бизнеса в экономике Узбекистана. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(11), 215-220.
6. Nosirov, I., & Ermatov, I. (2023). Calculating the effektiveness of implementing the strategy and proposed measures. The innovation economy, 1(01), 109-114.

MILLIY TO'QIMACHILIK SANOATIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION INVESTITSIYALASH TENDENTSIYALARI

Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna
gaybullayevagulbahor1@gmail.com
Farg'ona davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Bugungi kunda jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash har bir mamlakat sanoat tarmoqlari uchun dolzarb masalalardan biridir. Xususan, to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyoti rivojida muhim o'rin egallagan holda,

eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim vositaga aylangan. O‘zbekistonda ushbu sohaning rivojlanishi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Mazkur maqolada milliy to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion investitsiyalashning tendensiyalari, ularning tahlili va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

To‘qimachilik sanoatining hozirgi holati va raqobatbardoshlik muammolariga nazar tashlasak, O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati yildan-yilga rivojlanib, dunyo bozorlariga faol kirib bormoqda. Biroq, raqobatbardoshlikning past darajada bo‘lishi, mahsulotlar assortimentining cheklanganligi, ishlab chiqarishda energiya va resurslar samaradorligining pastligi, texnologik yangilanishlarning sekin kechishi va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan integratsiyaning zaifligi hali-hanuz muammolar sirasiga kiradi.

Raqobatbardoshlik – bu nafaqat narx, balki sifat, dizayn, innovatsionlik, ekologik xavfsizlik kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, zamonaviy talablarga javob beruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun to‘qimachilik korxonalari oldida texnologik yangilanish va innovatsion yondashuvlar asosida mahsulot tannarxini kamaytirish zarurati mavjud.

To‘qimachilik sanoatida innovatsion investitsiyalarning mohiyati — bu yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish, intellektual mulk asosida mahsulot ishlab chiqarish hamda raqobatbardosh innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan sarmoyalar hisoblanadi. Ular quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Yangi uskunalar va texnologiyalarni xarid qilish;

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalar;

AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) yechimlariga sarmoya;

Raqamli ishlab chiqarish, avtomatlashtirilgan tizimlar va “aqlli fabrikalar”ni joriy etish;

Yashil (ekologik toza) texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish.

Innovatsion investitsiyalashning milliy to‘qimachilik sanoatiga ta’siri

Innovatsion investitsiyalar to‘qimachilik sanoatida quyidagi natijalarni beradi:

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: avtomatlashtirilgan liniyalar va zamonaviy dastgohlar mahsulot tannarxini pasaytiradi.

Mahsulot sifatining yaxshilanishi: innovatsion texnologiyalar yordamida xalqaro standartlarga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati oshadi.

Diversifikatsiya: yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish orqali bozor talablari qondiriladi.

Eksport salohiyatining oshishi: yuqori sifatli va innovatsion mahsulotlar xorijiy bozorlar uchun jozibador bo‘ladi.

Atrof-muhitga ta'sirning kamayishi: ekologik xavfsiz texnologiyalarning joriy etilishi barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion investitsiyalarning joriy holati va tendensiyalariga hukumat tomonidan to‘qimachilik sanoatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, jumladan, Innovatsion rivojlanish vazirligi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi va boshqa tashkilotlar orqali amalga oshirilmoqda. Texnologik modernizatsiyaga yo‘naltirilgan kam foizli kreditlarni ajratilishi yo‘lga qo‘yilmoqda, eksportga yo‘naltirilgan loyihalarga subsidiyalar ajratilishi kengaytirilmoqda, xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari berilmoqda, startaplar va ilmiy-texnik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Shuningdek, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan hamkorlikda innovatsion korxonalar tashkil etilmoqda. Bunda xorijiy tajriba asosida raqamli texnologiyalar, aqlli tikuv mashinalari, CAD/CAM tizimlari kiritilmoqda.

Yaqin istiqbolda quyidagi yo‘nalishlar asosiy ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qoladi:

Raqamlashtirish va avtomatlashtirishning yo‘lga qo‘yilishi korxonalarda “sanoat 4.0” tamoyillariga asoslangan texnologiyalar joriy etilishi natijasida to‘qimachilik sohasidagi investitsiyalarning istiqbollari mustahkamlanishiga ishonch bildiramiz.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda yangi materiallar va texnologiyalar yaratish rivojlanadi. Brendlashtirish va dizayn innovatsiyalari milliy brendlar yaratish orqali mahsulotlarni differensiyalash, yangi bozorlarga kirib borishga keng yo‘l ochadi. Natijada eksport geografiyasini kengaytirilib, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaqin Sharq bozorlariga kirish imkoniyatlarini oshirilishiga ishonch xosil qilish mumkin, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shini aytish mumkinki, innovatsion investitsiyalar milliy to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarga asoslangan investitsiyalar: ishlab chiqarishning sifat va hajm jihatdan o‘sishini ta'minlaydi, xorijiy bozorlar talablariga mos mahsulotlar yaratishga zamin yaratadi, yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishi, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan korxonalar hamkorligini mustahkamlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratishga imkon yaratadi. Sanoat parklarida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha inkubatsion markazlar ochib, raqamli kompetensiyalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni kengaytirishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga mustahkam yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2023-yil 10-yanvar. PF-2-son.
2. Dilshodaxon Eshmuhammadovna Safarova, & Gulbahor Mahmudovna Gaybullayeva (2021). TO‘QIMACHILIK KORXONALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY RESURSLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI. Scientific progress, 2 (2), 1295-1300.

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ЗЕЛЕНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Ерматов Илмидин Тошматович
Ilmidin.yormatov@mail.ru
Ферганский Государственный технический университет

Аннотация: Статья посвящена исследованию проблем и перспектив внедрения зеленых технологий на предприятиях Узбекистана. В статье рассматриваются основные препятствия на пути к внедрению таких технологий, анализируется текущее состояние и статистические данные по использованию зеленых технологий в промышленности страны, а также предлагаются рекомендации по их эффективному внедрению.

Ключевые слова: зеленые технологии, экологическая устойчивость, проблемы, перспективы, статистические данные.

Введение

В условиях глобального изменения климата и нарастающих экологических проблем внедрение зеленых технологий становится актуальным как в мировом, так и в национальном контексте. Узбекистан, в своей стратегии устойчивого развития, акцентирует внимание на необходимости перехода к экологически чистым и ресурсосберегающим технологиям. Это открывает новые возможности, но также ставит перед предприятиями ряд вызовов.

Проблемы, связанные с внедрением зеленых технологий, включают высокие первоначальные инвестиции, недостаток информации, сложность интеграции новых технологий и необходимость квалифицированных кадров. Тем не менее, перспектива перехода к зеленым технологиям может

способствовать не только улучшению экологической ситуации в стране, но и повышению конкурентоспособности предприятий.

Методы

Для исследования проблемы применяются следующие методы:

1. Статистический анализ: использование данных Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан для оценки текущего состояния внедрения зеленых технологий.
2. Кейс-стадия: исследование опыта отдельных предприятий, успешно внедривших зеленые технологии.
3. Сравнительный анализ: сравнение состояния внедрения зеленых технологий в Узбекистане с другими развивающимися странами.

Результаты

На основании статистических данных были выделены основные площадки внедрения зеленых технологий в Узбекистане, которые включают сельское хозяйство, энергетику и промышленность. В таблице 1 представлены данные о количестве предприятий, внедряющих зеленые технологии в 2020-2024 годах.

Количество предприятий, внедряющих зеленые технологии в Узбекистане

Таблица 1.

Год	Сельское хозяйство	Энергетика	Промышленность	Всего
2020	150	40	30	220
2021	160	50	35	245
2022	175	60	45	280
2023	200	70	60	330
2024	220	90	80	390

Источник: Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан[1

На основании представленных данных наблюдается устойчивая тенденция к увеличению числа предприятий, внедряющих зеленые технологии на территории Узбекистана. За исследуемый период (2020-2024 гг.) общее количество таких предприятий возросло с 220 до 390, что является увеличением на 77,3%. Эта положительная динамика свидетельствует о растущем интересе и необходимости внедрения экологически чистых и эффективных технологий в различных секторах экономик

Динамика общего роста числа предприятий, внедряющих зеленые технологии, видна в увеличении общего числа с 220 до 390. Этот рост отражает позитивные тенденции и усилия государства по экологизации

экономики, а также увеличивает возможности для внедрения инновационных технологий, которые могут способствовать устойчивому развитию страны. Процентное увеличение общего числа предприятий можно проанализировать следующим образом:

Каждый год увеличение числа внедряющих зеленые технологии предприятий возрастает, что указывает на эффективность и положительный отклик на экологические инициативы в стране.

В целом, количество предприятий, внедряющих зеленые технологии в Узбекистане, демонстрирует положительные тенденции на протяжении 2020-2024 годов. Устойчивый рост в трех ключевых секторах экономики подчеркивает важность и необходимость перехода на более чистые технологии, что в свою очередь поддерживает стремление к осуществлению устойчивого развития и охраны окружающей среды. Подобные показатели свидетельствуют о реализации государственной политики по озеленению экономики и могут служить основой для привлечения инвестиций в экологические проекты.

Несмотря на положительную динамику, внедрение зеленых технологий в Узбекистане сопровождается рядом проблем:

1. Высокие первоначальные капитальные затраты: Многие предприятия сталкиваются с трудностями при привлечении средств для перехода на новые технологии.
2. Недостаточная осведомленность: Отсутствие необходимой информации о выгодах от внедрения зеленых технологий и доступных решениях затрудняет процесс.
3. Нехватка квалифицированных кадров: При отсутствии обученных специалистов предприятия сталкиваются с проблемами в процессе внедрения и эксплуатации новых технологий.
4. Сложности в интеграции: Переход на зеленые технологии требует изменений в организационной структуре и процессах работы.

Вместе с актуальными проблемами существуют и положительные перспективы внедрения зеленых технологий:

1. Повышение конкурентоспособности: Внедрение зеленых технологий позволяет предприятиям улучшить свою продукцию, сделав ее более экологически чистой.
2. Привлечение инвестиций: Международное сообщество и организации всё более обращают внимание на экологические начинания, что открывает возможности для получения финансирования.

3. Улучшение экологии: Переход на зеленые технологии способствует снижению негативного влияния на окружающую среду и улучшению качества жизни населения.
4. Поддержка со стороны государства: Правительство Узбекистана активно поддерживает переход к зеленым технологиям через различные программы и инициативы.

Обсуждение

Исходя из анализа, можно выделить, что для успешного внедрения зеленых технологий необходимо не только преодолеть существующие проблемы, но и воспользоваться существующими возможностями. Важно сформировать позитивный имидж зеленых технологий среди бизнеса и населения, предоставлять информацию и обучение о преимуществах использования таких технологий, а также создавать механизмы для привлечения инвестиций.

Ключевым элементом является инициирование сотрудничества между государственными органами, бизнесом и научными учреждениями для разработки совместных проектов, направленных на внедрение и оптимизацию зеленых технологий.

Заключение

Внедрение зеленых технологий на предприятиях Узбекистана является необходимым шагом к достижению устойчивого развития и улучшению экологической ситуации. Несмотря на существующие проблемы, есть множество перспектив для реализации таких технологий, что может способствовать как экономическому развитию, так и улучшению качества жизни граждан. Для достижения желаемых результатов необходимы комплексные стратегии, направленные на устранение барьеров и оптимизацию процессов внедрения.

Литература

1. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Статистические отчеты (2020-2024). https://mineconomy.gov.uz/ru/taxonomy/term/41
2. Программы устойчивого развития и экологии в Узбекистане. (2023). Министерство экологии и природных ресурсов Республики Узбекистан. https://www.lex.uz/uz/docs/6673810

MODA SANOATIDA RAQAMLI MARKETINGNING ROLI

Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna
Tadbirkor, imij-stilist, TDIU tadqiqotchisi, O'zbekiston

KIRISH

Bugungi kunda moda sanoati raqamli transformatsiya jarayonida davom etmoqda. Yangi texnologiyalar va raqamli platformalar, ayniqsa, ijtimoiy media, moda brendlarining marketing strategiyalarini o'zgartirmoqda. Raqamli marketing, xususan, emotsional marketing va influencer marketing kabi yondashuvlar, iste'molchilar bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatishda va brend sodiqligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Moda brendlari, raqamli marketing strategiyalarini qo'llab, marketingni shaxsiylashtirishi, bozorni aniqroq segmentatsiya qilish va yangi iste'molchi guruhlariga yetib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu maqolada, moda sanoatida raqamli marketingning roli, uning brendlar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalarga qanday ta'sir qilishi va raqamli platformalar yordamida muvaffaqiyatli marketing strategiyalarini qanday ishlab chiqish mumkinligi ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketingning moda sanoatidagi roli va ahamiyati haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Raqamli platformalar va texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, moda brendlari o'z marketing strategiyalarini raqamli vositalarga asoslab samarali amalga oshirmoqda. Ushbu bo'limda raqamli marketingning moda sanoatiga ta'siri va uning brendlar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalariga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi.

Solomon (2017) iste'molchilarning xulq-atvori va ularning motivatsiyalarini o'rganishning asosiy yondashuvlarini taqdim etadi. U raqamli marketingning iste'molchilarga ta'sirini tahlil qiladi va raqamli vositalar orqali iste'molchilar bilan qanday samarali aloqalar o'rnatish mumkinligini tushuntiradi. Shuningdek, u raqamli platformalar orqali marketingni personalizatsiya qilishning afzalliklarini ko'rsatadi[1].

Kotler va Keller (2016) marketing menejmenti va raqamli marketingning o'rni haqida batafsil tahlil olib boradilar. Ularning asarlarida raqamli marketingning brend yaratish va uning strategiyasini shakllantirishdagi roli ta'kidlanadi. Brendlarni raqamli platformalarda muvaffaqiyatli targ'ib qilish uchun zamonaviy yondashuvlar va raqamli vositalarning qanday ishlashini tushuntiradi[2].

Schmitt (1999) o'zining tajriba marketingi konsepsiyasida, raqamli platformalarda brend va iste'molchilar o'rtasidagi emotsional aloqalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv, brendlarni faqat mahsulotlar yoki xizmatlar bilan emas, balki shaxsiy tajribalar orqali ham targ'ib qilishni ko'zda

tutadi. Raqamli marketing, iste'molchilarga brendlar orqali unikal tajribalar yaratishga yordam beradi va bu sodiqlikni oshiradi[3].

Batra et al. (2012) brend sevgi (brand love) va brend sodiqligini (brand loyalty) rivojlantirishda raqamli marketingning ahamiyatini o'rganadilar. Ularning tadqiqotiga ko'ra, emotsional marketingni raqamli vositalar orqali qo'llash, iste'molchilar bilan brendlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish va brendga bo'lgan sodiqlikni oshirishga yordam beradi. Ular raqamli platformalardagi reklama kampaniyalari orqali brendga bo'lgan emotsional aloqani yaratishning samaradorligini ko'rsatadilar[4].

Keller (2006) va Keller & Lehmann (2006) brend yaratish va brend kapitalini boshqarishning asosiy yondashuvlarini ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlarida, raqamli marketingning brend yaratish jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligi va raqamli platformalar orqali qanday qilib brendni muvaffaqiyatli boshqarish mumkinligi ko'rsatilgan. Raqamli platformalar orqali marketingning yuqori samaradorligi va iste'molchilarga shaxsiylashtirilgan takliflar taqdim etish muhimdir[5][6].

Ko va Megehee (2011) luxury moda brendlarida raqamli marketingning qanday qo'llanishini o'rganib, brendlar uchun raqamli vositalardan qanday muvaffaqiyatli foydalanish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ular raqamli marketingni faqat brend imijini yaratishda emas, balki iste'molchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishda ham muhim vosita sifatida ko'rsatadilar[7].

Rahman et al. (2017) Xitoy va Tayvanda moda iste'molchilarining raqamli marketingga qanday javob berishini o'rganadilar. Tadqiqotda raqamli platformalarda brendlarni targ'ib qilishning qanday afzalliklari va muammolari mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, ular raqamli marketingning shaxsiylashtirilgan yondashuvlar orqali iste'molchilar bilan aloqalarni kuchaytirishga yordam berishini ta'kidlaydilar[8].

Huang & Chen (2012) moda brendlarining raqamli reklamalarda emotsional chaqiruvlarni qanday qo'llashi va ularning iste'molchilar reaksiyalariga qanday ta'sir qilishi haqida yozadilar. Ularning tadqiqotiga ko'ra, raqamli reklama va brendlarni targ'ib qilishda emotsional marketingning ahamiyati katta. Raqamli marketingda emotsional chaqiruvlar brendga bo'lgan sodiqlikni oshirishga yordam beradi[9].

Kapferer (2008) brendlarni uzoq muddatli rivojlantirish va raqamli marketing orqali brend kapitalini saqlab qolishning muhimligini ko'rsatadi. U raqamli platformalar orqali brendni qayta shakllantirish va yangi segmentlarga moslashishning zarurligini ta'kidlaydi[10].

Valaskivi (2016) moda marketingida raqamli platformalar va emotsional marketingning roli haqida yozadi. U raqamli marketing va hissiyotlar o'rtasidagi

aloqaning naqadar muhim ekanligini va iste'molchilarga shaxsiylashtirilgan tajriba yaratishning afzalliklarini o'rganadi[12].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda moda sanoatidagi raqamli marketingning ta'sirini o'rganish uchun kontent tahlili va so'rovnomalar usuli qo'llanildi. Kontent tahlilida ijtimoiy media platformalaridagi brendlar faoliyati, ularning targeting strategiyalari va emotsional marketing yondashuvlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda moda sanoatida raqamli marketingning ta'sirini o'rganish natijalari taqdim etiladi. Tahlilning asosiy maqsadi raqamli marketingning moda brendlari tomonidan qanday qo'llanilishini, uning iste'molchilar bilan aloqalarni qanday yaxshilashini va brend sodiqligini oshirishdagi rolini aniqlashdir. Raqamli platformalar orqali marketing strategiyalarining muvaffaqiyatliligi va ularning moda brendlariga ta'sirini baholash uchun, anketalar va kontent tahlilidan foydalanildi. Tadqiqotda olingan natijalar quyidagi asosiy nuqtalarga asoslanadi:

Tadqiqotda moda brendlarining raqamli marketingdagi faoliyatlari tahlil qilindi. Ijtimoiy media platformalarida (Instagram, TikTok, YouTube) o'tkazilgan kampaniyalar, brendlarning marketing strategiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ijtimoiy media platformalari orqali brendlar o'z auditoriyasiga ta'sir ko'rsatishda raqamli marketingning samarali vositalaridan foydalanadi.

Masalan, Gucci va Louis Vuitton kabi luxury brendlar o'z strategiyalarini shaxsiylashtirishga asoslaydilar va raqamli marketing orqali emotsional aloqalar o'rnatishga harakat qilishadi. Brendlar Instagram va TikTok kabi platformalarda, o'z mahsulotlarini nafaqat sifat bilan, balki tasavvur etilgan hayot tarzini yaratish orqali targ'ib qiladilar. Bu esa iste'molchilar bilan ko'proq shaxsiy aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Luxury brendlari o'z mahsulotlarining yuqori sifatini ta'kidlashdan tashqari, mijozlarning ichki motivatsiyalarini ham qondirishga harakat qilishadi[4].

Raqamli marketingning emotsional marketing bilan integratsiyasi, brend sodiqligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda brendlar o'rtasidagi emotsional aloqalarni kuchaytirish, o'z auditoriyasini yanada yaqinroq qilish uchun raqamli vositalardan qanday foydalanishlari ko'rsatilgan. Batra et al. (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, emotsional marketing, brendga bo'lgan sodiqlikni oshirishda va brand loveni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Raqamli platformalarda brendlar o'zlarini yangilash va iste'molchilarni jalb qilish uchun emotsional va shaxsiy yondashuvlarni qo'llashmoqda.

Bundan tashqari, Schmitt (1999) tomonidan ishlab chiqilgan tajriba marketingi (experiential marketing) konsepsiyasi, brendlarning raqamli platformalarda iste'molchilar bilan aloqalarini kuchaytirishga imkon yaratadi. Raqamli marketingning o'ziga xos xususiyati shundaki, u iste'molchilarga brendlar orqali shaxsiy tajribalar yaratishga imkon beradi, bu esa sodiqlikni oshiradi va iste'molchilar bilan uzoq muddatli aloqalarni ta'minlaydi[3].

Moda brendlari raqamli marketingni qo'llash orqali targeting va positioning strategiyalarini aniqroq va samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tadqiqotda Zara va H&M kabi keng tarqalgan brendlar o'z marketing strategiyalarini shaxsiylashtirishga qaratganligi ko'rsatilgan. Bu brendlar raqamli platformalar orqali o'z auditoriyasini yoshlar va urban iste'molchilarga mos ravishda targeting qilmoqda. Raqamli marketing yordamida ular iste'molchilarni psixologik xususiyatlari asosida ajratib, ularning xulq-atvori va ehtiyojlarini hisobga olgan holda reklama va marketing strategiyalarini ishlab chiqadilar.

Ko'rib chiqilgan brendlarning har biri o'z auditoriyasini raqamli vositalar orqali o'ziga jalb etishga muvaffaqiyatli bo'lgan. Raqamli marketingning asosiy afzalligi shundaki, u iste'molchilarga brendlarni shaxsiylashtirilgan tarzda taqdim etishga imkon yaratadi, bu esa targeting va positioning strategiyalarini yanada samarali qilishga yordam beradi[9].

Raqamli marketingda, Instagram, TikTok va YouTube kabi ijtimoiy media platformalari moda brendlarining marketing strategiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda brendlarning bu platformalarda qanday interaktiv va vizual kontentlar yaratib, o'z mahsulotlarini targ'ib qilishgani tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy media orqali brendlar iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatishadi va ularning fikrlarini inobatga olib, marketing kampaniyalarini yanada shaxsiylashtiradilar.

Raqamli marketing yordamida brendlar nafaqat o'z mahsulotlarini targ'ib qilishadi, balki iste'molchilar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga ham erishadilar. Instagramda brendlar tomonidan tashkil etilgan influencer kampaniyalari, mijozlarni faqat sotib olishga emas, balki brendga bo'lgan sodiqlikni oshirishga qaratilgan[8].

Raqamli marketing, shuningdek, yangi segmentlarga kirish va iste'molchilar bilan yangi aloqalarni o'rnatish imkonini yaratadi. Tadqiqotda brendlar raqamli vositalar orqali yangi bozor segmentlarini aniqlashda muvaffaqiyatli bo'lishganligi ko'rsatilgan. Bu orqali brendlar o'z marketing strategiyalarini zamonaviy va global tendensiyalarga moslashtirishi mumkin.

Natijalarga ko'ra, raqamli marketingning asosiy afzalliklari:

- Marketingni shaxsiylashtirish;
- Iste'molchilar bilan emotsional aloqalar o'rnatish;
- Yangi segmentlarga kirish va ularni o'ziga jalb qilish;

- Raqamli platformalarda brendning ko‘rish darajasini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot raqamli marketingning moda sanoatidagi strategik ahamiyatini ochib berdi. Raqamli platformalar brendlar uchun faqatgina mahsulot reklama vositasi bo‘lib qolmay, balki iste’molchilar bilan emotsional aloqalarni o‘rnatish, sodiqlikni oshirish va shaxsiylashtirilgan tajribalarni yaratishda asosiy vositaga aylangan. Instagram, TikTok va YouTube kabi ijtimoiy media kanallari orqali moda brendlari o‘z auditoriyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tezkor va interaktiv tarzda yetib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Luxury brendlar emotsional yondashuvlar orqali o‘z imijini mustahkamlasa, ommaviy brendlar esa yosh va urban segmentlarga mos moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqdi. Shu bilan birga, raqamli marketing raqobat kuchli bo‘lgan muhitda doimiy yangilik va kreativlikni talab qiladi. Noto‘g‘ri segmentatsiya yoki noto‘g‘ri kontent iste’molchilar noroziligiga olib kelishi mumkin.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Yondashuvni diversifikatsiya qilish: Har bir brend o‘z auditoriyasiga mos raqamli yondashuvlarni tanlashi va uni brend strategiyasi bilan uyg‘unlashtirishi kerak.
- Kontent sifatini ustuvor qilish: Vizual va emotsional jihatdan boy kontent yaratish brend e’tiborini kuchaytiradi.
- Platforma tanlovini strategik belgilash: Har bir platformaning xususiyatlariga mos reklama shakllarini tanlash zarur.
- Monitoring va tahlilni kuchaytirish: Raqamli faoliyat natijalari doimiy kuzatilib, foydalanuvchi javoblari asosida optimallashtirib borilishi lozim.
- Innovatsiyaga tayyorlik: Raqamli muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchan yondashuvlar orqali raqobatda ustunlikka erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, moda sanoatida raqamli marketing brendlar va iste’molchilar o‘rtasidagi aloqani yangi bosqichga olib chiqdi. To‘g‘ri yondashuv, sifatli kontent va ehtiyotkor strategiya orqali raqamli platformalarda barqaror va sodiq mijozlar bazasini shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Solomon, M. R. (2017). Consumer behavior: Buying, having, and being (12th ed.). Pearson.

2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing management (15th ed.). Pearson Education.

3. Schmitt, B. H. (1999). Experiential marketing. Journal of Marketing Management, 15(1), 53-67. https://doi.org/10.1080/0267257X.1999.9964487

4. Batra, R., Ahuvia, A., & Bagozzi, R. P. (2012). Brand love. Journal of Marketing, 76(2), 1-16. https://doi.org/10.1509/jm.09.0339

5. Keller, K. L. (2006). Brands and branding: Research findings and future priorities. Marketing Science, 25(6), 739-759. https://doi.org/10.1287/mksc.1050.0153

6. Keller, K. L., & Lehmann, D. R. (2006). Brands and branding: Research findings and future priorities. Marketing Science, 25(6), 739-759. https://doi.org/10.1287/mksc.1050.0153

7. Ko, E., & Megehee, C. M. (2011). Fashion marketing of luxury brands: Recent research issues and contributions. Journal of Business Research, 65(10), 1395–1398. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2011.02.027

8. Rahman, O., Fung, B. C. M., Chen, Z., Chang, W. L., & Gao, X. (2017). A study of apparel consumer behaviour in China and Taiwan. Fashion and Textiles, 4(1), 1-15. https://doi.org/10.1186/s40691-017-0105-2

9. Schmitt, B. H. (1999). Experiential marketing: Customer satisfaction. Journal of Marketing Management, 15(1), 53-67. https://doi.org/10.1080/0267257X.1999.9964487

10. Thakur, A., & Kaur, R. (2016). An empirical examination of relationship between emotional attachment and attitudinal brand loyalty towards luxury fashion brands. DLSU Business & Economics Review, 6(1), 100-115.

TIJORAT BANKLARINING OMONATLARNI JALB QILISHDAGI MARKETING STRATEGIYALARI

Raximov Shoxrux Furqatovich
"O'zsanoatqo'rilishbank" ATB
departament direktori

KIRISH

Bugungi global moliyaviy muhitda tijorat banklari uchun omonatlarni jalb qilish samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Raqobatning kuchayishi va mijozlarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar banklar oldiga yangidan-yangi strategik vazifalarni qo'ymoqda. Bank marketing strategiyalari nafaqat mijozlarni jalb qilish, balki ularning uzoq muddatli sadoqatini ta'minlash va omonatlar hajmini oshirishga ham xizmat qiladi [1][4][7].

So'nggi yillarda bank sektori raqamli texnologiyalar, mobil banking, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, brend ishonchliligi va xizmat sifatini oshirish kabi marketing strategiyalariga katta e'tibor qaratmoqda [3][12]. Raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining qulayligini oshirib, mijozlar uchun masofaviy bank operatsiyalarini osonlashtirish va bank xizmatlarini 24/7 rejimida taqdim etish

imkoniyatini yaratdi [12][13]. Shuningdek, Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya va Bangladesh tajribalari shuni ko‘rsatadiki, mobil banking xizmatlarining keng joriy etilishi omonat hajmining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [6][15].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mijozlar qarorlarini shakllantirishda bir necha muhim omillar asosiy rol o‘ynaydi. Bank xizmatlarining shaxsiylashtirilishi mijozlarning sadoqatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki individual yondashuv bank mijozlari uchun xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi [3]. Shu bilan birga, raqamli banking va mobil banking xizmatlari mijozlar uchun qulaylik yaratib, masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa zamonaviy bank tizimining mijozlarga yaqinlashishiga va omonatlarni jalb qilishga xizmat qiladi [12][13].

Bundan tashqari, xizmatlar sifati va brend obro‘si bankning bozordagi barqarorligini anglatadi va mijoz tanloviga bevosita ta’sir qiladi. Mijozlar odatda o‘z omonatlarini ishonchli va yuqori sifatli xizmat ko‘rsatadigan banklarga joylashtirishni afzal ko‘radilar [5][6]. Foiz stavkalari va aksiyalar esa mijozlarning qaror qabul qilish jarayonida muhim omillardan biri bo‘lib, ular bankning taklif etayotgan moliyaviy shartlariga e’tibor qaratadilar [4][10].

Turli mamlakatlardagi tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, bank marketing strategiyalari nafaqat yangi mijozlarni jalb qiladi, balki mavjud mijozlarning uzoq muddatli ishonchini ham shakllantiradi [7][14]. Masalan, Bangladesh va Gana bank sektoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan marketing strategiyalari omonat jalb qilish hajmini sezilarli darajada oshirgan [13][14].

Shunday qilib, ushbu maqola bank marketing strategiyalarining mijozlar qarorlariga qanday ta’sir qilishi va bu strategiyalar orqali omonatlarni jalb qilishning eng samarali usullarini tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mijozlarning bank tanlash mezonlari va marketing strategiyalarining samaradorligini o‘rganishdir. Shu asosda quyidagi savollarga javob izlanadi: bank marketing strategiyalarining mijoz xulq-atvoriga ta’siri qanday? Mijozlar bank tanlashda qanday omillarga asoslanadi? Mobil banking va raqamli xizmatlar omonatlarni jalb qilishda qanchalik samarali?

Mazkur tadqiqot turli mamlakatlarda bank marketing strategiyalarining omonatlarni jalb qilishga ta’sirini o‘rganish orqali banklar uchun eng samarali strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu strategiyalarni tahlil qilish orqali bank tizimi mijozlar ehtiyojlariga mos keladigan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi va omonatlarni jalb qilish darajasini oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu bo‘lim bank marketing strategiyalarining mijozlar xulq-atvoriga va omonatlarni jalb qilish jarayoniga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy

tadqiqotlarni tahlil qiladi. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali banklarning mijozlarni jalb qilish va ularning uzoq muddatli sadoqatini shakllantirish uchun qanday strategiyalarni qo‘llashlari lozimligi aniqlanadi.

Bank marketing strategiyalari moliyaviy muassasalar uchun mijozlar oqimini oshirish va ularning sadoqatini ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Tesfaye (2022) o‘z tadqiqotida banklarning mijoz jalb qilish va ularni saqlab qolish strategiyalarining samaradorligini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan xizmatlar mijoz sadoqatini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi [10]. Dao va boshqalar (2021) esa bank tanlash mezonlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotida foiz stavkalari, xodimlarning imidji va brend ishonchliligi mijozlarning bank tanlash qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [4].

So‘nggi yillarda bank xizmatlarini raqamlashtirish mijozlar jalb qilishda muhim omilga aylandi. Windasari va boshqalar (2022) o‘z tadqiqotida raqamli bank xizmatlari Gen Y va Gen Z mijozlari orasida keng qo‘llanilayotganini va ularning omonatlar hajmini oshirishga xizmat qilishini aniqlagan [12]. Orina va Ochogo (2021) esa Keniyada olib borilgan tadqiqotda mobil banking hisobvaraqlari va depozitlarni jalb qilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, bu xizmatlarning bank samaradorligini oshirishini isbotlaydi [9].

Shuningdek, Banson (2013) tomonidan Ganada o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, mobil banking xizmatlari an’anaviy bank xizmatlariga qaraganda omonatlarni jalb qilishda samaraliroq bo‘lib, ayniqsa qishloq hududlarida mijozlar uchun qulayroq variant bo‘lishi mumkin [13]. Diwya (2022) esa Indoneziya bank sektorida olib borgan tadqiqotida mijozlar o‘z ehtiyojlariga mos bankni tanlashda mobil banking imkoniyatlariga katta e’tibor qaratishini ta’kidlaydi [15].

Mijozlar bankni tanlashda nafaqat uning taklif qilayotgan xizmatlariga, balki xizmat sifatiga ham katta e’tibor qaratadilar. Gebrecherkos (2021) tijorat banklarining depozit jalb qilish strategiyalarini tahlil qilib, brend ishonchliligi mijozlarning bank bilan uzoq muddatli hamkorligini belgilashda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi [5]. Gunasekara va Kumari (2018) Shri-Lankada olib borgan tadqiqotida, xizmat sifati mijozlarning ishonchini mustahkamlashga yordam berishini va bu orqali omonat hajmini oshirish mumkinligini aniqlagan [6].

Bundan tashqari, Chatterjee va Kamesh (2019) bank marketingida mijozlar bilan aloqalarni boshqarish strategiyalarining mijoz sadoqatini shakllantirishga qanday ta’sir qilishini o‘rganib, individual yondashuv va sifatli xizmatlar mijozlarning uzoq muddatli sodiqligini ta’minlashi mumkinligini ta’kidlaydi [16].

Mijozlarning bank tanlash va omonat qo‘yish bo‘yicha qarorlariga foiz stavkalari va aksiyalar muhim ta’sir ko‘rsatadi. Osuala va boshqalar (2020) Nigeriyada olib borgan tadqiqotida foiz stavkalari mijozlarning omonatga bo‘lgan qiziqishini oshirishda asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi [8]. Maharana va boshqalar

(2015) Hindistonda olib borgan tadqiqotida esa bank aksiyalari va foiz stavkalarining mijoz jalb qilishdagi samaradorligini tahlil qilgan [17].

Shuningdek, Le va boshqalar (2022) bank kreditlash strategiyalari va foiz stavkalari omonat jalb qilish jarayoniga qanday ta'sir qilishini chuqur o'rgangan va bu omillar tijorat banklarining barqarorligi bilan bog'liq ekanligini aniqlagan [7].

Bank marketing strategiyalari nafaqat mijozlarni jalb qilish, balki ularning uzoq muddatli sodiqligini ham ta'minlashi mumkin. Chebo va Dhliwayo (2022) o'z tadqiqotida marketing strategiyalarining mijoz sadoqatiga ta'sirini tahlil qilib, chegirmalar va sodiqlik dasturlari omonat jalb qilish samaradorligini oshirishga yordam berishini aniqlagan [3].

Khalily va boshqalar (1987) Bangladeshda olib borgan tadqiqotida depozitlarni jalb qilish jarayonida moliya siyosati va banklarning barqarorligi muhim rol o'ynashini va omonat hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligini aniqlagan [14].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda bank marketing strategiyalarining omonat jalb qilishga ta'siri ikkinlamchi ma'lumotlar asosida o'rganildi. Buning uchun ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va statistik manbalar tahlil qilindi. 7 ta mamlakat (Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya, Bangladesh, Gana, Nigeriya va Efiopiya) misolida 5 ta asosiy strategiyaning samaradorligi solishtirildi.

Baholash uchun 1–10 ballik shkaladan foydalanilib, har bir strategiya mamlakatlar kesimida tahlil qilindi. Natijalar jadvalga umumlashtirildi va keyinchalik vizual grafiklar orqali taqqoslandi. Ushbu yondashuv marketing strategiyalarining mintaqaviy farqlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda bank marketing strategiyalarining mijozlar xulq-atvoriga va omonatlarni jalb qilishga qanday ta'sir ko'rsatishi empirik dalillar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya, Bangladesh, Gana, Nigeriya va Efiopiya kabi mamlakatlarda olib borilgan ilmiy ishlarga asoslanadi. Har bir strategiyaning samaradorligi alohida baholanadi va keyinchalik jadval orqali umumlashtirildi.

O'z vaqtida xizmat ko'rsatish, 24/7 faoliyat yuritish va mobil tranzaksiyalar orqali mijozlarga erkinlik beruvchi platformalar omonat hajmining ortishiga sabab bo'lmoqda. Banson (2013) Ganadagi tadqiqotida mobil bankingning omonat jalb qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi [13]. Windasari va boshqalar (2022) esa raqamli bank xizmatlarining ayniqsa Gen Y va Gen Z uchun muhimligini ta'kidlaydi [12]. Hindiston va Nigeriyada ham mobil banking yuqori

ball bilan baholangan, bu esa ularning texnologik infrastrukturasi rivojlanganligini bildiradi.

Mijozlarga individual e'tibor ko'rsatish banklarga ularning ehtiyojlariga aniq javob berish imkonini beradi. Tesfaye (2022) va Chebo & Dhliwayo (2022) shaxsiylashtirilgan xizmatlar mijoz sadoqatini oshiruvchi omil ekanligini ta'kidlaydilar [3][10]. Indoneziyada bu strategiya eng yuqori ballga ega bo'lgan, bu esa banklarning bu yo'nalishga faol sarmoya kiritayotganidan dalolat beradi.

Gebrecherkos (2021) va Gunasekara & Kumari (2018) tadqiqotlari bank xizmatlarining sifati va brend ishonchliligi mijozlar uchun muhim tanlov mezonlari ekanini ko'rsatadi [5][6]. Hindiston, Nigeriya va Efiopiya kabi mamlakatlarda bu strategiya 8 ballgacha baholangan, bu esa ushbu omil omonat qo'yish qarorlariga bevosita ta'sir qilayotganini bildiradi.

Foiz stavkalari, bonuslar va reklama takliflari mijozlar uchun muhim iqtisodiy rag'batlantiruvchi vositadir. Dao va boshqalar (2021), Osuala va boshq. (2020) va Maharana va boshq. (2015) foiz stavkalari va aksiyalarning mijoz jalb qilishdagi bevosita ta'sirini empirik isbotlaganlar [4][8][17]. Efiopiyada bu strategiya eng yuqori – 9 ball bilan baholangan.

Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish (CRM – Customer Relationship Management) tizimlari ko'plab mamlakatlarda to'liq joriy qilinmagan yoki samarali ishlamayapti. Chatterjee & Kamesh (2019) CRM strategiyalarining past samaradorligini qayd etgan [16]. Jadvalda Bangladeshda bu strategiya atigi 4 ball bilan baholangan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda ham 5–6 ball atrofida bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan strategiyalar bo'yicha tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi. Jadvalda 7 ta mamlakat bo'yicha har bir strategiyaning omonat jalb qilishdagi samaradorligi 1–10 ballik shkalada baholandi(1-jadval).

1-jadval

7 mamlakat asosidagi tahlili; empirik tadqiqotlar asosida tuzilgan

Mamlakat	**Mobil banking**	**Shaxsiy xizmat**	**Brend ishonchi**	**Foiz stavkasi**	**CRM strategiyalari**
Hindiston	8	7	8	7	6
Shri-Lanka	6	6	7	8	5
Indoneziya	7	8	7	6	6
Bangladesh	6	5	6	7	4
Gana	9	6	6	7	5
Nigeriya	7	7	8	8	6
Efiopiya	6	7	8	9	6

Jadval tahlili**:**

- Foiz stavkalari (7.43) va brend ishonchliligi (7.14) o'rtacha ball bo'yicha eng samarali strategiyalar hisoblanadi.

- Mobil banking ayniqsa Ganada yuqori ball olgan (9), bu raqamli xizmatlar salohiyatini ko‘rsatadi [13].
- CRM strategiyalari esa barcha mamlakatlarda nisbatan past baholangan (o‘rtacha 5.43), bu yo‘nalishda katta salohiyat borligini bildiradi [16][14].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bank marketing strategiyalari mijozlar xulq-atvoriga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi va omonatlarni jalb qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosidagi xizmatlar, shaxsiy yondashuv va brend ishonchliligi mijozlar qarorlariga bevosita ta’sir qiluvchi omillar sifatida ajralib turadi.

Mobil banking, foiz stavkalari va xizmat sifati eng samarali strategiyalar sifatida qayd etildi. Mamlakatlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatdiki, Gana, Hindiston, Efiopiya va Nigeriyada bu strategiyalar orqali omonatlar hajmini oshirishga erishilgan. Shu bilan birga, CRM strategiyalari ko‘plab banklarda hali to‘liq joriy etilmagan yoki samarasiz ishlamoqda, bu esa yirik salohiyatni ochib beradi.

Tadqiqot asosida bir nechta muhim tavsiyalar ishlab chiqildi. Eng avvalo, banklar uchun mobil banking xizmatlarini kengaytirish zarur. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fonida masofaviy xizmatlar mijozlarga qulaylik yaratib, omonatlarni jalb qilish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa, raqamli infratuzilmasi yangi shakllanayotgan hududlarda bu strategiya katta samaradorlikka ega.

Ikkinchidan, banklar o‘z faoliyatida shaxsiylashtirilgan yondashuvni kuchaytirishlari lozim. Mijozlarning ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlar, individual maslahatlar hamda moslashtirilgan takliflar ularning bankka nisbatan sadoqatini mustahkamlaydi, natijada takroriy omonat qo‘yish holatlari ortadi.

Shuningdek, banklar foiz siyosatini moslashtirib, raqobatbardosh stavkalar va marketing aksiyalar orqali omonatchilar e’tiborini jalb etishlari mumkin. Biroq bu jarayon xizmat sifati bilan muvozanatli olib borilishi kerak, chunki past sifatli xizmat yuqori foizning ijobiy ta’sirini yo‘qqa chiqarishi mumkin.

Yana bir muhim yo‘nalish – bu brend ishonchini mustahkamlashdir. Bankning mijozlar orasida ishonchli va barqaror obro‘ga ega bo‘lishi uning uzoq muddatli omonatchilar bazasini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shaffof xizmat ko‘rsatish va professional yondashuv bu borada muhim rol o‘ynaydi.

Nihoyat, banklar CRM tizimlarini joriy etish va optimallashtirishga e’tibor qaratishlari lozim. Mijozlar bilan tizimli aloqa, sodiqlik dasturlari, xabarnomalar va tezkor xizmat ko‘rsatish mijozlarni ushlab qolishga va ularning ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asefa, A. M. (2018). *The effect of promotion strategies on deposit mobilization: A case study on Commercial Bank of Ethiopia.* St. Mary's University, Addis Ababa, Ethiopia. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/4085/1/ADMASS%20MULUGETA%20ASEFA%20SGS%200105%202008B%20JUNE%202018.pdf

2. Banke, N. K., & Yitayaw, M. K. (2022). *Deposit mobilization and its determinants: Evidence from commercial banks in Ethiopia.* Future Business Journal, 8(1), 32. DOI: https://doi.org/10.1186/s43093-022-00144-6

3. Chebo, T., & Dhliwayo, K. (2022). *Marketing strategy and customer loyalty in the banking sector.* International Journal of Business and Management, 14(1), 24-35.

4. Dao, L. K. O., Loc, H. H., Nguyen, V. C., Hang, L. T. T., & Do, T. T. (2021). *Factors affecting the choice of banks: Do bank's interest rate, employee image, and brand matter?* Journal of Asian Finance, Economics and Business, 8(1), 457–470.DOI: https://doi.org/10.13106/jafeb.2021.vol8.no1.457

5. Gebrecherkos, A. (2021). *The effect of promotion mix strategies on deposit mobilization of Commercial Bank of Ethiopia.* St. Mary's University, Addis Ababa, Ethiopia. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/7347/1/Abeba%20Gebrecherkos%20ID%20SGS.0393.2011A.pdf

6. Gunasekara, H. U., & Kumari, P. (2018). *Factors affecting deposit mobilization in Sri Lanka.* International Review of Management and Marketing, 8(5), 30-42. https://www.researchgate.net/publication/327570396

7. Le, H. N. Q., Nguyen, T. V. H., & Schinckus, C. (2022). *Bank lending behaviour and macroeconomic factors: A study from strategic interaction perspective.* Heliyon, 8, e11906.DOI: https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e11906

8. Osuala, A. E., Uruakpa, N. I., & Onoh, U. A. (2020). *Banks' marketing strategies and deposit mobilisation: A study of selected commercial banks in Nigeria.* Accounting and Taxation Review, 4(2), 1-12. https://hdl.handle.net/11159/4657

9. Orina, C. O., & Ochogo, F. S. (2021). *The effect of mobile banking accounts and deposits on operational efficiency of commercial banks in Kenya.* International Journal of Interdisciplinary Research in Social Science, 1(1), 1-15.

10. Tesfaye, C. (2022). *Customer attraction and retention strategies in banking: A new model.* International Journal of Marketing Strategies, 11(3), 67-82.

“IJARA" TUSHUNCHASINING TA’RIFLARI VA OLIMLARNING QARASHLARIDAGI TURLI JIHATLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Yulduz Panjiyevna Khalikulova
Tashkent state university of economics
ORCID: 0009-0002-5542-5367
y.xoliqulova@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda O’zbekiston sharoitida ijara munosabatlarida uchrayotgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etsih jarayonida yuzaga kelayotgan yangiliklar kontekstida mavzuni mavjud ma’lumotlar asosida o’rganib chiqildi. O‘zbekistonda ijara operatsiyalarini takomillashtirish maqsadida ushbu sohadagi muammolar va ilgari surilayotgan yangiliklarni hisobga olgan holda keng qamrovli yondashuvni ta'minladik. Shuningdek, bu masalani muhokama qilishdan oldin, ijara tushunchalarining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun ularni qisqacha bayon etishga e'tibor qaratildi.

Kalit so’zlar: Ijara hisobi, lizing sub'ektlari va ob'ektlari, lizing operatsiyalarini, aktivlarni hisobga olish.

So’nggi yillarda zamonaviy iqtisodiy sharoitda ijara munosabatlari iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsion faollikni rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri bo’lib hisoblanmoq. Ushbu moliyaviy vosita korxona aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, kapital mablag‘larini tejash va kapital xarajatlarni operatsion xarajatlarga aylantirish imkoniyatini yaratadi.

Ijara munosabatlari rivojlangan davlatlarda uzoq yillardan beri iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy risklarni kamaytirish vositasi sifatida keng qo‘llanilib kelmoqda.

O'zbekistonda ijara va lizing munosabatlari so'nggi yillarda rivojlanishni boshladilar. Qonunchilik doirasida ijara munosabatlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan holatlarda rasmiylashtiriladi va moliyaviy imtiyozlar yaratish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Xususan, O'zbekistonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ijara munosabatlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ijara tushunchasi o’zi nima? O‘zbekistonlik olimlar “ijara” atamasini asosan mulkni vaqtincha foydalanuvchiga berish jarayonini tushuntirish uchun ishlatadilar. Ularning ta’riflari, birinchi navbatda, ushbu jarayning yuridik, iqtisodiy va

moliyaviy jihatlarini o‘z ichiga olishga qaratilgan. Shu bilan birga, bu konseptning chuqur tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida O’zbekistonlik olimlar tomonidan “ijara” atamasiga berilgan ta’riflarga to’xtalib o’tamiz:

1. F. A. Abduqodirov: [1] "Ijara – bu bir tomon (ijaraga beruvchi) tomonidan boshqa tomonga (ijarachi) mulkni belgilangan shartlar asosida foydalanish uchun berish jarayoni."
2. I. M. Raxmonov: [2] "Ijara – bu ijarachi va ijaraga beruvchi o‘rtasidagi munosabatlar bo‘lib, unda bir tomon mulkni vaqtincha foydalanish uchun beradi va bu uchun ijara haqini to‘lash majburiyati ilgari suriladi."
3. T. K. Tashkentov: [3] "Ijara shartnomasi — bu ijara beruvchining ijaraga berish haqidagi roziligi va ijarachining molkdan foydalanish majburiyatini ifodalovchi hujjat."
4. S. K. Ruziev: [4] "Ijara — bu mulk egalari va foydalanuvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat, u vaqtincha foydalanish huquqini belgilaydi."
5. Z. J. Salimov: [5] "Ijara — bu bir tomonning boshqa tomonga molk yoki xizmatlarni vaqtinchalik foydalanish uchun berishi, bu doirada ijara haqini to‘lash majburiyati mavjud bo‘lib, unda shartnomaviy munosabatlar mavjud."

Ushbu ta’riflar, ijara tushunchasini yorituvchi turli fanlararo tadqiqotlar va amaliy dasturlar yordamida hosil qilingan. Har bir tadqiqotchining ijara munosabatlariga o‘ziga xos nuqtai nazari mavjud bo‘lib, bu perspektiva ijara shartnomalarini tahlil qilish jarayonida alohida ahamiyatga ega.

“Ijara” atamasi iqtisodiyot, moliya va huquq sohalarida turlicha ta'riflarga ega. Quyida ijara atamasiga oid bir nechta xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltiriladi:

1. Muhammad Aliy al–Jouan: [6] "Ijara — bu mulkni vaqtinchalik foydalanish uchun berish, buning evaziga ijara haqini to‘lash majburiyati."
2. I. K. Shapiro: [7] "Ijara shartnomasi — bu ijaraning har qanday turini ifodalovchi hujjat, u ijara beruvchining mulkidan ijarachiga foydalanishga ruxsat beradi."
3. F. Kumar: [8] "Ijara — bu iqtisodiy munosabatlar shartnomasini ifodalovchi atama bo‘lib, unda bir tomon mulkni vaqtincha berish sharti asosida foydalanishiga qaratilgan."
4. Z. N. Babich: [9] "Ijara — bu mulk yoki xizmatlarni qisqa yoki uzoq muddatga vaqtinchalik ijaraga berish jarayonini ifodalovchi tushuncha."
5. A. P. Kel'min: [10] "Ijara shartnomasi - ijara beruvchi va ijarachi o‘rtasidagi mulkni ijaraga berish va undan foydalanish tartibini belgilaydi."

“Ijara” tushunchasini chuqur va puxta o'rganish maqsadida, biz quyidagi fikrni taklif etamiz: “Ijara”- bu Ijara — bu bir tomon (ijaraga beruvchi) tomonidan, belgilangan muddat davomida, mulkni boshqa bir tomonga (ijarachi) shartlarga muvofiq

vaqtincha foydalanishga berish jarayonidir. Bu holatda ijara haqini to‘lash majburiyati mavjud bo‘ladi.

Bu munosabatlar, muloqot, qonuniy huquqlar va iqtisodiy manfaatlarga asosan tasniflanadi. Ijara shartnomasi ijara beruvchining mulkiy huquqlarini saqlab qolish bilan bir qatorda, ijarachining mulkdan foydalanish huquqlarini ham aniqlaydi. Ijara munosabatlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda, moliyaviy resurslarni samarali ishlatishda va biznesning ko‘p tomonlama rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonlar global iqtisodiyotdagi doimiy o‘zgarishlarga muvofiq amalga oshirilishi zarurdir. Bu ta’rif ijara tushunchasining kompleks tabiatini, uning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy aspektlarini hisobga olib yaratilgan. Bu kelajakdagi tadqiqotlar va tahlillar uchun asos bo‘lishi mumkin.

Ijara tushunchasini o‘rganish jarayonida turli olimlarning qarashlari ushbu sohaning ko‘plab jihatlarini namoyish etadi. Ular orasida ayrim olimlar ijara munosabatlarini faqat iqtisodiy jihatdan, boshqalari esa huquqiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadilar:

1. Iqtisodiy nuqtai nazar: Ba’zi olimlar ijara tushunchasini to‘g‘ri talqin qilishda iqtisodiy manfaatlar va mulkdan foydalanishning samaradorligini e’tiborga olishadi. Ular ijara munosabatlarining iqtisodiy o‘sishda va xususiy sektorning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar.
2. Huquqiy nuqtai nazar: Boshqa olimlar ijara shartnomalarining yuridik jihatlariga e’tibor qaratib, huquqiy himoya va qonuniy talablarni o‘rganadilar. Ular ijara shartnomalarining to‘g‘ri tuzilishi va ijara munosabatlaridagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishining muhimligini ta’kidlaydilar.
3. Ijtimoiy nuqtai nazar: Ijara tushunchasining ijtimoiy ahamiyati ham mavjud. Ayrim olimlar ijara munosabatlarning aholi turmush sharoitlariga va ijtimoiy farovonlikka qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadilar. Bu jihatdan, ijara ijtimoiy tenglikni ta’minlashda va aholi uchun arzon uy-joy olishda yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ijara tushunchasi ko‘plab talqinchilar va olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu sohadagi qarashlar iqtisodiy, yuridik hamda ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi. Bu tushunchaning murakkabligi va ko‘p tomonlama yondashuvi ijara munosabatlarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini anglatadi.

O‘zbekiston sharoitida ijara tushunchasining yanada rivojlanishi va takomillashtirilishi, iqtisodiyotimizni barqarorlashtirish va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida keltirib o’tilgan ta’riflarni o’rganib chiqib har bir ta'rif ijara munosabatlarining o'ziga xos jabhalarini ko'rib chiqishini, bu esa ushbu tushuncha murakkabligini va turli kontekstlarda uni to'g'ri anglash zarurligini ko’rishimiz mumkin.

REFERENCES:

1. Abduqodirov, F. A. "Moliyaviy ijara va uning dastaklari." O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2015.
2. Raxmonov, I. M. "Ijara shartnomalari va ularning yuridik mohiyati. "Huquqshunoslik va iqtisodiyot jurnali, 2017.
3.Tashkentov, T. K. "Ijara va moliya munosabatlari." Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2016.
4. Ruziev, S. K. "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ijara munosabatlarining o‘rni." O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Statistika Davlat Qo‘mitasi, 2018.
5. Salimov, Z. J. "Ijara va uning iqtisodiy aholisi." Toshkent: Iqtisodiyot va Biznes Institutlari, 2019.
6. Al-Jouan, M. A. "Principles of Islamic Leasing." Journal of Islamic Economic Studies, 2010.
7. I. K. Shapiro "Аренда: Теория и практика." Москва: Юристъ, 2005.
8. F. Kumar: "Leasing and Hire Purchase in India." New Delhi: Oxford University Press, 2013.
9. Z. N. Babich: "Мировая практика аренды." Санкт-Петербург: Питер, 2008.
10. A. P. Kel'min: "Арендные отношения в России." Москва: Издательство Юрайт, 2012.

9-SHO'BA - Kimyo, qurilish materiallari hamda turdosh ishlab chiqarish sohalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifalari

KIMYO VA QURILISH MATERIALLARI HAMDA TURDOSH SOHA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TA'LIM JARAYONINING ASOSIY OMILI

Sabirjanov Talibjan Mamasalievich
E-mail:talibjan1956@mail.ru tel.(+99890)303-46-83.
Farg'ona davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Talabalarga bilim berishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, mashg'ulotlarni elektron darsliklar yordamida olib borish, hamda bu yangilikni amaliyotga bog'lash texnika fanlarini o'qitishda yaxshi natijalar bermoqda.

Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish quyidagi yordamchi-integratsiyalovchi komponentli jihatlarni shakllantirishi zarur. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda bu jarayon quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- o'qitish maqsadi aniq bo'lishi;
- ta'lim tizimiga sezilarli samara beruvchi yangiliklar kiritish;
- yangi kontseptsiyalar-g'oyalarni amalga qo'llash;
- davlat ta'lim standartlaridan doimiy foydalanish;
- axborot texnologiyalarini joriy qilishning davlat dasturini yaqindan bilish;
- internet tarmog'iga komponentli tayanish.

Bu jarayonni amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash bilan mustahkamlashni taqozo qiladi. Elektron darsliklar foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlar va afzalliklar yaratadi:

- ko'rgazmalilik asosida tashkil qilingan darslar mazmunan boy bo'ladi;
- yorqin ranglarda ifodalangan formula va chizmalar talabalar shuurida yaqqol ifoda topadi;
- mazkur animatsiyalar talabalrda qiziqish uyg'otadi;

- tarqatma materiallar tayyorlashga vaqt sarf bo‘lmaydi.

O‘qituvchining an’anaviy pedagogik faoliyati uning innovatsion faoliyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning innovatsion faoliyati quyidagi ko‘rinishlarda aks etishi mumkin:

- o‘qituvchining yuqori pedagogik mahorati;
- o‘qituvchining yangi g‘oyalarni tez va qisqa vaqtda oldinga sura olishi;
- o‘qituvchining innovatsion usullarni qo‘llashi va innovatsion ta’limni tashkil etish tajribasi.

Texnika fanlarining nazariy asoslaridan biri bo‘lgan “Nazariy mexanika” fanini o‘qitishda innovatsion usullarni qo‘llashi va tashkil qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Innovatsion usullarni qo‘llashi uch bosqichda olib boriladi:

- yangi g‘oya modelini yaratish;
- talabalar uchun qiziq bo‘lgan, ularni mustaqil o‘quv faoliyatiga undaydigan didaktiv manba’larni tanlash;
- talabalarning bilimlari va shaxsiy sifatlarini samarali aniqlash va baholash.

Misol sifatida, “Ishqalanish kuchi ta’siridagi jismlarning muvozanati” mavzusida ma’ruza o‘qilayotganda talabalarga quyidagi innovatsion g‘oyalarni taklif qilish mumkin:

- faraz qilaylik ishqalanish kuchi umuman hisobga olinmasin, mashina mexanizmlar harakatida va turmushda qanday hodisalar yuz berishi mumkin?
- ishqalanish kuchini kamaytirishga ishlayotgan mashina qismlarini ayting va ularni boshqa uskunalar bilan almashtirish choralarini ko‘ring;
- ishqalanish kuchini ko‘paytirish uchun ishlayotgan mashina qismlarini ayting va ularni boshqa uskunalar bilan almashtirish choralarini ko‘ring;

Ko‘p yillik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ”Nazariy mexanika” fanini o‘qitishda ko‘proq muammolarni mutaxassislikka mos keladigan masala va misollarga bog‘lab, hayotiy nuqtai nazardan yondoshilsa, talabalarda hosil bo‘ladigan qiziqish yanada ortadi. Kafedramizda iqtidorli talabalarni ilmiy foaliyatga yo‘naltirish, ilmiy-innovatsion fikrlash asoslari bilan tanishtirish va ilmiy anjuman hamda seminarlarda ishtiroki yaxshi tashkil qilingan. Bu ishlarning samarasi, iqtidorli talabalarning ilmiy anjumanlardagi aktiv ishtiroki va turli ilmiy musobaqa va olimpiadalardagi yetakchi o‘rinlarni egallashida ko‘rinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talaba yoshlarni ijodiy va intellektual salohiyatini orttirish uchun ta’limda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish yetuk mutaxassislar tayyorlashning omili bo‘lar ekan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ziyomuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent, "Tib-kitob", 2009.
2. Mavlyanov A.va boshq.O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari. Toshkent, "Tafakkur bo'stoni", 2013.

SUSTAINABLE PRACTICES AND INNOVATIONS IN TECHNICAL SCIENCE EDUCATION

Nuriddinov Muhammadjon Mirsaidovich – student of group EL69-24M,
Faculty of Production Management.
Rakhmatova Odina Kadirjanovna
Doktor of philosophy (PhD) in philological sciences
FDTU, Department of Uzbek language and language teaching.
Tel: + 998902771419 e-mail: rakhmatova.odina@gmail.com

I Introduction. Sustainability has emerged as a cornerstone of global development, demanding changes across various fields, including education. Technical sciences, which form the backbone of engineering, manufacturing, and technology industries, play a pivotal role in addressing sustainability challenges. Traditional technical education methods often focus on efficiency and output but overlook environmental and societal impacts. This paper examines how sustainable practices and innovations can transform technical science education, preparing students to meet future demands responsibly. The pressing environmental challenges of the 21st century, including climate change, resource depletion, and pollution, have highlighted the need for sustainable solutions across all sectors. Technical science education, which underpins advancements in engineering, manufacturing, and technology, plays a pivotal role in preparing future professionals to address these challenges. Traditionally, technical education has prioritized efficiency, precision, and performance, often at the expense of environmental and social considerations. However, the integration of sustainability into technical science curricula is no longer a choice but a necessity. Sustainable practices in technical science education aim to equip students with the skills and mindset needed to develop solutions that are environmentally responsible, economically viable, and socially inclusive. This involves rethinking traditional teaching methodologies, embracing innovative tools, and fostering interdisciplinary collaboration. From integrating green technologies into coursework to adopting project-based learning focused on real-world sustainability challenges, technical science education is undergoing a transformative shift. This paper explores the intersection of sustainability and technical education,

focusing on innovative teaching methods, best practices, and their impact on students and society. By aligning technical education with the principles of sustainability, educators can empower students to become change agents who drive positive environmental and societal impacts while excelling in their respective fields.

1.1 **Metodological area.** In Uzbekistan, a country experiencing rapid industrialization and urbanization, the integration of sustainable practices into technical science education is gradually gaining attention. As part of its commitment to achieving the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs) and addressing pressing environmental challenges, Uzbekistan has recognized the need for reforms in education, particularly in technical disciplines. The nation is taking steps to align its educational strategies with global trends in sustainability while addressing the unique challenges posed by its economic and ecological context.

Current State of Technical Science Education in Uzbekistan:

Technical education in Uzbekistan has traditionally focused on preparing professionals for industries such as agriculture, manufacturing, construction, and energy. However, these sectors are often associated with high environmental costs, including excessive resource use and pollution. Educational institutions, especially technical colleges and universities, are now being encouraged to incorporate sustainability concepts into their curricula. Some universities, like Tashkent State Technical University and Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, have started offering courses that touch on renewable energy, water conservation, and green construction. However, the incorporation of sustainability into core technical education remains limited and requires a more comprehensive approach.

II Methods

Literature Review	Case Study Analysis	Survey and Interviews
• Academic articles, reports, and case studies on sustainable education practices were analyzed to identify emerging trend	• Best practices from institutions integrating sustainability into their technical science curriculum were evaluated	• Educators and students from technical disciplines were surveyed to gather insights on their experiences and perceptions of sustainability in education.

III Results The analysis yielded the following key findings:

1. Integration of Green Technologies: Incorporating renewable energy systems, waste management solutions, and eco-friendly materials into coursework has increased student awareness of sustainability issues.

2. Project-Based Learning (PBL): Hands-on projects focusing on real-world problems, such as designing energy-efficient systems or sustainable infrastructure, enhanced critical thinking and collaborative skills.

3. Interdisciplinary Collaboration: Partnerships between technical and non-technical departments fostered a holistic understanding of sustainability, bridging gaps between science, policy, and social impact.

4. Digital Tools and Simulations: Virtual labs and simulations have provided sustainable alternatives to resource-intensive physical experiments.

IV Discussion Sustainable practices in technical science education represent a paradigm shift from traditional methodologies. By prioritizing eco-consciousness, educators can prepare students not only for technical challenges but also for their roles as responsible global citizens. However, challenges such as limited resources, lack of faculty training, and resistance to change remain significant barriers. Addressing these issues through government support, institutional policies, and professional development programs is crucial.

V Conclusion Integrating sustainable practices into technical science education is no longer optional but a necessity. By embracing innovative approaches, educators can equip students with the knowledge and skills to tackle environmental challenges effectively. Future research should focus on scaling these practices globally and measuring their long-term impact on both education and society.

REFERENCES:

1. Гороховатская Н. В. Устойчивое развитие в образовании: от идеи к практической реализации // Universum: Вестник Герценовского университета. 2007. №9.

2. Умарова Д. З. Формы, методы и средства развития творческой активности студентов вузов // Бюллетень науки и практики. 2021. №7.

3. Холматова Д. А., Рахматова О. К. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ УЧЕБНЫХ ПОСОБИЙ // Вопросы науки и образования. 2021. №29 (154). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-osnovy-razrabotki-uchebnyh-posobiy (дата обращения: 23.11.2024).

4. Холматова, Дилором Абдусамиевна КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ВУЗАХ // ORIENSS. 2023. №9. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kreditno-modulnoe-obuchenie-v-vuzah-1 (дата обращения: 23.11.2024).

5. Холматова, Д. и Умарова, Д. 2024. Преимущества выполнения самостоятельной работы студентами вуза во внеучебное время. Общество и инновации. 5, 5 (сен. 2024), 94–100. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5-pp94-100.

TARBIYADA TANBEHNING O‘RNI

Madumarov Ravshanbek Abdirahmonovich
ravshanbek madumarov78@gmail.com
Farg`ona davlat texnika universiteti

Bugungi globallashuv zamonasida vujudga kelayotgan ma'naviy, iqtisodiy, maishiy, giosiyosiy, yangilanish jarayonlari, avvalo, tilning lug'at boyligida ta'sir etmay qo'ymaydi. Kun sayin ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgan yangi maishiy jihozdan tortib, zamonaviy texnikalargacha. Biznes olamidagi yangi atamalardan tortib, global kompyuter setidagi yangi so'zlar evaziga tilimiz yangi tushunchalar, yangi nomlar va ularni ifoda etuvchi lisoniy birliklar bilan boyib boradi. Insoniyat shu jarayonlarda muloqot markazida turgan, nutq me'yorlariga asoslangan tanbehga bevosita aloqador ekanligini rad etib bo'lmaydi.

Ta'lim-tarbiya o'zaro muloqotlar vositasida, nojo'ya xatti-harakatni ko'rganda ularga murosasiz bo'lish, yoshlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, ya'ni o'z vaqtida va o'rinli tanbeh berish usuli bilan amalga oshiriladi:kishida "qanday holdaman?, nimalar qilyapman?" deya o'z-o'zini tergash tuyg'usinining uyg'onishi do'stlik va inoyat dalilidir. Chunki "Sevgi bor joyda sitam ham bo'ladi."Begonalarga emas, do'stlarga sitam qilinadi. Gilamni changdan tozalash uchun kaltaklashadi. Aqllilar buni tanbeh berish, demaslar. Ammo bir sevgan kishisini yohud bolasini ursalar, bunga sitam derlar. Bu esa "tarbiya" deya atalmish ulkan yuk va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan har bir kishidan alohida javobgarlik va shunga yarasha bo'lish uchun mahoratni talab etadi. Avvalo tilshunoslik, nutq madaniyati, qolaversa, turli fanlar tutash nuqtasida mana shu masalalar xususida fikr yuritishga qaratilgan ushbu tadqiqotimiz aynan shu jihatdan ham alohida dolzarblik kasb etadi.

Tanbeh birliklari avvolo insonlarlar o'rtasidagi munosabatlarga aniqlik kirituvchi birliklar deb hisoblanadi. Bu birliklar biron-bir shaxsga, hodisaga, voqeiylikka nisbatan bildirilgan fikr va kimgadir qarata aytilgan muloqot shakli bo'lib, tanbeh oluvchiga tanbeh beruvchini ochiq munosabatini ifodalovchi lingvistik fenomen deb atash mumkin.

Ustoz va shogird, professor o'qituvchilar va talabalar hayotida kuzatilayotgan ochiqlik, fikrlar mushtarakligi, so'z erkinligi, shu jumladan kunlik hayotimizda yuz berayotgan innovatsiya va yangilanishlar, iqtisodiy liberallashtirish, bozorni rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim va ma'rifat, fuqarolar faolligi va inson huquqlari himoyasiga e'tibor – bularning barchasi muloqat jarayonida ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Bejizga tanbehni ikki uchi bor kaltakka o'xshatishmaydi, bir uchida salbiylik, tanbeh berayotgan professor o'qituvchi uchun, ikkinchi uchida ijobiylik,tanbehga

uchragan talaba uchun. Agar talaba tanbehni to'g'ri tushunib, uni o'z foydasiga ishlatishga erisha bilsa, uning ruhiy, hattoki jismoniy rivojlanishi o'sib ketadi, chunki ustoz ko'zi bilan payqalgan kamchilikni o'zidan siqib chiqarish oson kechadi. O'rinli tanbeh talabani joyida qotib qolishdan saqlaydi, unga turtki bo'ladi va olg'a intilishga undaydi.

Tanbeh birliklarining ta'siri kuchli bo'lib, talabaning holatiga qarab turlicha qabul qilinadi. Ba'zilarning yuzlari qizarib, o'zlarini noqulay his qiladilar. Ba`zilar esa himoya chegarasini hosil qilib,qayta hujumga o'tadilar.Tanbehga har kimning, har xil munosabat bildirishi ko'p hollarda so'zlovchi va tinglovchining kayfiyatiga, ular ruhiyatiga hamda o'qituvchining vaziyatni qanchalik qo'lga olib uni boshqara olishiga bog'liq bo'ladi.

Berilgan tanbehga munosabat, ya`ni javob nutqiy yoki ekstralingvistik shakllarda ko'rinadi va ushbu shakllarni mazmun munosabati jihatidan ikkiga ajratish mumkin. Tanbehga javobiy munosabat rozilik va norozilik alomatlari bilan ifoda etiladi. Ko'pincha berilgan tanbehni to'g'ri qabul qilgan talabada rozilik alomatlari sukut saqlagan holda yerga qarab, bosh siltab ma`qullaganda bildirilsa, aksincha norozilik alomatlari esa yuzidagi norozilik ifodasida, ayrim hollarda esa g'uduranib javob qatarib turishida namoyon bo'ladi. Birnchi holatda "tushunarli", "boshqa qaytarilmaydi" kabi iboralar ishlatilsa, ikkinchi holatda norozilikni ko'z bilan ifoda etgan holdagi jimlik, "men qilganim yo'q", ayrim hollarda esa "ko'zingiz faqat meni ko'radimi?", "faqat mening o'zim aybdormi" kabi so'zlar ishlatiladi.

Aslini olganda tanbeh tanqiddan farq qiladi. Tanqidda biron voqeiylik, bironta shaxs tanqid ostiga olinadi, tanqid qilinuvchi har tomonlama keng o'rganilib, muhokama qilinadi va ayrim hollarda unga nisbatan intizomiy choralar ko'riladi. Tanbehda esa shaxsning yo'l qo'ygan kamchiliklarini takrorlamasligi ma'nosida dakki beriladi va o'zini o'nglab olishi uchun berilgan saboq deb tushunilsa noto'g'ri bo'lmaydi.

Aqlli talaba ustoz tomonidan o'ziga berilgan tanbehdan har doim to'g'ri xulosa chiqaradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Umarxo'jaev M.E. "Qizil kitob"ga tushmas tuyg'ular: qomusiy lug'at, Toshkent"Akademnashr"2019.

2.Abdulhamid Nurmonov tanlangan asarlar T.: Akademnashr.1-jild:.B-133 Shahriyor Safarov kognitiv Tilshunoslik "Sangzor" nashriyoti Jizzax – 2006.

3.Mahmudov N.O'zbek tili xalq ruhining ko'zgusi. . G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi "sog'lom avlod uchun" jurnali, 2016 yil 9-son .-

TALABALAR MONOLOGIK NUTQINI RIVOJLATIRISHDA HAJVIY ASARLARNING O‘RNI

Tursunova Farida G‘aniyevna - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Farg‘ona davlat texnika universiteti dotsenti
tursunova1968@list.ru
Muzaffarova Shohzoda Jamshidovna - 1-bosqich talabasi
shahzodamuzaffarova06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar monologik nutqini rivojlantirishda hajviy asarlarning ahamiyati tahlil etiladi. Hajviy asarlarning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari, kulgi va kinoya orqali ta’sirchanlikka erishish yo‘llari, shuningdek, bu asarlar orqali talabalarni erkin fikrlashga, izchil va ta’sirli nutq so‘zlashga o‘rgatish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada amaliy mashg‘ulotlar orqali nutqni shakllantirish usullari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: monologik nutq, hajviy asar, talabalar, badiiy tafakkur, kulgi, kinoya, tanqidiy fikrlash, so‘z boyligi, nutq madaniyati, ta’lim jarayoni.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, monologik nutq – ya’ni fikrni uzluksiz va mantiqiy tarzda ifodalash qobiliyati – har bir talabada bo‘lishi zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalardan biridir. Monologik nutq orqali shaxs o‘z qarashi, tahliliy fikri, hissiyot va munosabatini ifodalay oladi. Bu esa nafaqat til va adabiyot fanlari, balki boshqa fanlar bo‘yicha ham samarali muloqot olib borishga, mustaqil fikr yuritishga asos bo‘ladi.

Talabalar monologik nutqini rivojlantirishda adabiyotning, xususan, hajviy asarlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Hajv – bu hayotiy voqealarga tanqidiy nigoh bilan qarash, kulgu orqali muhim ijtimoiy fikrni ifodalash vositasidir. Bunday asarlar orqali talabalar nafaqat o‘qish qobiliyatini rivojlantiradilar, balki til boyligini oshiradilar, badiiy ifodalar, kinoya, istehzo kabi nutqiy vositalardan foydalanishni o‘rganadilar. Eng muhimi, ular o‘z fikrini erkin, lo‘nda va ta’sirchan tarzda ifoda etishga harakat qiladilar.

Yozuvchi ijodiy yuksalishga erishishi uchun u milliy g‘oya va qadriyatlarga sodiq bo‘lishi zarur. Shu sadoqat tufayli u asarlariga chuqur badiiy ruh baxsh eta oladi. Natijada, u milliy ruh va tafakkurni mahorat bilan ifodalagan ijodkor sifatida kitobxonlar e’tiborini qozonadi. Xalqimiz ma’naviyatini boyitishga katta hissa qo‘shgan atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriy ham asarlarini hayotda ko‘rgan va guvohi bo‘lgan voqealar asosida yaratgan. U bunday deydi: “Yozuvchining o‘zidan qo‘shgan to‘qimasi adabiy asarda muhim o‘rin tutadi. Ammo men hayotda ko‘rmagan yoki bilmagan narsam haqida yozmayman. Har bir asarimning yaratilishiga hayotda uchragan biror voqea turtki bo‘ladi.”

Qodiriy har qanday asarni yozishdan oldin, yozmoqchi bo‘lgan mavzusi haqida chuqur ma’lumot yig‘ar edi. U biror joy haqida yozmoqchi bo‘lsa, o‘sha joyga bir necha bor borgan bo‘lsa ham, yana qaytib borib, uni chuqurroq o‘rganib chiqardi. Yozuvchi xalq hayotini har tomonlama tushunishi, turmush tarzini yaxshi bilishi kerakligini anglagan Qodiriy o‘zining boshidan kechirgan voqealar uning yozuvchilik faoliyatida katta ahamiyat kasb etganini ta’kidlaydi.

Hajviy asarlar adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallagan, kulgi orqali hayotiy haqiqatlarni ochib beruvchi janr hisoblanadi. Bu asarlar jamiyatdagi salbiy holatlarni, illat va kamchiliklarni yumor, kinoya, istehzo orqali fosh etadi. Hajv orqali muallif muayyan muammoga o‘quvchi diqqatini qaratadi, uni kuldirgan holda o‘ylantiradi. Aynan shu jihati bilan hajviy asarlar estetik tarbiya vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Hajviy asarlar o‘zbek adabiyotida ham qadimdan muhim o‘rin tutib keladi. Alisher Navoiy, Xoja Nasriddin qahramoniga doir latifalar, G‘afur G‘ulomning “Meni kechiring”, Abdulla Qodiriyning “Kalvak Mahzum xotiralari”, Hamid Olimjonning “Cho‘pon” hajviy she’rlari kabi asarlar xalq orasida keng tarqalgan. Ushbu asarlar tili sodda, obrazlari hayotiy, mazmuni esa teran ijtimoiy ma’no bilan boyitilgan. Ayniqsa, hajviy asarlarda badiiy ifoda vositalari — kinoya, mubolag‘a, so‘z o‘yinlari, satira va parodiya kabi usullar ko‘p uchraydi. Bu vositalar esa tilni o‘rganish va nutqni boyitishda nihoyatda samarali hisoblanadi. Shuningdek, hajviy asarlar o‘quvchining estetik didini shakllantirish, uning ijtimoiy ongini uyg‘otish, jamiyatga tanqidiy nazar bilan qarashga o‘rgatish xususiyatiga ham ega. Shu boisdan ham hajviy asarlardan ta’lim jarayonida foydalanish, ayniqsa, talabalarning nutqiy faolligini oshirishda muhim vosita bo‘la oladi.

Yozuvchi o‘z qahramonlarini yaratar ekan, qahramonlari qiyofasi, xarakteri va ruhiy dunyosi bilan kitobxonni ularning o‘z nutqlari orqali tanishtiradi. Julqunboy asarlariga mos qahramonlarni mahalla choyxonasidan, guzarlarda to‘p-to‘p bo‘lib o‘tirgan bekorchilar, oshxo‘rlar, bedanavozlar, ashulaxonlar, askiya qilib yurgan turli toifa kishilaridan topadi va ularning tili, so‘zi, iboralarini o‘rganadi, ko‘plab shaxslarda ko‘rgan-kuzatgan tiplaridan o‘ziga keragini tanlab oladi, umumlashtiradi, ularni biron qahramonda mujassamlashtiradi. Adib tiplarning yasama, sun’iy bo‘lmasligi, xalq orasida birov bo‘lmasa, birovda ko‘rilgan, tabiiy, to‘g‘ri keladigan, kitobxonni ishontiradigan bo‘lishi shart,–degan talabni o‘z oldiga oldiga qo‘yib, hayotda uchraydigan kamchilik-yetishmovchiliklarni rasman ifodalab qo‘ya qolmay, unga kulgi ”to‘ni”ni ham kiygizadi, ham nazokat ishlatadi, badiiy tus berib, kuzatilgan g‘oya, muddao, siyosatni saqlaydi, ham o‘quvchini kuldiradi, ham hordiq chiqartiradi. Shu bilan “otilgan o‘q mo‘ljalga to‘g‘ri tegadi va foydasi, ta’siri anavinga qaraganda kuchli bo‘lishi”ga ishonadi.

Hajviy asarlar talabalarning monologik nutqini rivojlantirishda muhim vositadir. Ular kulgi orqali fikrlashga undaydi, til boyligini oshiradi va badiiy ifoda vositalaridan foydalanishga o‘rgatadi. Talaba hajviy asar o‘qiganda, voqealar ustida mulohaza yuritadi, o‘z munosabatini bildiradi. Bu esa nutqining mantiqiy va izchil bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, hajviy matn asosida personaj tilidan monolog tuzish orqali talaba obraz yaratish, fikrini ta’sirli ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Natijada, u erkin fikrlovchi va to‘g‘ri so‘zlay oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Talabalar monologik nutqini shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega. Hajviy asarlar asosida bajariladigan mashqlar nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki ijodiy fikrlashga ham yo‘l ochadi.

Masalan:

- Hajviy hikoya yoki lavhadagi personaj nomidan monolog yozish;
- Qahramonning o‘rniga kirib, sahnadek ifoda qilish mashqlari;
- Asardagi kulgili holatni tahlil qilib, o‘z fikrini og‘zaki tarzda bayon etish.

Bu kabi mashg‘ulotlar orqali talabalar badiiy matnni chuqur tushunadi, o‘z fikrini erkin va mantiqiy izchil bayon qilishga o‘rganadi. Ayniqsa, hajviy uslubdagi topshiriqlar darslarni qiziqarli, sermazmun va samarali qiladi.

Yozuvchining mahorati shundaki, u yaratgan obrazlar biri ikkinchisini takrorlamaydi. Qodiriy xarakterlardagi tuyg‘ular realizmini tasvirlashda tashqi voqealar, muhit va sharoit bilan fikrdagi, ruhiyatdagi o‘zgarishlarning aloqasini, bog‘liqligini hayotiy ochib bera oladi. Qahramon prototipini hayotdan oladi, unda yozuvchi xarakterining ayrim qirralari ham namoyon bo‘ladi. Qahramonning ko‘rgan-kechirganlari, boshidan o‘tkazgan ko‘rguliklari yozuvchining qalbidagi haqiqatdir. Asarlaridagi ryeal voqelik, ijtimoiy va milliy xususiyatlar xarakterlarning real qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hajviy asarlar talabalarning monologik nutqini rivojlantirishda samarali vositadir. Bunday asarlar orqali talabalar so‘z boyligini oshiradi, badiiy fikrlashni o‘zlashtiradi va o‘z munosabatini aniq ifoda etishga o‘rganadi. Hajv kulgu orqali o‘rgatadi, o‘ylantiradi va nutqiy faollikni kuchaytiradi. Ta’lim jarayonida hajviy asarlardan to‘g‘ri foydalanish talabalarni faollikka chorlaydi, ularni erkin fikrlovchi, izchil so‘zlaydigan shaxs sifatida shakllantiradi. Shuning uchun ham bu turdagi asarlarni darslarda keng qo‘llash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Tursunova F.G‘. Hajviy asarda monologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 2023. Farg‘ona. –B. 144.

2. Турсунова Ф. Г. Использование монолога при создании сатирических персонажей (на примере произведений Абдуллы Кодири) //Достижения науки и образования. – 2018. – №. 15 (37). – С. 52-54.
3. Qodiriy, A. (2010). Kalvak Mahzum xotiralari: Hajviy asar va monologik nutq. O'zbekiston davlat nashriyoti. Toshkent.
4. G'ulomov, A. (1997). Adabiyotdagi kulgu va satira: O'zbek hajviy asarlarining tahlili. "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent.

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ УРОВЕНЬ, КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ УРОВНЕЙ БАЗОВОГО ПОРТРЕТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ СПЕЦИАЛИСТА-ИНЖЕНЕРА

Парпиева Махсудахон Махмуджановна,
maqsudaparpiyeva@gmail.com
Ферганский государственный технический университет, Узбекистан

В современных условиях, когда технологии и инновации стремительно развиваются, подготовка инженеров становится ключевым фактором для обеспечения устойчивого роста и конкурентоспособности. Важность междисциплинарного подхода в образовательных программах подчеркивает необходимость интеграции знаний из различных областей: от математики и физики до экономики и управления. Инженеры-организаторы должны не только обладать глубокими техническими знаниями, но и развивать навыки критического мышления, креативности и эффективного общения. В связи с этим, современные образовательные учреждения должны внедрять адаптивные методики обучения, включая проектное обучение и стажировки на производстве. Это позволит будущим специалистам не только углубить свои знания, но и приобрести практический опыт работы в междисциплинарных командах. Кроме того, важным аспектом является постоянное совершенствование уже работающих инженеров, что требует внедрения систем переподготовки и повышения квалификации. [7, с. 322].

От преподавателя русского языка, справедливо считает Г. Левина, «требуется не только знание программы по русскому языку, но и понимание тех профессиональных ситуаций, в которых язык будет применяться, достаточно глубокое представление об особенностях инженерной деятельности» [6, с. 6].

Суть инженерной деятельности состоит в следующем:

1. Умение четко поставить задачу по созданию некоторого

устройства, выполняющего определенную функцию с каким-то определенным качеством.

2. Знание того, что нужно в данной конкретной проблемной ситуации, и абстрагирование от неважного для данной ситуации. Важная черта квалифицированного инженера – отличать важное от неважного, всегда «прикидывать» в голове.

3. Умение решить эту задачу, перебирая возможные пути ее решения, отделяя важное от неважного, умение отсечь всё ненужное при ее решении.

4. Умение сопоставлять с целью рекомендаций по дальнейшему решению этой задачи и использованию ее результатов. Хороший проект или работа обязательно содержат сопоставление возможных путей решения [4, с. 113].

Как видно, налицо характеристики, совпадающие со стилевыми параметрами, характерными для когнитивного стиля специалистов инженерного профиля. В частности, поле независимость позволяет человеку акцентировать внимание на аспектах необходимых для решения конкретной задачи, умея отбрасывать все лишнее [4, с. 113].

При анализе процесса производства конечного изделия с точки зрения этапов инженерного поиска, можно заметить постоянное преобразование его информационной составляющей. Информация о данном объекте проходит через ряд стадий: первоначальная идея трансформируется в формализованную и упорядоченную структуру, которая затем представляется в виде модели более высокого уровня. Эта модель подвергается исследованию, после чего возникает реализованная концепция. В конечном итоге, результатом становится технологическая реализация, которая приводит к созданию готового чертежа, а затем и к изделию, изготовленному по этим чертежам.

Цель студентов в период получения высшего инженерного образования заключается в овладении данным алгоритмом и умением переработать его применительно к любой технической задаче [5, с. 28–29].

Специфика инженерной деятельности заключается в применении научных знаний к решению конкретных технических задач. При этом изучение научных дисциплин является для инженера не самоцелью, а инструментарием инженерной деятельности [5].

Agar elektromagnit (EM) to‘lqin yo‘nalgan obyekt tomonidan o‘zlashtirilsa, bu hodisa yutilish deb ataladi. Masalan, uglerod bilan to‘ldirilgan maxsus ko‘pik kabi materiallar EM to‘lqinlarni yaxshi yutadi. Suv va ko‘plab boshqa materiallar ham RF to‘lqinlarni ma’lum darajada yutadi, shuningdek, ular sinishi, aks etishi yoki egilishi mumkin.

Ko‘p yo‘lli tarqalish (Multipath)

Ko‘p yo‘lli tarqalish — bu o‘quv antenna va tag (yorliq) o‘rtasida ikki yoki undan ortiq foydali radio yo‘l mavjud bo‘lgan holatdir. O‘quv qurilma antenna orqali tagga signal yuborganda, u faqat bitta to‘g‘ri yo‘nalishda RF to‘lqin yubormaydi. Antenna bir nechta yo‘nalishlarda to‘lqinlar yuboradi, shunda tagdan qaytgan signalni tutib olish imkoniyati ortadi. Aynan mana shu holatda aks etish, sinish, egilish va yutilish kabi hodisalar muhim rol o‘ynaydi.



To‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l (asosiy yo‘nalish)dan tashqari barcha RF to‘lqin yo‘llari markazdan biroz burchak ostida tarqaladi va ular atrofdagi materiallar yoki obyektlarga qarab aks etish, sinish, egilish yoki yutilish holatlariga duch kelish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu holat o‘quv maydonida bir nechta tag bo‘lib, siz faqat ma’lum bir guruh taglarni o‘qishni xohlasangiz, muammo keltirib chiqarishi mumkin. Bunday muammoni oldini olishning yagona yo‘li — RF to‘lqinlarni to‘suvchi (ekranga oluvchi) materiallardan foydalangan holda tunnel shaklidagi yopiq joy yasashdir. Masalan, agar siz omborxonada konveyer lenta orqali o‘tayotgan belgilangan tagli qutilarni o‘qiyotgan RFID tizimidan foydalansangiz, va faqat konveyer orqali o‘tayotgan taglarni o‘qishni xohlasangiz, antenna qurilmalarini yopiq tunnel ichida o‘rnatish ko‘p yo‘lli to‘lqinlar ta’sirini kamaytirish uchun chegaralangan muhit hosil qiladi.

Ko‘p yo‘lli tarqalishda yana bir muammo shundaki, agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelayotgan RF to‘lqin boshqa bir fazadagi (ya’ni bosqichdagi) to‘lqin bilan to‘qnashsa, o‘qish maydonida “nol nuqta” (ya’ni o‘qilmaydigan zona) hosil bo‘ladi. Bunday nol nuqtalar o‘qish hududingizda bir necha joyda paydo bo‘lishi mumkin. Nol nuqtada RFID tag antenna tomonidan o‘qilmaydi, chunki har xil fazadagi to‘lqinlar bir-birini bartaraf qiladi.

To‘lqinning **fazasi** — bu birinchi nol nuqtasi (ya’ni to‘lqin o‘qi bilan kesishgan nuqta) bilan boshlang‘ich nuqta o‘rtasidagi masofa sifatida aniqlanadi. Oddiyroq qilib aytganda, agar ikki to‘lqin bir xil chastotaga ega bo‘lib, bir-birini kesib o‘tmasa, ular **“fazada”** hisoblanadi. Agar ikkita to‘lqin har xil chastotaga ega bo‘lsa yoki bir-birini kesib o‘tsa, ular “fazadan tashqari” to‘lqinlar deb ataladi. Batafsil tushunish uchun quyidagi rasmga qarang.



Yuqoridagi to‘lqinlar “fazada” bo‘lgan to‘lqinlardir.



Yuqoridagi to‘lqinlar “fazadan tashqari” bo‘lgan to‘lqinlardir.

Fazada bo‘lgan to‘lqinlar bir xil fazada to‘qnashadi va bu **kuchaytiruvchi interferensiya** (ya’ni to‘lqinlarning bir-birini kuchaytirishi) ni hosil qiladi. Quyidagi rasmda ko‘rib turganingizdek, kuchaytiruvchi interferensiya to‘lqin uzunligini kuchaytiradi va natijada antenna odatdagidan uzoqroq masofadagi taglarni ham o‘qiy oladi. Masalan, agar antennangiz odatda taxminan **1.8 metr**gacha o‘qiy olsa, ikki RF to‘lqin bir xil fazada to‘qnashgan joyda bu masofa bir necha metrga uzayishi mumkin.



“Fazada” to‘lqinlarning kuchaytiruvchi interferensiyasi — o‘qish masofasining ortishi

"Fazadan tashqari" to‘lqinlarning so‘ndiriluvchi interferensiyasi — o‘qish zonasi ichida nol (o‘qilmaydigan) hudud hosil bo‘lishi

Nol zona (o‘qilmaydigan hudud) yoki uzaytirilgan o‘qish zonasi aynan qayerda joylashganini aniqlash oson jarayon emas. Bunday hududlarni aniqlash uchun tagni **x, y va z o‘qlari** bo‘yicha harakatlantirib sinab ko‘rish kerak bo‘ladi.

Yuqorida elektromagnit to‘lqinlar va ko‘p yo‘lli tarqalish haqida berilgan barcha ma'lumotlar RFID tizimingizdan maksimal darajada samarali foydalanishga yordam beradi. Agar siz tizimingiz joylashgan hududni to‘g‘ri rejalashtirsangiz, ko‘p yo‘lli tarqalishning salbiy ta'sirlaridan qutulishingiz mumkin.

Xulosa

RFID tizimlarining to‘g‘ri ishlashi nafaqat texnik qurilmalar sifati, balki ularning joylashtirilgan muhitdagi elektromagnit to‘lqinlarning harakatiga ham bevosita bog‘liqdir. To‘lqinlarning aks etishi, sinishi, egilishi va yutilishi RFID signalining tagga yetib borishiga yoki undan qaytishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ayniqsa, ko‘p yo‘lli tarqalish muhitida yuzaga keladigan interferensiya hodisalari — kuchaytiruvchi yoki so‘ndiriluvchi — o‘qish samaradorligini oshirishi yoki aksincha, nol zonalarni hosil qilishi mumkin. Shuning uchun, RFID tizimini o‘rnatishda atrof-muhitni to‘g‘ri baholash va kerakli muhofaza choralari ko‘rish — tizimdan maksimal darajada foyda olish garovidir. Ushbu maqolada keltirilgan tahlil va tavsiyalar RFID tizimlarini amaliyotda yanada muvaffaqiyatli qo‘llashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atlas RFID Store. (n.d.). *3 Guidelines for Choosing a Passive UHF RFID Antenna. Retrieved March 23, 2025,* https://www.atlasrfidstore.com
2. Finkenzeller, K. *RFID Handbook: Fundamentals and Applications in Contactless Smart Cards, Radio Frequency Identification and Near-Field Communication*. Wiley, 2010.
3. Dobkin, D. M. *The RF in RFID: Passive UHF RFID in Practice*. Newnes, 2012.
4. Bolic, M., *Simplot-Ryl, D., & Stojmenovic, I. RFID Systems: Research Trends and Challenges*. John Wiley & Sons, 2010.
5. Landt, J. "*The History of RFID*." IEEE Potentials, vol. 24, no. 4, 2005, pp. 8–11.
6. Want, R. "*An Introduction to RFID Technology*." IEEE Pervasive Computing, vol. 5, no. 1, 2006, pp. 25–33.

SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARIGA TA'SIRI

Xashimova Zuhraxon Kahramonovna
zuhrahasimova007@gmail.com
Farg`ona Politexnika Instituti, O`zbekiston

Barchamizga ma`lumki, axborot texnologiyalari so'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishning turli sohalarida katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Korxonalar va ishlab chiqaruvchilar mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash uchun axborot texnologiyalaridan keng ko`lamda foydalanishni joriy etishga intilmoqdalar. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg`or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" masalasi alohida maqsad qilib qo`yilgan. Sanoat ya`ni ishlab chiqarish sohalaridagi axborot texnologiyalarining yangi turlarini yaratilishi va rivojlanishi nafaqat jarayonlarni avtomatlashtirish hamda optimallashtirishga, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga ham sezilarli darajada yordam beradi. Ushbu tezisda, axborot texnologiyalarining sanoat ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishining va korxonadagi ishlab chiqarish xarajatlariga qanday ta'sir qilishini ko`ramiz. Bilamizki, axborot texnologiyalari sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarida turli shakllarda qo'llanilib kelinyapti. Quyida ularning bir nechta asosiy vositalarini ko`rib chiqamiz.

Avtomatlashtirish va robototexnika orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun axborot texnologiyalari ko'plab tizimlarni yaratishga imkon yaratiladi. Bu tizimlar ishlashni samarasini oshiradi va jarayonni tezlashtiradi, inson omilini kamaytiradi, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash vositasida esa yirik ma'lumotlar (big data) va sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqarish jarayonlari va resurslar samaradorligi keng tahlil qilinadi. Bu, o'z navbatida, xatoliklar va resurslarning isrofini kamaytirishga yordam beradi.

ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning) ishlab chiqarish korxonalariga resurslarni boshqarishda yordam beradi. Bu orqali ishlab chiqarish jarayonini va xom ashyolar sarfini samarali rejalashtirishni ta'minlaydi.

Internet of Things (IoT) qurilmalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlaridagi qurilmalar va uskunalarni bir-biri bilan bog'lab, real vaqt rejimida ishlab chiqarish holatini to`liq kuzatish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari sanoatdagi ishlab chiqarish xarajatlariga ko`plab ijobiy ta'sirlarni ko'rsatadi. Masalan, resurslar samaradorligini oshiradi ya`ni axborot texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ishchilarni va resurslarni optimal ishlatishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda ERP tizimlari va ishlab chiqarishni rejalashtirish dasturlari orqali kompaniyalar ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshiroq rejalashtirishi mumkin. Bu jarayonlar harajatlarni qisqartirishga, ishlab chiqarishning tezligini oshirishga va tarmoqlararo muvofiqlikni yanada yaxshilashga olib keladi.

Xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish jarayonida axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish orqali kompaniyalar xodimlarining ish faoliyatini yaxshilash uchun kerakli vositalar va tizimlarni taqdim etadi. Bu, o'z o'rnida, ishchi kuchining samaradorligini oshirib, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada tezlashishiga olib keladi.

Xatoliklarni kamaytiradi ya`ni axborot texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar va nosozliklarni aniqlash ancha osonlashadi. Buning natijasida esa ishlab chiqarishdagi resurslarning isrofiga yo'l qo'yilmaydi va xarajatlarni kamaytirishga erishiladi.

O'zgaruvchan bozor talabiga tez moslashishini biz axborot texnologiyalari yordamida kompaniyalar o'zlarining ishlab chiqarish jarayonlarini bozor talablariga mos ravishda tezda o'zgartirishida ko`rishimiz mumkin. Bu tezkor moslashuvchanlik xarajatlarni optimallashtirishga, ishlab chiqarishning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Sanoatda axborot texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga katta yordam beradi. Ularning qo'llanilishi resurslarning samarali ishlatilishini, jarayonlarning optimallashtirilishini, xatoliklarning kamaytirilishini va xodimlarning samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari bozor talablariga moslashish imkoniyatini yaratadi va kompaniyalarga raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Ko`rib chiqqanimizdek, sanoat ishlab chiqarishda axborot texnologiyalarni joriy etish orqali biz korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishimiz va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yanada yaxshilashga erishishimiz mumkin. Mamlakatimizda ham bu masalada ko`plab loyihalar ishlab chiqilib, samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Quyidagi rasm orqali biz mamlakatimizda 2020-2024 yillar mobaynida raqamli texnologiyalar yordamida sanoatda qo`shilgan qiymat hajmining o`zgarishini ko`rishimiz mumkin.

1-rasm. O`zbekistonda raqamli texnologiyalar yordamida sanoatning yalpi qo`shilgan qiymati hajmi (mlrd.so`m)

Yuqoridagi rasmdan ko`rinib turibdiki raqamli texnologiyalarni sanoat ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida sanoatning yalpi qo`shilgan qiymati hajmi 2020 yildan 2024 yilga qadar qariyib 2 baravarga oshgan. Bu esa o`z navbatida axborot texnologiyalaridan foydalanish sanoat ishlab chiqarish uchun nechog`lik muhim va ahamiyatli ekanini ifodalaydi.

Mamlakatimizda elektron tijoratni yo`lga qo`yish, uning rivojlanishini ta`minlash orqali ham bir qator rivojlanish ko`rsatkichlarini ko`rishimiz mumkin. Ulardan elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat hajmining o`zgarishi axborot texnologiyalarining hozirgi kunda naqadar muhim omil ekanligining yorqin dalilidir.

2-rasm. O`zbekistonda elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat hajmi (mlrd.so`m)

Keltirilgan ma`lumotlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda sanoatda axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun bir nechta imkoniyatlar mavjud.

Masalan, mamlakatimiz sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va robototexnikani joriy etish orqali xarajatlarni kamaytirish mumkin. Hozirda ko'plab sohalarda mehnat quvvati katta, ammo ishlab chiqarish jarayonlari hali ham ko'p darajada qo'lda bajarilmoqda. Avtomatlashtirish va robototexnika yordamida ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi oshadi va ishlab chiqarishning tezligi ortadi.

Bilamizki, sanoat korxonalari uchun resurslarni samarali boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda ERP tizimlari muhim rol o'ynaydi. ERP tizimlari yordamida barcha biznes jarayonlari yagona platformada birlashtiriladi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

O'zbekistonda sanoatni raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga katta yordam beradi. Buning uchun avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, IoT, ERP tizimlari va raqamli savdo platformalarini kengaytirish lozim. Bunday islohotlar O'zbekiston sanoatining raqobatbardoshligini oshirib, mamlakat iqtisodiyotini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro`yhati.

1. “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI www.lex.uz
2. O`zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma`lumotlari www.stat.uz
3. A. Bo'yiboyev (2015). *Axborot texnologiyalari va ularning iqtisodiyotga ta'siri*. Tashkent: O‘zbekiston iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
4. S.Juraev (2019). *Sanoat 4.0 va axborot texnologiyalari*. Tashkent: Texnika nashriyoti.
5. С. П. Ермаков (2016). *Информационные технологии в промышленности: теория и практика*. Москва: Наука.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ

Мирзакаримова Муяссархон Муминовна
e-mail: muyassarxon.mirzakarimova@ferpi.uz
Фарғона политехника институти, Ўзбекистон

Меҳнат бозори ва унда кечаётган трансформация жараёнлари жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим роль ўйнайди. XXI асрда кўплаб мамлакатларда, шу жумладан, Ўзбекистонда анъанавий бандлик

ноанъанавий шаклларга ўрин бўшатган ҳолда етакчилик қилишни тўхтатди. Ушбу ўзгаришлар мақсадга йўналтирилган тартибга солишни талаб қиладиган объектив жараённи ўзида мужассамлаштиради. Бунга фақат меҳнат ресурсларини бошқариш, махсус механизм ишлаб чиқиш ва фойдаланишнинг хорижий ва миллий тажрибасига мослашиш, статистик ва социологик маълумотларга таяниш, илмий асосланган стратегик моделлаштириш орқали идоралараро ўзаро таъсирнинг ташкилий чизмаларини модернизациялашни ўз ичига оладиган комплекс ёндашув асосидагина эришиш мумкин.

"Камбағалликдан фаровонлик сари" дастури ижросини ташкил қилишнинг яхлит тизимини жорий этишни назарда тутган ҳолда меҳнат бозорини, банд ва ишсиз аҳолини таркибий таҳлил қилиш, ишсизларни манзилли аниқлаш ва уларнинг ҳисобини юритиш — меҳнат бозорини таҳлил қилиш ва ишсизларнинг ҳисобини манзилли (номма-ном) юритиш, иқтисодиётнинг ривожланиб келаётган тармоқ ва соҳаларида меҳнат ресурсларига бўлган талабни прогноз қилиш, меҳнат бозоридаги таркибий муаммоларни аниқлаш ва номутаносибликларнинг олдини олиш, Халқаро меҳнат ташкилоти билан фаол ҳамкорликда ишлаш Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги фаолиятининг асосий йўналишлари этиб белгиланди.

Хизмат кўрсатиш соҳаларининг кенгайиши, интеллектуал меҳнат улушининг ўсиши тўлиқсиз, вақтинчалик, тасодифий, иккиламчи, норасмий бандлик, вақт бўйича етарли бўлмаган бандлик, фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятдаги шартномалар асосидаги бандлик, ходимлар лизингини амалга оширадиган, аутстаффинг, аутсорсинг ҳамда фрилансерлик билан шуғулланувчи компангиялардаги бандлик каби янги ноанъанавий бандлик шаклларини ривожлантиришнинг муҳимлигини белгилади. Иқтисодиётнинг рақамлаштирилиши бандлик соҳасидаги ўзгаришларга ҳам олиб келади. Чунки рақамли иқтисодиёт юқори технологияли иш ўринларини яратишни кўзда тутади, иқтисодиётни янада барқарор ривожлантириш учун муайян лаёқатларга эга юқори технологияли ишчилар талаб қилинади. Шу билан боғлиқ равишда, иш берувчилар бундай мутахассисларни уларнинг жойлашган жойидан қатъий назар, излайдилар. Шу орқали қонунчилик меҳнат бозоридаги ижтимоий кескинлик вужудга келишини бартараф қилиш учун ўз вақтида, янгитдан юзага келаётган муносабатлар асосида тузилиши зарур.

1- Жадвал

Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида меҳнат бозори ислоҳотларининг прогнози

Автоматлаштириш риски юқори бўлган тармоқлар	Автоматлаштириш риски юқори бўлмаган тармоқлар	Янги тармоқлар
-идора ишлари; -савдо; - транспорт; - логистика; - саноат ишлаб чиқариши; - қурилиш; - молиявий хизматларнинг айрим шакллари; - айрим хизмат турлари; - солиқ маслаҳатлари ва ҳ.к.	- таълим, санъат, ОАВ; - ҳуқуқий хизматлар; - менежмент; - бизнес; - тиббий хизматлар; - компьютер иши, муҳандислик, илм-фан; - ижтимоий иш; - айрим хизмат турлари; сартарошлик, косметика, фаррошлик ва ҳ.к..	- маълумотлар таҳлили; - ижтимоий тармоқлар; - сунъий интеллект; - "ақлли" машиналар ишлаб чиқариш; - Электрон савдо.

Сан-Диегодаги Калифорния университетининг компьютер технологиялари соҳаси олими Лилли Айранининг фикрича, жаҳонда краудворкерлар сони бўйича аниқ рақамлар мавжуд эмас. Баҳолашларга қараганда, уларнинг юз минглаб сони АҚШ ва Ҳиндистонда жамланган. Ушбу мамлакатларда краудворкерлар, деганда уйдан туриб кичик ҳажмдаги топшириқларни компьътерда аутсорсинг асосида бажарадиган кишилар кўзда тутилади. Буюртмачиларнинг улар олдига қўяётган вазифалари оддий. Масалан, логотип яратиш ёки маълумотлар тўплаш. Бизнеснинг арзон ишчи кучига бўлган эҳтиёжи, бир томондан, оддий фойдаланувчиларнинг интернетда ишлаш хоҳиши, бошқа томондан, интернет-платформаларни вужудга келтириб, ўзлари эса битимлардан комиссиялар ҳисобига амал қилмоқда. Америка краудворкерлари соатига 1,38-5 $ дан иш ҳақи олмоқдалар.

Жаҳонда энг машҳур Mechanical Turk (Amazon га тегишли) платформаси 2005 йилда тузилган. У бутун дунё бўйича 500000 краудворкерларни бирлаштиради. Хитой платформаларидан бири тахминан 7 млн. краудворкер-таржимонларни уйғунлаштиради. Иш берувчилар ва ишловчиларнинг интернет платформалари кўпаяди ва ривожланади, бу ерда краудворкинг, эълонлар онлайн доскаси ёки масофадан доимий ишлаш ҳақида

гап бормоқда. Бинобарин, ушбу платформаларнинг вужудга келиши ҳодисаси – жаҳонда ва жаҳон меҳнат бозорида кечаётган ижтимоий ва иқтисодий ўзгаришларнинг бир қисми, деб таъкидлайди Айрани.

Масофадан ёки уйдан туриб ишлаш (бундан ташқари, масофавий иш, телеиш) — иш берувчи ва ёлланма ишчи бир-биридан олис масофада турадиган, техник топшириқ, меҳнат натижалари ва иш ҳақини олган ҳолда, замонавий алоқа воситалари ёрдамида бажариладиган бандлик шакли. Масофадан туриб ишлаш концепцияси 1972 йилда америкалик Жек Ниллес томонидан ишлаб чиқилган. Шу йили у ишчиларни идорада ушлаб туриш шартмаслиги ғоясини баён қилди. Чунки замонавий алоқа воситалари ходимлар ўртасида масофавий алоқани сақлаш имконини беради. Масофали асосда энг талаб қилинган касблар қуйидагилар ҳисобланади: дастурчилар, копирайтерлар, журналистлар, таржимонлар, дизайнерлар, илюстраторлар, SMM – мутахассислар, макет дизайнерлари, операторлар, реклама ва маркетинг бўйича мутахассислар, тармоқ администраторлари, бухгалтерлар, муҳандислар, архитекторлар, ҳуқуқшунослар, таҳлилчилар, ишбилармон ва техник тадқиқотчилар.

Демак, масофавий ишчи:

• иш берувчининг яшаш жойидан ташқарида иш бажарувчи ташкилот ходими ҳисобланади, масофавий иш юзасидан иш берувчи билан тузилган шартномага эга.

• унга меҳнат қонунчилиги меъёрлари қўлланилади (таътил, касаллик ҳақидаги ва ҳ.к.). Ҳозирнинг ўзидаёқ қатор компаниялар ходимларни идоралардан шундай меҳнат тартибига ўтказмоқдалар.

2-жадвал

Рақамли технологияларнинг бандликка таъсирини баҳолаш

Ташкилот	Прогноз баҳолаш
ИҲТТ	Ўртача ИҲТТ бўйича: яқин 5 йил ичида автоматлаштириш юқори хатарига эга иш ўринлари 9%. Тўлиқ автоматлаштириш паст риски, аммо катта улуши (50-70%)
Жаҳон банки	Ривожланаётган мамлакатларда иш ўринларининг учдан икки қисми автоматлаштиришга жалб қилинмоқда.
Халқаро Меҳнат Ташкилоти	АСЕАН -5: яқин 20 йил ичида автоматлаштириш рискига тортилган иш ўринлари 56%.
Оксфорд университети	Юқори рискли АҚШ ишчиларининг 47% и иш ўринларини автоматлаштириш билан алмайтирилди.
Pricewaterhouse Coopers	АҚШ да автоматлаштириш рискига тортилган иш ўринларининг 38% и, Буюк Британияда 30% и, Японияда

	21%и ва Германияда 35%и автоматлаштириш рискига тортилган.
McKinsey	Барча касбларнинг 60%и камида 30% техник автоматлаштирилган фаолият турларига эга.
Роланд Берглер	Ғарбий Европа: 2035 йилга келиб, саноатда 8,3 млн. иш ўринлари йўқотилган, аммо 10 млн.янги иш ўринлари хизмат кўрсатиш соҳасида яратилади.
Клаус Шваб	2020 йилга келиб, жаҳоннинг йирик ривожланган ва ривожланаётган 15 та мамлакатида тахминан 5 млн. иш ўринлари тугатилади.

Шундай қилиб, ўрганилган ноанъанавий бандлик шаклларининг таркиби ушбу шакллар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни аниқлаш, улар бирикувининг мумкин бўлган кўринишларини аниқлаш имконини беради. Амалда бу инсоннинг ишга жойлаштириш билан боғлиқ эҳтиёжларини янада аниқроқ белгилаш, унинг учун кўпроқ қулай бандлик комбинацияларини танлаш имкониятини беради.

Инновацион иқтисодиёт шароитида меҳнат бозори барқарорлиги ва аҳоли фаровонлигига ноанъанавий бандликнинг узоқ муддатли таъсири қуйидаги асосий жиҳатларда намоён бўлади:

1. Ноанъанавий бандлик турлари (фриланс, масофавий иш, вақтинча лойиҳалар) меҳнат бозорида талаб ва таклиф мувозанатини янгича шакллантиради. Инновацион иқтисодиётда меҳнат ресурслари рақамли технологияларга мослашиб, уларнинг мобиллиги ошади. Янги технологияларнинг пайдо бўлиши анъанавий иш ўринларини қисқартириб, рақамли малака ва инновацион касбларга бўлган талабни оширади.

2. Ноанъанавий бандлик аҳолига кўпроқ имкониятлар яратади, чунки ишлаш жойи ва вақтига чегара қўйилмайди. Бу ҳолат фойдаланувчиларга кўпроқ даромад олиш имконини беради. Ноанъанавий бандликда ишловчилар кўп ҳолатларда ижтимоий кафолатлардан (пенсия, суғурта) четда қолиши мумкин, бу уларнинг узоқ муддатли фаровонлигига салбий таъсир кўрсатади.

3. Инновацион технологиялар янгича бандлик турларини ривожлантириш орқали ишсизлик даражасини пасайтиришга ёрдам беради. Рақамли платформалар асосида янги хизмат ва маҳсулотлар бозори пайдо бўлади, бу эса иқтисодий ўсишга туртки беради.

4. Рақамли ва инновацион кўникмаларга эътибор қаратилган ҳолда инсон капитали янада кучаяди. Ноанъанавий бандлик анъанавий иш жойларини камайтириб, иқтисодиётнинг узоқ муддатли барқарорлигига ҳисса қўшади.

Ноанъанавий бандликнинг узоқ муддатли таъсири меҳнат бозорининг рақамли трансформацияси ва аҳоли фаровонлигини ошириш имкониятини беради. Бироқ бу жараён ижтимоий кафолатлар, меҳнат ҳуқуқлари ва профессионал ривожланишдаги муаммоларни ҳал қилиш учун давлат сиёсати ва муассасалар томонидан қўллаб-қувватланиши зарур.

Ноанъанавий бандликни қўллаб-қувватлаш учун давлат ва ташкилотлар томонидан қуйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- Ноанъанавий меҳнат шаклларида бандларнинг меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ноанъанавий ишловчилар учун меҳнат қонунларини ўзгартириш, уларга ижтимоий кафолатлар ва минимал меҳнат ҳуқуқларини таъминлаш;

- фрилансерлар, вақтинча ишловчилар ва масофавий ишчилар учун ихтиёрий ёки мажбурий ижтимоий суғурта тизимларини жорий этиш;

- кичик миқдордаги даромадга эга бўлган ноанъанавий ишловчилар учун имтиёзли солиқ режимларини яратиш.

- рақамли инфратузилмани ривожлантириш, жумладан, барча ҳудудларда барқарор ва тезкор интернет билан таъминлаш, ишчи ва иш берувчиларни боғлайдиган онлайн платформаларни яратиш ва қўллаб-қувватлаш.

- масофавий ишлаш ва замонавий технологиялардан фойдаланиш бўйича ўқув курслари ташкил этиш, янги касбларга ўқитиш учун барчага имконият яратиш, ёшлар орасида инновацион ғояларни қўллаб-қувватлаш ва тадбиркорлик маданиятини ошириш.

- ноанъанавий ишловчиларнинг пенсия тизимига ихтиёрий ёки мослашувчан киришини таъминлаш, ноанъанавий ишловчиларни қамраб олувчи ихтиёрий тиббий суғурта дастурларини ташкил этиш.

- иш билан таъминлаш имкониятларини кенгайтириш, жумладан, фрилансерлар ва масофавий ишловчилар учун кичик бизнес грантлари ва молиявий ёрдам дастурларини жорий этиш, технология ва стартаплар соҳасидаги ҳамкорликни кучайтириш учун инновацион марказлар ва кластерлар яратиш.

- жамоатчиликка ноанъанавий иш шаклларининг афзалликлари ва имкониятлари ҳақида тушунтириш ишларини олиб бориш, корхоналарни ноанъанавий иш шаклларини жорий этишга рағбатлантириш.

Бу тадбирлар ноанъанавий бандликни қўллаб-қувватлаш орқали меҳнат бозорини барқарорлаштиришга, аҳолининг даромад даражасини оширишга ва фаровонликни таъминлашга хизмат қилади. Давлат сиёсатида инновация ва рақамли иқтисодиётга интеграция асосий устувор йўналишлардан бири бўлиши зарур.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 4 октябрдаги ПҚ-347-сонли "Камбағалликни қисқартириш ва бандлик соҳасида давлат сиёсатини такомиллаштириш ва самарадорликни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Қарори.
2. Иқтисодиётни инновацион ривожлантириш шароитида ахолининг иш билан бандлик даражасини ошириш йўллари Рустамов Эркин Эркамович-2019 http://diss.natlib.uz/ru RU/ResearchWork/OnlineView/48636; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2021 йил 28 декабрдаги 1718-IV-сонли "Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазири Н.Ҳусановнинг "Ёшлар бандлигини таъминлаш, янги иш ўринларини яратиш, шунингдек, ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўқитиш бўйича амалга оширилаётган ишлар тўғрисида"ги ахбороти ҳақида"ги Қарори.//https//lex.uz/docs/5818657
3. Дорохова, Наталья Васильевна Трансформация форм занятости населения в современной экономике Российской Федерации : теория, методология, практика : диссертация ... доктора экономических наук : 08.00.05 Москва 2020.
4. Нестандартные формы занятости. Анализ проблем и перспективы решения в разных странах. Обзорная версия. Международное Бюро Труда – Женева: МБТ, 2017.; Е.Б.Аймагамбетов, А.М.Тажбаева. Нестандартные формы занятости населения: мировой опыт, проблемы и перспективы.//Вестник университета «Туран». 2022.(1). С.227-237

VIDEO MA'LUMOTLARDAGI OBYEKTLARNI AVTOMATIK TANIB OLISH ALGORITMLARI

Abdukadirov Baxtiyor Abduvaxitovich,
Dasturiy injiniring va kiberxavfsizlik kafedrasi dotsenti,
E-mail: bakxtiyor.uz@bk.ru
Muxtorov Asadbek Abdurasul o'g'li,
Dasturiy injiniring va kiberxavfsizlik kafedrasi magistranti,
Email: asadbekmuxtorov2@gmail.com
Farg'ona davlat texnika universiteti

Video tasvirlarida obyektlarni avtomatik aniqlash turli sohalarda, jumladan, kuzatuv tizimlari, avtonom transport vositalari, tibbiy diagnostika va sanoat avtomatlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Rejalashtirilgan real vaqt rejimida va yuqori aniqlikdagi aniqlash talablari ushbu yo'nalishda chuqur o'qitishga asoslangan algoritmlarning tez rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ilgari ishlatilgan usullar

asosan qo‘lda belgilangan xususiyatlarga asoslangan bo‘lsa, bugungi kunda konvolyutsion neyron tarmoqlari ushbu jarayonda inqilob qildi. Ushbu maqolada video oqimidan obyektlarni aniqlashning turli xil modellari ko‘rib chiqilib, ularning afzalliklari, kamchiliklari va amaliy qo‘llanilishiga urg‘u berilgan.

Maqolada uchta asosiy obyekt aniqlash algoritmlarini tahlil qilinadi: YOLO (You Only Look Once), Faster R-CNN (Region-based Convolutional Neural Network) va SSD (Single Shot MultiBox Detector). Bu modellarning arxitekturasi, hisoblash samaradorligi va aniqlik darajasi bo‘yicha solishtirish amalga oshiriladi.

YOLO modeli ilk bor 2015-yilda Jozef Redmon va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu model chuqur o‘qitish texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan dastlabki bir bosqichli obyektni aniqlovchi detektorlardan biri hisoblanadi. YOLO yuqori tezlikda ishlaydi: uning yengil versiyasi VOC07 bo‘lib u ma’lumotlar bazasida 52,7% aniqlik bilan 155 kadr/s tezlikda ishlaydi, takomillashtirilgan varianti esa 63,4% aniqlik bilan 45 kadr/s tezlikka erishgan. YOLO an’anaviy ikki bosqichli detektorlar tamoyilidan farqli ravishda, obyektlarni aniqlash uchun to‘liq tasvirni bitta neyron tarmoq orqali tahlil qiladi. Bu model tasvirni bir nechta hududlarga ajratib, har bir segment uchun chegara qutilari va ehtimolliklarni birdaniga bashorat qiladi.

YOLO tezlik jihatidan sezilarli ustunlikka ega bo‘lsada, ba’zi kichik obyektlarni aniqlashda ikki bosqichli detektorlar bilan solishtirganda lokallashtirishdagi aniqligi biroz pastroq bo‘lishi mumkin. Keyinchalik ishlab chiqilgan YOLO versiyalari va SSD modeli ushbu muammolarni bartaraf etishga ko‘proq e’tibor qaratgan. Eng so‘nggi taklif etilgan YOLOv7 modeli esa, dinamik belgilarni belgilash va model arxitekturasini qayta parametrlash kabi optimallashtirish usullarini joriy etish orqali tezlik va aniqlik jihatidan 5 dan 160 kadr/s gacha ishlash imkoniyatini ta’minlab, ko‘plab obyekt detektorlaridan yuqori natijalarni qayd etmoqda [1].



1-rasm. Bir bosqichli obyekt detektorlarining umumiy arxitekturasining sxematik ko‘rinishi.

Faster R-CNN. Hozirgi zamonaviy ilg‘or modellarining aksariyati Faster R-CNN neyron tarmoq modeli asosida shakllangan. Faster R-CNN, bu tasvirdagi obyektlarni aniqlab, ularning atrofida chegaralovchi chiziqlar (bounding boxes) chizadigan va ularni tasniflaydigan obyekt aniqlash modelidir. U ikki bosqichli detektor hisoblanadi:

1-bosqich: Tasvir ichida obyekt bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududlarni taklif qiladi. Buni Region Proposal Network (RPN) bajaradi.

2-bosqich: Taklif qilingan hududlar asosida obyektning sinfini aniqlaydi va chegaralovchi chiziqni yanada aniqroq joylashtiradi.

SSD (Single Shot MultiBox Detector), bu obyektlarni aniqlash uchun ishlatiladigan tezkor va samarali neyron tarmoq arxitekturasi bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida bir nechta obyektlarni aniqlash va ularni tasniflash imkoniyatiga ega. SSD ning asosiy afzalligi shundaki, u faqat bitta neyron tarmoq orqali obyektlarni aniqlaydi, bu esa uning tezligini oshiradi.

SSD bir nechta obyektlarni bir marta neyron tarmoqdan o‘tkazib, aniqlaydi va bu usul boshqa usullarga, masalan, R-CNN ga qaraganda tezroq ishlaydi. U turli o‘lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun turli qatlamlardan foydalanadi, bu esa kichik va katta obyektlarni aniqlashda yaxshi natijalar beradi. SSD har bir piksel uchun bir nechta “anchor box” (standart qutilar) yaratadi va bu qutilar obyektlarning shakli hamda o‘lchamini taxmin qilishda yordam beradi. SSD asosan VGG16 kabi CNN arxitekturasi asosida qurilgan bo‘lib, uning ishlash jarayoni quyidagicha: avval asosiy neyron tarmoq (Backbone Network) yordamida kiruvchi tasvirning belgilari ajratiladi, so‘ng qo‘shimcha konvolyutsiya qatlamlari orqali turli o‘lchamdagi obyektlarni aniqlash uchun belgilar olinadi.

Multi-scale feature maps (turli qatlamlardan olingan belgilar xaritalari) yordamida kichik va katta obyektlarni aniqlash samarali amalga oshiriladi. Pastki qatlamlar katta obyektlarni, yuqori qatlamlar esa kichik obyektlarni aniqlashda yordam beradi. Har bir belgi xaritasida SSD anchor boxlar yordamida obyektlarni lokalizatsiya qiladi va ularni tasniflaydi. Har bir anchor box uchun obyektning klassini aniqlaydi va bounding box regressiyasini bajaradi. SSD ning ishlash jarayoni quyidagicha: tasvir neyron tarmoqga kiritiladi, so‘ng belgilar CNN orqali turli qatlamlarda ajratiladi, so‘ngra anchor boxlar yordamida obyektlarni aniqlash va tasniflash amalga oshiriladi. Nihoyat, aniqlangan obyektlarning bounding boxlari va sinflari chiqariladi. SSD ning asosiy afzalliklari orasida uning tezkorligi, turli o‘lchamdagi obyektlarni aniqlashda aniqligi va oddiyligi keltirish mumkin.



2-rasm. SSD modeli arxitekturasi

Natijalar. Quyida (3-rasm) asosiy obyektni aniqlash usullarining (R-CNN, Fast R-CNN, Faster R-CNN, YOLO va SSD300) tezlik va aniqlik bo‘yicha tarqalish diagrammasi keltirilgan. Taqqoslash adolatli bo‘lishi uchun barcha modellar bir xil sharoitda sinovdan o‘tkazilgan (asosiy tarmoq sifatida VGG16 ishlatilgan, batch hajmi 1 va Pascal VOC2007 test to‘plamida sinovdan o‘tkazilgan). Shuni ta’kidlash joizki, YOLO va SSD300 yagona bosqichli (single-shot) detektorlar bo‘lsa, qolganlari region taklifi asosida ishlovchi ikki bosqichli (two-stage) modellar hisoblanadi.



3-rasm. SSD va Faster R-CNN va YOLO ishlashini taqqoslash.

Maqolada uchta asosiy obyektni aniqlashning neyron tarmoq modeli – YOLO, Faster R-CNN va SSD – tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchilik tomonlari o‘rganildi. YOLO modeli bir bosqichli yondashuvga asoslangan bo‘lib, tezkor va samarali hisoblanadi. Faster R-CNN esa ikki bosqichli detektor bo‘lib, aniqroq natijalar taqdim etadi. SSD modeli esa ushbu ikkala yondashuvning afzalliklarini o‘zida mujassamlashtirib, balansli yechimni ta’minlaydi.

Barcha modellar konvolyutsiya va RoI Pooling kabi muhim texnologiyalarga asoslanib, obyektlarni aniqlashda yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, real vaqt rejimidagi dasturlar uchun YOLO ustunlik qilsa, aniq obyektni lokalizatsiyasi talab etiladigan vaziyatlarda Faster R-CNN yanada samarali hisoblanadi. Shunday qilib, obyektlarni aniqlash algoritmlarini tanlashda, qo'llaniladigan soha va talab qilinadigan xususiyatlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Peiyuan Jiang, Daji Ergu, Fangyao Liu, Ying Cai, Bo Ma: A Review of Yolo Algorithm Developments. Procedia Computer Science Volume 199, 2022, Pp:1066-1073.
2. Rishabh Singh: Understanding and Implementing Faster R-CNN. Medium, October 15, 2024.
3. Wei Liu, Dragomir Anguelov, Dumitru Erhan, Christian Szegedy, Scott Reed, Cheng-Yang Fu, Alexander C. Berg, "SSD: Single Shot MultiBox Detector". Google Inc., University of Michigan.
4. Nosirov K., Norinov M., Abdukadirov B. Image filtering algorithm based on the analysis of the main components // International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – 2019. Pp. 1-3.
5. Norinov M., Abdukadirov B., Gofurov M. Application of Fourier Methods and Discrete-Cosinus Transformation in the Process of Processing of TV Images // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Vol. 8, Issue 9S3. – Pp. 1565-1568.

BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUHIM OMIL SIFATIDA

Muminova Elnorakhon Abduakrimovna
Farg'ona davlat texnika universiteti Iqtisodiyot kafedrasi professori
e.muminova@ferpi.uz
Talabov Xumoyun Qahramon o'g'li
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti magistranti
humoyuntalabov01@gmail.com

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va energiya ishlab chiqarishda muqobil manbalarni keng qo'llash hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishdagi ishlar jadal olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori doirasida 2030-yilgacha «yashil» iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategik harakatlar rejasi

ishlab chiqilgan. Ushbu rejada tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishlariga chidamliligini oshirish, sanoatning «yashil» va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash, innovatsiyalarni rivojlantirish, «yashil» investitsiyalarni jalb qilish, barqaror urbanizatsiyani rivojlantirish kabi masalalar ko‘zda tutilgan.

Energetika sektoridagi korxonalarning samaradorligini oshirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish va amaliy mexanizmlar joriy etish muhimdir. Shuningdek, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta'minlash va energiya resurslaridan samarali foydalanishni kuchaytirish uchun keng qamrovli strategiyalar amalga oshirilmoqda. Prezidentning 2019-yilgi qarori asosida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni tezlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

2020-2030-yillar uchun O‘zbekistonni elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi doirasida erishilishi kerak bo‘lgan maqsadlar aniq belgilangan. Ularning orasida elektr energiyasini ishlab chiqarishni 120,8 milliard kVt.s.ga oshirish, tabiiy gaz iste'molini 12,1 milliard kub metrgacha kamaytirish va energiya uzatishdagi yo‘qotishlarni sezilarli darajada qisqartirish kabi vazifalar bor. Bu rejalar amalga oshirilsa, mamlakatimizning energetik xavfsizligi yanada mustahkamlanadi.

Hozirda O‘zbekistonning asosiy energiya ishlab chiqarish quvvatlari elektroelektr stansiyalariga tayanadi, shuning uchun 2030 yilga kelib, yangi va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu o‘z navbatida energetika sektorining yanada rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda energiya ishlab chiqarish quvvatlari yil sayin ortib borganligini va 2016-yilda energiya ishlab chiqarish hajmi 59,0 milliard kVt·soatni tashkil etganligini, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 74,3 milliard kVt·soatga yetganini ko‘rishimiz mumkin.

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yashil energiya manbalaridan foydalanish, tarmoqlardagi raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim omilga aylangan. Yashil energiya manbalarining keng qo'llanilishi, energiya resurslari bilan ta'minlash xizmatlariga bo'lgan xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, barqaror energiya manbalarining mavjudligini ta'minlash, moliyaviy resurslarning tejanishi va iqlim o'zgarishlari salbiy ta'sirlarini yumshatishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, energiyaga bo'lgan umumiy talabni to'liq qondirish, uzoq va chekka hududlarda uzluksiz energiya ta'minotini amalga oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlarini yaratganligi sababli, so'nggi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi umumiy energiya balansida ortib bormoqda.

O'zbekistonning QTEM salohiyati (Million tonna neft ekvivalenti = Mtne)

Qayta tiklanadigan energiya manbai	Yalpi potentsial	Texnik salohiyat
Gidroenergetika	9,2 Mtne	2 Mtne
Shamol energetika	2,2 Mtne	0,4 Mtne
Quyosh fotoelektroni	50973 Mtne	177 Mtne
Geotermal energiya	67000 Mtne	0,3 Mtne
Jami muqobil energiya manbalar	117984 Mtne	179,3 Mtne

Xalqaro energiya agentligi (IEA) ning 2023 yildagi hisobotiga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiyaning global quvvati 510 gigavatt (GVt) ga yetgan. Bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan qariyb 50 foizga oshganini ko'rishimiz mumkin. Hisobotda, kelgusi yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishi haqida prognozlar keltirilgan:

1. 2024 yilda shamol va quyosh energiyasi birgalikda gidroenergetikadan ko'proq elektr energiyasi ishlab chiqarishni boshlaydi.
2. 2025 yilda barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining quvvati ko'mir ishlab chiqarishidan oshadi va ular eng yirik elektr energiyasi manbaiga aylanadi.
3. Shamol elektr stansiyalari 2025 yilda atom elektr stansiyalarini, 2026 yilda esa quyosh elektr stansiyalarini ortda qoldiradi.
4. 2028 yilda qayta tiklanadigan energiya global elektr energiyasi ishlab chiqarishning 42 foizdan ortig'ini, shamol va quyosh ulushi esa 25 foizini tashkil qiladi.

Bu prognozlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining kelajakdagi ahamiyatini va global energiya tarmog'idagi ulushining ortishini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda energetika tizimining barqarorligini ta'minlash uchun yangi quvvatlarga mos tarmoqlarni qurish, elektr saqlash qurilmalarini o'rnatish va zarur materiallarni ishlab chiqarishni rivojlantirish rejalashtirilgan. 2024 yilga kelib, O'zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarishda "yashil energiya" ulushi 15 foizga yetishi kutilmoqda.

Iqtisodiyotning tez sur'atlarda o'sishini ta'minlash va tarmoqlar talabidan kelib chiqqan holda, kelgusi uch yil ichida 8 gigavattli 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, 944 kilometr uzunlikdagi yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik podstansiya qurish, shuningdek, jami 2,2 gigavatt quvvatga ega 18 ta elektr saqlash qurilmasini o'rnatish maqsad qilingan. Bu choralar mamlakatimizda energiya ta'minotini barqarorlashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni yanada kengaytirish imkonini beradi.

Energiya resurslariga talab tobora ortib borayotgan bir vaqtda, energiya resurslaridan samarali foydalanish, yashil energiya manbalarini izlash va ularni iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga joriy etish, energetika tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ekologik toza bo'lgani uchun yashil energiya manbalarining roli ayniqsa muhimdir. Yashil iqtisodiyotni ta'minlash maqsadida, qazib olinadigan yoqilg'ilardan (CO_2) foydalanishni kamaytirish, energiya resurslarini tejash va ularning iste'molini samarali tashkil etish borasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari katta ahamiyatga ega.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEMlar) birinchi navbatda, havo ifloslanishini kamaytirgan holda energiya xizmatlarini taqdim etadi. Ikkinchidan, ularni tog'li va chekka hududlarda qo'llash, energetika sohasining barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Yashil energiya quvvatlarini barpo etish va ulardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu jarayon quyidagi omillarga tayanadi:

1. **Tabiiy resurslardan foydalanish**: Yashil energiya manbalari, jumladan, quyosh, shamol, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalaniladi. Bu resurslar ekologik toza va barqaror energiya ta'minoti uchun zarurdir.
2. **Innovatsion texnologiyalar**: Yashil energiya generatsiyasi, batareyalar va energiya iste'molini oshirish usullari energiya iste'molini samarali boshqarishga yordam beradi va iqtisodiy bo'shliqlarning o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.
3. **Narxlarning pastligi**: Yashil energiya manbalaridan, masalan, quyosh va shamol kabi tabiiy manbalardan foydalanish, energiya narxlarini pasaytirishga yordam beradi. Bu esa energiya iste'molchilariga arzon va maqbul narxlarni taqdim etadi.

4. **Yashil energetika islohotlari va dasturlari**: Yashil energiya olishi uchun dastlabki investitsiyalarni qayta ishlab chiqish, energiya olish jarayonlarini iqtisodiy jihatdan samarali qilish, energiya iste'molini oshirish va iqtisodiy islohotlarni ko'paytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Yashil energetika sohasidagi islohotlar va innovatsion texnologiyalar mamlakatimizda energiya ta'minoti tizimini barqarorlashtirishga, ekologik va iqtisodiy foyda keltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шадиметов, Ю. Ш., & Айрапетов, Д. А. (2023). Зеленая» энергетика: опыт зарубежных стран, проблемы и перспективы. *Yashil» energetikani amaliyotga tatbiq etish: yutuqlar va muammolar» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to 'plami*, 247-253.

2. Zeng, S., Tanveer, A., Fu, X., Gu, Y., & Irfan, M. (2022). Modeling the influence of critical factors on the adoption of green energy technologies. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 168, 112817.)

3. Chau, K. Y., Moslehpour, M., Tu, Y. T., Tai, N. T., Tien, N. H., & Huy, P. Q. (2022). Exploring the impact of green energy and consumption on the sustainability of natural resources: Empirical evidence from G7 countries. *Renewable energy*, *196*, 1241-1249.

4. Қаршибаев, А., Зохидов, О., & Хамзаев, А. (2022). Муқобил энергия манбалари асосида электр энергия истеъмоли самарадорлигини оширишнинг экспериментал тадқиқотлари. *Innovatsion texnologiyalar*, *1*(04), 72-76.

ERKIN IQTISODIY ZONALAR BOSHQARUVINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASIDAGI ASOSIY MASALALARI

Ataismatov Iqboljon Zumratjonovich Farg'ona davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi Тел:+ 998 (33) 000-44-77 e-mail:iataisamtov@bk.ru
https://orcid.org/0009-0002-1233-4561

Annotatsiya

Ushbu tezisda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan Erkin iqtisodiy zonalar boshqaruvining tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini raqamlashtirish joriy holati tahlili va boshqaruv qarorlari qabul qilishda raqamli texnologiyalarni imkoniyatlari tahlillari amalga oshirilgan va erkin iqtisodiy zonalar boshqaruvi va natijadorligini oshirishda raqamli transformatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Erkin iqtisodiy zona, boshqaruv, global iqtisodiyot, raqobat, innovatsiya, iqtisodiy o'sish, raqamli iqtisodiyot, raqamli boshqaruv, raqamli transformatsiya.

Kirish.

Bugungi kunda barcha sohalarda shiddat bilan tashkiliy xarajatlarni qisqartirish, masofadan turib xizmatlardan foydalanish va ish jarayonlarida qarorlar qabul qilishni tezlashtirish maqsadida zamonga mos holda raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar ish samaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakatga ko‘proq xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar olib bormoqda. Mamlakatimizda birinchi EIZ 2008 yilda Navoiy viloyatida tashkil etilgan.

Mamlakatimizda birinchi erkin iqtisodiy zona tashkil etilganidan boshlab utgan 17-yil davomida faoliyat yuritayotgan EIZlar nafaqat joylashgan hududlarda balki, butun mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratilishida ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. EIZ joylashgan hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy holatining barqarorlashib borish tendensiyasi mazkur zonalar qanchalik ahamiyatli ekanligi ko‘rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 24 ta MIZlarda 771 ta tadbirkorlik subyektlari rezident maqomini berilgan.

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) boshqaruvining raqamli transformatsiyasi masalalari zamonaviy iqtisodiy rivojlanish va global raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Oxirgi yillarda mamlakatimizdagi EIZ boshqaruv direksiyalari mustaqilligini ta’minlash va yanada faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha juda katta islohotlar amalga oshirildi va huquqiy-normativ asoslar yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 05 dekabrda tasdiqlangan «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” QO‘RQ-1010-son qonuniga asosan direksiyalar qo‘shimcha huquqlar berildi jumladan, EIZ a’zoligiga investorlarni faol jalb qilishi va investorlarga zona hududidan yerlarni elektron onlayn auksionga mustaqil chiqarish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, investorlar saralab olishni amalga oshirish, direksiya daromadlari va xarajatlarini tasdiqlash, tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirish va qo‘shimlar qo‘shish masallarida erkinliklar berilmoqda. Umuman olganda direksiyalar EIZ faoliyatini boshqarish, har tomonlama to‘liq rivojlantirish va investorlarni jalb qilish vazifalarini belgilab berilgan.

Erkin iqtisodiy zonalar boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini yanada takomillashtirish va shaffof boshqaruv tizimini ta’minlash va investorlar hamda tadbirkorlarga yanada qulay va masofaviy ma’lumot almashish jarayonlarini tashkil etish maqsadida butun EIZ faoliyatini raqamli transformatsiyasini amalga oshirish zamon talabiga aylanmoqda.

Mamlakatimizdagi 24 ta erkin iqtisodiy zona joriy holati tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki EIZ va investorlar o‘rtasidagi muloqot masofadan turib ma’lumot almashish imkonsizligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, jahon internet tarmog‘ida O‘zbekistonning aksariyat EIZlarining rasmiy veb-saytlari mavjud emas yoki ular yetarlicha rivojlanmagan. Jumladan, “Angren”, “Navoiy”, “Jizzax”, “Hazorasp”, “Urgut” EIZ rasmiy veb-sahifasida mavjud lekin statistik ma’lumotlar va xomashyo materiallar imkoniyatlari yetarlicha yoritilmagan bo‘lsa. qolgan EIZlar rasmiy veb sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari umuman mavjud emasligi ko‘ramiz. Yana rasmiy veb sahifasi mavjud bo‘lgan ayrimlarida chet tilari sifatida faqat rus va ingliz tili mavjudligini ko‘ramiz lekin EIZ statistik ko‘rsatkichlari faqat o‘zbek tilida berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, O‘zbekiston iqtisodiy, tabiiy xomashyosi imkoniyatlari, ishchi kuchi, EIZlarga berilgan imtiyozlar, EIZlar ixtisoslashuv bo‘yicha va statistik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan yagona sayt mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi iqtisodiy raqamlashuv sharoitida EIZlarning bu holati sarmoyalar oqimiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Oddiy tushuntirganda EIZ joriy holati tahliliy statistik ma’lumotlar, EIZ a’zo tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar, EIZ joylash hudud xomashyo imkoniyatlari va hatto sarmoya kiritish istagidagi tadbirkor EIZ a’zosi bo‘lish uchun investor to‘g‘risida ma’lumotlarni EIZ direksiyasiga masofadan berish imkoniyati yuqligi ajablantiruvchi holat hisoblanadi.

Bu esa, mahalliy va xorijiy investitsiya oqimiga sezilarli muammolarni keltirib chiqaradi. EIZlar haqidagi ma’lumotlarning cheklanganligi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalarining yo‘qligi yoki faol emasligi, ular haqida keng auditoriyaga axborot yetkazishni qiyinlashtiradi.

EIZ a’zosi hisoblanadigan tadbirkorlar o‘zlashtirilgan investitsiya miqdorlari va ish jarayonlari to‘g‘risida har oy EIZ direksiyasiga ma’lumot taqdim etishi kerak bo‘lsa-da ushbu ma’lumotlarni onlayn almashish imkoniyatlari mavjud emas.

Buning natijasida EIZ to‘g‘risida xorijiy va investitsiyalar oqimiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, EIZlarga qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilishning qiyinlashishiga olib kelmoqda. Aksariyat xalqaro investorlar, shu jumladan, ishlab chiqarish va biznesni kengaytirish niyatida bo‘lgan kompaniyalar, investitsiya imkoniyatlarini izlashda ko‘pincha O‘zbekiston EIZlarining imkoniyatlari haqida yetarli axborotga ega bo‘lmaydi, bu esa EIZ o‘z imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmayotganligini ko‘rsatadi.

EIZlarning alohida veb-saytlari, EIZlar to‘g‘risidagi yagona veb-sayt, vazirlik va idoralar veb-saytlaridagi tegishli sahifalar tahlili EIZlarga berilgan imkoniyatlar va imtiyozlari haqidagi ma’lumotlarni tarqatish va investorlar e’tiborini jalb qilish masalalariga yetarlicha e’tibor berilmayotganligini ko‘rsatdi.

Erkin iqtisodiy zonalar boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini raqamli transformatsiya natijasida EIZlar yanada samarali, shaffof va investorlar uchun qulay qilishga yordam beradi.

Erkin iqtisodiy zonalarning joriy holati chuqur tahlillar natijasida bir nechta muhim bo‘lgan masallarni ko‘rib chiqdik va EIZ faoliyatini yanada yaxshilash imkoniyatini beradigan eng muhim takliflarni ishlab chiqdik va asosladik.

Birinchi navbatda EIZ faoliyatida raqamli platformalar va tizimlar yaratish. EIZlarni boshqarish uchun yagona raqamli platformalar va tizimlar ishlab chiqilishi zarur. Bu tizimlar EIZlarda amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni (muhim hujjatlar tayyorlash, soliq to‘lovlari, ruxsatnomalar, eksport-import amaliyotlari) raqamli shaklda amalga oshiradi, bu esa vaqtni tejaydi va operatsion xatolarni kamaytiradi. Raqamlashtirish natijasida elektron hujjat aylanishi imkoniyatlari yaratiladi. Bunda EIZda amalga oshiriladigan hujjat almashinuvi va ish jarayonlarini elektron shaklda amalga oshirish zarur. Bu xususan, eksport va import hujjatlarini avtomatlashtirish, soliq deklaratsiyalarini elektron tarzda topshirish, muvofiqlik tekshiruvlarini onlayn tarzda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, EIZ faoliyatiga sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish. EIZ boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt (SI) va ma’lumotlar tahlilini keng qo‘llash mumkin. Masalan, sun’iy intellekt yordamida investitsiyalarni jalb qilishda talablar tahlil qilinishi, ehtiyojlar prognoz qilinishi va samarali marketing strategiyalari ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, tizimda yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinib, iqtisodiy zonalar bo‘yicha samarali qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi.

Uchinchidan, raqamli identifikatsiya va xavfsizlik faoliyati. Bunda EIZlarda elektron xizmatlar orqali faoliyat olib borayotgan subyektlar va foydalanuvchilar uchun xavfsiz raqamli identifikatsiya tizimlari muhim ahamiyatga ega. Elektron raqamli imzo, biometrik identifikatsiya va boshqa xavfsiz texnologiyalar yordamida kompaniyalar va investorlarga xizmat ko‘rsatishda ishonchni ta’minlash kerak.

To‘rtinchidan, onlayn xizmatlar va interaktiv xizmatlar tizimini tashkil etish. Bunda EIZlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar va tadbirkorlar uchun turli xizmatlar onlayn tarzda taqdim etilishi kerak. Misol uchun, ruxsatnomalar va litsenziyalarni olish, yuridik va moliyaviy maslahatlar, soliq to‘lovlari va boshqa jarayonlar uchun interaktiv tizimlar ishlab chiqilishi lozim.

Beshinchidan, respublika darajasida barcha EIZ faoliyati monitoringi va hisobotlari avtomatik yangilash imkoniyatlarini yaratish. Raqamli tizim yordamida EIZlarning faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish mumkin. Bunday tizimlar orqali barcha yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini, shuningdek, EIZdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni va investorlar bilan bo‘lgan aloqalarni tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Oltinchidan, EIZ faoliyatini raqamlashtirish xalqaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarida ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiya nafaqat ichki tizimlarni optimallashtirishga yordam beradi, balki EIZlarning xalqaro hamkorlikda ishtirokini ham osonlashtiradi. Masalan, boshqa mamlakatlar bilan soliq va bojxona ma'lumotlari almashinuvi, global tovarlar va xizmatlar bozoriga integratsiya qilish uchun raqamli vositalar zarur.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz zarurki, bugungi kunda mamlakatimizdagi EIZ samarali ish tashkil etish va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga katta turtki berish imkoniyatiga ega bo'lgan muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. EIZlar faoliyatini yanada jonlantirish va shaffof muhit yaratish, investorlarga qushimcha qulaylik yaratish uchun raqamlashtirish muhim hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar boshqaruvining raqamli transformatsiyasi iqtisodiyotni raqamlashtirish va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli platformalar, avtomatizatsiya, sun'iy intellekt va xavfsizlik texnologiyalari yordamida EIZlar yanada samarali va shaffof tarzda boshqarilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida" gi QO'RQ-604-sonli Qonuni
1. Саидахмедова, Д. С. (2020). СУЩНОСТЬ МЕНЕДЖМЕНТА. Экономика и социум, (2), 346-349.
2. Саидахмедова, Д., & Норбоева, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА СТАРТАП ЭКОТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН МУҲИТНИНГ АҲАМИЯТИ. сборник наукових праць SCIENTIA.
3. Saidahmedova, D. Management Analysis and Innovation Management Model. Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN, 2456-6470.
4. Saidbaxromovna, S. D., & Muhabbat, X. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 124-128.
5. Dilafruz, S., & Shaxnoza, G. O. (2023). O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRSH–DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 153-157

SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI: IOT VA MA'LUMOTLAR TAHLILI

Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich
m.butaboyev@farpi.uz
Farg'ona politexnika institute
iqtisodiyot kafedrasi professori, O'zbekiston

Aqlli shaharlar (Smart Cities) zamonaviy texnologiyalar yordamida shahar infratuzilmasini boshqarish va aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan. IoT va ma'lumotlar tahlili aqlli shahar boshqaruvining asosiy komponentlaridan biridir. Ushbu maqolada IoT va ma'lumotlar tahlilining aqlli shahar boshqaruvidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

IoT texnologiyalari shahar infratuzilmasi va xizmatlarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. IoT qurilmalari orqali shahar infratuzilmasining turli qismlaridan real vaqtda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mumkin. Bu texnologiyalar quyidagi sohalarda qo'llaniladi. Aqlli transport tizimlari orqali transport vositalarining harakatini kuzatish va boshqarish, yo'l harakati tirbandliklarini kamaytirish va yo'lovchilar uchun qulaylik yaratish mumkin. Aqlli energiya tarmoqlari va suv ta'minoti tizimlari orqali resurslarni samarali boshqarish va yo'qotishlarni kamaytirish mumkin. IoT qurilmalari yordamida bemorlarning sog'lig'ini masofadan kuzatish va tezkor tibbiy yordam ko'rsatish mumkin. Ma'lumotlar tahlili IoT qurilmalaridan yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu jarayon quyidagi afzalliklarni taqdim etadi. Ma'lumotlar tahlili orqali shahar resurslarini samarali taqsimlash va foydalanish mumkin. Ma'lumotlar tahlili orqali aholining ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taqdim etish mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda dunyo bo'ylab 30 milliarddan ortiq IoT qurilmalari mavjud edi va bu ko'rsatkich 2025 yilga kelib 75 milliardga yetishi kutilmoqda (Statista, 2021). Bu o'sish IoT texnologiyalarining keng qo'llanilayotganligini va ularning ahamiyatini ko'rsatadi.

Aqlli shahar loyihalari dunyo bo'ylab kengayib bormoqda. Masalan, 2020 yilda aqlli shahar loyihalariga global investitsiyalar 124 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2025 yilga kelib 189 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda (IDC, 2020). Bu investitsiyalar aqlli shahar texnologiyalarining iqtisodiy jihatdan qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Siemens kompaniyasi aqlli shaharlar uchun IoT va ma'lumotlar tahlili yechimlarini taqdim etadi. Ularning "MindSphere" platformasi shahar infratuzilmasining turli qismlaridan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish imkonini beradi. IBM kompaniyasi ham aqlli shaharlar uchun

yechimlar taqdim etadi. Ularning "IBM Watson IoT" platformasi shahar boshqaruvini optimallashtirish va samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi.
Bu platforma quyidagi funksiyalarni taqdim etadi:
Katta Ma'lumotlar Tahlili: IoT qurilmalaridan yig'ilgan katta ma'lumotlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish.
Sun'iy Intellekt: Sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va prognoz qilish.
Aloqa va Integratsiya: Turli IoT qurilmalari va tizimlarini birlashtirish va ularning o'zaro aloqasini ta'minlash.

IoT va ma'lumotlar tahlili yordamida shahar resurslarini samarali boshqarish mumkin. Masalan, aqlli energiya tizimlari elektr energiyasini samarali taqsimlash va iste'molni optimallashtirishga yordam beradi. Bu esa energiya sarfini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga olib keladi. IoT va ma'lumotlar tahlili sohasida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llash uchun mutaxassislar talab etiladi. Masalan, IoT muhandislari, ma'lumotlar tahlilchilari va sun'iy intellekt mutaxassislari kabi yangi kasblar paydo bo'lmoqda. IoT va ma'lumotlar tahlili innovatsiyalarni rag'batlantiradi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Yangi texnologiyalar va biznes modellarining paydo bo'lishi iqtisodiyotning turli sohalarida o'sishni ta'minlaydi. IoT qurilmalari orqali atrof-muhitni kuzatish va ifloslanishni nazorat qilish mumkin. Masalan, havo sifatini kuzatish uchun o'rnatilgan sensorlar ifloslanish darajasini aniqlash va uni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rishda yordam beradi. Bu esa shahar aholisi uchun sog'lom va xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi.

IoT va ma'lumotlar tahlili yordamida energiya sarfini kamaytirish va yashil energiya manbalaridan foydalanishni oshirish mumkin. Masalan, aqlli yoritish tizimlari orqali ko'chalarni faqat kerakli vaqtda yoritish va energiya sarfini kamaytirish mumkin. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. IoT texnologiyalari yordamida o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish mumkin. Masalan, o'rmonlarni kuzatish uchun o'rnatilgan sensorlar orqali yong'inlar va noqonuniy daraxt kesishlarni aniqlash va oldini olish mumkin. IoT texnologiyalari kelajakda yanada kengroq qo'llaniladi. Aqlli shaharlar uchun IoT qurilmalari va sensorlarining yanada kengroq integratsiyasi shahar infratuzilmasining har bir qismidan real vaqtda ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. Bu esa shahar boshqaruvining samaradorligini oshiradi. Sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlar tahlili kelajakda yanada rivojlanadi. AI yordamida IoT qurilmalari tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa shahar boshqaruvini yanada optimallashtirish va samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Blokcheyn texnologiyalari IoT va ma'lumotlar tahlilida xavfsizlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Aqlli shaharlar

uchun blokcheyn texnologiyalari orqali ma'lumotlarning xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlash mumkin. IoT va ma'lumotlar tahlili yordamida aqlli shaharlar aholining hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, aqlli transport tizimlari orqali yo'l harakati boshqaruvi optimallashtiriladi va yo'l tiqilinchlari kamayadi. Bu esa aholining harakatlanish qulayligini oshiradi. IoT qurilmalari va ma'lumotlar tahlili yordamida shahar xavfsizligini ta'minlash mumkin. Masalan, aqlli kuzatuv tizimlari orqali jamoat joylarida xavfsizlikni nazorat qilish va jinoyatchilikni kamaytirish mumkin. Singapur aqlli shahar boshqaruvi bo'yicha ilg'or davlatlardan biridir. Ular IoT va ma'lumotlar tahlili yordamida transport, energetika, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda samarali boshqaruv tizimlarini yaratgan. Masalan, Singapurda aqlli transport tizimlari yo'l harakati boshqaruvini optimallashtiradi va yo'l tiqilinchlarini kamaytiradi. Barcelona shahri ham aqlli shahar boshqaruvi bo'yicha ilg'or misollardan biridir. Ular IoT va ma'lumotlar tahlili yordamida shahar infratuzilmasini boshqarish va aholining hayot sifatini yaxshilash bo'yicha ko'plab loyihalarni amalga oshirgan. Masalan, aqlli yoritish tizimlari orqali energiya sarfini kamaytirish va atrof-muhitni himoya qilishga erishilgan.

IoT va ma'lumotlar tahlili aqlli shahar boshqaruvi uchun muhim texnologiyalar bo'lib, ular shahar infratuzilmasini samarali boshqarish, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida aqlli shaharlar yanada rivojlanib, iqtisodiyot va ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajakda IoT, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining yanada rivojlanishi aqlli shahar boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Chourabi, H., Nam, T., Walker, S., Gil-Garcia, J. R., Mellouli, S., Nahon, K., & Scholl, H. J. (2012). Understanding smart cities: An integrative framework. In Proceedings of the 45th Hawaii International Conference on System Sciences (pp. 2289-2297). IEEE.

Harrison, C., & Donnelly, I. A. (2011). A theory of smart cities. In Proceedings of the 55th Annual Meeting of the ISSS-2011, Hull, UK (Vol. 55, No. 1).

Kitchin, R. (2014). The real-time city? Big data and smart urbanism. GeoJournal, 79(1), 1-14.

Zanella, A., Bui, N., Castellani, A., Vangelista, L., & Zorzi, M. (2014). Internet of Things for smart cities. IEEE Internet of Things journal, 1(1), 22-32.

Batty, M., Axhausen, K. W., Giannotti, F., Pozdnoukhov, A., Bazzani, A., Wachowicz, M., ... & Portugali, Y. (2012). Smart cities of the future. The European Physical Journal Special Topics, 214(1), 481-518.

Gaur, A., Scotney, B., Parr, G., & McClean, S. (2015). Smart city architecture and its applications based on IoT. Procedia computer science, 52, 1089-1094.
Nam, T., & Pardo, T. A. (2011). Conceptualizing smart city with dimensions of technology, people, and institutions. In Proceedings of the 12th Annual International Digital Government Research Conference: Digital Government Innovation in Challenging Times (pp. 282-291).
Al Nuaimi, E., Al Neyadi, H., Mohamed, N., & Al-Jaroodi, J. (2015). Applications of big data to smart cities. Journal of Internet Services and Applications, 6(1), 25.
Sundmaeker, H., Guillemin, P., Friess, P., & Woelfflé, S. (2010). Vision and challenges for realising the Internet of Things. Cluster of European Research Projects on the Internet of Things, European Commission.
Khatoun, R., & Zeadally, S. (2016). Smart cities: concepts, architectures, research opportunities. Communications of the ACM, 59(8), 46-57.

SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI.

Kasimova Dilafruz Alisher qizi
dilafruzkasimova101@gmail.com
Andijon davlat texnika instituti
assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarishda robototexnika va avtomatlashtirish texnologiyalarining roli, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri, samaradorlikka qo'shayotgan hissasi hamda iqtisodiy va xavfsizlik nuqtayi nazaridan afzalliklari yoritilgan. Maqolada grafiklar va jadvallar orqali turli sanoat tarmoqlarida bu texnologiyalarning joriy etilishi va undan olinayotgan natijalar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston sanoatida robototexnika va avtomatlashtirishning istiqbollari, ularning yutuqlari va mavjud kamchiliklari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: robototexnika, avtomatlashtirish, sanoat, ishlab chiqarish samaradorligi, xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi har qachongidan ham tezroq rivojlanmoqda. Bunda texnologik taraqqiyot, ayniqsa, robototexnika va avtomatlashtirish sohalari muhim rol o'ynamoqda. Bu texnologiyalar inson mehnatini yengillashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, xavfsizlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

Robototexnika bu - mexanik, elektron va dasturiy ta'minot asosida ishlovchi qurilmalar yordamida turli texnologik operatsiyalarni bajarish tizimi. Avtomatlashtirish esa - inson aralashuvisiz yoki minimal ishtirokida jarayonlarni

boshqarish tizimidir. Bu ikki yo'nalish sanoatning deyarli barcha tarmoqlarida qo'llanilmoqda. Robotlar insonlarga nisbatan tezroq, barqaror va doimiy ishlaydi. Quyidagi 1-jadvalda avtomatlashtirilgan va an'anaviy ishlab chiqarishning mahsuldorlik farqi ko'rsatilgan:

Jadval-1.

Ko'rsatkich	**An'anaviy ishlab chiqarish**	**Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish**
Ishlab chiqarish tezligi	100 birlik/soat	250 birlik/soat
Ishchilar soni	10 kishi	4 kishi
Nosoz mahsulotlar (%)	5%	1%

Robotlar insonlar uchun xavfli bo'lgan muhitlarda ishlay oladi. Natijada, baxtsiz hodisalar soni kamayadi. Baxtsiz hodisalar sonining kamayishi (foizda) avtomatlashtirish va robotlashtirish ta’siri quyida 2-jadvalda ko’rsatilgan.

Jadval-2.

Yil	Avtomatlashtirish darajasi (%)	Baxtsiz hodisalar kamayishi (%)
2010	10%	5%
2013	25%	15%
2016	40%	30%
2019	55%	45%
2022	70%	60%
2024	80%	70%

Dastlabki investitsiya yuqori bo'lishiga qaramay, avtomatlashtirish uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi. Quyidagi grafikda avtomatlashtirish kiritilganidan keyin ishlab chiqarish tannarxining kamayishi ko'rsatilgan:



Avtomobil ishlab chiqarishda robotlar payvandlash, bo'yash, yig‘ish kabi murakkab ishlarni bajaradi. Bu sifat va tezlikni ta'minlaydi. So'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatida avtomatlashtirish va robototexnika katta siljishlarga olib kelmoqda. Masalan, Germaniyada Nestlé kompaniyasi ishlab chiqarishni to‘liq avtomatlashtirish orqali mahsulot sifati va gigiyenasini oshirdi. Robotlar mahsulotlarni avtomatik tarzda sortlaydi, qadoqlaydi, etiketkalar yopishtiradi va tekshiruvdan o‘tkazadi. Oziq-ovqat sanoatida avtomatlashtirishdan oldin va keyingi ko‘rsatkichlar 3-jadvalda ko’rsatilgan.

Jadval-3.

Ko‘rsatkich	Avtomatlashtirishdan oldin	Avtomatlashtirishdan so‘ng
Ishlab chiqarish hajmi (kuniga)	12 000 birlik	20 000 birlik
Ishchilar soni	45 kishi	25 kishi
Gigiyenik tekshiruvlar soni	5 tadan	20 tadan
Qadoqlashdagi xatoliklar (%)	3%	0.5%

Kimyo va farmatsevtika sanoatida robotlar tabletkalarni kapsulalash, dozani aniqlash, qadoqlash va sifat nazorati kabi vazifalarni aniq va xavfsiz bajaradi. Masalan, Pfizer va Bayer kompaniyalari ishlab chiqarish liniyalarida yuqori darajadagi avtomatlashtirishni yo‘lga qo‘ygan. Avtomatlashtirish natijasida xatoliklar keskin ravishda kamaygan ishlab chiqarishda robototexnikaning qo‘llanilishi orqali inson xatolarining qanday kamayganligini aniq ko‘rsatadi. Xususan, noto‘g‘ri dozalash, qadoqlash yoki yorliqlashda sodir bo‘ladigan xatoliklar sezilarli darajada kamaygan. Bundan tashqari, xavfli kimyoviy moddalarga ishlov berishda robotlardan foydalanish ishchilar salomatligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlamoqda. Bundan tashqari tikuv va to'qimachilik fabrikalarida avtomatik kesish, tikish va paketlash tizimlari ish unumdorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining tezligi va aniqligi oshadi, inson xatolari kamayadi sifat nazorati avtomatik amalga oshiriladi, ishchilar uchun xavfsiz ish muhiti yaratiladi, mahsulot tannarxi pasayadi, oziq-ovqat gigiyenasi va farmatsevtika sifati yuqori bo'ladi. Shu bilan birga robotlashtirishning o’ziga yarasha kamchiliklari xam bor. Dastlabki xarajatlar yuqori bo'ladi, malakali mutaxassislar yetishmasligi muammo tug'diradi, texnik nosozliklar bo'lsa, ishlab chiqarish to'xtab qolishi mumkin , ijtimoiy jihatdan ishchi o‘rinlarining qisqarishiga olib keladi.

O‘zbekistonda sanoat modernizatsiyasi doirasida robototexnika va avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yirik sanoat korxonalarida bu texnologiyalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Masalan, "UzAuto Motors"

kompaniyasida avtomatlashtirilgan robot tizimlari yordamida avtomobillar yig'ilmoqda. Oziq-ovqat sanoatida ham zamonaviy qadoqlash va nazorat uskunalari joriy etilmoqda. Farmatsevtika sohasida esa dorilar ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini avtomatlashtirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.Kelgusida bu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va texnologiyalarni lokalizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Robototexnika va avtomatlashtirish sanoat ishlab chiqarishini tubdan o'zgartirmoqda. Ular samaradorlik, sifat, xavfsizlik va iqtisodiy foyda nuqtayi nazaridan katta ustunliklarni taqdim etmoqda. Shu bilan birga, ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun davlat, ta'lim va sanoat tizimlari hamkorligida harakat qilish lozim. O‘zbekiston sanoati raqobatbardoshligini oshirish uchun ushbu texnologiyalarni keng joriy etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. John Jordan. "Robotics and Automation in Industry". Industrial Press, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hisobotlari, 2023.
3. World Economic Forum. "The Future of Jobs Report", 2023.
4. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) – "Automation and Labor Safety", 2022.
5. UzAuto Motors rasmiy sayti va ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar, 2023.
6. Nestlé Global Automation Report, 2022.
7. Pfizer Official Production Guidelines, 2023.
8. Bayer Sustainability and Automation Strategy, 2023.

SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Erkinova Gulsanam Akmaljonovna
Erkinovagulsanam2@gmail.com
Farg’ona Davlat Texnika Universiteti, O`zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish jarayoni, uning ahamiyati, avtomatlashtirish vositalari va texnologiyalari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash va ularni ishlab chiqarishga joriy etish jarayonlari haqida ma’lumot beriladi. Maqolada texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning mantiqiy va texnik jihatdan asoslangan usullari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: avtomatlashtirish, texnologik jarayon, avtomatik tizimlar, ishlab chiqarish, sanoat robotlari, sensorlar, texnologik nazorat.

Аннотация: В статье рассматривается процесс автоматизации современных производственных процессов, его значение, а также средства и технологии автоматизации. Также будет предоставлена информация о процессах проектирования систем автоматизации и внедрения их в производство. В статье также рассматриваются логичные и технически обоснованные методы автоматизации технологических процессов.

Ключевые слова: автоматизация, технологический процесс, автоматические системы, производство, промышленные роботы, датчики, технологический контроль.

Abstract

This article discusses the process of automation of modern production processes, its importance, automation tools and technologies. It also provides information on the processes of designing automation systems and their introduction into production. The article also considers logically and technically sound methods of automating technological processes.

Keywords: automation, technological process, automatic systems, production, industrial robots, sensors, technological control.

Zamonaviy sanoat korxonalari ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida avtomatlashtirish tizimlarini keng qo‘llamoqda. Avtomatlashtirish jarayonlari inson omilini kamaytirish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va sifatni yaxshilashga qaratilgan. Shu sababli, bugungi kunda avtomatlashtirish usullarini o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish – bu ishlab chiqarish jarayonlarini maxsus dasturiy va apparat vositalari yordamida boshqarish va nazorat qilish tizimi hisoblanadi. Bu tizimlar sensor va o‘lchash vositalari, avtomatik boshqaruv qurilmalari, dasturiy ta’minot hamda ijro mexanizmlaridan iborat bo‘lib, ular ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va inson ishtirokini kamaytirish imkonini beradi.

Avtomatlashtirish darajasiga qarab, qisman avtomatlashtirish (ayrim jarayonlar avtomatik boshqariladi), to‘liq avtomatlashtirish (barcha jarayonlar inson ishtirokisiz amalga oshiriladi) va moslashuvchan avtomatlashtirish (ishlab chiqarish sharoitlariga mos ravishda ishlaydi) kabi sinflarga ajratiladi. Zamonaviy avtomatlashtirish tizimlarida dasturlanadigan mantiqiy kontrollerlar (PLC), sanoat robotlari, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish, shuningdek, IoT texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga va real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatini yaratishga yordam beradi.Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab, talablar aniqlanib, tizim konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Keyingi bosqichda texnologik jarayonlar va tizim strukturalari tahlil

qilinadi. Shundan so‘ng dasturiy va apparat vositalar loyihalanib, tizim montaj qilinadi va sinovdan o‘tkaziladi. Yakuniy bosqichda esa tizim ishga tushiriladi va ekspluatatsiya qilinadi.

2021 yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi iqtisodiy jihatdan ijobiy natijalarga erishdi. Soha bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 10,6 trillion so‘mga yetib, 104 foizga o‘sdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy qiymati 176 million dollarga yetib, 130 foiz o‘sish kuzatildi. Bundan tashqari, kompyuter va dasturlash xizmatlari hajmi 2019 yilga nisbatan 119 foizga oshib, 1,078 milliard so‘mni tashkil etdi (rejada — 920 million so‘m). Dasturiy mahsulotlar va xizmatlar eksporti esa 15,8 million dollarga yetib, 158 foiz o‘sish qayd etildi (rejada — 10 million dollar). Axborot va aloqa sohasida ish haqi ham 119 foizga oshib, o‘rtacha maosh 4 million so‘mni tashkil qildi (umumiy respublika bo‘yicha o‘rtacha ish haqi — 2,3 million so‘m). Shuningdek, AKT sohasida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni ortib bormoqda. 2021 yil yakunlariga ko‘ra, bunday korxonalar soni 269 taga yetib, 73 taga ko‘paydi. Yil davomida Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo‘yicha jami 9 ta loyiha amalga oshirildi. Ularning umumiy qiymati 177,5 million dollarni tashkil etib, 102 foiz o‘sish kuzatildi (rejada — 174,02 million dollar).

Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirishning ahamiyati haqida ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bildirgan. “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi birinchi marta 1994 yilda kanadalik iqtisodchi Don Tapskott tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganib chiqqan. Tapskottning fikriga ko‘ra, raqamli texnologiyalar tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes yuritishning mutlaqo yangi modellari paydo bo‘lishiga turtki beradi.

V.A. Plotnikovning tadqiqotlarida raqamlashtirish axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, u ma’lumotlarni yaratish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Olim, shuningdek, korxonalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda quyidagi afzalliklarga erishishini ta’kidlaydi: Ishlab chiqarish jarayonining tezkor moslashuvchanligi ta’minlanadi, ya’ni ishlab chiqarish tizimi tez qayta konfiguratsiya qilinishi va jarayon dinamik ravishda o‘zgarishi mumkin. Bu esa kompaniyalarga raqobatbardosh ustunlik yaratish va foyda ko‘rsatkichlarini oshirish imkonini beradi. Mahsulotni ishlab chiqishdan boshlab, uning utilizatsiyasigacha bo‘lgan butun hayotiy tsiklini axborot integratsiyasi bilan boshqarish imkoni paydo bo‘ladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, mahsulot sifati, ekologik xavfsizlik va biznesning yangi imkoniyatlarini rivojlantirish kabi jihatlarni ham kompleks ravishda yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi korxonalarning biznes modellari doimiy ravishda o‘zgarib borishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, turli mualliflar raqamlashtirishga oid o‘ziga xos ta’riflarni ilgari surishadi. Masalan, Aleksandr Kutsman raqamli iqtisodiyotni zamonaviy iqtisodiyot shakli deb atab, u moddiy mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda resurslarni aniqlash, saqlash hamda qayta ishlash jarayonlarida raqamli texnologiyalarning faol qo‘llanilishi va axborot hamda bilimlarning asosiy o‘rin tutishi bilan ajralib turishini ta’kidlaydi. Aksanov R.K. esa raqamli iqtisodiyotning asosi elektron mahsulotlar hamda elektron tijorat xizmatlaridan iborat ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, elektron tijorat kapitalning raqamli shaklda harakatlanishi, elektron mahsulotlar ishlab chiqarilishi va axborot almashinuvi jarayonlarining amalga oshirilishi bilan bog‘liq.

Zamonaviy ishlab chiqarishda avtomatlashtirish jarayonlari samaradorlikni oshirish, tannarxni kamaytirish va inson omilini minimallashtirishga xizmat qiladi. Kelajakda avtomatlashtirish texnologiyalari sun’iy intellekt, bulutli hisoblash va tarmoqlangan tizimlar bilan yanada takomillashib borishi kutilmoqda. Sanoat korxonalarida raqamlashtirish jarayoni o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, u moliyaviy resurslar va tegishli infratuzilmaga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu jarayonni noto‘g‘ri boshqarish ehtimoliy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Bunday salbiy oqibatlarning oldini olish uchun raqamli transformatsiya strategiyasini to‘g‘ri shakllantirish, uni korxonaning holati va faoliyat yo‘nalishiga mos tarzda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sanoat korxonalari uchun raqamli transformatsiyaning tegishli modellari – jarayon, tarmoq yoki texnologik modellar orasidan mosini tanlash zarur. To‘g‘ri modelni tanlash ish jarayonlarini aniq belgilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va harakatlar rejasini izchil amalga oshirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupbekov N.R., Muhammedov B.I., G‘ulomov Sh.M. – “Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish”, Toshkent, 2011.

2. Xidirov Shuhratjon – “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish prinsipial sxemalari”, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 2023.

3. Alimov R.X., Xayitmatov O‘.T., Xakimov A.F., Yulchieva G.T., Azamatov O.X., Otajanov U.A. – “Axborot tizimlari”, Toshkent, 2013.

4. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).

5. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А.Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KORXONALARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Xudoyberganova Dilnoza Anvarjon qizi
"Iqtisodiyot" kafedrasi assistenti
Farg'ona politexnika instituti

Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotidagi o'rni keyingi yillarda keskin ortib bormoqda. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning asosiy omillari bo'lgan yer, suv, mehnat resurslari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Istiqlolning ilk kunlaridanoq 1-prezident rahnamoligida mamlakatimizda oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligini izchil isloh qilishning aniq yo'nalishlari belgilab olindi. Sayyoramizning qariyb 1 milliard aholisi to'yib ovqatlanmayotgani va bu boradagi muammo tobora keskinlashib borayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash insoniyatning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotiga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 davlatdan biri sifatida e'tirof etilgani bejiz emas. Mamlakatimizda yetishtiriladigan meva-sabzavotlar salomatlik uchun foydali mikroelementlar, oziq-ovqat ratsionida o'rnini almashtirib bo'lmaydigan turli biologik moddalarga boyligi tufayli noyobdir. O'zbekistonning noyob tuproq-iqlim sharoiti, mamlakatimizda quyoshli kunlar bir yilda o'rtacha 320 kun bo'lishi, to'rt faslning izchil almashinuvi keng turdagi yuqori sifatli meva va sabzavotlarning asosiy navlarini yetishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham saxovatli o'zbek zaminida yetishtiriladigan meva va sabzavotlar yuqori nufuzga ega bo'lgan haqiqiy brendga – tovar belgisiga aylanib, bu mahsulotlarni sotib oladigan mamlakatlarda ular yuksak raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlar salomatlik uchun g'oyat muhim bo'lgan mikroelementlar va oziq-ovqat ratsionida o'rnini almashtirib bo'lmaydigan turli biologik moddalarga boyligi, yuqori sifati, ekologik toza va xavfsizligi, raqobatbardoshligi bilan boshqa mintaqalarda yetishtirilgan ana shunday mahsulotlardan sezilarli darajada yuqori turadi, O'zbekistonda yetishtirilayotgan mevalarga dunyo mamlakatlarida talab juda katta. So'nggi o'n yil ichida O'zbekiston quruq mevalari va yong'oqlari eksporti hajmi 5 karra ortgani buning yorqin dalilidir. Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatining mazkur yo'nalishini

yanada rivojlantirishning salohiyati katta. Serquyosh o'lkamizda yetishtiriladigan mevalarni, ayniqsa, qora mayiz ahamiyatlidir. O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, hamkorlik o'rnatish, fikr va tajriba almashish ahamiyatlidir. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dunyodagi o'nta yetakchi davlat qatorida turadi. Bugun xalqimiz ehtiyojidan ortiqcha 180 turdan ziyod meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar AQSh, Braziliya, Vetnam, Indoneziya, Kipr, Makedoniya, Malayziya, Mo'g'uliston, Norvegiya, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Slovakiya, Tailand, Xitoy, Yaponiya kabi saksondan ortiq mamlakatga eksport qilinmoqda. Sohada olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar samarasida eksport jo'g'rofiyasi kengayib, hajmi tobora oshmoqda.

O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga meva-sabzavotchilik mahsulotlarining eksport hajmi

(ming AQSh dollar)

Mamlakatlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Meva va yong'oqlar, sitrus mevalar qobug'i							
Jami	417,236	543,935	643,679	577,825	511,759	618,595	253, 419
Qozog'iston	236,942	290,158	174,400	164,315	112,770	118,355	86, 604
Xitoy	17,367	21,749	30,890	17,112	17,583	19,206	39, 413
Turkiya	14,280	10,026	22,842	12,047	14,604	13,619	32, 344
Qirg'iziston	22,476	69,439	240,532	138,362	82,791	26,355	27, 010
Germaniya	0,713	1,456	3,114	2,578	2,972	1,703	9, 930
Azarbayjon	2,699	3,308	4,067	2,944	6,008	7,353	9, 534
Ukraina	4,705	6,306	13,228	11,174	9,876	3,414	8, 920
Rossiya Federatsiyasi	80,625	107,939	98,763	185,621	210,436	361,260	-
Boshqa mamlakatlar	37,429	33,554	55,843	43,672	54,719	67,33	39,664
Sabzovotlar							
Jami	217,701	307,714	468,064	400,431	404,080	478,271	281, 262

Qozog‘iston	74,994	91,602	100,383	79,989	74,431	89,773	55, 907
Xitoy	0	24,448	17,564	52,558	91,544	84,510	133 444
Turkiya	17,232	13,396	19,039	7,255	7,665	11,015	11, 702
Qirg‘iziston	6,351	9,456	70,133	36,399	28,951	15,582	15 977
Germaniya	0,720	1,977	1,799	2,072	2,426	3,939	2 939
Azarbayjon	1,373	0,914	1,833	1,929	2,265	3,133	3 086
Ukraina	0,469	1,423	18,772	3,509	4,011	2,122	5 514
Yaponiya	0	0	0	0	51	304	5 609
Pokiston	4,106	22,053	78,685	74,136	61,500	91,146	22 874
Rossiya Federatsiyasi	32,849	54,687	58,152	66,751	75,45	111,705	-
Boshqa mamalakatlar	79,607	89,735	101,249	75,833	4,837	238,645	24,32

Mamlakatimizdagi qulay sarmoyaviy muhit xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirish, barcha sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb etishda muhim omil bo‘layotir. Xususan, meva-sabzavotchilik sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ko‘plab korxonalar samarali faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston meva-sabzavotchilik sohasi vakillarining mahsulotlari mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelgan kompaniyalar ekspozitsiyalarida keng o‘rin egallagan. “Agro Sweet Plus”, “Afruz-Kamol-Nabi”, “Delta Ekspress”, “Fergana Agroexport Biznes”, “Qashqadaryo Agroeksport Info”, “Different Med”, “Business Diamond Invest” korxonalari shular jumlasidandir. Ular keng turdagi meva-sabzavot mahsulotlarini namoyish qilib, o‘z xizmatlarini taklif etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Musaevna, U. Z., & Anvarjonqizi, X. D. (2021). To the Issues of Improving Personnel Motivation in Industrial Enterprises. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, *1*, 70-80.

2. Xamdamova, U., & Khudoyberganova, D. (2020). IMPACT OF THE PANDEMIC ON THE INTRODUCTION OF ELEMENTS OF THE DIGITAL ECONOMY. *Экономика и социум*, (7), 70-75.

4. Худойберганова, Д. А. (2020). Фарғона вилояти саноат тармоқларига инвестицияларни жалб қилишнинг долзарб масалалари/Д. Худойберганова.

5. Худойберганова, Д., & Кодирова, С. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *Экономика и социум*, (7), 475-481.

6. Khudoyberganova, D. (2020). TO THE PROBLEMS OF INNOVATION INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(10), 396-399.
7. Usmanova, Z. M., & Khudoyberganova, D. A. (2021). TO IMPROVEMENT OF EXISTING PERSONNEL MANAGEMENT MECHANISMS IN LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES. *Frontline Marketing, Management and Economics Journal*, *1*(08), 41-46.

SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO ‘LLASH ISTIQBOLLARI

Tuychiyeva Odina Nabiyevna
oydintoychiyeva@gmail.com
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston
Rustamova Setora Dilshodjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Zamonaviy sharoitlarda global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari tadbirkorlik faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Zamonaviy tadbirkorlar raqamli texnologiyalarni o'z bizneslariga joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish, operatsion samaradorlikni yaxshilash va yangi bozor imkoniyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning turli xil ko ‘rinishlari qo ‘llanilmoqda. Sun'iy intellect, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, Big Data ana shular jumlasidandir.

Global raqamlashtirish tendensiyalari o‘rganilganda jahon bozorida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi quyidagi asosiy yo'nalishlarda kuzatilayotganligini ko ‘rish mumkin:

- elektron tijoratning jadal o'sishi: 2023 yilda global elektron tijovat hajmi 5.7 trillion dollarni tashkil etdi va 2025 yilgacha yillik 10% dan ortiq o'sish prognoz qilinmoqda. Mobil tijorat, ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo va cross-border e-commerce segmentlari ayniqsa tez rivojlanmoqda.

-raqamli bank xizmatlari va fintech yechimlarining rivojlanishi: neobank va fintech kompaniyalar an'anaviy bank xizmatlariga raqobat yaratmoqda. Mobil to'lovlar, P2P kreditlash, robo-advisorlar kabi innovatsion xizmatlar moliya sohasini o'zgartirmoqda..

-buxgalteriya va moliyaviy hisobotlar: Zamonaviy buxgalteriya dasturlari (1C, QuickBooks, Xero) moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish, real vaqt

rejimida hisobotlar tayyorlash va soliq hisobotlarini yuritish imkonini beradi. Bulutli yechimlar moliyaviy ma'lumotlarga istalgan joydan kirish imkonini ta'minlaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarish va xizmat ko ‘rsatish sohalarini raqamlashtirish jarayonlarini talab darajasida deb bo‘lmaydi. Fikrimizcha, raqamli transformatsiya jarayonlariga quyidagi muammolar to ‘siq bo ‘lmoqda:

1.Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi. Raqamli transformatsiya jarayoni katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi. Bu muammo quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Zamonaviy dasturiy ta'minot va apparat vositalarining yuqori narxi. Zamonaviy dasturiy ta'minot va apparat vositalarining yuqori narxi biznes uchun birinchi to'siq hisoblanadi. Enterprise darajadagi ERP tizimlari narxi o'rtacha 100-250 ming dollar atrofida bo'lib, cloud infratuzilma uchun yillik to'lovlar 20-50 ming dollarni tashkil etadi.

Litsenziya va obuna to'lovlari bilan bog'liq doimiy xarajatlar. Litsenziya va obuna to'lovlari bilan bog'liq doimiy xarajatlar ham sezilarli moliyaviy yuk yaratadi. Masalan, Microsoft 365 kabi ofis dasturlari uchun har bir xodim hisobiga oyiga 12-35 dollar, ma'lumotlar bazasi litenziylari uchun protsessor boshiga 47,500 dollar to'lash kerak.

Xodimlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish xarajatlari. Xodimlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish xarajatlari ham katta mablag' talab qiladi. Yangi IT mutaxassislarni yollash uchun yillik 60-120 ming dollar, mavjud xodimlarni yangi tizimlarga o'qitish uchun har bir xodim hisobiga 1-3 ming dollar sarflanadi. IT-infratuzilmani yaratish va saqlash xarajatlari.

IT-infratuzilmani yaratish va saqlash xarajatlari ham sezilarli. Serverlar va ma'lumotlar markazlari 50-200 ming dollar, tarmoq infratuzilmasi 20-100 ming dollar atrofida bo'ladi. Bundan tashqari, doimiy texnik xizmat ko'rsatish yillik byudjetning 15-25 foizini tashkil etadi. Zaxiralash va xavfsizlik tizimlari uchun esa 10-50 ming dollar sarflanadi.

2. Malakali kadrlar taqchilligi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi kadrlar taqchilligi global muammoga aylangan:

IT-mutaxassislarning yetishmasligi va ularni jalb qilish qiyinligi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi malakali kadrlar taqchilligi bugungi kunda global muammoga aylangan bo'lib, bu bir necha muhim jihatlarda namoyon bo'lmoqda. Jahon statistikasiga ko'ra, 2024 yilda global IT-mutaxassislar taqchilligi 4 million kishini tashkil etmoqda. O'zbekistonda bu raqam 20-25 ming atrofida bo ‘lib, talab yildan-yilga ortib bormoqda. Mutaxassislarni jalb qilish jarayonini murakkablashtiruvchi omillarga yuqori raqobat muhiti, xalqaro kompaniyalarning katta imkoniyatlari va IT-mutaxassislarning mobillikka moyilligi kiradi. Ko'plab

kompaniyalar zarur malakaga ega mutaxassislarni topishda qiynalmoqda, bu esa raqamli transformatsiya loyihalarining sekinlashishiga olib kelmoqda.

Mavjud xodimlarning raqamli ko'nikmalari pastligi. Mavjud xodimlarning raqamli ko'nikmalari pastligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Ko'pchilik xodimlar zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va raqamli kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega emas. Bu holat nafaqat IT bo'limida, balki marketing, moliya, HR va boshqa bo'limlarda ham kuzatilmoqda. Natijada, kompaniyalar raqamli transformatsiya jarayonida qo'shimcha vaqt va resurslarni xodimlarni o'qitishga sarflashga majbur bo'lmoqda.

Raqamli loyihalarni boshqarish tajribasiga ega rahbarlarning kamligi. Raqamli loyihalarni boshqarish tajribasiga ega rahbarlarning kamligi transformatsiya jarayonining samaradorligini pasaytirmoqda. Bunday rahbarlar nafaqat texnik bilimga, balki strategik fikrlash, o'zgarishlarni boshqarish va loyiha menejment ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. Amaliyotda esa bunday universal kompetentsiyalarga ega rahbarlarni topish juda qiyin.

3. Kiberxavfsizlik muammolari. Raqamlashtirish jarayoni kiberxavfsizlik risklarini oshiradi:

Kiberhujumlar va ma'lumotlar o'g'irlanishi xavfi. Raqamlashtirish jarayonida kiberxavfsizlik muammolari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammoning har bir jihati alohida e'tiborni talab qiladi. Kiberhujumlar va ma'lumotlar o'g'irlanishi xavfi zamonaviy biznesning eng jiddiy tahdidlaridan biri hisoblanadi. Global statistikaga ko'ra, har 39 soniyada bitta kiberhujum sodir bo'lmoqda.,kichik biznesning 60% dan ortig'i kiberhujumlarga duch kelmoqda. 2023-yilda o'rtacha bitta ma'lumotlar buzilishi hodisasi kompaniyaga 4.45 million dollar zararga sabab bo'lgan.

Mijozlar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish muammolari. Mijozlar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish muammosi alohida e'tiborni talab qiladi. Ko'plab davlatlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy qonunlar (masalan, GDPR) joriy etilgan bo'lib, ularning buzilishi og'ir jarimalar va sanksiyalarga olib kelishi mumkin..

Raqamli infratuzilmaning ishdan chiqishi xavfi. Raqamli infratuzilmaning ishdan chiqishi xavfi biznes uzluksizligi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Server markazlari, tarmoq uskunalari yoki dasturiy ta'minotning ishdan chiqishi kompaniya faoliyatining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Statistikaga ko'ra, IT infratuzilmaning bir soatlik uzilishi o'rtacha kompaniyaga 100,000 dollar zararga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, tabiiy ofatlar, elektr ta'minoti uzilishi yoki inson xatolari ham tizimning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun qo'shimcha xarajatlar. Xavfsizlikni ta'minlash uchun qo'shimcha xarajatlar ham sezilarli moliyaviy yuk yaratadi. Bu xarajatlarga

